Mazkur dastur adabiy-estetik qadriyatlarning milliy va umumbashariy jihatlarini, jahon adabiyoti tarixini o‘rganishning millat hamda jamiyat ravnaqidagi o‘rnini talabalarga tushuntirish, ularda badiiy asarni mukammal tushunish, tahlil va tadqiq etish malakasini hosil qilish, jamoatchilikni jahon adabiyotidagi mazmun va shakl, mavzu va g‘oyaning mohiyati bilan tanishtirishga ko‘maklashish, jamiyatning ma‘naviy manzarasini adabiy-nazariy tafakkur orqali aks ettirish, jahon adabiyoti durdonalarini mukammal o‘rganish orqali talabalarining badiiy tafakkurini takomillashtirish uchun ko‘rsatmalar beradi

Fanni o‘qitishdan maqsad: Mazkur fanni o‘qitishning bosh maqsadi jahon adabiyoti tarixining muhim poetik-estetik qirralarini mujassam qilgan adabiy asarlarni o‘rganish

orqali badiiy-falsafiy harashlardagi nazariy-badiiy evolutsiyani ko'rsatib berish hamda badiiy adabiyot tarixi va adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini ochib berish, talabalarining adabiy-estetik tafakkurini, yuksaltirish, ilmiy mushohadaning vujudga kelishi hamda nazariy jihatdan tahlil qilish va talqin ko'nikmalarini hosil qilish, faol ijodkorlik ruhi va mas'uliyatini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi:

- jahon adabiyoti namunalarining o'ziga xos, milliy va umuminsoniy xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish asosida talabalarga bilim berish;
- talabalarga yuksak saviyada yaratilgan badiiy adabiyot namunalarining bashariyat, millat va jamiyat ravnaqidagi o'rni va ahamiyatini tushuntirish;
- talabalarda badiiy adabiyotni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish;
- talabalarda badiiy asarni idrok qilish hamda uni filologik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etish malakasini hosil qilish;
- talabalarni adabiyot va inson o'rtasidagi munosabatni badiiylik qonuniyatlari asosida tahlil qilishga o'rgatish;
- jahon adabiyotida yangi shakllanayotgan va ommalashayotgan adabiy hamda ilmiy metod va yo'nalishlar mohiyatini jamoatchilik fikriga tayangan holda talabalarga yetkazish;
- jahon adabiyotidagi milliy va umuminsoniy adabiy-nazariy an'analarni jamiyat hayotiga tatbiq etish orqali talabalarda adabiy-estetik *tasavvur hosil qilish*;
- talabalarda yuksak saviyada yaratilgan badiiy adabiyot namunalarini nazariy, amaliy jihatdan talqin va tahlil qilish *ko'nikmalarini hosil qilish*;
- badiiy adabiyotga jamiyat tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonni ezgulik va ma'naviy barkamollikka boshlovchi g'oyalar hamda inson ruhiyatiga aloqador eng pok tuyg'ular va kechinmalar in'ikosi sifatida munosabatda bo'lish, shuningdek, jahon adabiyoti namunalarini adabiy-estetik hamda ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil va talqin qilishda faol ijodkorlik ruhi va mas'uliyati *malakalarini hosil qilish*.

Kursning tematik tarkibi va mazmuni

No	Mavzu	Ma'ruza	Seminar	Mustaqil ish
1-semestr				
24.	Kirish.	2	2	2
25.	Mif va badiiy ijod	2	2	2
26.	Qadimgi Sharq adabiyoti.	4	4	4
27.	Joriy nazorat (JN)			
28.	Antik davr yunon adabiyoti.	2	2	4
29.	Qadimgi Rim adabiyoti.	2	2	4
30.	Tarixiy va falsafiy proza.	2	4	2
31.	Oraliq nazorat (ON)			
32.	O'rta asrlar Sharq adabiyoti.	2	2	4
33.	O'rta asrlar G'arb adabiyoti.	2	2	4
34.	Joriy nazorat (JN)			

35. Yakuniy nazorat (YN)				
Jami:		18	20	28
№	Mavzu	Ma'ruza	Seminar	Mustaqil ish
2-semestr				
36.	Jahon adabiyoti va Alisher Navoiy.	2	2	4
37.	Jahon adabiyotida Uyg'onish davri adabiyoti masalasi	4	4	4
38.	Italiya va Ispaniyada Uyg'onish adabiyoti.	2	2	4
39.	Joriy nazorat (JN)			
40.	Fransiyada Uyg'onish davri adabiyoti.	2	2	4
41.	Angliya Uyg'onish davri adabiyoti.		2	4
42.	Oraliq nazorat (ON)	2		
43.	Klassitsizm adabiyoti	4	4	4
44.	Ma'rifatchilik adabiyoti	2	4	4
45.	Joriy nazorat (JN)			
46.	Yakuniy nazorat (YN)			
Jami:		18	20	28
Umumiy		36	40	28
Ta'lim berish va o'qitish uslubi:	Ma'ruza, Seminar mashg'ulotlari, mustaqil ishlar (FSMU, Case-study, masterclasslar)			
Mustaqil ishlar:	O'quv loyihalar, guruhli taqdimot, referatlar, keyslar, dokladlar, krossvordlar, poster va prospect, esse va hokazo			
	Kunlar	Vaqt	Auditoriya	
Maslahatlar va topshiriqlarni topshirish vaqti:	Har chorshanba	14:00 dan 16:00 gacha	315-auditoriya	
Bilimlarni baholash usullari, mezonlari, va tartibi:				
JN va ONning ballari ishchi dasturda beriladi.				
Baholash usullari	Testlar, yozma ishlar, og'zaki so'rov, presentasiyalar va hokazo			
Fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish va baholash	Nazorat shakllari			
	Baholash turlari fan xususiyatidan kelib chiqqan holda so'rovlar, og'zaki savol javob, yozma ish, test sinovlari yoki boshqa ko'rinishda o'tkazilishi mumkin.			
	Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash mezoni			

Ball	Talabaning bilim darajasi
86–100 ball	<ul style="list-style-type: none"> – ilmiy ishlarni tavsiflash, tahlil qilish, xulosalash ko‘nikmalariga ega bo‘lganligi; – ilmiy tadqiqot mavzusini rasmiylashtirishga doir amaliy ko‘nikmalarni egallaganligi; – ijodiy fikrlay olish; – ilmiy mushohada yurita olish; – nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish; – tahlil ko‘nikmasiga ega bo‘lish.
71–85 ball	<ul style="list-style-type: none"> – Mustaqil ilmiy mushohada yurita olish; – Olingan bilimlarni amalda qo‘llay olish, gaplarni tahlil qila olish; – Ilmiy tadqiqot haqida tasavvurga ega bo‘lish; – Ilmiy xulosalarga ega bo‘lish.
55–70 ball	<ul style="list-style-type: none"> – Mavzular bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lish; – Nazariy ma‘lumotlarni bilish, aytib berish;
0–54 ball	<ul style="list-style-type: none"> – ilmiy tadqiqot haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik; – o‘tilgan mavzularni bilmaslik; – yozma savodxonlik darajasining nihoyatda pastligi.

Fanga doir video ma‘ruzalar, video roliklar:

Glossariylar:

Axborot resurs baza:

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

1-modul. Kirish. "Jahon adabiyoti" fanining predmeti va mazmuni

"Jahon adabiyoti" fanining nomlanishi, obykti, geografik miqyosi, davrlashtirilishi. Fanning maqsad va vazifalari. Jahon adabiyotining antik davri: Shumer, Misr, Hind, Xitoy, Yunon, Rim va Turkiy tillar adabiyoti. Ularning o'zaro mushtarak va farqli jihatlari. Jahon adabiyoti manbalariga tipologik, genetik, tarixiy-madaniy yondashuv.

2-modul. Mif va badiiy ijod

Mif va jahon adabiyoti. Mifning jahon adabiyoti tadrijidagi o'rni. Mifologiya va mif poetikasi jahon adabiyotini o'rganishda adabiy-nazariy, falsafiy-estetik asos sifatida. Mifologik maktab: tarixi, vakillari. Aka-uka Grimmlarning "Nemis mifologiyasi" asari. Myuller asarlarida mifologik talqin. Losevning mifologiyaga doir qarashlari. Mif va falsafa, mif va estetika, mif va din. Mif va mif poetikasi jahon adabiyotini o'rganishning muhim asosi sifatida. Mifda kaos va kosmos tushunchalari, ularning badiiy adabiyot tarkibida bajaradigan vazifasi. Mifning shakllari: tabiat, jamiyat, inson, o'tmish, kelajak, yaratilishi va inqiroz haqidagi miflar. Frezer talqinida mif.

3-modul. Qadimgi Sharq adabiyoti.

Hududiy va milliy tarkibi: Shumer – Bobil adabiyoti, Misr adabiyoti, Eron adabiyoti, Hind adabiyoti, Xitoy adabiyoti, Markaziy Osiyo adabiyoti. Mifologiyasi, adabiy namunalari, qadimgi Sharq xalqlari adabiyotining jahon adabiyotiga ta'siri masalasi. Shumer adabiyoti jahon adabiyotining ibtidosi sifatida. Shumer adabiyoti yodgorliklarining ko'lami va janrlari. "Gilgamish haqida doston" eposi. Gilgamish – abadiy hayot izlovchi epik qahramon. "Avesto" – Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yodgorligi.

4-modul. Antik davr yunon adabiyoti.

Qadimgi Sharq adabiyotining antik adabiyot bilan mushtarak jihatlari: mifologiyadagi va eposdagi mushtaraklik. Homerning "Iliada" va "Odessiya" dostonlari. Dostonlarning mavzusi, tarixiyligi va mifologik elementlari. Axill va Odissey obrazlarida aks etgan Gomerning axloqiy-estetik qarashlari, "Odissiya" va "Alpomish". Gesiodning "Mehnat va kunlar" didaktik asari. Gesiod va Sharq didaktikasi. Yunon lirikasi. Monodik va tantanali lirika. Elegiya va Yamb. Yunon lirikasida vazn.

5-modul. Qadimgi Rim adabiyoti.

Rim adabiyotining asosiy taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari. Dastlabki Rim shoirlari. Rim adabiyotida tarixshunoslik. Rim adabiyotining "oltin davri".

Vergiliyning “Eneida” dostoni. “Bukolikalar” va “Georgikalar”. Rim poeziyasining o‘ziga xosliklari. Goratsiy ijodi. Goratsiy “Epodlar”i, “Satiralar”i va “Nomalar”i. Rim elegiyasi va Ovidiy ijodi, Ovidiyning “Metamorfozalar” asari, Imperiya davri Rim adabiyoti, Rim adabiyoti va keyingi davr Yevropa adabiyoti.

6-modul. Tarixiy va falsafiy proza.

Gerodotning “Tarix” asarida voqelikka real yondashuv. Uning o‘z davrida yaratilgan boshqa tarixiy asarlardan farqi. Palatonning “Qonunlar” kitobida dialogning o‘rni. “Davlat” asarida jamiyatni toifalash masalalari. Platon asarlarida “Yalag‘och daho” obrazi va uning prototipi. Platonning ideal haqidagi tushunchalari. Aristotelning “Metafizika”, “Poetika” asari.

7-modul. O‘rta asrlar Sharq adabiyoti.

Firdavsiy “Shohnomasi”. Nizomiy ijodi. “Xamsa”chilik an‘anasi”ning boshlanishi. Umar Xayyom ruboiylari. Rudakiy g‘azaliyoti. Jaloliddin Rumiy “Mas’naviy”si. Hofiz Sheroziy, Abduraxmon Jomiy, Sa‘diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy ijodi.

8-modul. O‘rta asrlar G‘arb adabiyoti.

Sharq va G‘arb qahramonlik eposlarining mushtarak jihatlari. Fransuz, ispan, nemis qahramonlik eposlari. XII – XIII asrlarda ritsarlik – kurtuaz adabiyoti. Ritsarlik adabiyotining o‘ziga xosliklari va shakllari. Ritsarlik adabiyotida sharqona javonmardlik va axiylik masalalari. O‘rta asrlarda shahar adabiyoti va uning janrlari.

9-modul. Jahon adabiyoti va Alisher Navoiy.

Alisher Navoiyning turkiy til uchun kurashi. “Muhokamat-ul lug‘atayn”. Turkiyidagi ilk “Xamsa”. “Xazoyin-ul maoniy”.

10-modul. Jahon adabiyotida Uyg‘onish davri adabiyoti masalasi

Uyg‘onish adabiyotining alomatlari va o‘ziga xosliklari. Sharq Uyg‘onishi va uning belgilari. Jahon madaniyati Uyg‘onishining tadriji. Sharq Uyg‘onishi va uning ahamiyati. Uyg‘onish davri Sharq va G‘arb adabiyotining madaniy aloqalari.

11-modul. Italiya va Ispaniyada Uyg‘onish adabiyoti.

Yevropa Uyg‘onish davri adabiyotining davrlari, omillari va o‘ziga xosliklari. Italiya uyg‘onishi. Italiya Uyg‘onish davri adabiyotining taraqqiyot bosqichlari. Dante ijodi. Dante – O‘rta asrlarning oxirgi va Uyg‘onish davrining ilk shoiri. Dante va Sharq madaniyati. Petrarka lirikasi. J.Bokkacho va Italiya uyg‘onishida nasr, “Dekameron” va “Ming bir kecha”.

12-modul. Fransiyada Uyg‘onish davri adabiyoti.

Fransua Rable biografiyasi va ijodi. “Gargantuya va Pantgryuel” asari. Asar xususida M.Baxtin tadqiqotlari. Roman talqinida xalq kulgu madaniyatining o‘rni. Asarda kinoya va komillik.

13-modul. Angliya Uyg‘onish davri adabiyoti.

Ijtimoiy, falsafiy va estetik qarashlardagi yanglanishlar. Uyg'onish davri ingliz lirikasi, eposi va dramasi. Adabiy muhit. K.Marlo ijodi. Dramaturgiya va teatrchilik. Globus teatri. Vilyam Shekspirning hayot yo'li. Shekspir ijodida lirika. Sonetlari. Dramaturgiyasi.

14-modul. Klassitsizm adabiyoti (XVII asr G'arbiy Yevropa adabiyoti)

Klassitsizm adabiyotining taraqqiyot bosqichlari. Klassitsizm adabiyotining o'ziga xosligi. Klassitsizm adabiyotining nazariy asosi va janrlari. Fransuz klassitsizmi va uning vakillari. Angliya va Ispaniyada klassitsizm. Klassitsizm adabiyotining ahamiyati.

15-modul. Ma'rifatchilik adabiyoti (XVIII asr G'arb ma'rifatchiligi)

Ma'rifatchilik adabiyotining klassik ma'rifatchilikdan farqi va o'ziga xosligi. Angliya ma'rifatchiligi. Ingliz ma'rifatchilik adabiyotining yo'nalishlari, vakillari va janrlari. Fransuz ma'rifatchilik harakatining o'ziga xosligi. F.Volter, D.Didro va J.J.Russo ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalari. Nemis ma'rifatchilik adabiyoti. G.E.Lessing, F.Shiller va I.V.Gyote ijodida ma'rifat masalasi.

16-modul. Ma'rifatchilik adabiyoti (XIX asr Sharq ma'rifatchiligi)

G'arb va Sharq ma'rifatchiligining mushtarak va farqli jihatlari. Sharq musulmon ma'rifatchiligida mustamlakachilik, milliy parokandalik va ma'rifiy mahdudlik masalasi. Ma'rifatchilik adabiyotining ahamiyati.

Seminar mashg'ulotlari

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar
Seminar mashg'uloti uchun taqdim etilgan quyidagi mavzular "Jahon adabiyoti" fanining asosiy masalalariga dahldor bo'lib, ular talabalarning muayyan mavzular doirasidagi badiiy va nazariy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, mulohaza va mushohada yuritish, tahlil qilish, muhim xulosalar chiqarish yo'lida malaka va ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan.

Seminar mashg'ulotlarining rejalari

1-mashg'ulot: Kirish. "Jahon adabiyoti" fanining predmeti va mazmuni

1. "Jahon adabiyoti" fanining maqsadi.
2. "Jahon adabiyoti" fanining vazifasi.
3. Fanning predmeti va obyekti.
4. Jahon adabiyotining davrlashtirish masalasi.
5. Jahon adabiyotiga yondashuv.

2-mashg'ulot: Mif va badiiy ijod (Qadim Gretsiyaning afsona va miflari, "Hind miflari" asarlari tahlili)

1. Mif va uning paydo bo'lishi.
2. Qadimgi xalqlar miflari va ularning o'ziga xosligi.
3. "Bilgamish" dostonining 11 bitigi.

4. Qadimgi yunon miflari.
5. Mifologik maktab.

3-mashg'ulot: Qadimgi Sharq adabiyoti (Antik davr Sharq va G'arb eposlari qiyosi)

1. Hududiy va milliy tarkibi
2. Shumer – Babil adabiyoti, Misr adabiyoti, Eron adabiyoti, Hind adabiyoti.
3. Sharq adabiyoti mifologiyasi.
4. Shumer adabiyoti jahon adabiyotining ibtidosi sifatida. Shumer adabiyoti yodgorliklarining ko'lami va janrlari.
5. "Bilgamish haqida doston" eposi.
6. "Avesto" – Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yodgorligi.

4-mashg'ulot: Qadimgi Sharq adabiyoti (Sofoklning "Shoh Edip" va "Shohnoma" asarlaridagi o'xshash syujetlar)

1. Qadimgi Sharq adabiyotining shakllanishi
2. Adabiy ta'sir masalasi
3. "Shoh Edip" va "Shohnoma" asarlarini qiyosiy o'rganish

5-mashg'ulot: Antik davr yunon adabiyoti

1. Jug'rofiya va xronologiya.
 - a) Ibtidoiy jamoa tuzumi va uning mafkurasi.
 - b) Quldorlik tuzumi va uning mafkurasi.
2. Antik adabiyotning davrlarga bo'linishi.
3. Homer dostonlari, dostonlarning badiiy xususiyatlari.

6-mashg'ulot: Qadimgi Rim adabiyoti

1. Rim adabiyoti haqida;
2. Respublika davridagi Rim adabiyoti;
3. Ichki urushlar davrida Rim adabiyoti;
4. Avgust asri.
5. Imperiya davri Rim adabiyoti

7-mashg'ulot: Tarixiy va falsafiy proza (Kelt xalqlari epik ijodi)

1. V-IV asrlarda proza adabiyoti.
2. Gerodotning "Tarix" asari.
3. Fukidid. Tarix predmetiga yangicha yondashuv.
4. Bardlar va fidlar tomonidan ijod etilgan sagalar

8-mashg'ulot: O'rta asrlar Sharq adabiyoti

1. Nizomiy ijodi. "Xamsa"chilik an'anasi"ning boshlanishi.
2. Umar Xayyom ruboiylari.

3. Rudakiy g'azaliyoti.
4. Jaloliddin Rumi "Mas'naviy"si.
5. Hofiz Sheroziy, Abduraxmon Jomiy, Sa'diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy ijodi.

9-mashg'ulot: O'rta asrlar G'arb adabiyoti.

1. Sharq va G'arb qahramonlik eposlarining mushtarak jihatlari.
2. Fransuz, ispan, nemis qahramonlik eposlari.
3. XII – XIII asrlarda ritsarlik – kurtuaz adabiyoti.
4. Ritsarlik adabiyotining o'ziga xosliklari va shakllari.
5. Ritsarlik adabiyotida sharqona javonmardlik va axiylik masalalari.
6. O'rta asrlarda shahar adabiyoti va uning janrlari.

10-mashg'ulot: Jahon adabiyoti va Alisher Navoiy.

1. Adabiyotda daho va uning ta'sir ko'lamini.
2. Navoiyning Sharq adabiyotidan ta'sirlanishi va o'zidan keyingi turkiy adabiyotga ta'siri.
3. Navoiyning jahon miqyosida o'rganilishi.
4. Dante va Navoiyda adabiy til muammosi.

11-mashg'ulot: Jahon adabiyotida Uyg'onish davri adabiyoti masalasi

1. Uyg'onishning ma'nosi, Vatani, kelib chiqishi.
2. Italiya uyg'onishi va o'ziga xosligi.
3. San'atdagi uyg'onish.
4. Adabiyotdagi uyg'onish.

12-mashg'ulot: Italiya va Ispaniyada Uyg'onish adabiyoti.

4. Umumiy xarakteristika.
5. Dante Aligyeri.
6. Petrarka.
7. Bokkachcho.
8. Ispaniyada Uyg'onish adabiyoti.
9. Servantes. Don Kixot.

13-mashg'ulot: Fransiyada Uyg'onish davri adabiyoti

1. Fransuz uyg'onish adabiyoti.
2. F. Rable ijodi.

14-mashg'ulot: Angliya Uyg'onish davri adabiyoti

1. Ijtimoiy, falsafiy va estetik qarashlardagi yanglanishlar.
2. Uyg'onish davri ingliz lirikasi, eposi va dramasi.
3. Dramaturgiya va teatrchilik. Globus teatri.
4. Vilyam Shekspirning hayot yo'li.

15-mashg'ulot: Klassitsizm adabiyoti

6. XVII asr – yevropa madaniy hayotidagi muhim davr.

7. XVII asr Ispan adabiyoti:

a) Lope de Vega ijodi;

b) Kalderon ijodi;

8. Fransuz adabiyoti:

a) Kornel ijodi;

b) Moler ijodi.

16-mashg'ulot. Ma'rifatchilik adabiyoti

1. Ma'rifatchilik adabiyotining klassik ma'rifatchilikdan farqi va o'ziga xosligi.

2. Angliya ma'rifatchiligi. Ingliz ma'rifatchilik adabiyotining yo'nalishlari, vakillari va janrlari.

3. Fransuz ma'rifatchilik harakatining o'ziga xosligi. F.Volter, D.Didro va J.J.Russo ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalari.

4. Nemis ma'rifatchilik adabiyoti. G.E.Lessing, F.Shiller va I.V.Gyote ijodida ma'rifat masalasi.

5. G'arb va Sharq ma'rifatchiligini mushtarak va farqli jihatlari.

6. Sharq musulmon ma'rifatchiligida mustamlakachilik, milliy parokandalik va ma'rifiy mahdudlik masalasi.

7. Ma'rifatchilik adabiyotining ahamiyati.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba "Jahon adabiyoti" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi tavsiya etiladi va joriy nazorat tarkibida baholanadi:

1) **mavzular bo'yicha referat, taqdimot tayyorlash.** Nazariy va amaliy materialni puxta o'zlashtirishga yordam beruvchi bunday usul o'quv materialga diqqatni ko'proq jalb etishga yordam beradi. Talaba tomonidan tayyorlangan referat, taqdimot yakuniy nazoratga tayyorgarlik ishlarini osonlashtiradi, vaqtni tejaydi;

2) **o'qitish va nazorat kilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash.** Talabalar amaliy mashg'ulotlar davomida olgan bilimlarini o'zlashtirishlari, turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rishlari uchun tavsiya etilgan elektron manbalar, innovasion dars loyixasi namunalari, o'z-o'zini nazorat uchun test topshiriqlari v.b;

3) **fan bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash.** Mustaqil o'rganish uchun berilgan mavzular bo'yicha talabalar tavsiya etilgan asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha o'quv, ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar. Bunda xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanish rag'batlantiriladi;

4) **INTERNET tarmog'idan foydalanish.** Fan mavzularini o'zlashtirish buyicha INTERNET manbalarini topish, ular bilan ishlash nazorat turlarining barchasida qo'shimcha reyting ballari bilan rag'batlantiriladi;

5) mavzuga oid mashqlar, o'quv loyihalarini ishlab chiqish va ishtirok etish;

6) Seminar mashg'ulotlariga oid material yig'ish;

7) ilmiy seminar va anjumanlarga tezis va maqolalar tayyorlash va ishtirok etish hk.

Uyga berilgan vazifalarni bajarish, yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yullarini aniklash, Internet tarmog'idan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, fan tugaragi doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy makola (tezis) va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chukurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot davomida o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Mustaqil ishni tashkil etish bo'yicha uslubiy kursatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalarga fanning nazariy ma'lumotlariga oid amaliy topshirilar va mustaqil ishlash uchun vazifalar belgilanadi.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari

1. Eng qadimgi Sharq adabiyotida vatanparvarlik g'oyalari
2. Gomerning qahramonlar xarakterini yaratish mahorati
3. Ezop masallarida didaktika
4. "Medeya" tragediyasi va "Argonavtlar" qissasi
5. Musulmon adabiyotining g'oyaviy motivlari
6. XX asr Amerika adabiyotida modernistik oqimlar
7. D.Defoning "Robinzon Kruzo" romani badiiyati.
8. J.Rumiyning falsafiy qarashlari
9. "Gulliverning sayohatlari" romanida giperbolaning o'rni.
10. F.Shillerning "Qaroqchilar" asarida tragik obrazlar.
11. Gyote "Faust" asarida umuminsoniy g'oyalar.
12. Bayron ijodida romantik obrazlar.
13. Pushkinning "Evgeniy Onegin" she'riy romanida muhabbat motivlari.
14. Jahon adabiyotida Alisher Navoiy ijodiga qarashlar
15. Stendalning "Qizil va qora" romanida J.Sorel obrazi.
16. Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" romanida badiiy tasvir.
17. F.Dostoevksiyning "Jinoyat va Jazo" romanida inson tabiati talqini.
18. E.Xeminguey ijodida inson va borliq muammosi talqini.
19. J.Joysning "Uliss", F.Kafkaning "Jarayon" asarlarida ekzistensializm talqini.
20. A.Kamyu va S.Bekketlar ijodida absurd g'oyasining namoyon bo'lishi.
21. Bernard Shou dramaturgiyasi
22. Koreys adabiyotining rivojlanish tendensiyalari
23. Mo Yan ijodida shaxs psixologiyasining aks ettirilishi
24. Turkiy xalqlar adabiyotining mushtarak jihatlari
25. Sharq va G'arb adabiy aloqalari

Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy usullari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Baholash mezonlari:

a) 86–100 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- ilmiy ishlarni tavsiflash, tahlil qilish, xulosalash ko'nikmalariga ega bo'lganligi;
- ilmiy tadqiqot mavzusini rasmiylashtirishga doir amaliy ko'nikmalarni egallaganligi;
- ijodiy fikrlay olish;
- ilmiy mushohada yurita olish;
- nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish;
- tahlil ko'nikmasiga ega bo'lish;

b) 71–85 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Mustaqil ilmiy mushohada yurita olish;
- Olingan bilimlarni amalda qo'llay olish, gaplarni tahlil qila olish;
- Ilmiy tadqiqot haqida tasavvurga ega bo'lish;
- Ilmiy xulosalarga ega bo'lish.

v) 55–70 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Mavzular bo'yicha tasavvurga ega bo'lish;
- Nazariy ma'lumotlarni bilish, aytib berish;

g) quyidagi hollarda talabanning bilim darajasi 0–54 ball bilan baholanishi mumkin:

- Ilmiy tadqiqot haqida aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- O'tilgan mavzularni bilmaslik;
- Yozma savodxonlik darajasining nihoyatda pastligi.

Talabanning o'zlashtirish darajasini belgilash uchun maksimal ball: 100; saralash bali: 55. Mazkur fandan 2–semestr oxirida yakuniy nazorat topshiriladi. ON uchun maksimal ball: 30, saralash: 17 (*har biri 15 balidan 2 marta yozma ish topshiriladi*). JN uchun maksimal ball: 40, saralash: 22 ball. YaN uchun maksimal ball: 30. YaNga ON va JNning 38 balini to'plagan talaba kiritiladi.

Oraliq nazoratlarni o'tkazish uchun yozma ish variantlari tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan nazariy savol beriladi. Nazariy savolga berilgan javoblar 0– 30 ball oralig'ida baholanadi.

Nazariy savolga to'g'ri va to'liq javob berilgan, fikr badiiy asarlardan olingan misollar bilan asoslangan, ifoda va bayonda uslubiy– mantiqiy izchillikka amal qilingan, tavsiya etilgan adabiyotlardan xabardorligi sezilib turgan hamda yozma ishda imloviy xatolari 1–2 tadan oshmagan ishlar 26–30 ball (86%– 100%) oralig'ida baholanadi.

Nazariy savolga, asosan, to'g'ri javob bo'lsa ham ishda misollar kam, ifoda va bayonda izchillik buzilgan, tavsiya etilgan adabiyotlardan kam foydalanilgan, shuningdek, imloviy xatolar miqdori 3– 4tadan oshmagan ishlarga 22– 25 ball (71%– 85%) oralig'ida baholanadi.

Nazariy savol etarli ochilmagan, ifoda va bayonda uslubiy– mantiqiy izchillik buzilgan, tegishli adabiyotlardan xabarsizligi sezilib turgan va imloviy xatolari 5– 7tadan oshmagan ishlarga 17– 21 ball (55%– 70%) oralig'ida baholanadi.

Nazariy savolga noto'g'ri javob berilgan yoki umuman javob berilmagan, misollar tahlili noto'g'ri, ifoda va bayonda bog'lanishlilik buzilgan, imloviy xatolari 8tadan ko'p bo'lgan ishlar 0– 16 ball (0%– 55%) oralig'ida baholanadi.

Joriy nazoratlar uchun ajratilgan 40 ball talaba tomonidan amaliy mashg'ulot davomida to'planadi.

Talaba mustaqil ish sifatida yozib topshirgan referati uchun 20 balgacha baholanadi. Mustaqil ish talabaga birlashtirilgan BMI mavzusi asosida tayyorlanadi. Baholashda ilmiy adabiyotlardan foydalanilganligi, mavzuga aloqador misollar to'g'ri to'plangani va asosli tahlil qilingani, adabiyotlar ro'yxati to'g'ri shakllantirilgani kabilarga e'tibor beriladi.

Ifodada uslubiy– mantiqiy izchillikka amal qilingan, tavsiya etilgan adabiyotlardan xabardorligi sezilib turgan va imloviy xatolari 1– 2tadan oshmagan ishlar 18– 20 ball (86%– 100%) oralig'ida baholanadi.

Ifoda izchillik buzilgan, tavsiya etilgan adabiyotlardan kam foydalanilgan, shuningdek, imloviy xatolar miqdori 3– 4tadan oshmagan ishlarga 15– 17 ball (71%– 85%) oralig'ida baholanadi.

Ifodada uslubiy– mantiqiy izchillik buzilgan, tegishli adabiyotlardan xabarsizligi sezilib turgan, tahlil to'g'ri olib borilgan va imloviy xatolari 5– 7tadan oshmagan ishlarga 11– 14 ball (55%– 70%) oralig'ida baholanadi.

Ifodada bog'lanishlilik buzilgan, tahlil noto'g'ri olib borilgan, imloviy xatolari 8tadan ko'p bo'lgan ishlar 0– 13 ball (0%– 55%) oralig'ida baholanadi.

Yakuniy nazoratlar test tarzida o'tkaziladi. YaB uchun maksimal ball: 30. Yakuniy nazoratlarni o'tkazish uchun test variantlari tayyorlanadi. Har bir variantda 60 tadan test beriladi.

Test savollarga 48 undan ko'p va to'liq javob berilgan, 26–30 ball (86%– 100%) oralig'ida baholanadi.

test savollariga 44 – 46 ta savolga javob bergan talaba 22–25 ball (71%– 85%) oralig'ida baholanadi.

34–42ta test echgan talaba 17–21 ball (55%– 70%) oralig'ida baholanadi.

Test savollarga 34 tadan kam to'g'ri javob berilgan yoki umuman javob berilmagan, 0– 16 ball (0%– 55%) oralig'ida baholanadi.

Reyting jadvali:

Nazorat	Turi	Maksimal ball	Saralash bali
---------	------	---------------	---------------

Joriy nazorat	Savol– javob Tahlil	20	11
	Mustaqil ish	20	13
	Jami	40	
Oraliq nazorat:	Yozma ish	30	17
	Jami	30	17
Yakuniy nazorat:	Test	30	17
Jami		100	55

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

6. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. (V-XVIII) «O'qituvchi», 1979.
7. A.Siddiqov, Qosimov A. Jahon adabiyoti. Farg'ona, 2015
8. The Norton Anthology of World Literature. Shorter Edition. Ronald Goltesman, Laurens B.Holland, David Kalstone, Francis Murphy, Hershel Parker, William A. Pritchard. W.W. Norton and company. New York. London. 2009-2012.
9. World Book Encyclopedia. – Chicago, London, Sydney, Toronto: A Scott Fetzer Company, 1995, 26 volumes.
- 10.F. Boynazarov. Jahon adabiyoti. Toshkent. "Tafakkur qanoti". 2006

Qo'shimcha adabiyotlar

9. Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. (XVIII-XX asrlar). T., «O'qituvchi» 1987.
- 10.O'zbek folklorining epik janrlari.-T.,1981.
- 11.Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., 1999.
- 12.Mahmudov M. Hayrat va tafakkur.-T., 1990
- 13.Yo'ldoshev Sa'dulla va bosh. Qadimgi va o'rta asrlar G'arbiy Yevropa falsafasi-T.,2003.
- 14.Yo'ldoshev S.va bosh. Yangi va eng Yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi.- T.,2002.
- 15.Jo'raqulov U. Hududsiz jilva.-T., 2006.
- 16.Quronov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tirixi ocherklari.- T.,2008.
- 17.Normatova Sh. Jahon adabiyoti.-T.:Cho'lpon, 2008.

Badiiy adabiyotlar

- 27.Gyote I.V. Faust. T., 1974.
- 28.Svift J. Gulliverning sayohatlari. T., 1985.
- 29.Bayron J.G. Saylanma. T., 1974.
- 30.Heyne H. Germaniya. Qish ertagi.

31. Heyne h. YOshlik iztiroblari. T., 1997.
32. Balzak. O. Gorio ota. T., 1968.
33. Merime P. Karl IX saltanatining yilnomasi. T., 1978.
34. Stendal. Qizil va Qora. T., 1986.
35. Flober G. Bovari xonim. T., 1976.
36. Mopassan G. Hayot. Azizim. Novelalar. T., 1987.
37. Zolya E. Hamal. T., 1982.
38. Pushkin A.S. Evgeniy Onegin. – T.: 1988.
39. Lermontov M.Y. Zamonamiz qahramoni.
40. Tolstoy L. Hojimurod. 5 tomlik, 1-tom, – T., 1978.
41. Dostoevskiy F. Jinoyat va jazo. – T.: 1977.
42. Xeminguey E. Chol va dengiz. T., 1963.
43. Markes G.G. Oshkora qotillik qissasi. Yuz yil tanholikda. T., 1990.
44. Kamyu A. Begona. T., 1995.
45. Kafka F. Jarayon. – T., Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.
46. Hesse Herman. Cho‘l bo‘risi. T.: “Sharq”, 2006.
47. Bulgakov M. Usta va Margarita. – T.: “Yosh gvardiya”, 1987
48. Rasputin V. Yong‘in. – T.: “Yosh gvardiya”, 1989.
49. Markes R.R. Buzrukning kuzi. – T.: “YAngi asr avlodi”, 2008. (JA, 2005, 6-7-8-sonlar).
50. Moem S. “Oy va sariq chaqa”. JA, 2006, 1-2-sonlar.
51. Mahfuz N. Raqqosa Rodopis. – T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyat-matbaa uyi, 2008.
52. Joys J. Navqiron san’atkorning siyrati. JA jurnali, 2007 yil, 3-4-son.

Monografiyalar

1. Jo‘raev T. Ong oqimi. Modern.-Farg‘ona, 2009.
2. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb.-T., 1997.

Internet ma’lumotlari

1. [www. Lib.ru](http://www.Lib.ru).
2. www.litera.ru.
3. www.Philologs.narod.ru.

Reja:

1. “Jahon adabiyoti” fanining maqsadi.
2. “Jahon adabiyoti” fanining vazifasi.
3. Faning predmeti va obyekti.
4. Jahon adabiyotining davrlashtirish masalasi.
5. Jahon adabiyotiga yondashuv.

Adabiyotning paydo bo'lishini insoniyatning paydo bo'lishi bilan bog'lashadi. Adabiyot insonning ijtimoiy va ma'naviy ehtiyoji mahsulidir. Eng qadimgi davrlardan to bugungacha insoniyat badiiyat namunalari ila hayotni muqoyasa qilib kelgan. Dunyo xalqlarining o'ziga xos sajiyasi (xarakteri) aynan adabiyotda bo'y ko'rsatadi.

“Jahon adabiyoti” fanida antik jamiyat va uning insoniyat tarixida tutgan o'rnini haqida ma'lumot beriladi. Yunon adabiyoti, uning mifologik asosi, qahramonlik eposi, yunon tragediyasi va komediyasi haqida tushuncha beriladi. Rim, Provans adabiyoti va uning ritsar lirikasining rivojidadagi o'rnini tushuntiriladi. O'rta asrlar shahar adabiyoti, klassitsizm, sentimentalizm – XV-XVII asrlardagi asosiy adabiy yo'nalishlar ekani, ma'rifatparvarlik adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, romantizm – XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi adabiy oqim ekani haqida ma'lumot beriladi. Jumladan, janrlar rivoji, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida realizm oqimining paydo bo'lishi va taraqqiy etishi, shu asr yozuvchilarining ijodi bo'yicha tushunchalar taqdim etiladi. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi jahon adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, adabiy yo'nalishlarning turli-tumanligi: naturalizm, impressionizm, simvolizm, modernizm, postmodernizm va boshqa yo'nalish hamda oqimlar yuzasidan tasavvur uyg'otiladi. Talabalar jahon adabiyotidagi so'nggi yangiliklarni aks ettiruvchi O'zbekiston Respublikasi matbuoti – “Jahon adabiyoti” jurnali bilan tanishtiriladi. Shuningdek, O'rta va Markaziy Osiyo, Kavkaz va Kavkazorti hamda Slavyan xalqlari adabiyotining yuzaga kelishi, uni davrlashtirish, klassik va zamonaviy adabiyotning uzviy aloqasi va uzviyligi haqida so'z yuritiladi. Hozirgi zamon adabiyoti janr, mavzu, g'oyaviy jihatdan tahlil qilinadi. O'rta va Markaziy Osiyo, Kavkaz va Kavkazorti hamda Slavyan xalqlari adabiyoti mashhur namoyandalarning hayoti va ijodi, ularning ijodiy merosi o'rganilib, muayyan asarlar ilmiy-nazariy tahlil etiladi. O'zbek adabiyoti va mazkur xalqlar adabiyoti, adabiy aloqalar, adabiy ta'sir, tarjima va uning adabiy aloqalardagi roli, xalqlar orasidagi hamkorlikni kuchaytirishda adabiyotning roli tushuntiriladi.

Jahon adabiyoti fanining vazifasi talabalarga har bir davr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, o'sha davrning yirik adiblari ijodi haqida atroflicha ma'lumot berishdan iborat. O'quv faoliyati davomida antik dunyo madaniyatining ulkan

siymolari Homer, Esxil, Sofokl, Evripid, Aristofan, Plavt, Vergiliy, Goratsiy, Ovidiy ijodining muayyan qirralari ochib beriladi. Yuqoridagi adiblar ijodi hozirgi kunda qam kitobxonga badiiy zavq va maroq berayotgani, badiiy-estetik didini o'tkirlashtirayotgani, ma'naviyatini boyitayotgani ta'kidlanadi. Uyg'onish davri haqida gap borar ekan, buyuk burilishning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan asosiy omillar haqida tushuncha beriladi. Uyg'onish davrining daholari: Dante, Servantes, Rable, Lope de Vega, Shekspir asarlarini tahlil qilishda bu ulkan adiblar ijodiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlardan bir nechtasi talabalarga tavsiya qilinadi. Fanning asosiy maqsadlaridan yana biri XVII-XVIII asrlar adabiyotini o'qitishda klassitsizm va ma'rifatchilik adabiyotining mohiyati, bu adabiyotda ilgari surilgan siyosiy, falsafiy hamda ijtimoiy hodisalarning sabablarini ochib berilishdan iborat. Bunda talabalarga N.Bualo, D.Defo, J.Svift kabi adiblar hayoti va ijodi haqida tushuncha beriladi. XIX asr adabiyotidagi asosiy yo'nalishlar romantizm va tanqidiy realizmdir. Bunda adabiy yo'nalishlar mohiyati yozuvchilar asarlaridan keltirilgan dalillar bilan asoslanadi. Masalan, Viktor Hyugo ijodi misolida romantizm, Balzak ijodi misolida tanqidiy realizm adabiy yo'nalishining boy imkoniyatlari va rang-barang qirralarini ochib berish lozim. Bunda XIX asr chet el adabiyotining xalq ozodlik harakatlari bilan mustaqkam boqliqligini e'tibordan qochirmaslik zarur. O'rta va Markaziy Osiyo, Kavkaz va Kavkazorti hamda Slavyan xalqlari adabiyoti jahon adabiyoti o'quv fanining tarkibiy qismidir. Uning vazifasi mustaqil davlatlar xalqlari adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, xalq og'zaki ijodi, qar bir xalq adabiyotining yirik san'atkorlari ijodi haqida atroflicha ma'lumot berishdan iborat. Yaqin o'tmishda taraqqiyot yo'li bir xil bo'lgan milliy adabiyotlarning o'ziga xos jihatlari, taraqqiyot bosqichlari, ularning atoqli namoyandalari, adabiyot maydoniga olib chiqqan tarixiy muhit va sharoitlar haqida talabalarga ma'lumot beradi. O'quv jarayonida talabalarda mazkur milliy adabiyotlarning bir-biriga mushtaraklik xususiyatlari haqida tasavvur hosil bo'ladi. Shu birgalikda, milliy adabiyotlarning XX asrdagi taraqqiyot bosqichi yangicha pozitsiyada, ya'ni bugungi kun mezonlari asosida tahlil qilinadi.

Jahon adabiyoti fanining predmeti – bu jahon xalqlari badiiy merosi. Barcha xalqlarning eng qadimgi og'zaki va yozma durdonalaridan tortib, hozirgi davrgacha bo'lgan badiiy asarlari jahon adabiyotining tadqiqot obyektidir.

Jahon adabiyotining eng dolzarb muammolaridan biri uni davrlashtirish muammosidir. Adabiyotshunos olimlar jahon adabiyoti tamaddudinini quyidagicha davrlashtirib o'rganadilar:

1. Antik dunyo adabiyoti;
2. Uyg'onish davri adabiyoti;
3. XII-XIII asr adabiyoti
4. XIX-XX asr adabiyoti
5. Hozirgi zamon adabiyoti

Jahon adabiyotini davr nuqtayi nazaridan o'rganish bevosita uning jug'rofiy jihatdan tahlilini ham talab etadi. Ma'lum bir hududda adabiyotning rivojlanishi,

taraqqiy etishi yoki tanazzulga yuz tutishi bevosita o'sha hududga mansub boshqa hududlar adabiy jarayoniga ham ta'sir etadi.

Yuqoridagi davrlashtirish birmuncha bahstlabdir. Chunki JAning yana qadimiy (Sharq adabiyoti (m.a. 3 ming y.dan), Antik dunyo adabiyoti (Yunon va Rim adabiyoti. m.a.2.ming y.dan eramizning 5 a.gacha), Afrika, Avstraliya, Amerika-Kanada, Okeaniya mamlakatlari adabiyoti), O'rta asrlar (ilk 5-10a., va so'ng 11-14 a.), Uyg'onish kabi davrlari (14 a.dan), klatsissizm (17 a), ma'rifatchilik (18 a), romantizm (19), naturalizm (19), realizm (19 va 20 a.), modernizm (20), postmodernizm (20 va 21 a.) singari davrlari, yo'nalishlari mavjud. Jahon adabiyotini o'rganishda umuminsoniylik, milliylik, individuallik tushunchalarini yodda tutmoq kerak. Jahon adabiyoti manbalariga tipologik, genetik, tarixiy-madaniy yondashuv uning mazmun mohiyatini yanada teranroq ochib beradi.

"Jahon adabiyoti" fani O'zbekistonda "Xorijiy adabiyot", "Chet el adabiyoti", "Tili o'rganilayotgan adabiyot", "Jahon adabiyoti" nomlari bilan o'rganib kelingan. Ingliz tilidagi mamlakatlarda "World literature", rus tilida "Zarubejnaya literatura", "Inostrannaya literatura" kabi nomlar bilan o'qitiladi.

Har bir davr yana o'z ichida davrlashtiriladi. Antik adabiyot deyilganda faqat yunon va Rim adabiyoti tushiniladi. Demak, bu yerda Sharq adabiyoti degan davr tushib qolayapti. Yana O'rta asrlar adabiyoti masalasi bor. Xullas, davrlashtirish masalasiga oxirgi nuqta qo'yilgani yo'q. Qolaversa, yuqoridagi davrlashtirish adabiyotning g'arbdagi holiga ko'ra amalga oshirilgan. Sharq adabiyoti yana boshqa bir manzaralarni beradi. Muqoyasa uchun:

1. Islomgacha bo'lgan davrdagi adabiyot
2. Islom ta'siridagi adabiyot
3. Jahoniy ta'sirlar davri o'zbek adabiyoti

Bu davrlashtirish prof. Q. Yo'ldoshevga tegishli. O'zbek adabiyotini yana professorlar B. Qosimov, N.Karimov kabi olimlar ham davrlashtirishgan. Xuddi shunday, jahon adabiyotini davrlashtirish masalasida turli xil qarashlar bor va buni tabiiy deb qabul qilish lozim. JA yana o'z ichida o'nlab, yuzlab davrlashtirishlarga imkon beradi. Xususan, Antik dunyo adabiyoti shunday davrlashtiriladi:

9. Birinchi davr (sinfy davrgacha yoki arxaik davr);
10. Yunon adabiyotining antik davri. (er. av. V-IV asr)
11. Ellinistik va Rim davridagi Yunon adabiyoti.
12. Rim adabiyoti. Respublika davridagi Rim adabiyoti (er. av. III-I asr)
13. Imperiya davri Rim adabiyoti. (eramizdan av. I asrdan eramizning V asrigacha)

Umuman, jahon adabiyoti bir ummon bo'lib, unga har tomondan turlicha yondashish mumkin va kerak. Muhimi, bu adabiyotning o'zak xususiyatlarini to'g'ri anglab olishdir.

Glossary

Jahon adabiyoti – world literature

Qadimiy – ancient

Savol va topshiriqlar:

1. “Jahon adabiyoti” fani nimani o’rganadi?
2. “Jahon adabiyoti” fani qaysi fanlar bilan aloqador?
3. “Jahon adabiyoti” fanining maqsadi va vazifalari?
4. Mazkur fanning obyekti va predmetini ayting.
5. Jahon adabiyotini qanday davrlashtirish mumkin?
6. Jahon adabiyoti qanday mezonlar asosida tadqiq etiladi?
 1. Adabiyotning paydo bo’lishi nima bilan bog’lanadi?
 - A) Jamiyatning paydo bo’lishi bilan;
 - B) Insoniyatning paydo bo’lishi bilan;
 - C) Antik adabiyotning paydo bo’lishi bilan;
 2. 19-asr adabiyotidagi asosiy yo’nalishlar qaysilar?
 - A) Romantizm va tanqidiy realizm
 - B) Naturalizm
 - C) Modernizm va pastmodernizm
 3. Balzak ijodida qaysi yo’nalishning boy imkoniyatlari ochib berilgan?
 - A) Naturalizm
 - B) Tanqidiy realizm
 - C) Romantizm

2-mavzu: Mif va badiiy ijod

(ma’ruza - 2 soat, seminar - 2 soat)

Mif (yunoncha mythos – rivoyat, hikoya, masal) – xalq xalq og’zaki ijodining eng qadim davrlarida paydo bo’lgan, voqyelik(olam)haqidagi tasavvurlarni konkret obrazlar vositasida aks ettiruvchi rivoyaviy asarlardir. Mifologiya ko‘plab miflardan tashkil topadi. Miflar olam va odam haqidagi hikoyalar bo’lsa-da, ularni tom ma’noda so‘z san’ati hodisasi deb bo‘lmaydi. Ular qadimgi odamlar uchun tafakkur shakli bo‘lib, miflar vositasida olam sir-sinoatlari(olamning yoki insonning yaratilishi, quyosh chiqishi va botishi, shimol esishi va momaguldirak sababi va h.)ni bilishga intilganlar. Deylik, yunonlar chaqmoq chaqishini Zevsning, dengizdagi dahshatli dovullarni Poseydonning g‘azablangani bilan izohlaganlar, inson taqdiridagi turfa evrilishlarda ilohlarning aralashuvini ko‘rganlar.

Sodda til bilan aytganda, ertalab quyosh chiqadi, odamlar uyg‘onishadi. Kechqurun botadi, odamlar uyquga tolishadi. Osmonda yulduzlar paydo bo‘ladi. Har doim shunday bo‘lgan. Qadim qadim zamonlarda ham. lekin o‘sha zamonlardan

beri insoniyat quyoshning chiqishi va botishi, dengiz suvlarining ko'tarilib tushishi, quyosh tushqini, quyosh va oyning tutilishi, vulqonlar otilishini tushunmoqchi bo'lishgan. Shu yo'ldagi urinishlar miflarni paydo qilgan.

Miflar hamma xalqlarda bor. ular qaerdadir bir birlaridan farq qilsa, qaerdadir o'xshaydi, qaerdadir bitta detal yo voqyea mushtarak chiqishi mumkin.

Ertak bilan mifning farqi nimada? Ertak muallifi o'quvchini qiziqtirish uchun har xil poetik usullardan foydalanib harakat qiladi, lekin o'zi voqyealarga ishonmaydi. Uning maqsadi o'quvchini jalb qilish. Mif yaratuvchilari esa o'z rivoyatlariga ishonadi. Mifda ishonch eng muhim atribut. Mif voqyealariga ishonch bo'lmasa, mif tabiatini to'liq tushunib bo'lmaydi. Mifning vazifasi u yoki bu voqyea mohiyatini tushuntirishdir. Mif insonni o'rab turgan olamni tushuntirishning asosiy yo'li bo'lgan.

Qadimgi Shumer miflari. "Bilgamish" dostoninint o'n birinchi bitigi: Nuh to'foni

"Injil"da keltiriladigan Nuh to'foni bilan bog'liq rivoyat bor. Bu rivoyatning asosiy syujeti "Bilgamish" dostonida uchraydi. Undagi voqyealar quyidagicha.

Bilgamish Pir-Napishtimga qarab "Menga o'xshaysan, nega bu yerlarda hamma narsadan voz kechib yuribsan?" deydi. Shunda donishmand Pir Napishtim Bilgamishga javob aytadi: "Men senga barcha sirni ochaman, Bilgamish, ma'budlarning hukmini ham yashirib o'tirmayman. Sen Frot yoqasidagi Suripak (Shuruppak) shahrini bilarsan... U yerda ma'budlarning miyasiga dunyoni suvga bostirish kelib qoldi. Buyuk ma'budlar kengash qurdilar, kengashda ularning bobokalonlari ma'bud Anu, ularning maslahatchisi, qattiqqo'l ma'bud Bel (dunyoni suvga bostirish fikri shuning miyasidan chiqqan), ularning qirg'in keltiruvchi arvohi ma'bud Ninib, ularning sarkardasi ma'bud Nergal, jahonning hukmdori bor edi. Ma'bud Ea, bundan chiqib, ma'budlarning hukmlarini, kambag'allarga ham, boylarga ham barobar yetkazar edi. "Kulba! Qamish kulba! Qasr, g'ishtin qasr! Tingla, kulba! Qasr, tingla! Suripaklik Ubartutuning o'g'li! Uyni yiqit-da, kema yasa, mol-mulkingni tashla, joningni saqla! Boyligingdan voz kech, hayotingni qutqar. Kemaga turli navdan, hayot urug'laridan ortib ol o'zing bilan. Kema eniga ham, bo'yiga ham, pastga ham cho'zilib ketaversin. Dengizdan bemalol suzib ketaversin".

Kemani qurgan inson Pir Napishtimning o'zi edi. To'fonning batafsil tasviri. Olti kun jala quyadi. yettinchi kun to'xtaydi. (Nuh to'foni, dunyoning yaratilishi muddati haqidagi "Injil"dagi rivoyatlarni esga soladi. Qur'onda ham bu haqda alohida oyatlar keltiriladi). Ma'bud Ea Pir Napishtimga deydi: "Kechqurun bo'rilar hukmdori dahshatli jala yuborganida kemaga kirib ol-da, eshikni mahkam yop"... To'fonning birinchi kuni... (ikki-uch qatorni o'qib bo'lmaydi)... Bamisoli odamlar bilan qirg'inbarot jang o'yini o'ynayotgandek... Aka ukaga qaramaydi; odamlar bir-birini o'ylamaydi. Osmondagi ma'budlarning o'zlari ham qo'rqib ketishgan, ular ma'bud Anu (arshi a'loda) uyiga berkinib olishgan; ko'ppak katagiga pusib kirganday, ma'budlar falak qafasi ichiga kirib g'ujanak bo'lib olganlar. Alamdan Ur-Napishtim qattiq faryod soladi: "Evoh! (A. Fayzullo tarjimasini). Atrofga alanglardim: Hamma yoq dengiz edi! Bir kecha-kunduzdan keyin orolga o'xshagan bir joyga suzib chiqsim. Kema Nizir tog'i (Qur'onda Judiy tog'i deyiladi) tomon suzib kelardi. Nizir

tog'i uni tutib qoldi va kema endi chayqalmayotgandi". yettinchi kun Pir tongda kubutarni qo'liga olib uchiradi. Keyin qaldirg'ochni, keyin qarg'ani. Kabutar va qaldirg'och qaytib keladi, lekin qarg'a qaytmaydi. Tog' ustiga qo'nib don ye boshlaydi. Ular xalos bo'lgan edi.

Shunda suv bostirgan ma'bud Bel darg'azab bo'ladi. "Tirik qolganlar qanaqa maxluqlar o'zi?! Bitga ham odam bolasi tirik qolmasligi kerak!" Ea deydi: "Sen - ma'budlarning qudratli rahnamosisan. Ammo ma'bud degani ham odamzot usgiga shunaqangi balo-qazo to'fonni yuboradimi? Gunohkor o'z gunohi, qotil o'z qilmishi uchun jazolanishi kerak, bu to'g'ri, ammo sal insof qilsang-chi, hammani qirib tashlash yaxshimi? Hamma butunlay qirilib bitmasdan bundoq rahming kelsin!.." Shunda Bel o'ziga keladi. Pir Napishtim aytadi: U (Bel) kemaga chikdi, qo'limdan tutdi va o'sha yoqqa boshladi; xotinimni ham birga yetakladi, uning qarshisida tiz cho'kishga majbur qildi; bizga murojaat qilib, o'rtamizga turib oldi va bizni duo qildi: "Shu paytgacha Pir-Napishtim (banda) inson edi, endi u ham, xotini ham bizga o'xshab ma'budlar sirasiga kiradi. Pir-Napishtim olis yoklarda, daryolarning mansablarida istiqomat qilsin". Ular meni qo'llariga ko'tardilar-da, olisdagi yurtlarga, daryolarning mansablariga olib ketdilar".

("Bilgamish" dostonining bu matni fanda "Nineviya" varianti deyiladi... Bu nusxa ham Shumerlarning asl nusxasidan emas, balki eski Babil variantidan olingan va to'ldirilgan nusxadir. Asl Shumer nusxasi bu nusxadan va Bibliyadan ikki ming yillar oldin yozilgan edi, og'zaki holda og'izdan-og'izga o'tib yurgani esa undan ham ilgari paydo bo'lgan, deb yozadi shumerlar haqida maxsus asar yozgan ("Shumerlar va Turon qavmlari") o'zbek olimi Zoyir Zayitov.).

Misr mifi. yerning paydo bo'lishi. Ko'plab xalqlar miflarida azalda hamma joyda suv bor bo'lgan deyiladi. Mazkur dunyoviy ummondan yer paydo bo'lgan. Misrga oid mifga ko'ra Nun (xaos) quyosh ma'budi Rani paydo qildi (Bu hozirgi ilmiy qarashlarga ham to'g'ri keladi). Ra havo (Shu ma'budi)ni va namlik (Tefnut)ni yaratdi. Havo va namlik yer (Gora ma'budi) va osmon (Nut ma'budasi)ni yaratdi.

Avstraliya mifi. Ular avloddan avlodga birinchi qush, hayvon va o'simlikning kelib chiqishi haqidagi rivoyatlarni aytib kelishadi. Eng ko'p kenguru va it haqidagi miflar tarqalgan. Aborigenlar kenguruni odam-kengurudan paydo bo'lgan deb ishonishgan. **Kenguru va it haqidagi mif.** Kenguru va it azalda odam bo'lishgan ekan. Kunlardan bir kun ular daryoga kelib qolishdi. Sohilda qum bor edi. Kenguru-odam kenguru-itga "Meni qumga itga o'xshatib chiz" dedi. U chizdi. Keyin bunisi unisiga dedi: "Meni qumga kenguruga o'xshatib chiz". Shunday qilib, ularning biri kenguruga boshqasi esa itga aylanib qolishdi.

Shimol va Amerika miflari. Birinchi kit qanday paydo bo'lgan? Shimolning ibtidoiy odamlari uchun kit muqaddas maxluq hisoblangan. Ovchilarga uni ummon ma'budasi Sedna yuborgan deb bilishgan. Agar Sedna odamlardan hafa bo'lsa, kit va tyulen yubormagan. Kitni ovlashib, maydalashib, bir qism go'shtni o'zlariga, bir parchasini suyagiga qo'shib ummonga, ma'budaga otishgan. Otilgandan kit yana qayta tiriladi va Sedna uni bizga beradi, deb ishonishgan.

Afrika. Olamning yaratilishi bilan bog'liq mif. Bushmen-san qabilasi quyoshning yaratilishini shunday tushuntiradi. Ulkan maxluq bor edi. Bir qo'lini ko'tarishi bilan qo'ltig'i ostidan quyosh chiqar, yer yuzi nurga chulg'anardi.

Qadimgi yunon miflari. Narsiss haqida mif. N. Tug'ilganda taqdiridan fol o'chuvchi: "Bu bola o'zini ko'rgungacha yashaydi", dedi. Hammaga bashorat bema'ni bo'lib tuyuldi. Bola behad ko'rkam bo'lib o'sdi. Ko'rganki bor, uni sevib qolardi. Shularda biri Exo edi. N.ning ortidan soyadek ergashdi. Ammo ko'plar qatori rad javobi oldi. Exo alamidan g'orga kirib ketdi va dard chekib qurib, ovozigina qoldi. Jismi esa toshga aylandi. Kim u yerga kirib gapirsa, faqat exo – aksado qaytdi. Hamma to'planib, qasos ma'budasi Nemezidga "Narsissni jazola!" dedi. "N. O'zini sevib, o'ziga yetolmay azob cheksin, deyildi". N. Ovdan qaytayotib chanaqadi va suvga bordi. Suvda o'z aksini ko'rib esa sevib qoldi. Unga yetolmay, yig'lab iztirob chekdi. Shunday chekdiki, axiyri qovjirab quridi. Odamlar ancha vaqtdan keyin sohilda bir gulni topib olishdi: Oq narsis gulni. Rim shoiri Ovidiy "Metamorfoza" asarida Narsiss gulni qanday paydo bo'lishi haqida batafsil yozadi.

Barcha xalqlarning adabiyoti singari Yunon adabiyoti ham og'zaki xalq ijodi zaminida paydo bo'lgan. Yunon folkloridan juda kam namunalar saqlanib qolgan bo'lsa ham, shularga asosan qadimda yunon xalqining anchagina boy og'zaki adabiyoti bo'lganligini aniqlash mumkin. Ibtidoiy jamiyat kishilarining tabiat haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi afsona va asotirlar yig'indisi qadimgi yunon mifologiyasi tashkil etadi.

Uyg'onish davri (15-17a.)da antik qahramonlarga qaytilgan. O'qimishli insonlar tilida ilohlar, qahramonlarning nomlari tez-tez takrorlanardi. Ularga qaytish, o'rganish, taqlid qilish rusumga aylangandi. Iloh Mars urush, Venera (Afrodita) muhabbat, iloha Nemezida qasos, Minerva donishmandlikning ramziga aylangandi. (Pushkin o'z she'rlarida ko'p bor san'at homiysi Apollonga murojaat etadi).

Uyg'onish davriga qadar yevropa antik va nasroniy miflarini bilar edi. Uyg'onish davrida buyuk geograflar dunyo kezdilar. Amerika, Afrika, Okeaniya kabi mamlakatlar topildi va ularning ham o'z miflari borligi ayon bo'ldi. Etnograf va folklorchilar ularni yozib olishdi. Yunon miflari poetik olamning birinchi yuksak obrazi bo'lsa, bular bolalarcha sodda miflar edi.

Antik davr madaniyatining, jumladan, yunon mifologiyasining jahon xalqlari taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri beqiyosdir. Yunon xalqining miflari umumbashariy madaniyatning asoslaridan biri bo'lib, u hozirgi zamon kishisining tasavvuri va tafakkuri tarziga chuqur kirib borgan. Qadimgi yunon mifologiyasi yerda hayotning paydo bo'lishini, tabiatdagi hodisalarning yuz berishi sabablarini tushuntirishga bo'lgan urinishi sifatida, inson o'z atrof-muhitidagi o'rnini aniqlashga ojiz bo'lgan davrda paydo bo'lgan edi. Miflar yaratilishining o'zi insonning ijodga va o'z-o'zini bilib olishga qo'ygan ilk qadami edi. Tadrijiy suratda yunon zaminining turfa viloyatlarida vujudga kelgan ayrim asotirlardan qahramonlar va ularga homiylik qilgan ma'budlarning taqdirleri haqida butun boshli turkumlar tarkib topgan. Yurt kezib yurgan aed – qo'shiqchilar tomonidan ijro etilgan barcha afsonalar, madhiyalar va qo'shiqlar zamonlar o'tishi bilan Homer, Hyesiod va boshqa ko'plab shoirlar tomonidan dostonlarga aylantirilgan. Eramizgacha V asrda yashagan qadimgi buyuk yunon shoir-dramaturglari – Esxil, Sofokl, yevripidlar o'z tragediyalarini xudolar va qahramonlar haqidagi qadimgi asotirlar mazmuniga asoslanib yaratgan edilar.

Zamonlar o'tishi bilan olam haqidagi mifologik tasavvurning o'rnini ilmiy bilimlarga va tabiat hodisalarini o'rganish natijalariga asoslangan qarashlar egalladi. Ilgari sirli tuyulgan ko'plab hodisalar ilmiy jihatdan asoslab berildi. Biroq shunga qaramay, miflar yo'qolib ketmadi, ular o'z hayotini adabiyotda davom ettirdi. Zevs, Prometey, Gerakl va boshqa qadimgi miflarning qahramonlari, turli davr yozuvchilarining asarlarida umrlarini davom ettirdilar.

Miflardan hikoya qilinishicha, yerda dastavval dahshatli mahluqlar: DeVlar, oyoqlari o'rnida bahaybat ilonlar bilanglab turgan GIGANTlar, kattaligi tog'day YuZ-QO'LLIKlar, peshonasi o'rtasida bittagina chaqchaygan ko'zi bor vahshiy KIKLOP (SIKLOP)lar, yer va osmonning dahshatli bolalari-qudratli TITANlar yashagan. Yunonlar GIGANTlar va TITANlar obrazida tabiatning yovuz kuchlarini gavalantirganlar. Miflarning hikoya qilishicha, tabiatning bu yovuz kuchlari dunyoda tartib o'rnatgan va unga hukumronlik qilgan Chaqmoq, Bulut osmon ilohi ZeVS tomonidan jilovlangan va bo'ysundirilgan. TITANlar o'rniga ZeVS saltanati bunyodga kelgan.

Yunonlar xudolarni odam shaklida tasavvur qilganlar, ularning bir-birlari bilan munosabatlari ham kishilar o'rtasidagi munosabatga o'xshagan. Yunon xudolari o'zaro janjallashgan, yarashgan, odamlar hayotiga doimo aralashib turgan, urushlarda ishtirok etgan. Har bir xudoning o'ziga yarasha ishi bo'lgan, olamda ma'lum «xo'jalik»ni «boshqargan». Yunonlar o'z xudolariga odamlar singari tabiat (xarakter) va xulq-atvor berganlar, xudolar oddiy odamlardan faqat o'lmasligi bilangina farq qilgan.

Homerning "Iliada" va "Odissey", Aristofan, Vergiliy, Ovidiy asarlari ham miflar asosida yaratilgan.

Pandora haqidagi mif. Hozirgi kunga kelib dunyoda urushlar ko'payishi munosabati bilan Pandora qutisi ochilib ketdi deyishyapti. Balki uni kimdir ochib yuborgandir. Pandora - Prometey xudolardan o'tni o'g'irlagani uchun insonlarni, xususan, erkaklarni jazolash maqsadida o'sha xudolar tomonidan yaratilgan birinchi ayol, ungacha ayol bo'lmagan. Pandora Prometeyning kichik ukasiga xotin bo'ladi. Kunlardan bir kun u uyda g'aroyib quti borligini eshitadi. Shuningdek, bu qutiga teginmaslik kerakligidan, agar tegilsa, dunyoni musibat, kulfat bosishidan ham xabar topadi. Lekin Pandora qiziqishdan qutini ochib ko'radi. Quti ochilgan zahoti uning ichidagi yovuz ruhlar tashqariga otiladi. Pandora shoshib qutini berkitadi, lekin badbaxt ruhlar ozodlikka chiqib ulgiran, quti ichida zaifgina umid qolib ketadi.

Umidsiz yashayapti insoniyat degan ma'nodir bu. Umuman, hammamizning ichimizda Pandora qutisi bo'ladi. Shu qutini ochilib ketishidan ehtiyot bo'lish lozim.

Folklor, mif va yozma adabiyot mushtarakligi. Bu uch tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Chunki mifologik qarashlardan folklor kelib chiqqani kabi, yozma adabiyot ham o'z navbatida har ikkalasi bulog'idan hali- hanuz suv ichib keladi.

MIFOLOGIK MAKTAB — folkloristika va adabiyotshunoslikda romantizm davrida paydo bo'lgan ilmiy yo'nalish. M. M.ni mifologiya haqida fan bilan bitta narsa deb qaralmasligi lozim. M.m.ning falsafiy asosi F.Shelling va A. va F. Shlegeylar romantizmining estetikasiga borib taqaladi. 18-19 asrlarda "Mifologiya

bo'yicha qo'llanma" (X.G.Xeyne) va boshqa shu kabi ilmiy asrlar yozilgan. M.M.ning to'liq shakllanishi aka-uka Gimmlar nomi bilan bog'liq. Ular xalq poeziyasining boshlanishini "ilohiy ibdito" bilan bog'lashadi. Mifdan ertak, epos va afsonalar kelib chiqqan, folklorni esa xalqning g'ayrushuuriy jamoaviy ijodi deb bilishdi. "Nemis mifologiyasi" (1835) kitobida haqiqiy mifologik an'analar aynan nemis mifologiyasida yaxshi saqlanib qolganligi g'oyasini ilgari surishdi.

Glossary

avtor	Author	Adabiy asarni yaratgan inson
Adabiyot	Literature	Keng ma'noda inson tafakkurining mahsuli o'laroq dunyoga kelgan, o'qish uchun mo'ljallab yozilgan asarlar jami
Adabiyotshunoslik	Literary studies	Badiiy adabiyotning kelib chiqishi, mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy aloqalarini o'rganuvchi fan. (nemischa "adressat- pochta jo'natmasini oluvchi") badiiy ijod jarayoni bilan bog'liq holda ishlatiluvchi atama, ijod onlarida yozuvchi tasavvurida mavjud bo'lgan, asar mo'ljallangan o'quvchi
Adresat	Addressee	

Test topshiriqlari:

- Jahon adabiyotining eng dolzarb muammolaridan biri qaysi?
 - Antik dunyo adabiyoti
 - O'rganilishi
 - Davrlashtirish
- Yunon adabiyotining antik davri qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?
 - er.avv.5-4 asrlar
 - er.avv.4-3 asrlar
 - er.avv.7-6 asrlar
- Mifologiya nimalardan tashkil topadi?
 - hikoyalardan
 - miflardan
 - masallardan
- Qadimgi yunon miflariga qaysi mif kiradi?
 - Pandora haqidagi mif
 - Avstraliya mifi
 - Narsiss haqida mif
- X.G.Xeynening "Mifologik maktab"ga asoslangan asari qaysi?
 - "Mifologiya bo'yicha qo'llanma"
 - "Nemis mifologiyasi"
 - "Mifologiya tushunchalari"
- Homerning miflar asosida yaratilgan asarlari qaysilar?

- A) "Begona"
- B) "Iliada" va "Odissey"
- C) "Iliada"

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor//O'zAS., 2009, 3 iyul.
3. Kun N.A. Qadimgi Yunonistonning afsona va miflari. T., 2013.
4. Sulaymonova F. Sharq va G'arb.-T.,1997.
5. Saidov U. Sharq va G'arb:madaniyatlar tutashgan manzillar.-T.:Yangi asr avlodi, 2009.
6. Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. Toshkent. Mumtoz so'z. 2013.
7. Abdug'opir Qosimov, Sidiq Xo'jaev. Jahon adabiyoti. Farg'ona nashriyoti. 2016.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi-T., 1969.
2. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. (V-XVIII) «O'qituvchi», 1979.
3. O'zbek folklorining epik janrlari.-T.,1981.
4. Komilov N. Tafakkur karvonari. T., 1999.
5. Mahmudov M. Hayrat va tafakkur.-T., 1990
6. Yo'ldoshev Sa'dulla va bosh. Qadimgi va o'rta asrlar G'arbiy yevropa falsafasi-T.,2003.
7. Tair Efti. Shumerlar i etruski - drevnie turki u istokov chelovecheskoy sivilizatsii. Tashkent. Niso poligraf. 2013. S. 160.
8. Zoyir Ziyotov. Shumerlar va Turon qavmlari. Toshkent. Mumtoz so'z. 2012.
9. S.N. Kramer. Istoriya nachinaetsya v Shumere. Moskva. Nauka. 1991.

3-mavzu. Qadimgi Sharq adabiyoti

ReJA:

1. Hududiy va milliy tarkibi
2. Shumer – Babil adabiyoti, Misr adabiyoti, Eron adabiyoti, Hind adabiyoti.
3. Sharq adabiyoti mifologiyasi.
4. Shumer adabiyoti jahon adabiyotining ibtidosi sifatida. Shumer adabiyoti yodgorliklarining ko'lami va janrlari.
5. "Bilgamish haqida doston" eposi.
6. "Avesto" – Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yodgorligi.

Yaqin yillargacha bashariyatning madaniyat o'chog'i G'arb, qadim Yunoniston, qadim Rim deb kelindi, shunday bilindi, shunday talqin etildi. Ming yillar mobaynida shu qarashga suyanilib, madaniy, ma'naviy, ilmiy ishlar yurgizildi. Ijtimoiy fanlar bo'yicha tadqiqotlarning "bismillosi" shu bo'ldi. Chunki chindanam ilm yetib borgan joy Yunonistondan narida emasdi. Bir necha o'n yillardan beri esa bashariyat bu qarashga tahrir kiritadigan olamshumul ahamiyatga molik topilmalar bilan birin sirin yuzlasha boshladi. U ham bo'lsa, Shumerlar dunyosi, Shumerlar madaniyati edi. Shumerlar madaniyatidan so'z ochguvchi mixxatlar bashar ahlining madaniyat beshigi Yunoniston emas, balki Shumerlar ekanini isbot qildi. Tair Eftining "Shumerlar va etruslar – insoniyat tamadduni ibtidosidagi qadimiy turkiylar" (Toshkent. Niso poligraf, 2013) deb nomlangan tadqiqoti so'nggi yillarda amalga oshirilgan va ayni shu masalaga ko'p jihatdan oydinlik kiritishi mumkin bo'lgan tadqiqot hisoblandi. Kitobcha Shumer mixxatlarini o'qigan va shumer tilining turkiy til bilan genetik qarindoshligini aniqlagan Genri Roulinson, Yuliusa Opperto, Arno Peblya va Samyuel Nao Kramer xotirasiga bag'ishlanadiki, shuning o'zida bu kitobning yo'nalishi, ahamiyati yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shumer tamadduni hozirgi Iroq territoriyasida joylashgan ikki daryo oralig'ida paydo bo'lgan. Tigr va yefrat. Lekin olimlarni o'ylatgan narsa shuki, shunday katta tamaddunni barpo etgan xalk, shaharlar qaerga g'oyib bo'ldi? Chindanam, ularga qaerga ketishgan? Ular qaerdan kelishgan? Tair Eftining yuqoridagi kitobi shu savollarga ilk bor jo'yali javob beradi. Sobiq Sovet davrida Shumer tilini turkiy tillar bilan solishtirishga qarshilik qilib kelingan, bu qarash hozirgacha postsovet territoriyasida saqlanib qolgan. AQSh va Italiya olimlari ilk bor bu ishga qo'l urishib, etruslarning turkiylardan kelib chiqqanini isbot qilishdi. Aynan etruslar Italiya madaniyatiga asos solganlar. Shumerlar, etruslar va qadimgi Misr xalqlarining ruhiy aloqadorligi haqida so'z boradi kitobda.

Shumer mixxatlari (keyingi 100 yil ichida topilgan) - birinchi yozuv. Babil (Vavilon) madaniyati tilidan tashqari bus butun holda Shumerlardan (mixxatlardan) ko'chirilgani aytiladi.

5000 yil muqaddam shumer mutafakkirlari va yozuvchilari dunyo miqyosidagi toshqin haqida yozishgan. Mixxatlar bular haqida, yana ilk kemani kim qurganligi haqida, toshqin haqida batafsil ma'lumot beradi. Yana eposlar, dostonlar, qo'shiqlar yozilgan. Ulardan namunalar saqlanib qolgan. (Mas. "Bilgamish"). Bu asarlarda olam va odamni Tangri yaratganligi haqida kuylanadi. Qizig'i shundaki, "Injil"dagi hikoyalar shu asardagi hikoyalar bilan judayam o'xshash. Olimlarning fikricha, "Injil"dagi ayrim hikoyatlar ana shu hikoyalar ta'sirida bitilgan. Bu ish mixxatlarni ko'chirib oluvchilar tomonidan amalga oshirilgan.

SHUMeR ADABIYOTIDAN LAVHALAR

Shumerlarning turmush tarzini o'rganish uchun topilgan arxeologik yodgorliklar: binolar, g'ishtlar, turli-tuman ro'zg'or buyumlari, ish qurollari, harbiy qurollar va boshqa osori atiqalarning o'zi ham kifoya qilar edi, chunki shumerlar yashab o'tgan bunchalik qadim zamonlardan yanada ko'proq yodgorliklarni topishni aslida olimlar ham kutmagan edi. Biroq shumerlar yozuvi bitilgan g'ipgg taxtachalar, muhrlar,

o'ramlar va boshqa shunga o'xshash yozma manbalarning topilishi nafaqat ularning oddiy turmush tarzini, balki shumerlarning ma'naviy hayotini ham chuqur o'rganish imkonini yaratdi. Topilgan yozma yodgorliklar (asosiy qismini mixxat yozilgan taxtachalar tashkil etadi) dunyoning juda ko'p mamlakatlarning muzeylariga tarqalib ketgani tabiiy, albatta. Shuning uchun ularning umumiy sonini hisoblashning imkoni yo'q, ammo baribir bunday yodgorliklarning sonini bir million atrofida deb taxmin qilinadi. Ana shu yozma yodgorliklarning to'qson-to'qson besh foizi xo'jalik yuritish bilan bog'liq yozuvlar, faqat qolgan ozgina qismi shumer adabiyotiga oid yodgorliklardir. S.Kramer fikriga ko'ra, badiiy asarlar bitilgan taxtachalar besh mingdan ziyodroq, Kramer bu raqamni aytganda, sof shumerlarga oid adabiyot to'g'risida fikr bildiradi, bizning nazarimizda. Shundan kelib chiqib, o'sha "sof shumerlar adabiyoti"ni aniqlab olishimiz lozim, keyinchalik bu asarni o'qiganda, ular haqida to'g'ri taassurot uyg'otadi sizda.

Nineviyada birinchi topilgan "Bilgamish dostoni" bilan tanishtirgan edik. Bu asarning bir nechta variantlari mavjud. Ammo u shumerlarning sof adabiyotiga kirmaydi. Nega? Tushuntirishga harakat qilamiz: Gilgamish (Bilgamish) tarixiy manbalar va barcha olimlarning e'tirof etishiga ko'ra, tarixiy shaxs bo'lib, haqiqatan ham Uruk (Erex) shahrining birinchi sulolasi tarkibidagi hukmdorlardan biri bo'lgan. Uning yashagan davri to'g'risida turli fikrlar mavjud, shulardan ayrimlari uni mil. av. 2700 yillarda yashagan deydilar, lekin Shumer adabiyotini chuqur taxdil qilgan boshqa guruh olimlar uni mil. av. 2600 yillar atrofida yashaganligini isbotlashga harakat qilishadi. Qanday bo'lganda ham, Bilgamish Kish shahri birinchi sulolasining oxirgi hukmdori Aga (Agga) bilan zamondosh bo'lgan. Chunki "Bilgamish va Aga" degan mifik doston ham shundan dalolat beradi.

Bilgamish tarixiy shaxs bo'lgan va butun Shumerda shunchalik taniqli qahramon bo'lganki, tirikligidayoq u haqda xalq afsonalar to'qiy boshlagan. Yozma asarlarning birinchisi, balki "Bilgamishning o'limi" bo'lgandir, buni aniqlash qiyin, ammo uning vafotidan keyin turli dostonlar xoh og'zaki, xoh yozma bo'lsin, ularni omma kuylab yurgan hamda yuz va xaggo ming yillab keyin u haqdagi dostonlar boyitilib borilgan, uning bir qismi bilan yuqorida tanishgan edingiz.

"Bilgamish" dostonidan bir-ikkita qiyoslama misollar kelti-ramiz. Dostonda Bilgamishning do'sti Eabanining qanday qilib yovvoyi holatdan odam shakliga o'tishi yoritilgan. Asarning aslida esa u Eabani emas, Enkidu. Enkiduning odam qiyofasiga o'tishi ham shumer mifologiyasida boshqacha hikoya qilinadi, ammo u o'zi alohida kichkina bo'lsa ham mustaqil asar. Yoki bo'lmasa Bilgamishning Ishtar sevgisini rad etishi ham qadimda alohida asar bo'lgan va Ishtarining ismi sizga endi tanish bo'lgan Inanna edi, hikoyaning tafsiloti boshqacha. "Nuh to'foni"da ham (bu masalani alohida tahlil qilamiz) shunga o'xshash o'zgarishlar sodir bo'lgan. Ammo e'tirof etishimiz zarurki, asarning keyingi yuz yilliklardagi tafsiloti tobora takomillashib, boyib, falsafiy lashib badiylashib borgan.

Xullas, tushuntirmoqchi edikki, shumer adabiyoti o'zlari zamonida yozilgan "sof shumer" asarlariga va shumerlarning merosi sifatida, albatta, ularni ulug'lab yozilgan keyingi toifa asarlarga bo'linadi.

Sof shumerlar kimu sof emaslari kim? Bunday savol berilishi muqarrar, biz uning tahliliga shumerlar tarixini yozganda batafsil to'xtalamiz, ammo hozir sizda dastlabki tasavvurni uyg'otish uchun bu haqda ikki og'iz fikrimizni bildiramiz.

Shumerlarning shu mintaqaga kelgani mil. av. 4500 yillardan boshlab, mil. av. 2500 yillargacha boshqa qabilalar bilan aralash-may yashagan davri, keyinchalik mil. av. 2500 yildan boshlab Somiy qabilalari ko'chmanchilarining shumerlar yerlariga sekin-sekin ke lib, o'mashishi (urushsiz) boshlanadi.

Keyin bir oz o'tib somiylerden Sargon Agad yoki qadimgi Sargon I hukmdorlik taxtiga o'tiradi, ammo shumerlar baribir ustunlikni o'zlarida uzoq muddat saqlab qola oladilar, shunda davlat poytaxti goh u, goh bu shaharga ko'chib yurgandi. Biroq qadimgi Bobilning birinchi hukmdori Ham-murabi hukmdorligi davridan boshlab shumerlar (bu taxminan mil. av. 1750 yillar) o'z mustaqilligini butunlay yo'qotadilar. Ana shu davrdan keyingi yaratilgan asarlarni shumerlarning asl asarlaridan ko'chirib, nusxa olinib, boyitilib, yana ming yillar davomida asrab qolingan asarlar deb tushunmoq lozim.

Shumerlarning sof asarlari ham bisyor, ular uchga bo'linadi, birinchisi - miflar, ya'ni afsonalar, ikkinchisi - dostonlar, uchinchisi - madh-maqtovlar.

Birinchisi, afsonalar (miflar): bosh rolni ma'bud Enlil o'ynaydigan ikkita asar "Oy ma'budining tug'ilishi" (yoki "Enlil va Ninlil") va "Cho'kich (kirka)ning yaratilishi". Bosh qahramon Enki bo'lgan to'rtta asar: "Enki va dunyoning tartibi", "Enki va Ninxursag yoki Jannat haqida shumer afsonasi", "Enki va Ninmax yoki odamning yaratilishi" va "Enki va Eredu"; Oy ya'ni Nanna (Sin) haqida bir asar: "Nannaning Nippurga sayoxati"; ikkita asar Ninurta haqida; "Ninurtaning faoliyati va qahramonligi" va "Ninurtaning Nippurga qaytishi"; beshta asar Inanna to'g'risida: "Inanna va Enki", "Inanna va Ebex tog'ining zabt etilishi", "Inanna va Shukalletuda", "Inannaning yerosti dunyosiga tushishi" va "Inanna va Bilulu"; to'rtta asar asosiy qahramoni Dumuzi: "Dumuzi va Enkidu", "Dumuzi va Inannaning nikohi", "Dumuzi-ning o'limi" va "Dumuzi va Gala"; bitta asar ma'bud Martga bag'ishlangan: "Martning uylanishi".

Ikkinchisi - epik dostonlar: hammasi bo'lib to'qqizta dostonidan iborat: shundan ikkitasi Enmerkar haqida; "Enmerkar Aratga mamlakatida" va "Enmerkar va Ensukushiranna", yana ikkitasi Lugalbanda to'g'risida va bunda ham Enmerkar ishtirok etadi, "Lugalbanda va Enmerkar" va "Lugalbanda va Xurum tog'i", qolgan beshta asar shumerlarning asosiy qahramoni Bilgamish to'g'risida (*shuni e'tirof etish lozimki, Bilgamish nomlari tilga olinayotgan boshqa asarlarning ham ko'pchiligida ishtirok etadi*). Shundan ikkitasi, "Bilgamish va Osmon ho'kizi" va "Bilgamishning o'limi" - dan bizga ayrim parchalari yetib kelgan. Qolgan uchitasi qariyb to'liq holda saqlanib qolgan: bular "Bilgamish va Kishlik Atta", "Bilgamish va Mangu Hayot mamlakati" va "Bilgamish, Enkidu va yerosti dunyosi" (yerosti podshohligi).

Uchinchi guruh asarlar madhlar. Ular ham to'rt guruhga bo'linadi: Xudolar sharafiga aytilgan madxdar, shoxdarni ulug'laydigan madxdar, galma-gal ma'budlar va shoxdarning nomiga aytiladigan alqov madhiyalar va oxirgisi Shumerdagi ibodatxonalarni ulug'laydigan madhiyalar. Shundoq ham murakkab bo'lib turgan asarimizni yanada murakkablashtirib, bu madhiyalarning nomlarini

bayon qshxish shart emas deb o'ylaymiz, biroq bu madhiyalardagi tasvirlar ham yuqoridagi asarlardagi tasvirlarni (ko'pchiligi) takrorlashini bilib qo'ygan yaxshi.

"BILGAMISH" DOSTONI

Bilgamish (uzoq yillar uni olimlar Izdubar deb kelishgan) Shumerning poytaxti Urukni egallaydi. Uning shafqatsizligidan xalq ma'buda Aruruga shikoyat qilishadi. Chunki Bilgamish yengilmas bahodir edi. "Sen uni yaratding, endi unga bas keladigan raqibni ham yarat" degan xalq chaqirig'iga binoan Aruru Eabani yaratadi. Aruru "qo'lini suvda chayadi, bir yumaloq loyni oladi- da, uni yerga tashlaydi, qarabsizki, g'alati mavjudot paydo bo'lib turibdi, uning ismi Eabani edi" deyiladi dostonida. Eabani ibtidoiy odam, sahrodagi vahshiy sifatida gavdalantiriladi. U yarim hayvon, shoxli, dumli qilib tasvirlangan (Ellin afsonalarida bu maxluq Minotavr o'laroq tasvirlanadi). U Bilgamish bilan urushish uchun yaratilgan edi. Bilgamish uni tutish uchun hayvon ovchisi Saaduni yuboradi. Saadu uni ko'rishi bilan qo'rqib Bilgamishning oldiga qochib boradi. Bilgamish uni yana yuboradi. Saaduga ma'buda Ishtarining cho'risi Uxatuni birga olib borishni tayinlaydi. Ayolga ko'zi tushishi bilan Eabani butunlay o'zgaradi. U bilan birga yashab, odamlilik sifatlariga kiradi. Uxatu Uruk haqida, uning hukmdori Bilgamish haqida so'zlab, Eabani ko'nglida mehr uyg'otadi. Shunday qilib, Eabani Urukka kelib, Bilgamish bilan bir umrlik do'st tutinadi. Ya'ni insoniyatning vahshiy hayotdan madaniy hayotga o'tishi ana shu tarzda ayol muhabbati orqali beriladi.

Bilgamish va Eabani zolim shoh Xumboboga qarshi kurashib yengishadi, shohni o'ldirishib, jasadini qushlarga yem qilishadi. Shundan keyin B.ning shuhrati ortib ketadi. Ma'buda Ishtar unga "Bilgamish, menga er bo'lsang oltin va javohirotdan yasalgan aravada yurasan. Har bir kuning g'alaba nishonlash bilan o'tadi, shohlar, beklar, a'yonlar oldingda bosh eggaylar va oyog'ingni o'parlar, tog'u vodiylardan senga behadu behisob sovg'alar keltirgaylar, ho'kiz va qo'toslaring og'ir-og'ir yuklarni dangal tortgaylar. Senga bas keladigan raqib bo'lmagay". Biroq Bilgamish o'z mag'rurligiga borib, ma'buda Ishtar sevgisini rad etadi, ustiga ustak, uni haqorat etadi. Seni sevgan hamma erkaklar o'ladi, sen kulfatsan, hyech kimga vafo qilmaysan, qabilida og'ir gaplar aytadi: "Sen meni ham sevasan-da, boshqalarni nima qilgan bo'lsang, meni ham shunday qilasan". Bu so'zlardan Ishtarining g'azabi keladi, osmondagi otasi, ma'bud Anga murojaat qilib, uni jazola, deydi. An dahshatli ho'kizni Uruk shahriga, Bilgamish ustiga yuboradi. Bilgamish do'sti Eabani bilan ho'kizni yengadi. Shuhrati yana ortadi. Hamma: "Daholar orasida kim shonliroq? Erkaklar orasida kim buyukroq? Daholar orasida Bilgamish shonliroq! Erlar orasida Bilgamish buyukroq!" Ma'buda Ishtar battar g'azablendi va qasos olishga ahd qildi. Ma'budaning onasi Anatu Eabaniga shunday bir zarba berdiki, u darhol o'ladi. Bilgamishni moxovga o'xshagan tuzalmas dardga giriftor qiladi. Do'stini yo'qotishi va kasallik B.ni holdan toydiradi, u almoyi aljoyi tushlar ko'rib chiqadi. Shunda "O'lik suvlar" (O'lik dengiz)ning narigi tomoniga xotini bilan o'tib olib istiqomat qiladigan donishmand Pir - Napishtim (Utnapishtim)dan yordam so'rashga ahd qiladi. (Donishmand Nuh to'fonigacha o'tgan o'n shohdan biri Xasisadra (Ziosudra) yoki Atraxasis (ya'ni "Pok nomusli")dan o'zga kishi emasdi). Yo'lda Bilgamish turli xavf xatarlarga, sarguzashtlarga duch kela boshladi (Odisseyani eslang). Yarim odam, yarim chayon maxluqqa duch keladi, maxluq yo'lning xavfiligini aytadi. B.

Xatardan qo‘qmaydi. Sahro chiqadi, kechib o‘tadi. Keyin dengiz bo‘yidagi daraxtzorda Sabitum degan qizning ko‘shkiga kelib qoladi. Darxtlarning mevasi zumrad va yoqutdan edi. Sabitum yuziga ilohiy qarg‘ish muhri bosilgan odamni ko‘radiyu yuziga eshikni yopadi. Lekin B. Yana eshik qoqadi. Do‘stini sog‘inganini aytadi. “Kerak bo‘lsa, bahri muhitdan suzib o‘tay, bo‘lmasa suyaklarim shu yerda chiriy qolsin”, deydi. Axiyri, Sabitum B.ga yo‘l ko‘rsatadi. O‘lik suvlarni oshib o‘tish uchun kemachi Ardi – Eani topishini maslahat beradi. Bu suvdan Quyoshdan o‘zga hali hyech zot kechib o‘tmagan edi. Kemada 1.5 oy suzib, daryolar etagidagi joyga yetishdi. Yo‘lda donishmand B.ga to‘fon haqida so‘zlab beradi. Keyin dardi bedavodan qutilish uchun muborak suvda cho‘milishi kerakligini aytadi. Yana B.ni sehrlı giyohga - “Keksadan yosh qilib qo‘yuvchi giyoh”ga olib boradi. U yerdan B. sog‘ va kuchga to‘lgan, ammo dili g‘am alamga to‘lib kemaga qaytadi. Do‘stini eslaydi. Yonadi. Ma‘budlardan marhumlar olamiga bir muddatga ruxsat berishlarini so‘raydi. Jahannam ma‘budlari B. Nolalarini eshitib, yerni yorishadi. U yerdan Eabaninig ruhi uchib chiqadi. B. undan “Ayt, do‘stim, gapir, hozir yashab turganing qanaqa mamlakat ekan va sen u yerda nimalarni boshingdan kechirding? Oh! Gapirsang-chi!” deb so‘raydi. Eabani aytolmasligini, aytishga tili bormasligini bildiradi. Ya‘ni u dunyo haqida og‘ir tasavvur uyg‘onadi o‘quvchida.

Bobil adabiyoti. “Inanna yer ostida” dostonining Bobilda qayta ishlangan versiyasida Inanna Oy ilohasining qizi Ishtar bilan almashtiriladi. Bobilshunos olimi Afanaseva har ikkala matnni yaxshi o‘rganib chiqib, asliyatiga nisbatan akkad va xettıy tillariga tarjima qilib, qayta ishlangan va Ashshurbanıpal tashabbusi bilan Nineviya kutubxonasi xazinasida saqlangan variant ancha mukammalligi bilan farqlanadi, degan xulosaga keladi¹⁰. Sevgi ilohasi Ishtar va uning sharafiga ibodat qiluvchi kohin qiz (rohıba)lar qadimiy sevgi kulti, diniy e‘tiqodiga ko‘ra, sevgilisi yigit bilan uchrashish maqsadida o‘zlarini fohishaday ko‘rsatib, ko‘chada, bog‘larda yurar ekanlar, Dostonning Bobil versiyasida iloha Ishtarning o‘z sevgilisini o‘limga yuborganidan qayg‘urishi, uni sog‘inib, iztiroblanishi tasvirlangan. “Bilgamish” dostonida Shumer variantida bosh qahramonning, asosan, Gerakl kabi yetti jasorat (yunon miflarvda 12 jasorat) ko‘rsatishi tasvirlansa, Bobil variantvda u ko‘proq turkumlashib, qahramonning kamolotga yetish bosqıchlari sifatida epos poetikasiga muvofiq keng ko‘lamda tasvirlangan.

Birinchi bosqichda Bilgamish bahodir kuch-quvvatini qayoqqa sarflashni bilmaydi, o‘ggan-kettan bilan janjallashadi, bironing qo‘lidan tortsa, qo‘li uziladi, oyog‘idan tortsa, oyog‘i uziladi. Ikkinchi bosqichda qahramon Enkidu bilan do‘stlashib, uning ta‘sirida oliyjanoblighi o‘sib, ma‘naviy jihatdan yuksaladi, butun dunyoda yovuzlikni, yomonlikni yo‘qotishga ahd qiladi. Yovuz dev Xunbobu (Xuvova) bilan olishib, uni asir qiladi. Uchinchi bosqichda Bilgamish hayot va o‘lim muammolari haqida o‘ylovchi donishmand maqomiga yetadi. O‘lmaslik gulini izlab topadi, lekin o‘zini emas, do‘stini o‘ylab, og‘ir mashaqqatlarni boshdan kechiradi. Demak, Bobil bitikchilari ilmiy-nazariy tafakkurda ham ilg‘orlashgan. Badiiy asarda mangu muammolarni o‘ylovchi kuchli xaraqgerdar ^orlugi Arastudan ming yillar avval ham uchrashi qiziqarlidir.

Shumer va Bobil madaniyati obidalarini, runiy yozuvlarni topib, o‘rganish sohasida ingliz olimi S.Kramer, fransuz olimi Shampalon, amerikalik A.L.Oppenxeym, chex

shumershunoslari B.Grozniy, Y.Klima, rus olimlari V.V.Struve, M.M.Kuzmin, I.Dyakonov, M.Korostovsev va boshqalar fidoyilarcha mehnat qilganlar.

Assiriolog, bobilshunos, shumersunos yevropalik olimlar keyingi asrlarda (XIX-XX) o'z davlatlarining yaqin Sharq, asosan, arab mamlakatlaridagi kuchli ta'sir doirasidan foydalanib, ikki daryo oralig'i — Mesopotamiyada juda ko'p qadimiy adabiy, madaniy, tarixiy yodgorliklarni izlab topdilar. Atoqli bobilshunoslardan F.Gommel, B.Landsberger, dinshunoslar A.L.Ogtpenhyeym, U.Lambert, Yohan van-Deyk, rus bobilshunoslari I.Dyakonov, M.Kuzmin, I.Klochkov va boshqalar yangi kashf etilgan asarlarning matnlarini o'qish, tarjima qilish, imkoni boricha sharhlashda qunt bilan mehnat qildilar.

Qadimgi shumerlar va bobilliklarni umuminsoniy abadiy-falsafiy muammolardan quyidagilari juda qiziqtirgan:

Ilohiy taqdirni pok, musaffo yashash, gunohlardan qutulish bilan, yaxshiliklar qilish bilan ijobiy tomonga o'zgartirish mumkinligi masalasi. Ular alohida Takdir ilohasi (zardushtiyalarda Porloq tole, rimliklarda Fortuna) ga iltijo qilib, pok musaffo yashashga ahd, va'da qilganlar.

Mangu hayot yoki aqalli uzoq yashash va inson ruhining abadiy o'lmasligi masalasi. Barcha diniy e'tiqoddarda bu dunyo hayoti va oxirat olamida yashashga ishonch-e'tiqod, tasavvurlar yaxshi rivojlangan. Bu hol Shumer va Bobilda yanada kuchli.

Bu dunyoda gunohkor, yovuz, adolatsiz odamlarga taqdir, tole kulib boqishi va yaxshi, sofdil odamlarning baxtsizligi haqidagi ziddiyatlar muammosi.

“Bilgamish” dostonida sevgi ma'budasi Inanna (Bobil variantida — Ishtar) bilan Marhumlar olamining malikasi (o'lim ilohasi Ereshkigal) opa-singillar deb tasvirlanadi. Dostonda sevgi ma'budasi o'zining ma'shuqi shahzoda-cho'pon Dumuzini o'lim olami elchilari — jinlar qo'liga topshirib yuborishi ramzida, bizningcha, bunday hayot falsafasi bor: Sevguvchi, oshiq-doimo sadoqatli, lekin sevilguvchi-ma'shuqa, mahbuba doimo bevafo. Odamzod hayotni sevadi, lekin hayot odamzodga bevafo va bebaqo. Sevgi ilohasining singlisi - o'lim ilohasi Ereshkigal dostonida adolatli, bir so'zli, va'dasiga sodiq deb ulug'lanadi. *Hayot hammaga bir xil qaramaydi, yomonlarni alqab, yaxshilarga azob beradi. O'lim esa hammaga birday qaraydi, unga shoh bilan gadoning farqi yo'q.*

“Bilgamish” dostonida sevgi ma'budasi Inanna (Ishtar) bahodir pahlavon (Bilgamish)ni o'ziga yor qilib (to'g'risi, o'ziga asir qilib) olmoqchi bo'lib, shirin so'zlar aytadi. Ammo donishmand bahodir Bilgamish unga aldanmaydi. U Inanna (Ishtar)ninghyech kimga vafo qilmasligini, yaxshi odamlarni yo'ldan uruvchi fohisha ekanligini aytadi. Doston davomida Bilgamish, malika Ishtarga “Avval sevgi ma'budasi eding, endi fohishalar ma'budasi bo'lding, endi sen qasrlar, bog'larda emas, ko'cha-ko'yda, bozorlarda jazman izlaysan”, deydi. Boshqa joyda Enkidu unga “Menga xotin bo'la turib, boshqa erkaklarni yo'ldan urding, eng kuchli arslonni sevarding, unga yetti joyda choh qaziding, sevimli otingni urib qiynading,

yana bir cho‘pon sevgilingni bo‘riga aylantirib, itlarga talatding”, deb la‘natlaydi. Shumer va Babil badiiy adabiyotida sevgi ilohasi baxtsizlik keltiradi deb qoralanadi. Bularning barchasi majoziy tasvirlar bo‘lib, hayot voqyealarining in‘ikosi sifatida talqin qilinadi.

Qadimgi Babil adabiyoti durdonalaridan yana biri falsafiy doston “Babil teoditseyasi” deb shartli nomlangan asardir. Mazkur falsafiy doston matnini ilk marta S.Strong 1895 yilda e‘lon qildi. 1896 yilda qadimiy Sippar shahridan asarning boshqa nusxasi topildi va uni F.Marten tarjima qilib, sharhlashga urindi. 1919 yilda E.Ebeling qadimiy Ashshur-poytaxt shahardan topilgan shu asarning yana bir matnini e‘lon qildi. Qadimshunoslar fikricha, mazkur asar miloddan avvalgi 1400 va 800-yillar orasida yozilgan. Keyinroq bu doston muallifi Isagul-Kinubbib 1069-1048 yillarda podshohlik qilgan Is-Sin (yoki As-Sin) hukmronligi davrida yashaganligi aniqlandi. Lekin biz uchun muhimi asarning falsafiy mazmuni, poetik xususiyatlari, muallifning badiiy qarashlarini aniqlashdir. Asar mazmuniga ko‘ra, hayotda ko‘p qiynalgan bir fuqaro donishmand ustozga uchrab, qayg‘u-hasratlarini hikoya qiladi, nima uchun taqdirim bunday deb so‘raydi, donishmand o‘z bilganicha javob beradi. Asar muallifining adabiy-falsafiy qarashlari, bizningcha, donishmandning javoblarida ifodalangan. Fikrimizni dalillash uchun doston matnidani ayrim parchalarni o‘zbekcha tarjimada keltiramiz.

I
(Hasratchi)

Ey dono, quloq sol, aytib beray Ko‘nglimdagi qayg‘u-alamni.

(Men quling) ey dono, seni sharaflay, Dunyoda sen kabi dono qaydadir?

Senga teng keluvchi olim qaydadir? Maslahatchi qani? Dardimni aytsam. Kamina oilada kenjasi edim, Otamdan ayrildim taqdir hukmi-la. Borsa-kelmas tomon onam ham ketdi. Himoyasiz qoldim yetimlik ila. II

II
(Dono do‘st)

Do‘stim, aytganlaring qayg‘uli holdir, Lekin sen baribir yaxshi niyat qil. Oqil odam bo‘lu tentak bo‘lmagil, Ochiq chehrali bo‘l, g‘amga botmagil. Hammaning ota-onasi ketar bir kuni “Xubur” daryosidan nari — sohilga...

3
(Hasratchi)

Do‘stim, qalbing daryo, suvlari doim Mavjlanguvchi dengizga mengzar. Sendan so‘raydigan gaplarim ko‘pdir. Omad yuz o‘girdi, quvvatdan qoldim, G‘amuhasrat ichra hayotdan toldim.

IV
(Dono do‘st)

Aqling joyida-ku, so‘zlaring chalkash, Chiroyli chehrangni ko‘rga o‘xshatma. Ne tilasang, bir kun yetasan, Toat-ibodat qil, shafqat qilurlar, Ketgan yaxshi kunlar qaytib kelurlar.

V
(Hasratchi)

Bosh egaman senga, dono so'zingga, Qornin hashak bilan to'ldirgan eshak Ilohiy so'zlarni tinglaganmi hyech? Tirik odamni yeb quturgan arslon, Qurbonlik qilganmi ilohasiga?

Mol, dunyosi bisyor badavlat odam, Tillo tortib bermagan-ku ilohasiga? Qancha qurbonlik va ibodat qildim, Eshitmas iloham tilaklarimni.

VI

(Dono do'st)

Donolar hikmatin tinglagan odam Hurmoga o'xshaydi, yombi tilloga. Ekinzor dalani toptab, ezganlar, (Dehqon yo ovchining) o'qiga uchrar, Chohga tushar ul qonho'r arslon.

Mol, dunyosi oshib ketganni Gulxanda yoqadi zamon podshohi.

Sen bularning izidan borma.

Tangri rizoligin so'ra, yaxishsi.

VII

(Hasratchi)

So'zlaring rohatbaxsh shabboda kabi

Nasihating dardga malhamdir.

Asarning keyingi fasllarida lirik qahramon hayot haqida o'ylarini izhor qilarkan, aslzoda, shahzoda juldur libosda qolganini, kambag'al, bezorining bolasi hashamli libos kiyishini, ilgari faqat ko'kat yeydigan odamlar hozir amaldorlarning taomlarini yeyishini, aldoqchi, tovlamachilar mol-dunyo yigayotganini, ota og'ir mehnatda qiynalib, farzandi yalla kdlib yurishini aytadi. Donishmand do'sti uni uyaltirib, " *Sen ayyor, tovlamachi, nopoklarning boyligiga havas qilma, ularning xaromdan topgan boyligini boshqa bir nopok, o'g'irlyaydi yo undan tortib oladi, — deydi. Sen shuncha bilimdon, olim odam bo'laturib, Xudoga shak keltiryapsan. Hammaning ham birinchi farzandi yaxshi chiqmasligi mumkin, keyingilari yaxshi bo'ladi. Xudoning nazaridan uzoqda qolgan odamlar ilohiy hikmatlarni tushunishga aqli yetmaydi* ".

Hasratchi yana o'z gapidan qaytmay aytadiki, obro'li, mansabdor odamni qotil bo'lsa ham izzat-hurmat qiladilar, oddiy odamni ayb ish qilmasa ham yerga uradilar, xudojo'y, mo'min odamlarga kun bermaydilar. Asar oxirida donishmand do'st g'amgin odamni yupatgan bo'lib, ko'pchilik odamlarning yomon qilmishlaridan Xudo bezor bo'lib, ularni o'z holiga tashlab ko'ygan, lekin u yaxshilarni oxiratda aziz qiladi, deydi.

Bobil adabiy asarlarining tilida turkiy va arabiy so'zlar ham ko'p uchrashi qiziqarli holdir. Epos syujetida ajoyibotlar, sirli, bashoratli tushlar, keskin to'qnashuvlar ilohiy qudrat bilan sodir bo'luvchi hodisalar bilan birga xarakterlar mantiqi va hayotiy ruhiy kechinmalarni tasvirlashga e'tibor berilgan.

Akkad adabiyoti. Akkad — Mesopotamiyadagi yevfrat (Frot) daryosi sohilidagi shahar. Sargonakkad II podshohligi davrida (bu sulolaning eng mashhurlari: Sharrukin I, Rimush, Manishtusu, Naramsin, Sharkalisharr va boshqalar) poytaxt bo'lgan. Ayni shu nomdan *akkad* atamasi kelib chiqqan. Akkad Tigr va yevfrat oralig'ida, hozirgi Bog'dod shahri yaqinida joylashgan edi. M.a. III mingyillikda semit tillariga mansub aholi Mesopotamiyaga ko'chib o'tgani haqida ma'lumot keltiriladi. Ular mamlakat janubida joylashgan. Keyinroq butun mamlakat Akkad

nomi bilan yuritilgan. Demak, Akkad so'zi shahar, mamlakat va qavmlar ma'nolarida keladi. Mesopotamiyada Akkad davri deb yuritilgan vaqt m.a. 2350-2150 yillar orasidir.

Akkad adabiyoti nomi qadimgi Babil va Assiriya adabiyotiga nisbatan qo'llanilgan. Insoniyat tamaddunining ilk manbalaridan bo'lgan Shumer madaniyatiga ildizlari bilan bog'langan Akkad adabiyoti m.a. III mingyillikda o'zining ilk yozuvlariga ega bo'lgan¹². Shumer tili davrlar o'tishi bilan akkad tiliga va adabiyotiga o'z mavqeyini berib qo'ygan. Bizgacha yetib kelgan Akkad adabiyoti namunalari podshoh Ashshurbanipal davri (m.a. 669-636 yillar)da poytaxt Nineviyada joriy qilingan kutubxonada saqlangan asarlardir. Unda 700 jilddan ortiqroq kitoblar to'plangan bo'lib, ularning 200 ga yaqini ilmiy asarlardir. 300 dan ortig'i ilohiy yozuvlar, turli fol kitoblari va bashoratlardir. Qolgan qismi adabiy asarlar bo'lib, ular maxsus sarlavhalar bilan belgilanmagan. Asarning birinchi satri uning sarlavhasi vazifasini o'tagan. Yuzga yaqin matnlarning mualliflari ma'lum emas. "Bilgamish" dostonining akkad variantlari eng yuksak badiiyat namunalari sifatida qaraladi. Akkad adabiyoti keyingi yuz yillikda izchil o'rganilayotganiga qaramay, uning tarixi xronologik tarzda to'la yaragilgan emas. Bu sohada AQSh olimi L.Oppenxeymning «Qadimgi Mesopotamiya» tadqiqoti e'tiborlidir.

Akkad adabiyotining janrlar tarkibi bugungi janriy tamoyillarga muvofiq kelmasa ham epik asarlar yetakchi janrlar sifatida qadrlangan. Mas., dunyoning yaratilishi haqidagi "Enuma elish" dostoni yangi yil marosimlari folklori tarkibida saqlangan. Iloh Erra haqidagi doston vaboga qarshi yaratilgan. Adabiy yodgorliklarni ularning qahramonlari, asarda tilga olingan ma'budlar va podshohlar tarixi bilan bog'liq guruhlashtirilgan. Barcha Akkad miflaridagi ilohlar timsollari Shumer mifologiyasidagi ilohlar proobrazlari vositasida yaratilgan. Mas.,

¹² Afanaseva V. Predislovie k sb. "Ya otkroyu tebe sokrovennoe slovo". — M.: Xudojestvennaya literatura, 1981. - S. 5.

quyosh ma'budi Shamash Shumerlardagi Utgudan, Ishtar - Inannadan, Addu — Ishkurdan, Sin — Nannadan va hokazo. Akkad adabiyotidagi mifologik va epik personajlar ham shumer qahramonlaridir. Mas., Bilgamish - shumer, Atraxisis (lug'aviy ma'nosi: donishmanddan yaralgan) shumer donishmand podshohi Ziusudrani eslatadi.

Akkad tilida yoziilgan matnlarnint uslubiy jihatiga e'tibor qaratganda ular, ko'pincha, birinchi shaxs nomidan hikoya qilinganini kuzatish mumkin. She'riy asarlarning birinchi misrasidagi ma'no ikkinchi misrada kuchaytirilgan holda sifatlash yoki o'xshatish yordamida beriladi. Shu kabi matn davom etarkan, parallelizmdan samarali foydalanilganini ko'ramiz. Xuddi shumer adabiyotidagi kabi mualliflarning ismlari oshkor yozilmagan. *Akrostix* (islom sharqi poetikasidagi muvashshahkabi) tarzida misralarning birinchi harflaridan muallifning ismi chiqarilganini kuzatamiz.

Akkad adabiyoti namunalarini XX asr boshlarida V.Bryusov, N.Gumilev, V.K.Shileyko kabi shoirlar rus tiliga tarjima qilganlar¹³. (Ya otkroyu tebe sokrovennoe slovo. Literatura Vavilonii i Assirii / Predislovie V.Afanasevoy. - M.: Xudojestvennaya literagura, 1981. - S. 5-30).

Mesopotamiya hududida yashagan qadimgi somiriylar- shumerlarning kelib chiqishi haqida ilmda o'nlab versiyalar uchraydi. Ularni turkiy qavmlar sifatida talqin qiluvchilar shumer tilidagi so'zlarning turkiyga yaqinligini asos qilib oladilar. Lekin kimligidan qati nazar dunyo tamaddunining o'choqlaridan biri sifatida tan olingan ekan, bu hududda ilk adabiy-estetik tafakkur kurtaklari ham shakllanganini kuzatamiz. Ularning aksariyati badiiy asarlar tarkibida uchrasa ham qadimgi ziyoli kishining adabiyot haqidagi qarashlari, uning vositasida ezgulik kuylangani, axloqiy- huquqiy qarashlar shakllangani fikrimizning dalilidir. Keyinroq ro'yxatga olingan yangi bobil va assiriy manbalarida ta'limiy va falsafiy risolalar ham uchraydi. Ta'limiy asarlar, asosan, dialog tarzida shakllantirilgan. Unda har bir tomon imkon qadar o'zining hakdigini asoslashga uringan, shuning uchun ular ilmda *munozara* deb yuritilgan. Mas., Qish va Yoz, Oltin va Mis, Ot va Ho'kiz munozaralari shular jumlasidandir. Bu munozaralar ramziy ma'no kasb etsa, "Xoja va qul" munozarasida qulning donoligi va o'z xojasini har doim sadoqat bilan to'g'ri yo'lga boshlashi ulug'lanadi.

M.a. 1200 sanaga mansub bosh so'zlari bilan atalgan "Luddul bel nemeki..." ("Donolikni madh etmoq istayman...") asari she'riy shaklda yozilgan bo'lib, 450 misradan iborat. Injildagi Yova syujetiga asos bo'lgan bu asarda o'z taqdiridan noligan amaldor holati bayon qilingan. S.N.Kramer dalolatiga ko'ra, bu asarning ibtidosi shumer manbalarida uchraydi.

Dunyoga "Bilgamish" kabi yetuk adabiyot namunalarini yaratgan xalq unga munosib tarzdagi talqin va sharhlarga, tanqid va tahlillarga ega bo'lishi kerak. Ehtimol, adabiy-estetik mavzularda maxsus risola va maqolalar ham bitilgandir.

QADIMGI MISR ADABIYOTI

"Piramidlar kitobi" eramizdan 3 ming yil oldingi davrga oid bo'lib, marhumga bag'ishlangan. Devorlarga yozuvlar shaklida bitilgan. Marhum u dunyoda nimalar qilishi kerakligi haqida. Demak, kitobning mohiyati marhum kulti. O'limni yengib o'tish, vaqt ustidan g'olib kelish, mangulikka erishishdir. Tahlillar bu matnlarning folklor ohanglari bilan uyg'unligini ko'rsatmoqda. Uyg'unlik takrorlarda, parallelizmlarda, alliteratsiyalarda, arxaizmlarda, unli va undosh tovushlarning qaytarilishida ko'rinadi.

"Sarkafaglar kitobi" (m.oldingi 15 asr) "Piramidlar kitobi"ning davomi. Mazmun o'sha. O'rta Misr tilida yozilgan.

"Marhumlar kitobi" (m.oldingi 15 asr) didaktik adabiyot. Yangi Misr tilida yozilgan. Marhum tilidan "Men o'ldirmadim, o'g'irlamadim, bekorchi gap aytmadim, mol talashmadim" deya aytiladi. Bunda gunohlar katta kichikligiga qarab emas, shaklning kelishiga qarab sanaladi. Qabr toshlarida marhumning ismi, kimligi, fir'avn oldidagi xizmatlari, ezgu ishlari bitilgan. Masalan Sheshi nomli kohin (majusiylar ruhoniysi) qabr toshiga quyidagilar yozilgan: "men haqiqatni gapirdim, men to'g'ri ish qildim, men yaxshilikdan so'zladim va yaxshilikni takrorladim. Men aka va singilni yarashtirib qo'yish uchun hukm chiqardim, men o'jizni kuchlidan himoya qildim, men ochga non, yalang'ochga kiyim berdim, qayig'i yo'qqa qayiq yasab berdim. Men otamni hurmat qildim, onamga yaxshi munosabatda bo'ldim, ularning bolalarini tarbiyaladim". Mazkur uchinchi manbada jahon adabiyotida ilk bor "san'at" so'zi ishlatiladi. Bu matn m.avvalgi 25 asrga oid bo'lib, Isesi nomli

kohin qabr toshiga yozilgan: "Olimlik bilan maqtanma. Bir o'zim hamma narsani bilaman deb o'ylama. Maslahatni faqat donishdan emas, hamma joydan qidir. San'at chegara bilmaydi. Axir, rassom o'z mahoratining so'nggi nuqtasiga yetishmog'i mumkinmi?". Misrlilar uchun bu kabi yozuvlar nihoyatda muhim sanalgan. Dushmanlariga jazo berish uchun raqiblari haykallaridagi nomlarni o'chirib, o'rniga boshqa ismlarni yozib qo'yish ularga kifoya qilgan. 2 ming yillikning oxirlariga tegishli "Kotiblarni madh qilish" asari Goratsiyning "Exegi monumentum" va A.S. Pushkinning "Haykal" she'rlariga xamirturish bo'lgan. Mana o'sha asardan parcha: "Donishmand kotiblar// Ilohlarning muovnlari// Kelajakni bashorat qilishgan// Ularning nomlari abadiy saqlanib qoladi// Ular o'z ishlarini yakunlab ketishdi// Ularning hamma yaqinlari unutildi// Ular o'zlariga misdan piramidalar yasashmadi// Bronzadan qabr toshlari ham// O'zlaridan keyin merosxo'rlar qoldirishmadi// Nomlarini ko'tarib yuradigan farzandlar ham// Ammo ular o'z meroslarini bitiklarda qoldirishdi// Bitiklar ularning kohinlariga aylandi// Maktub taxtalari esa o'g'illarga// Ularning piramidalari hikmatlar kitobi// Ularning bolalari esa qamishdan yasalgan qalam// Ularning umr yo'ldoshlari qattiq toshlar//... Kitoblar uylardan kerakliroq// Mag'ribdagi maqbaradan zo'rroq// Hashamatli saroydan hashamatliroq// Ibodatxonadagi yodgorlikdan yaxshiroq" (A.Axmatova tarjimasidan kamina o'zbekchaga o'girdi – U. H).

Imxotep. Papirusga yozuv bitgan ulug' kotiblardan biri (m.oldingi XXVIII a.). Imxotep, birinchi piramidani yaratuvchisi hisoblandi (faraon Josearning zinapoyali piramidasi). U misrlilar tomonidan ilohiyashtirilgan arxitektor, astronom, vrach, chtimol, jahon adabiyotining ilk yozuvchisi hamdir. (U qoldirgan matnni aniqlab isbot qilish qiyin bo'lsa ham). **Osiris haqida afsona.** Bu misrlilarning bosh afsonasi bo'lib, unda o'lgan va qayta tirilgan iloh haqida so'z boradi. Osiris Misrning podshohi. U odamlarga ko'p foydali, ezgu ishlarni o'rgatadi: ekish, non pishirish, musallas tayyorlash, asal olish, davolash, ibodatgohlar qurish, din, mis va oltin olish, odamxo'rlikdan tiyinish... Ammo Osirisning g'alabasi sha'niga berilayotgan ziyofatda akasi Set (cho'l va yot mamlakatlar ramzi) bir sarkafag olib kelib, kinga sig'sa o'shanga sovg'a qilishini aytadi. Sarkafash Osirisga to'g'ghri keladi. Chunki undan yashirincha andoza olingan bo'ladi. Osiris uni kiyishi bilan Set sarkafagni yopib, Nil daryosiga tashlaydi. Osiris o'ladi. Set uning tanasini 14 ga bo'lib, butun Misr bo'ylab sochib yuboradi. Shunda Osirisning singlisi va xotini parchalarni to'plab, ulardan iloh Gorni yaratishadi. Gor ulg'ayib, otasini kim o'ldirganini biladi va Setga qarshi kurashib, uni yengadi. Ammo ko'zidan ayriladi. Ko'zini qayta qozonib(Quyosh ramzi), uni Osirisga beradi. Osiris uni yutib, tiriladi (tabiatning qayta jonlanishi). Osiris haqidagi afsona tufayli har yili bahorning kelishi qutlanadigan bo'ladi. M.oldingi 1970 yilga tegishli papirus bitigida jahon adabiyotida birinchi marta dramatik asar epizodiga duch kelamiz. Bu epizodda qahramonlarning replikalari remarklar yordamida beriladi. Personaj monologi ham mavjud. Osiris va Setning qurolsiz jangi yoritiladi.

Qadimgi Misr adabiyotida sayohat, masal kabi janrlarning ilk kurtaklarini ko'rish mumkin. Yana Injil va Platonning asarlarida (dialog) Misr adabiyoti ta'siri yaqqol seziladi. Misr adabiyoti matnlaridan birida uchraydigan "Yaxlit bir narsa mo'jizasini yuzaga chiqarish uchun pastda joylashgan tepadagiga uyg'un, pastdagi

esa tepadagiga muvofiq” degan qarash analogiyaning ulug‘ qonun hisoblanib, yevropaliklar dunyoqarashini yangi zamonlarga qadar belgilab keldi.

QADIMGI MARKAZIY OSIYO VA ERON ADABIYOTI

“Avesto”. (Hozirgi tilda asosiy kitob ma'nosida). M. oldingi IX va VI asrlarda paydo bo‘lgan Sharq xalqlarining diniy, ma'naviy, falsafiy, adabiy mushtarak yodgorligidir. G‘arb olimlari uni Eronda paydo bo‘lgan deyishadi. Lekin keyingi vaqtlardagi ilmiy izlanishlar Avestoning avval Xorazmda paydo bo‘lib, so‘ng Eron va Hindistonga tarqalgan deya taxmin qilishga asos beradi. Uning asoschisi Zardusht, ergashuvchilar zardushtiylar sanaladi. Zardushtiylar Axura Mazdaga sig‘inish bilan birga Quyoshga, olovga, suv, zamin va taqdirga topinishgan. Hozirgi kunda zardushtiylarning dunyo bo‘ylab 129 000 dan ziyod vakillari bor. “Avesto” matni 21 ta kitobdan iborat bo‘lgan. Unda dunyoni boshqaruvchi ikki kuch - Axuramazda va Axriman haqida batafsil so‘z yuritiladi. Axuramazda ezgulik, Axriman esa yovuzlik homiysi. Ular o‘rtasida mangu jang boradi. Axura Mazdaning 6 tajalliysi bor: 1. Vohu Mana (Ezgu niyat), 2. Asha Vaxishta (Eng yaxshi haqiqat), 3. Spenta Armayti (Muqaddas halollik), 4. Xshatra Varya (Tilakli hokimiyat), 5. Xarvatat (butunlik), 6. Umuratat (uzoq umr, abadiy hayot). Ushbu olti ideal insonlarni ma'naviy kamolotga erishishi uchun eng oliy qadriyat hisoblangan.

“Avesto” matni dastlab ohang uyg‘unligi saqlangan. Keyinchalik matnning 5 dan 3 qismi yo‘qolgan (Aleksandr Makedonskiy O‘rta Osiyoga bostirib kelganda “Avesto” ni yo‘q qilishga harakat qilgan va bunga qisman erishgan. 7 asrdan boshlangan arablar bosqini davrida yana shu hol yuz bergan. Umuman, bir xalq boshqa xalqlar ustiga bostirib borib, ularni yengib, ular ustidan hukmronlik qilar ekan, odatda, uning tarixini, tarixni bilguvchilarni, ziyolilarni, o‘qimishlilarni yo‘qotishga urinishadi. Yaqindagina parchalanib ketgan Sho‘rolar hukumati ham xuddi shunday siyosat yurgizgan edi). Natijada ritmik strukturaga putur yetgan. Shunga qaramay, o‘rta asrlarda gotik romanlar va M. Bulgakovning “Master va Margarita” romanlarida shu konsepsiyaga ergashilganligi kuzatiladi.

QADIMGI HIND ADABIYOTI

“Ramayana” . Qadimgi hind adabiyoti durdonalaridan biri. “Ramayana” eposi til hususiyatlariga ko‘ra “Mahobxorat” yozilgan davrdan keyinroq vujudga kelgan bo‘lsa- da, asar voqiyelari - Ram, Krishnaning qahramonliklari va uni ma‘bud deb tan olinishi ancha qadimroq vaqglarda yuz bergan.

Shoir Valmiki “Ramayana” dostonining asosiy muallifi deb taxmin qilinadi. Ammo dostonning to‘liq shakllanishida boshqa Mirlarning shoirlari ham hissa qo‘shgan. Doston syujeti markazida Ilri-Lanka (Sarandib, Seylon) devlar va jinlar mamlakati rahbari - o‘n boshli dev Ravana (ehtimol, o‘n buyuk lashkarboshilari bordir?) Ayyodxya davlati podshohining o‘g‘li Ramning sevikli xotini Sitani o‘g‘irlab olib keladi, asirliqda saqlaydi. U Sitaga uylanmoqchi bo‘ladi. Sita turli bahonalar topib, to‘yni orqaga suradi. Shungacha, Ram va ukasi Lakshman, jangchilari, Shamol ma'budi Vayuningo‘vsh, donishmand maymun Xonuman yordamida Devlar makoniga yetib keladilar. O‘rtada bo‘lgan janglar, yakkama-yakka olishuvlar, dev Ravananing aka-ukalarining jangovar xususiyatlari

fantaziyaga boy badiiy detallar bilan mufassal tasvirlanadi. Shu jihatdan "Ramayana"ni pahlavonlar qurashiga doir jangnoma deyish mumkin.

"Ramayana" dostoni syujetida oila muammolari, kundosh xotinlarning o'z o'g'illarini valiahd qilish uchun qilgan ig'vo, janjallari davlat ishlarini zaiflashi ham katta o'rin egallaydi. Dostonda adolatli podshoh, kuchli davlat muammolari oilaviy muammolar bilan uzviy aloqadorlikda tasvirlanadi.

Cheksiz badiiy fantaziya, umuminsoniy g'oyalar, ezgulik va yovullik kurashi yorqin aks ettirilgan "Ramayana" va "Mahobxorat" dostonlarini buyuk hind adibi R. Tagor esladaliklarning "Iliada" va "Odisseya" dostonlariga qiyoslaydi³⁶. Qadimgi hind eposlari jihondagi juda ko'p tillarga tarjima qilingan. "Mahobxorat"ning kino-epopeyasini hindshunos olim va shoir Amir Fayzulla, "Ramayana" dostonini olim, shoir, romannavis adib Muhammad Ali o'zbek tiliga mohirona tarjima qilganlar.

Bu eposlar hind adabiyotining keyingi taraqqiyotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Kalidasa, R. Tashr, Prem Chand, K. Narayan va boshqa adiblar, shoirlar, dramaturglar bu asarlar syujetidan ilhomlanib, ko'pgina durdona asarlarini ijod qilganlar.

"Panchatantra" va "Kalila va Dimna"

Qadimgi hind adabiy-axloqiy, estetik tafakkurining nodir durdonalaridan biri "Panchatantra" ("Besh kitob", "Kalila va Dimna") asari milodning (yangi eraning) III-IV asrlarida vujudga kelgan. Bu hikmatli asarning buyuk ahamiyati muqaddima bilan hoshiyalangan. Janubiy Hind o'lkasida Amora-shakti (o'lmas qudrat egasi) nomli dono podshoh bo'lib, u barcha barglari ilm-fanlar bo'lgan jannat daraxtiga o'xshar ekan. Ammo bu podshohning Baxu-shakti (Juda qudratli), Ura-shakgi (Juda dahshatli) va Ananta-shakti (O'ta qudratli) ismli uchta o'g'li bir-biridan ahmoq, tentak bo'lib o'sishibdi. Ular 12 yil ona tili grammatikasini o'qib, hych narsa tushunmabdilar. Podshoh g'amgin bo'lib, dono vazirlarini yig'ib, maslahat so'rabdi. Ular farzandlaringiz tarbiyasini donishmavd Vishnu-sharmanga topshiring, debdilar. Donishmand bu ishga 6 oy muhlat so'rab, shahzodalarga "Panchatantra" hikoyalarini so'zlab beribdi. Shu muqaddima besh kitobni birlashtiradi.

"Panchatantra" m.a. IV asrda noma'lum muallif tomonidan yozilgan. Iskandar va Pur jangidan so'ng hindlar maqduniyalik istilochilarni qirib tashlab, o'zlarining shahzodasi Dobshalimni podshoh qilib ko'garadilar. Ammo u kibru havoga va dabdabaga berilib, xalqqa jabr-zulm qila boshlaydi. Shunda vazirlar yashirin tarzda yig'ilib, donishmavd barahman Boydaboni chaqirib, undan podshohni adolat va insofga, yaxshilikka da'vat qiluvchi bir hikmat yozib berishlikni iltimos qiladilar. Shunda Fil bilan To'rg'ay hikoyasi yuzaga chiqadi. Fil daryo bo'yiga suv ichgani kelganida o'zi bilmagan holda to'rg'ay uyasidagi jajji tuxumlarni sindirib yuboradi. To'rg'ay Filga o'z dardini aytsa, Fil takabburlik bilan qo'pollik qiladi. To'rg'ay o'rmondagi do'sti Qarg'ani ishga solib, Filning ko'zini cho'qitib ko'r qiladi. So'ng qurbaqalarga aytib, ko'rmayotgan Filni jarlikka qulatib yuboradi. Hikoyadan maqsad zolim har qancha qudratli bo'lmasin, jazosiz qolmasligini eslatishdir. Donishmand Boydabo zolim Dobshalim bilan uchrashib, unga fasih so'zlarni aytib, dilini eritadi. Shoh uning nasihatlarini tinglashga rozilik bildiradi. Donishmand

hikmatlarida aytilishicha, inson boshqa joniylardan to'rt xislati bilan farqlanadi: u turli ilmlarni bilishi (1), go'zal xulqli va shirinsuxan bo'lishi (2), vazminlik bilan oqilona ish tutishi (3) va adolatli (4) bo'lishi kerak. Asar davomida shu kabi bir qator hikmatlar keltiriladi. Hind donishmanddari ming yillar davomida bu hikmatlarni aytib jahon xalqlariga yetkazganlar. Qadimgi Hindistonda adabiy-estetik tafakkur mifologik inonch- e'tiqodlarni va umuminsoniy ideallarni ilgari surgan. (X.B., M.M.). P.asari I. G'afurov tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan. "Kalila va Dimna"ni esa S. G'anieva o'giran.

Glossary

Alogizm

Illogics

Mantiqan bir- biriga zid tushunchalarni o'zaro bog'liq holda berish, mantiqiy aloqalarni ongli ravishda buzishga asoslangan usullarning umumiy nomi

Allegoriya

Allegory

Mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko'chim turi

Alliteratsiya

Alliteration

She'riy nutqda bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko'rinishi

Almanax

Almanac

Adabiy asarlar to'plami, nodavriy adabiy nashr. Odatda, almanax tartib berishda muayyan belgilar (asarlar mavzusi, janri, mualliflar yoshi, yashash hududi va b.) asos qilib olinadi

Analiz

Analysis

Adabiy asarning mazmun-mohiyatini idrok etish, uning yaxlit estetik hodisa sifatidagi mavjudligini turli aspektlarda o'rganib, o'ziga xosligini ochib berish va qimmatini belgilashga qaratilgan hissiy-intellektual faoliyat

Analogiya

Analogy

(yunoncha " analogia- o'xshashlik mushtaraklik") adabiy asardagi obrazlar, syujet motivlari, ayrim epizodlar, xarakterlar va shu kabilarda kuzatiluvchi mushtaraklik, o'xshashliklar

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Qadimgi Sharq adabiyoti deganda qaysi adabiyot tushuniladi?
2. Shumerlar adabiyotining o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?
3. "Bilgamish" dostoni mazmunini gapirib bering.
4. Babil va Akkad adabiyoti haqida tushuncha bering.

5. Qadimgi Hind, Xitoy va Eron adabiyotlari haqida nimalarni bilasiz?

Test topshiriqlari:

1. Mifda eng muhimi bu-?

- A) Ishonch
- B) Tasavvur
- C) Mehnatsevarlik

2. Shumerlarning sof asarlari nechiga bo'linadi?

- A) 5 turga
- B) 2 turga
- C) 3 turga

3. "Bilgamish" dostonidagi sevgi ma'budasi kim?

- A) Inanna
- B) Ereshkigal
- C) Bilgamish

4. Qadimgi Babil durdonalaridan bo'lgan falsafiy doston "Babil teoditseyasi"ni ilk bor kim, qachon e'lon qildi?

- A) S.Strong 1895-yilda
- B) F.Marten 1896-yilda
- C) E.Ebiling 1919-yilda

14. Qadimgi Babil va Asseriya adabiyotiga nisbatan qaysi adabiyot nomi qo'llanilgan?

- A) Uyg'onish davri adabiyoti
- B) Akkad adabiyoti
- C) Antik davr adabiyoti

15. Dunyoning yaratilishi haqidagi doston to'g'ri berilgan qatorni toping?

- A) "Avesto"
- B) "Enuma elish"
- C) "Panchatantra"

16. Antik adabiyot nechta davrga bo'linadi?

- A) 3 davrga
- B) 6 davrga
- C) 5 davrga

Asosiy adabiyotlar.

1. Beruniy A. Hindiston. - T.: Fan, 1965.
2. Panchatantra... – T.: "Yangi asr avlodi", 2013.
3. Ramayana T., 1978.
4. Kalila va Dimna. T., G'.G'ulom nashriyoti. 2012.
5. Avesto. T., G'.G'ulom. 2015.

Monografiyalar

1. Frezer Dj.Dj. Folklor v Vetxom zavete.- M.,1990.

2. Turdimov Sh. "Go'ro'g'li" dostoninig genezisi va tadrijiy bosqichlari-T.:Fan, 2011.

Internet ma'lumotlari

1. www.Lib.ru.
2. www.litera.ru.

4-Mavzu: Antik davr yunon adabiyoti.

ReJA:

1. Jug'rofiya va xronologiya.
 - a) Ibtidoiy jamoa tuzumi va uning mafkurasi.
 - b) Quldorlik tuzumi va uning mafkurasi.

2. Antik adabiyotning davrlarga bo'linishi.
3. Homer dostonlari, dostonlarning badiiy xususiyatlari.

Adabiyot xalq hayotining ko'zgidir. U o'z o'rnida xalq hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun antik adabiyotni o'rganishni uni yaratgan xalqlar hayotini o'rganishdan boshlash kerak. Bu xalqlar qadimgi yunonlar va rimliklardir.

Qadimgi yunonlar Bolqon yarim orolining janubini, Egey dengizi orollarini va kichik Osiyo qirg'oqlarini egallashgan. Qadimgi rimliklar esa avvaliga Rim atrofidagi kichik xududni, o'rta Italiyani (Latsium), keyinchalik butun Italiyani, O'rta yer dengizi davlatlarini, shu jumladan Yunonistonni, va nihoyat, yevropa va Old Osiyo davlatlarini egallashgan. Yunon adabiyotining ilk namunalari eramizdan avvalgi VIII asrga, rimliklarniki esa eramizdan avvalgi III asrga to'g'ri keladi. G'arbiy Rim iperiyasining qulashi va Rim adabiyotining tugashi eramizning V asriga borib taqaladi.

Demak, antik adabiyotining boshlanishidan to o'rta asr adabiyoti davrigacha qariyb 1200 yilni o'z ichiga oladi.

Lotin tilidan olingan antuqus so'zi «qadimgi» degan ma'noni anglatadi.

Ammo antik adabiyot deganda hind, fors, misr emas, balki, faqat qadimgi yevropa adabiyoti tushuniladi. Qadimgi Yunon va Rim adabiyoti ana shunday adabiyotdir.

Barchamizga ma'lumki, eng qadimiy tuzum bu ibtidoiy jamoa tuzimidir. Mana shu tuzum avvaliga og'zaki, keyinchalik yozma ijod namunalari yaratgan yunon xalqi hayotini belgilaydi. Bu jamiyatda hali davlatlar paydo bo'lmagan, odamlar esa yaqin qarindosh-urug'larning jamoasi shaklida yashagan. Bu tuzum O'rta yer dengizi havzasida boshqa tuzum - quldorlik jamiyatiga eramizdan avvalgi ming yillikning I yarmida o'tadi.

Qabilachilik tuzumida urug'chilik aloqalari odamlar uchun eng yaqin va tushunarli bo'lgan. Shuning uchun tabiat, dunyoga ham unevernal kosmik jamoa sifatida qaralgan.

Ularning nazarida quyosh, oy, yulduzlar, daryo, tog'lar, va boshqalar bir-biri bilan o'zaro urug'chilik aloqalariga ega bo'lgan. Buni biz mifologiya deb ataymiz.

(Odamlarga xos aloqalarni butun tabiat va dunyoga ko'chirilishi). Demak, mifologiya ibtidoiy jamoa va qabilachilik tuzumining mafkurasidir. U hukmronlik qilgan tuzumning ko'zgusi sifatida dunyoga keldi.

Alohida nndivid bilan hisob-kitob qilmaydigan ibtidoiy jamoa tuzumi kattalashgan sari o'z faoliyatini oqlamay qo'yadi. Jamoa a'zolarini doimiy nazoratdan ozod qilish, quldorlikka asoslangan mehnat erkinligini berish afzalroq bo'lib qoldi. Shu bilan birga quldorlik tuzumi alohida fan, sanoatni rivojlantiruvchi ijtimoiy qatlamni ozod qildi. Urug'chilik avtoritetlaridan ozod bo'lish, individual dunyoqarashning erkinligi yangi mafkurani yaratishga imkon yaratdi.

Endi mifologiya kishilarni qanoatlantirmas edi. Tabiatni ilmiy tahlil qilish (oddiy usulda) uchun dastlabki urinishlar paydo bo'la boshladi.

Bu paytda insonning butunlayin erkinligi to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas edi. Inson boshqa shaxs tomonidan boshqariladi. Moddiy boyliklarini ishlab chiqaruvchi kishi qul hisoblanadi. Mehnatni tashkil etuvchi esa quldordir. Tabiatga tirik jonzot deb qarash davom etdi. Lekin uni xudolar va yovuz kuchlar emas, balki qandaydir qonunlar boshqaradi deb tasavvur etishar edi. Bu eski mifologiyani tubdan yangilashga sabab bo'ldi. Ammo mifologiya keyinchalik ham butunlay yo'q bo'lib ketmadi. U butun antik davr mobaynida badiiy obrazlar sifatida yashadi.

Shu bilan bir qatorda, insonning ichki dunyosida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Insonlarning ma'naviy ehtiyojlari bir-birlaridan farq qila boshladi. Ushbu yangi ijtimoiy-tarixiy tuzum va uning mafkurasini Yunonistonda miloddan avvalgi ming yillikning birinchi yarmida dunyoga keldi. Bu paytda yangi ijtimoiy-tarixiy tuzumni aks ettiruvchi Yunon adabiyoti ham paydo bo'ldi.

Yuqoridagi ikki ijtimoiy tuzum xarakteristikasidan kelib chiqib, antik adabiyotni quyidagi asosiy davrlarga bo'lamiz:

1. Birinchi davr (sinfiy davrgacha yoki arxaik davr);
2. Yunon adabiyotining antik davri. (er. av. V-IV asr)
3. Ellinistik va Rim davridagi Yunon adabiyoti.
4. Rim adabiyoti. Respublika davridagi Rim adabiyoti (er. av. III-I asr)
5. Imperiya davri Rim adabiyoti. (eramizdan av. I asrdan eramizning V asrigacha)

Yunonlarning bizgacha yetib kelgan qadimgi yozma adabiyot namunasi «Iliada» va «Odisseya» dostonlaridir. Ularning muallifi Homer sanaladi. Bu yetuk asarlar uzoq yillar davomidagi rivojlanishning mahsuli ekanligiga shubha yo'q. Ammo hych qanday yozma asarlar bizgacha yetib kelmagan.

Antik davr olimlari, masalan Arastu Homergacha ham shoirlar bo'lganligiga hych shubha qilmagan. U paytlar haqida faqat mifologik xarakterdagi hikoyalar yetib kelgan xolos. Arxeologik qazishmalar natijasida qadimgi Yunoniston haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Arxeologik qazilmalar davomida Genrix Shliman (1822-1890) Miken yodgorliklarini topdi, natijada Miken madaniyati kashf etildi (1876). Shu bilan birgalikda, Shliman Qadimgi Troya shahri qoldiqlarini ham topdi.

«Iliada» va «Odisseya» ning yaratilish vaqti, sharoiti haqida ma'lumotlar saqlanmagan. Ana shu dostonlarning yaratilishi bilan bog'liq jumboqlar, murakkab

va oxirgacha hal bo'lmagan muammolar «Homer masalasini» keltirib chiqardi. Har ikkala doston syujeti ham yunonlarning Troya shahriga yurishi va Troya urushi haqidagi qahramonlik afsonalaridan olingan. Unga ko'ra Troya shahzodasi Paris mehmondo'st Sparta shohi Menelaydan bir talay boyliklari va go'zal xotini yelenani o'g'irlab ketadi. Bundan g'azablangan Menelay va akasi Agamemnon qo'shini bilan Troyaga yurish qiladi. Ular 10 yil davomida natijasiz urish olib boradilar. Va nihoyat, hiyla bilan (yog'och ot ichida) shaharga kirib Troyaga o't qo'yadilar. yelena Menelayga qaytariladi. Ammo yunon qahramonliklarining uylariga qaytishi oson kechmaydi. Ana shu voqyealarning jamlanishi yunon mifologiyasining «Troya turkumi» ni tashkil etadi. Homer eposigacha Troya urushi haqidagi qissa avloddan-avlodga o'tib, o'zgarishlarga uchrab yetib kelgan.

Homer dostonlari og'zaki xalq adabiyoti asosida yaratilgan epopeyaning klassik namunasidir. Ammo har ikkala doston folklor asarlarga xos oddiylik, soddalikdan ancha yuqori turadi.

Homer usuli realistik usul hisoblanadi, ammo bu oddiy, sodd realizmdir.

Agar ibtidoiy jamoa tuzumi xalq og'zaki ijodi qahramonlari tussiz, bir qolipda tasvirlangan bo'lsa, Homer o'z dostonlarida keng miqyosidagi individual xarakterlar galereyasining yaratadi. Homerning qahramonlari qanchalik ko'p bo'lmasin, hych qaysisi bir-birini takrorlamaydi, o'ziga xos xarakterlari bilan ajralib turadi. (Axill va Odissey obrazlarining tasvirlanishi misol bo'la oladi).

Homer detallarni tasvirlashga katta e'tibor beradi. Oddiy, jo'n tasvirlashning usuli «Xronologik nomutanosiblik qonuni» deb ataladi. Dostonlarda ikkita bir vaqtda sodir bo'lgan voqyea parallel holda emas, huddi birin-ketin bo'layotgandek tasvirlanadi. Ya'ni, bir voqyea tasvirlangandan so'ng, hikoyachi ortga qaytmaydi, ikkinchi voqyeaga o'tadi, xuddi ikkinchi voqyea keyin bo'lib o'tganday tasavvur paydo bo'ladi.

Asardagi voqyealar rivojida «Ilohiy kuchlar» katta rol o'ynagan. Homer tasvirlagan xudolar uchun 2 ta vaziyat xarakterli hisoblanadi: 1)Homer xudolarni qadim yunonlar dinidagiga nisbatan insonlarga ancha yaqin qilib tasvirlagan; 2) Xudolar bir qancha salbiy xislatlarga ega: injiq, ayovsiz, bir-birlari bilan doim qupol muomalada bo'ladilar;

«Oddiseya» dostoni Homerning birinchi dostonidan farq qiladi. «Iliada» qahramonlikni madh qiluvchi doston bo'lsa, «Odissey» maishiy xarakterga egadir. Dostonning asosini Itaka shohi Odisseyning Troya urushidan keyingi sarguzashtlari tashkil etadi. 10 yil davomida o'z vataniga qayta olmay, dengiz to'lqinlarida adashib, begona yurtlarda daydib yuradi. Doston keyinchalik antik davr olimlari tomonidan 24 bobga bo'lingan.

Juda ko'p joylarda bo'lgan Odissey katta qiyinchiliklar bilan o'z yurtiga qaytib keladi. O'g'li Telex yordamida xotini Penelopaga uylanmoqchi bo'lganlarni munosib jazolaydi.

Homerdan keyingi yaratilagn epik dostonlarning barchasi, ularning qanday afsonalarga asoslanganiga qarab ayrim turkumlarga ajratilgan. Turkum dostonlaridan bizgacha ayrim parchalargina yetib kelgan xolos. Qadimgi davrlarda «Troya turkumi» dostonlari keng tarqalgan.

«Troya turkumi» dostonlariga kiritilgan. «Kipriya» da Troya urushining sabablari haqida hikoya qilinadi. Unga ko'ra yer Zevsga odamlar ko'payib ketganligi haqida shikoyat qilgan, Oliy maobud o'zining go'zal qizi yelena yordamida insonlar o'rtasida urush olovini yoqadi.

«Efipida» dostonida «Iliada» da tasvirlangan voqyealardan keyingi davr haqida hikoya qilinadi. «Kichik Iliada», «Iliadaning vayron bo'lishi» dostonlarida esa Troya urushining oxiri bayon etiladi. «Qaytish» dostonida yunonlarning vatanlariga qaytishi tasvirlanadi. Masalan:

1. Tila podshohi Nestor, yelena bilan Menelayning o'z ona yurtlariga qaytishlari uchun bir necha yil kerak bo'ladi;
2. Axillning o'g'li Neoptolem Andromaxa bilan eson-omon Vataniga qaytadi;
3. Agomemon asirasi Kassandra bilan yurtiga qaytgach, xotini Klamen va uning jazmani Egisf tomonidan o'ldiriladi.

«Telegoni» Troya turkumidagi oxirgi doston bo'lib, unda Odisseyning so'nggi kunlari tasvirlanadi. Itaka podshohining Kirdan tug'ilgan o'g'li voyaga yetkach, o'tasini axtarib Itakaga keladi. Ota-bola bir-birlarini tanimay yakkama-yakka jangga chiqadilar, natijada Odissey o'z o'g'li tomonidan o'ldiriladi (Rustam va Suxrob singari).

Xalq dostonlarining muhim belgilaridan biri - ularning kuyga solib aytilishidir. Shoir bir xil maonodagi bir-biriga o'xshash voqyealarni asar davomida bir necha bor takrorlaydi (Janglar, otlar yurishi, qurol-yarog' taorifi va b.). Olimlarning hisoblariga qaraganda, aynan yoki salgina o'zgarish bilan takrorlanadigan misralar har ikkala dostonning uchdan bir qismini tashkil etadi. Baxshilar kuylashini hisobga olib shunday usuldan foydalanilgan bo'lishi mumkin.

Glossary

Annotatsiya	Annotation	(lotincha "annotatio- izoh, sharh") asar mazmuninig qisqacha bayoni.
Antologiya	Anthology	Biror milliy adabiyot, davr, adabiy yo'nalish va shu kabilarga mansubligi jihatidan tanlangan ijodkorlar asarlaridan namunalarni jamlovchi to'plam
Apostrofa	Apostrophe	(yunoncha "apostrophe- bir tomon og'ish") narsa yoki hodisaga xuddi jonli mavjudotga kabi murojaat etish asosida yuzaga keluvchi stilistik figura
Argo	Argot	Jamiyatdagi yopiq ijtimoiy guruhlarga mansub kishilarga xos nutq ko'rinishi, ba'zan jargon terminiga sinonim sifatida ham ishlatiladi
Arxaizm	Archaism	Eskirgan, iste'moldan chiqqan so'z yoki grammatik shakllar. Arxaizmlardan tarixiy mavzudagi asarlarda davr koloritini berish, qahramonlar nutqini

individuallashtirish kabi maqsadlarda foydalaniladi

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Antik adabiyot deganda qanday adabiyot tushiniladi?
6. Mifologiya adabiyotga qanday ta'sir ko'rsatgan?
7. Yunon adabiyoti qanday davrlarga bo'linadi?
8. Qadimgi Yunon yozma adabiyotining ilk vakili va uning asarlari haqida nimalar bilasiz?
9. «Homer masalasi».
10. «Xronologik nomutanosiblik qonuni» ni tushuntirib bering.
11. «Troya turkumi» ga qaysi dostonlar kiradi?

Adabiyot:

1. Alimuhamedov N. Antik adabiyot tarixi, T., O'qituvchi, 1980.
2. Tronskiy N. Istoriya antichnoy lit., M., Vysshaya shkola, 1988.
3. Kun. Qadimgi Yunonistonning afsona va... T.
4. Homer Iliada, T., G'G'ulom nom. adab. va sanoat, 1998
5. Esxil. Zanjirband Promotey. T., 1978.
6. Sofokl. Shoh Edip. T., 1979.
7. Evripid. Medeya. T., 1985.

5-MAVZU: QADIMGI RIM ADABIYOTI.

(ma'ruza - 2 soat, seminar - 2 soat)

Reja:

1. Eramizdan oldingi III va II asr birinchi yarmida Rim jamiyati va dastlabki Rim shoirlari.

2. T. M. Plavt ijodi.

3. Tsitseron va Lukresiy ijodi.

4. Vergiliy, Goratsiy va Rim ellegiyasi.

5. Ovidiyning adabiy faoliyati.

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar.

Rim adabiyoti. Lirikalar. Nasr. Drama. Komediya. Avgust asri adabiyoti. Rim adabiyotining «oltin davri». Bukolikalar. Georgikalar. qasidalar. Nomalar. Dostonlar.

Yunon xalqi o'zining mustaqilligidan ayrilib ilmu-fan, san'at va adabiyot sohasida to'xtovsiz inqirozga ketayotgan bir davrda Italiya tuproqining G'arbiy qirg'oqida antik dunyo adabiyotining ikkinchi tarmoqi-Rim adabiyoti paydo bo'la boshlaydi. Yangi adabiyot Italiya yerlarini birlashtirish ishida ko'proq xizmat lug'at lotin qabilasi tilida yaratiladi. Rim adabiyotining tug'ilishi, ravnaq topishi va nihoyat

tanazzulga ketish holatlari ham xuddi yunon adabiyoti singari quldorlik jamiyati sharoitlarida kechgan. Rim adabiyotining beshigini tebratgan, uni atak-chechak qildirgan va nihoyat voyaga yetkazishga ko'maklashgan kishilar chindan ham Homer, Evripid, Sofokl, Demosfen, Pindar va yunon adabiyotining boshqa ulug' zollari bo'lgan. Biroq har ikkala xalqning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivoji hamda halokati o'rtasida umumiy o'xshashlik bo'lishiga haramay, Rim quldorlik jamiyatining o'sish va yemirilish jarayoni tamomila boshqa bir tarixiy sharoitda, bo'lak bir geografik muhitda sodir bo'lgan, butunlay o'zgacha sur'at bilan taraqqiy etgandir. Madomiki, shunday ekan, Rim jamiyati yunon jamiyati bosib o'tgan yo'ldan borgan bo'lsa ham, Rim jamiyatining yo'li ancha murakkab bo'lgan, jamiki protsesslar o'zgacha bir tusda takrorlangan. Binobarin, Rimliklar yunon jamiyati yaratgan qaysi bir ma'naviy merosni qabul qilmasinlar, avvalo bu merosni o'zlarining milliy ehtiyojlariga, g'oyaviy talablariga, tarixiy sharoitlariga moslashtirib qabul lug'atlar, uni lotin tuproqi zaminiga monand taraqqiy ettirganlar.

Eramizdan avvalgi IV asrning oxiri III asrning boshlarida Rim davlati Italiya yerlarining asosiy qismini egallab, Yunonistonda bo'lgani kabi, qulchilik asosiga qurilgan demokratik polis tuzumini joriy etadi. Italiyaning janubiy qirg'oqlarini va Sitsiliya orolini egallash Rim jamiyati tarixida ayniqsa juda muhim voqea bo'lgan.

Birinchi Rim shoiri yunonistonlik Liviy Andronik (284-204) bo'lgan. Rimliklar janubiy Italiyadagi Tarent shahrini ishg'ol etganlarida uni asir olib, Rimga keltiradilar. Keyinchalik qullikdan ozod qilingan Andronik shu yerda qolib Rim maktablarida yunon va lotin tillaridan muallim bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki yunon maktablarida qo'llanilgan asosiy darslik Gomer poemalari bo'lgan. Lotin tilida bunday asarlarning yo'qligi vajidan Andronik qadimgi Saturn vaznida «Odissey» dostonini lotin tiliga tarjima qiladi.

Liviy Andronik Rim adabiyoti bahorini boshlab kelgan birinchi qaldirqochdir. Shundan so'ng ko'p o'tmay yangi badiiy ijod bog'ida boshqa qushlarning navolari eshitila boshladi. Shulardan dastlabkisi Gnney Neviydir (taxminan 270-200 yillar) o'rtasida yashagan. Bu shoir ham xuddi Andronik singari o'zining tragik asarlarining mazmunini yunon yozuvchilari asarlaridan olgan. Ammo shu bilan birga o'z vatani hayotidan olingan mavzularda tragediyalar yaratish kabi sharaflil ulug' vazifa Rim tarixida birinchi marta Neviy zimmasiga tushadi. Milliy mavzudagi bu xilda yozilgan tragediyalarning qahramonlari sahnaga Rim senatorlari kiyadigan alvon hoshiyali ustki libos, ya'ni PROTEKSTA kiyib chuqadilar. Shu sababli mazkur asarlarni PROTEKSTATA deb ataganlar. Neviy yozgan protekistatalardan biz faqat ikkitasining nominigina bilamiz. Bular «Romul» va shoirning zamondoshi Klavdiy Marselning Klastidiy shahri yaqinida gallar bilan bo'lgan jangi haqidagi «Klastidiy» tragediyasidir.

Neviy talantining eng yuqori cho'qqisi «Pun urushi» dostonidir. Rim milliy dostonchiligiga asos solish jihatidan bu asar lotin adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadi. Doston yaqinda bo'lib o'tgan birinchi Karfagen urushi voqealariga bag'ishlangan. Biroq asarda xuddi Gomer dostonlarida bo'lgani kabi, real tarixiy hodisalar mifologik afsonalar bilan chatishgan holda tasvir etiladi.

Dastlabki Rim shoirlari orasida eng yirigi, albatta Kvint Enniy (239-169) bo'lgan. Uning ona yurti Italiyaning janubidagi Kalabriya viloyatida yunon

madaniyati qadim zamonlardan beri keng yoyilgan bo'lib, shoir ilk bolaligidan ellin falsafasi va adabiyoti ta'sirida tarbiyalanadi.

Yunon tragediyanavislari orasida Enniyni ko'proq qiziqtirgan shoir Evripid bo'lgan. Rim shoirining Italiya sharoitiga moslashtirib, qayta ishlagan variantlari orqali tomoshabin ulug' yunon adibining qator asarlari - «Gekuba», «Ifigeniya», «Aleksandr», «Medeya» va boshqa tragediyalari bilan tanishadi. Bizga qadar yetib kelgan ba'zi parchalardan tragediya sohasida Enniyning nihoyatda mohir san'atkor bo'lganligi qahramonlarning ichki dunyosini ochishda, ayniqsa, ularning ehtirosli, jo'shqin holatlarini ko'rsatishda oldingi shoirlardan ancha yuqorilagani yaqqol sezilib turadi.

Enniy o'zining o'tkir mahoratini «Annallar» (Solnomalar) dostonida yanada kengroq namoyish lug'at. 60 000 misradan iborat 18 bob (Bizga qadar 1200 misrasi yetib kelgan) salmoqdor bu asar Enniyning Troyani tashlab qochishdan boshlanib, to shoirning zamonasiga qadar davom etgan butun Rim tarixini o'z ichiga oladi.

2) PLAVT-ulug' Rim komediyanavisi. Tit Makk Plavt (taxminan 250-184 y) Italiyaning Umbriya viloyatida tug'iladi. Shoirning eng o'tkir va maroqli asarlaridan biri «Maqtanchoq jangchi» komediyasidir. Asarning boshlanishidayoq biz bosh qahramon Pirqopolinik bilan tanishamiz. Bu G'arbiy amaldor egniga alvon kamzul, boshiga jig'ali dubulqa kiyib, bahaybat shamshir, yaltiroq qalqon ko'tarib, jingalak sochlarini selkillatib navkarlar bilan ko'chada savlat to'kib yurar ekan, har doim o'zining jang maydonida ko'rsatgan mislsiz bahodirliklari, go'zal xonimlar bazmida surgan ishratlarini doston qiladi. Biroq bu oliftaning turish-turmushi, hamma gaplari quruh maqtanchoqlik xolos. Haqiqatda esa u hech qachon jang maydoniga kirmagan, o'zi ham o'lguday qo'rqqoq, ayollar bilan qurgan bazmlari esa g'irt yolqon.

Plavtning «Xumcha» komediyasi ham o'zining badiiyligi va sotsial mohiyati jihatidan «Maqtanchoq jangchi» asaridan qolishmaydi. Bu komediyaning asosiy mavzusi boylukning inson xulqini buzadigan yaramas ta'sirini ko'rsatishdan iborat. Ayni zamonda Rim jamiyati uchun bu masala juda muhim bo'lgan.

SITSERON-o'zining otashnafasligi bilan Demosfen darajasida turadigan va antik dunyoning ikkinchi ulug' so'z ustasi sifatida tanilgan notiq Mark Tulliy Tsitserondir. Tsitseron eramizdan avvalgi 106 yilda Rimdan uncha uzoq bo'lmagan Arpina shaqrida tug'iladi. Tsitseron so'z san'atiga atab anchagina asar yozgan. Shular orasida uchtasi - «Orator haqida», «Brut», va «Orator» mazmunda ham, shaklda ham eng qimmatbaho asar sanaladi. Notiq o'z asarlarida nutqning uslub masalalariga nihoyatda katta e'tibor beradi. Ma'lumki avtorning zamonasida Osiyo uslubi tarafdorlari bilan attika uslubi tarafdorlari o'rtasida kuchli tortishuv borar edi. Uslubda barharorlikni, doimiylikni talab etgan attikachilar, har qanday nutqning oddiy, sodda va aniq bo'lishini talab lug'atlar. Tsitseron «Brut» va «Orator» risolalarida attikachilarning fikriga qarshi chiqib, tamomila harama-qarshi da'volarni oldinga suradi. Uning aytishicha har qanday notiqning ko'zda tutgan asosiy maqsadi - tinglovchining zavqini uyg'otib o'ziga moyil qilishdan iboratdir. Modomiki shunday ekan, chinakam so'z san'atkori sharoitga harab, mavjud uslublarning hammasidan bab-baravar foydalanishi zarur. Tsitseron o'zining fikrlarini isbotlash maqsadida Demosfen ijodiga murojaat qilib attika so'z

san'atining ulug' namoyondasi faqat oddiy va sodda uslubnigina emas, shuningdek jo'shqin va hayajonli nutqning beqiyos ustasi bo'lganligini misol keltiradi.

«Xullas... kimki jo'n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o'rtamiyona, ulug' hodisalar haqida-zavq-shavq bilan gapirsa-shu odam o'z san'atining chinakam ustasidir» («Orator»). Umuman aytganda Tsitseron risolalarida notiq'larga beriladigan amaliy maslahatlar juda ko'p va rango-rang va shu qadar mazmundorki, ularni batafsil bayon etishning aslo iloji yo'q. Tsitseron nutqlarining xotima qismlarida, ayniqsa ko'proq ishlatiladigan, tumtaroqli, balandparvoz iboralar a'zoyi badanni harakatga keltirib, ma'budlarga harata aytiladigan xitob va nidolar, adolat va erkinlik sha'niga o'qiladigan taqsin va maqtovlar-haqiqatdan ham tinglovchilarda kuchli taassurot qoldirib, ishning notiq foydasiga hal etilishini ta'min etadi. Bu esa Tsitseronning buyuk so'z ustasi va notiq ekanligidan dalolat beradi. Yevropa madaniyatining rivoji va ravnaq topishi yo'lida ko'rsatgan xizmatlari jihatidan Rim yozuvchilarining birontasi Tsitseron oldiga tusholmaydi. Yangi zamon kishilari Tsitseronga proza janrining beqiyos daqosi, notiqlik san'atining ulug' timsoli deb haraydilar.

LUKRESIY-ichki g'alayonlarni tugatish, zamondoshlariga ma'naviy tasalli berish maqsadida Epikur falsafasini tashviq lug'at mutafakkir shoirlarning eng yirigi 6 bobdan iborat «Buyumlar xislati» poemasi muallifi Tit Lukresiy Kardir (98-55). Shoir haqida tarix sahifalarida ishonchli ma'lumotlar yo'q. Eramizdan keyingi IV asrda yashagan xristian adibi Ieronimning aytishicha «go'yo ishq sharobi» ni ichib devonalikka tushib qolgan shoir «Buyumlar xislati» asarini faqat qushyor paytlarda yozib, telbalik qattiq xuruj lug'at paytda o'zini o'ldirib qo'yadi. Muallifning o'limidan keyin poemani Tsitseron nashr qildirgan.

Lukresiyning beqiyos xizmatlari ham Epikur atom nazariyasini batafsil bayon lug'atligidadir. Chunki materializm tarixini, ilmiy tafakkur taraqqiyotini o'rganish bobida xuddi shu ta'limot benihoya katta ahamiyatga egadir.

VERGILIY-Imperatorlik davrining bayroqdori, Rimning ulug' shoiri Publiy Vergiliy Maron eramizdan avvalgi 70 yilda Italiyaning shimoliy qismidagi Mantuya shahri yaqinida tug'iladi. Vergiliy oldin Kremonda, so'ngra Milan, Rim shaharlarida durustgina tahsil oladi: zamonasining yoshlari singari ritorika, falsafa bilimlarini, ayniqsa adabiyotni har tomonlama, mufassal o'rganadi. Ammo shoirning sokin hayoti uzoq cho'zilmaydi. 41 yili Oktavian Avgust o'zining qo'shinlarini Italiyaning shimoliy qirg'oqlaridagi yerlarga joylashtirganda Vergiliyning mulki ham musodara qilinadi. Bu paytlarda she'riyat olamida anchagina ko'zga ko'rinib qolgan Vergiliyning ba'zi mansabdor muxlislari (Pollion, Mesenat) shoirga iltifot ko'rsatib turli in'om va ehsonlar bilan uning ko'nglini oladilar. Shular vositasida shoir Oktavian Avgust bilan tanishadi va zamonasining badavlat va boobro' kishisiga aylanadi. Shoir ko'proq Italiyaning janubiy qirg'oqlarida Sitsiliyada yashaydi. Vergiliy hammasi bo'lib uchta asar yozgan:

«Bukolikalar» (Cho'pon she'rlari)

«Georgikalar» (Dehqon she'rlari)

«Eneida» dostonidir.

Eneida dostoni voqealar bo'lib o'tgan yerlar bilan tanishish maqsadida eramizdan oldingi 19 yilda Vergiliy Yunoniston hamda Kichik Osiyo safariga jo'naydi. Biroq salomatligi zaifligidan yo'l mashaqqatlarini ko'tara olmay, Afinada og'rib qoladi va tezlik bilan orqasiga qaytib arang yurtiga yetib keladi va tez kunda olamdan o'tadi.

Vergiliyning birinchi yirik asari «Bukolikalar» o'nta she'rdan iborat to'plamdir. Bu to'plamga kiritilgan she'rlarni ko'pincha eklogalar ya'ni she'riy parchalar ham deb yuritishgan. Vergiliy cho'ponlarning osuda, betashvish hayotini ahyon-ahyonda buzib turishadi. Masalan: Italiyaning shimoliy qismlaridagi yerlarni Oktavian qo'shinlari tomoniga musodara qilish munosabati bilan dehqon ommasi boshiga tushgan og'ir kunlarni ba'zi eklogalarda aniq ko'rishimiz mumkin.

Georgikalar poemasi mazmun jihatidan birinchi poemaga o'xshash. Necha o'n yillab davom etgan urush oqibatini tugatish, vayron bo'lgan mayda va o'rtahol dehqon xo'jaliklarini tiklash, umuman dehqonchilikni rivojlantirish masalalari, yurtning osoyishtaligi, xalqning tinchligi yo'lida qayg'urgan chinakam vatanparvar shoir shu asnoda asarini yozadi.

Assonans	Assonance	(lotincha “ <i>assonare</i> - uyg'un jaranglash”, fransuzcha “ <i>assonance</i> - ohangdoshlik”) she'riy nutqda bir xil unlilar takroriga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko'rinishi, she'rga xushohanglik baxsh etadi, musiqiylikni kuchaytiradi
Atributsiya	Attribution	(lotincha “ <i>attribution</i> -nisbat bermoq”) matnshunoslik sohasi oldida turuvchi asosiy ilmiy muammo (vazifa)lardan biri, adabiy asarning muallifi, yozilgan vaqti yoki joyini aniqlash, evrestika.
Aforizm	Aphorism	(yunoncha – “ <i>aphorismos</i> - ta'rif, ixcham ifoda”) muallifi ma'lum bo'lgan, ixcham shaklda va ta'sirli ifoda etilgan umumlashma fikr
Bag'ishlov	Dedication	Asarning biror bir shaxsga bag'ishlanganligini ifoda etuvchi qismi, debocha
Belletristika	Belles lettres	(fransuzcha “ <i>belles lettres</i> - so'z san'ati, nafis so'z”) keng ma'noda umuman so'z san'ati, badiiy adabiyot ma'nosini bersada, bu atama turlicha ma'nolarda ishlatiladi. 1) nasriy yo'lda yozilgan adabiy asarlarni bildiradi; 2) so'z san'ati ma'nosidagi adabiyotga taalluqli asarlarni badiiy qi,atiga ko'ra darajalash maqsadida klassika bilan ommaviy

adabiyot orasidagi hodisa ma'nosida
qo'llaniladi

Test topshiriqlari:

1. Rim adabiyotini boshlab bergan birinchi qaldirg'och kim?
A) Kvint Enney
B) Tit Makk Plavt
C) Liviy Andronik
2. Terensiyning adabiy faoliyati qancha vaqt davom etadi?
A) 15 yil
B) 6 yil
C) 10 yil
3. "Buyumlar hislati" asarining muallifi to'g'ri berilgan qatorni toping?
A) Tit Lukretskiy Kar
B) Gay Yuliy Sezar
C) Tit Makk Plavt
4. Publiy Vergiliy Maronning asarlari to'g'ri berilgan qatorni toping?
A) "Qasidalar", "Epidlar"
B) "Bukolikalar", "Georgikalar", "Enieda dostoni"
C) "Satiralar", "Nomalar", "Bayram gimni"

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A. Alimuhamedov. T. 1975 yil «Antik adabiyot tarixi».
2. Oybek tahriri ostida T., 1940y «Rim adabiyoti bo'yicha xrestomatiya».
3. F. Sulaymonova. T., 1997 yil «Sharq va G'arb».

6-mavzu: Tarixiy va falsafiy proza.

ReJA:

1. V-IV asrlarda proza adabiyoti.
2. Gerodotning "Tarix" asari.
3. Fukidid. Tarix predmetiga yangicha yondashuv.
4. Aflotun va Arastu asarlari.
5. Notiqlik.

V asrning ikkinchi yarimlarida she'riy adabiyotning doirasi borgan sari torayib, prozada yozilgan asarlar soni beto'xtov orta boradi va keyinchalik attika davrining oxirlariga qadar nasriy shakl yunon adabiyotining yetakchi turi bo'lib qoladi.

Tarixiy proza—asari bizga qadar to'la holda yetib kelgan tarixiy prozaning eng birinchi nomoyondasi **Gerodotdir**. U taxminan m.o. **485 yilda Kichik Osiyodagi Galikarnas shahrida tug'iladi**. Uning otasi o'z davrining anchagina badavlat odami

bo'lgan. Gerodot yoshlik paytlaridan o'z vatanining siyosiy faoliyatida faol qatnashadi, keyinchalik ma'lum sabablarga ko'ra ona yurtini butunlay tark etib, sayohatlarda yuradi. Misr, Eron, Bobil, Finikiyani, Qora dengizning shimoliy qirg'og'idagi Yunon mustamlakasi Skifiyani, Yunoniston tuprog'idagi qancha-qancha shaharlarni kezadi, ammo uning eng sevimli oshiyoni va ma'naviy vatani Afina shahri bo'lgan. Yozuvchi bu yerda ko'pdan-ko'p do'stlar orttiradi, Perikl hamda Sofokl bilan yaqin munosabatda bo'ladi. 444 yili Italiyaning janubidagi Yunon mustamlakasi Furiyaga ko'chib ketadi va 425 yilda shu yerda vafot etadi.

Gerodotdan qolgan asarlar ichida eng muhimi va qimmatli ma'lumotlar bilan jahon tarixini boyitib kelayotgan asarining nomini «**Tarix**» ya'ni «**Tadqiqot**» dyeb atagan. Aleksandriya olimlari bu asarni to'qqiz bobga bo'lib, har birini yunon mifologiyasidagi to'qqizta muza nomi bilan ataganlar. **Asar yaqindagina bo'lib o'tgan Eron-Yunon urushiga bag'ishlangandir.**

Biroq yozuvchi eroniylar bilan yunonlar o'rtasidagi urush tarixini boshlashdan oldin, ana shu xalqlarning uzoq o'tmishlari, ularning qaysi xalqlar bilan munosabatda bo'lganliklari va kimlar bilan urushganliklari haqida to'la ma'lumot berib o'tadi. Binobarin o'sha zamonlarda yunonlarga tanish bo'lgan xalqlarning tarixlari ham ma'lum darajada aks ettirilgan bo'lib, bu holat Gerodot asarini jahon tarixi darajasiga ko'taradi. Yozuvchi eroniylar bilan yunonlarning dastlabki to'qnashuvlarini ko'rsatish maqsadida birinchi kitobni Kichik Osiyodagi Lidiya davlatining Eron podshohi Kir (Kayxisrav) tomonidan bosib olinish voqyealaridan boshlaydi. Yozuvchi Kayxisravning urushlari haqidagi bayonotini davom ettirib, Bobilning zabt etilishi va nihoyat Kaspiy dengizining sharqiy tomonida Sir va Amu daryolari o'rtasidagi bepoyon sahroda yashovchi ko'chmanchi massagetlar bilan bo'lgan urushda Kayxisravning vafotidan so'ng Eron taxtiga o'tirgan shahzoda Kambiz otasining bosqinchilik siyosatini davom ettirib Misr ustiga yurish boshlaganini hikoya qiladi. Gerodot bu mamlakat tarixiga ham mufassal to'xtalib, yana Eron tarixiga qaytadi. Doroning podshoh bo'lib ko'tarilishi va Skiflar mamlakatiga lashkar tortib borishi haqida gapiradi va bu yurtning ham to'liq tarixini yoritib beradi. Gerodotning Skiflar haqidagi ma'lumotlari biz uchun nihoyatda qimmatlidir, mamlakatimizning g'arbiy-janubida Dnepr hamda Don daryolari sohillarida Qora dengiz qirg'oqlarida yashagan eng qadimgi xalqlar to'g'risida gapirganimizda avvalo ulug' yunon muarrixining shahodatlariga murojaat qilamiz. Doroning skiflarga qarshi boshlagan urushi munosabati bilan Kichik Osiyo xalqlari, ayniqsa yunon qabilalari o'rtasida Eron hukmronligiga qarshi kuchli g'alayonlar boshlanadi. Yozuvchi voqyealarni shu tariqa tasvirlab kitobxonni asta-sekin o'z asarining asosiy mavzusi Eron-Yunon urushiga olib keladi. Asarini 478 yil voqyealari bilan bayonotni to'xtatadi. Bevaqt o'lim asarni oxiriga yetkazishga imkon bermagan bo'lsa kerak.

O'rta Osiyo tarixini o'rganish borasida Gerodotning asari ayniqsa juda muhim o'rin tutadi. Muarrix bu tomonlarga qadam bosmagan bo'lsada, yurtimizning uzoq o'tmishi haqida yaxshigina ma'lumotlar beradi. Uning aytishicha Kaspiy dengizi sohillaridan boshlab Sirdaryoning o'rtalariga qadar cho'zilib boradigan keng sahroda massaget deb atalgan ko'chmanchi qabilalar yashagan, ular hyech qanday ekin ekmasdan, faqat chorvachilik bilan kun kechirganlar, ovqatlari mol go'shti va

baliq bo'lgan, ular temirni bilmagan, hamma asboblari misdan yasalgan, ayollari erkaklar bilan birga janglarda qatnashgan, hatto qabila boshlig'i ham etib saylanar ekan.

Gerodotdan minnatdor bo'lishimizning yana bir sababi: adabiyotimizning eng qadimgi yodgorliklaridan biri bo'lgan «To'maris» qissasi faqat shu odam tufayli bizning zamonga qadar yetib kelgan. Turon xalqlarining ahamoniylar bosqiniga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan jasur sarkarda. (To'maris. Gerodotning "Tarix" (mil. avv. V asr) asarida yozilishicha, Ahamoniylar davlati asoschisi Kir II mil. avv. 530-yilda Turonga bostirib kirganida, To'maris massagetlar qabilasining malikasi bo'lgan. Massagetlar bu paytda Amudaryo (Araks) bo'ylari va Qizilqumda yashashgan. To'maris massagetlar podshosining xotini bo'lib, u erining vafotidan so'ng davlatni boshqargan. Erondan kelgan bosqinchilar qo'shini bilan massagetlar o'rtasida shiddatli janglar bo'lgan. Dastlabki jangda To'marisning o'g'li Sparangiz (Sparganis) boshchiligidagi massagetlar g'olib chiqqan. Biroq keyingi jangda forslar hiyla yo'li bilan Sparangiz va ayrim massagetlarni asir olishganda, or-nomusga ehtiyat olmagan Sparangiz o'zini o'ldirgan. To'maris o'g'lining halokatidan esankirab qolmay, o'z xalqining manfaatini o'ylab, Kir II dan massagetlar yurtidan chiqib ketishini so'raydi. Biroq forslar shohi rad javobini bergach, ikki o'rtada uyovsiz jang bo'lgan. Gerodot massagetlar va forslar o'rtasidagi jang tafsilotlarini o'z asarida quyidagicha tasvirlaydi: "Mening bilishimcha, bu jang varvarlar o'rtasidagi barcha janglardan ham dahshatli bo'lgan. Avval har ikkala qo'shin bir-birini uzoq masofadan turib, kamondan o'qqa tutdilar. Kamon o'qlari tugagach, ular nayza va qilich bilan kurashdilar. Jang uzoq vaqt davom etdi. Ko'p qon to'kildi. Nihoyat, massagetlar g'alaba qozondilar. Fors qo'shinlarining asosiy qismi, jumladan, Kir II ham jang maydonida halok bo'lgan. U to'liq 29 yil shohlik qilgan edi. Kir II ning jasadi topilgach, malika (To'maris)ning buyrug'i bilan uning kesilgan boshi inson qoni bilan to'lg'azilgan meshga solingan").

Tarixiy prozaning ikkinchi vakili Fukididdir. Bu adib haqida ham yetarli ma'lumot yo'q. Olimlar uni 470-460 yillar orasida tug'ilgan bo'lsa kerak deb taxmin qiladilar. 424 yili Peleponnes urushida qatnashib, Frakiya qirg'oqlaridagi Afina flotiga qo'mondonlik qiladi va yirik bir harbiy xatosi uchun davlat jinoyatchisi hisoblanib, Afinadan haydaladi. Taxminan 400 yillarda vafot etadi. U o'z asarini Peleponnes urushi voqyealariga bag'ishlaydi.

Notiqlik san'ati-jamoat oldida so'zga chiqib, unga biron narsani tushuntirish yoki isbotlab berish zarurati qadim-qadim zamonlardan beri odamlarni dilkashlikka, so'zamollikka rag'batlantirib kelgan. Hatto Gomer ham o'z poemalarida Nestor, Menelay va Odisseyning gapga nihoyatda chechan bo'lganliklarini qayd etib o'tadi. Biroq notiqlikning qadimgi namunalari yozma shaklda bizgacha yetib kelmagan. Asta-sekin bu san'at rivojlanib asosan ikki turga ajralib boradi:

Siyosiy notiqlik

Sud notiqligi. Keyinchalik uning uchinchi turi yuzaga keladi

Epidektik – ya'ni tantanali nutq notiqlari paydo bo'ladi.

Epidektik notiqlar ulug' zotlarni va mashhur voqyealarni madh etib tantanali yig'inlarda nutq so'zlaganlar.

Notiqlik san'atini birinchi marta adabiy janr darajasiga ko'targan va unga ilmiy tus bergan kishilar **Sofistlar** bo'lganlar. Ular o'zlaridan oldin o'tgan va o'sha kezlarda ijod qilayotgan so'z ustalarining faoliyatlari namunasida notiqlik san'atining nazariy asoslarini ya'ni «**Ritorika**» ilmini yaratadilar.

Ritorika (orator, notiq)ning asl vatani Sitsiliya bo'lgan. Qadimgi ritorikaning asoschilari deb Sitsiliyalik Korak hamda Tisey degan notiqnlarni ko'rsatadilar. Biroq ular haqida bizgacha hech narsa yetib kelmagan. Bu notiqnlarning vatandoshi bo'lgan 483-376 yillarda yashagan Gorgiy haqida qisman bo'lsada ma'lumotlar bor. 427 yilda o'z shahri Leontina uchun harbiy yordam so'rab, maxsus elchi sifatida Afinaga keladi. Xalq majlisida so'zlagan nutqi bilan Afina yoshlari orasida kuchli taassurot qoldiradi. Shundan so'ng ko'p o'tmay Gorgiy Afinaga ko'chib kelib shu yerda ritorik maktab ochib o'z shogirdlariga so'z san'atini o'rgatish va notiqlik san'ati bilan shug'ullanadi. Gorgiy asosan mifologik mavzularda tantanali nutqlar so'zlagan, uning nomi ostida bizga qadar «elena» va «Polimed» sarlavhali ikkita yozma nutq yetib kelgan. Gorgiyning aytishicha notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishontirish, uni maftun etish, rom qilishdir. Ellinizm davrining olimlari Afinada yashab, shu yerda ijod qilgan bir talay mashhur so'z san'atkorlarining orasidan 10 tasini eng ulug'lari deb biladilar. Ular quyidagilar:

Antifont, Andokid, Lisiy, Isokrat, Isey, Likurg, Demosfen, Esxil, Giperid va Dinarx. Bizgacha mana shu so'z san'ati ustalarining asarlari yetib kelgan xolos.

Yuqorida nomlari zikr qilinganlar orasida eng mu'tabarlaridan biri Lisiy bo'lgan. U 459-380 yillarda yashagan. Vatani Sitsiliyadir. Notiqning otasi Perikl taklifi bilan Afinaga kelgan va o'rnashib qolgan. Lisiy hammasi bo'lib 300 ga yaqin nutq yozgan. Shulardan 34 tasi bizgacha yetib kelgan. Ularning barchasi asosan sud nutqlaridan iboratdir. Lisiyning ulug'ligi va san'atkorligining asosiy siri shundaki, u har qachon qo'lga qalam olib so'z yozishga kirishar ekan, o'z oldiga faqat bir maqsadni qo'yadi, u ham bo'lsa so'zlayotgan kishi haqida sud hay'ati dilida eng yaxshi taassurotlar qoldirish, uning har bir gapi yurakdan chiqayotgan chinakam, samimiy gaplar ekaniga ishontirishdir. Lisiyga buyurtma bergan odam kim bo'lishidan qat'iy nazar notiq har qaysisining tabiatiga, bilimiga, jamiyatdagi o'rniga mos keladigan, o'zining monandligi bilan tinglovchilarni maftun etadigan uslubni topadi va shu yo'sinda so'zlovchining va uning nutqida nomlari zikr qilingan shaxslarning yorqin portretini chizishga muyassar bo'ladi.

Notiqlik san'atini yanada yuksak bosqichlarga ko'targan ikkinchi buyuk zot **Demosfendir**. U 384 yilda Afina shahrida anchagina badavlat oilada tug'iladi, Biroq yetti-sakkiz yoshlarida otasi o'lib, vorislari otasining mulkini talon-taroj qilib yuboradi. Voyaga yetgach merosni qaytarib olish maqsadida notiqlik san'atini o'rganadi. Demosfen bir qancha vaqt Makedoniya istilosiga qarshi yunon xalqini o'z notiqligi bilan birlashtirib ularning ruhini ko'tarib, qo'zg'olonga chorlaydi. Necha bor urinmasin taqdir uni o'z qahriga tortaveradi. Aleksandr o'lganidan keyin yunonlar yana tutqunlikdan qutulish maqsadida urushga tayyorlana boshlaydilar. Bunda Demosfen ayniqsa juda katta tashabbus ko'rsatadi. Biroq birlashgan yunonlar bu safar ham yengiladilar. Dushman qo'zg'olon rahbarlarining orqasidan quvib borib, ularni qurshab oladi. Tiriklayin dushmanga taslim bo'lishni istamagan Demosfen zahar ichib o'ladi. Shunday qilib ulug' vatanparvarning hayoti o'z

xalqining milliy ozodligi yo'lida qurbon bo'ladi. Demosfendan bizga qadar 61 ta nutq va 6 ta maktub yetib kelgan.

Falsafiy proza—eramizdan oldingi V-IV asrlarda ilmu-fan taraqqiyoti, san'at, adabiyot, tarix va notqlik sohalaridagi yutuqlar bilan bir qatorda yunon falsafasi benihoya keng rivoj topdi. Falsafiy tafakkurning asosiy oqimlari bo'lgan materializm hamda idealizm ta'limotlari shu davrda takomillashadi.

Demokritning hamma asarlari nihoyatda yuksak badiiy mahorat va nozik uslub bilan yozilganligini qadimgi dunyoning qalam ahllari bir og'izdan tasdiqlaydilar. Demokrit iboralarining ravshanligini, nafisligini Sitseron alohida qayd etib uni Platon bilan bir qatorga qo'yadi.

Qadimgi yunon falsafasining idealizm oqimiga asos solgan va o'zining ijtimoiy va siyosiy dunyoqarashlari bilan Afinaning tagli-taxtli zodagonlari tabaqasiga mansub bo'lgan kishi **Platondir**. 427-347 yillarda yashagan. Platon yoshlik chog'larida Sokratning sevimli shogirdlaridan biri bo'ladi, ustozini qatl qilingach Platon Afinani tashlab ketib bir necha yillar sayohatda yuradi. Yunonistonning turli shaharlarida hatto uzoq Misrda, Sitsiliyadagi orollarda, Sirakuz shahrida bo'ladi. Nihoyat Afinaga qaytib **Akadem degan qabramonning ibodatxonasi bog'ida, o'zining shu qahramonning nomi bilan atalamish mashhur maktabi - Akademiyani ochadi**. Platon yaratgan mukammal idealistik falsafiy ta'limot to'g'risida shu kunga qadar mazkur oqimning hamma reaksiyon tarmoqlari uchun asosiy zamin va namunali manba bo'lib kelmoqda. «**Ideya**» so'zining o'zi ham birinchi marta falsafiy iste'molga Platon tomonidan kiritilgan. Platonning qarashicha birdan-bir tuzum deb tushunilgan bu davlatda jamiyat a'zolari 3 toifaga bo'linadi:

1. Faylasuflar—mamlakatni idora qilishlari kerak. 2. Soqchilar—mamlakatni qo'riqlashlari kerak. 3. Mehnatkashlar— (dehqon va kosiblar) hamma fuqaroni boqishlari, kiyintirishlari lozim. Platon ideal davlatida butun e'tiborni faylasuflarga qaratadi. (Sharqda Forobiy "Fozil odamlar shahri" kitobida ham ideal jamiyat haqidagi fikrlarini ilgari surgan. U.H.) Platonning bizga qadar 41 ta asari yetib kelgan.

O'zining asarlari bilan Yunon ilmu-fanini, falsafiy bilimlarini barkamol etgan ulug' olim va donishmand mutafakkir **Aristoteldir**. 384-322 yillar yashagan. Aristotel Makedoniyaning Stagiriya shahrida tug'iladi. Uning otasi Makedoniya podshohining tabibi bo'lgan. Aristotel ham yoshligidan otasining kasbini davom ettirib, boshqa sohalar bilan ham shug'ullanadi. Afinaga kelib taxminan 20 yil davomida Platonga shogird bo'ladi. 342 yili podshoh Filippning taklifi bilan Makedoniyaga qaytib uch yilgacha Aleksandrning tarbiyachisi bo'lib xizmat qiladi. Aleksandr taxtga chiqqach, yana Afinaga qaytib bu yerda «**Litsey**» nomi bilan shuhrat qozongan o'zining xususiy maktabini ochadi. 323 yilda Aleksandr o'lgach, Afinani tashlab Evbey orolidagi Xalkida shahrida 322 yilda vafot etadi.

Qadimgilarning aytishicha, Aristotel mingga yaqin asar yozgan. Ana shu buyuk merosdan bizga qadar 47 tasigina yetib kelgan. Bular orasida «**Metafizika**», «**Politika**», «**Etika**», «**Ritorika**», «**Fizika**», «**Poetika**», «**Jon haqida**», «**Hayvonlar haqida**» degan yirik-yirik asarlari bor. Ammo ulug' dahoning asrlar to'fonidan omon qolib bizga qadar yetib kelgan asarlari ozginagina namunasi ham shu qadar chuqur, shu qadar murakkabki, olimlarning idroki to'g'risida shu kunga qadar ularning tagiga yetib

ulgungan emas, desak yolg'on bo'lmaydi. Aristotel o'zining san'at va adabiyot haqidagi fikrlarini «Poetika» asarida bayon qiladi. Adabiyotning turli masalalari yuzasidan aytgan yozuvchining fikrlari afsuski, bu kitobda nihoyatda qisqa, ba'zi o'rinlarda hatto birmuncha noaniq ifoda etilgan.

«Poetika» asari antik dunyo adabiyotining qimmatbaho meroslaridan biri hisoblanadi. Chunki bu asar badiiy so'z san'ati va uning qonunlari haqida sistemali suratda hikoya qiladigan va shu sohaning noyob namunasi sifatida bizga qadar yetib kelgan yakkayu-yagona yodgorlikdir.

Aristotelning tushunchasicha san'at avvalo insonning faoliyati natijasida tug'iladigan va o'zining maxsus qonun-qoidalari asosida ish ko'radigan alohida «ijodiyot» sohasidir. Kitob davomida Aristotel o'zining san'at haqidagi fikrlarini, garchi nomini aytmasa ham, asosan Platon nazariyalariga qarama-qarshi qo'yadi, ustozining poeziyaga qarshi aytgan gaplariga e'tiroz bildiradi. Aristotel ham Platon singari poeziyaning asosiy vazifasi «Taqlidchilik» dan, ya'ni hayotni aks ettirishdan iborat ekanligini tasdiqlaydi, ammo bu masalada ustozidan ancha ilgarilab ketadi. Platon mavjud borliqni ideallar olamining xira sharpasi tarzida tushunib, taqlidchilikning imkoniyatlariga unchalik qiymat bermagan bo'lsa, **Aristotel asosiy ahamiyatni, aksincha badiiy taqlid bilan bog'lab, faqat shu yo'l bilan hayotni anglash mumkinligini aytadi.** Bas, shunday ekan, san'at ham inson faoliyatining ijodiy tarmoqlaridan biri bo'lib, u ham o'zining qonun va qoidalari vositasi bilan boshqa ilmlar singari yagona bir maqsadga, ya'ni borliqni o'rganish va anglash talablariga xizmat qiladi. Biroq san'atning voqyelikka bo'lgan munosabati faqatgina yuzaki taqlidchilik, hayotiy voqyealar ko'zga qanday tashlansa, shunday aks ettirish bilan emas, balki badiiy asarning ichki mazmuni, voqyealarni aktiv suratda mushohada qilish bilan belgilanadi. «Shoirning vazifasi, - deb yozadi Aristotel haqiqatni bo'lib o'tgan narsalar haqida emas, balki chindan ham yoki zarurat yuzasidan ro'y berishi lozim bo'lgan narsalar to'g'risida gapirishdir».

Yozuvchi poeziya bilan tarixni taqqoslab fikrini isbotlashga harakat qiladi. «Tarixchi bilan shoirning farqi, ularning biri she'rda, biri prozada gapirganida emas: Gerodotning asarini ham she'rga ko'chirish mumkin, lekin baribir, shunda ham asar tarixligicha qoladi. Shoir bilan tarixchining farqi shundaki, ulardan biri haqiqatdan bo'lib o'tgan voqyealar, narsalar haqida, ikkinchisi yuz berishi mumkin bo'lgan narsalar haqida gapiradi». Shu sababli tarixga qaraganda poeziyaning ko'proq falsafiy va jiddiy ma'nosi bor, chunki poeziya umumiy narsalar haqida, tarix esa xususiy narsalar to'g'risida gapiradi. Aristotelning adabiy ijodga bergan bu ta'rifida shu qadar chuqur ma'no borki, u to shu kunga qadar o'z qimmat va mohiyatini yo'qotmay keladi.

«Poetika» asarida Aristotelning diqqatini ko'proq jalb etgan narsa—tragediya masalasidir. Tragediyaning eng muhim xususiyati deb uning maqsadini tushunadi. Yozuvchining aytishicha, chinakam tragediya asari tomoshabinning dilida qo'rquv va achinish hislarini qo'zg'atib, shu yo'sin inson ruhining «musaffolashishiga» ta'sir etishi lozim. Bu xususiyatni Aristotel «katarsis» deb ataydi.

Darvoqye, tomoshabin begunoh odamning boshiga tushgan og'ir kulfatlarni ko'rganida uning holiga achinmaydimi, xuddi shunday fojiviy musibatlar o'zini ham benavo qilishi mumkinligini o'ylab, qo'rquv, iztirob chekmaydimi? Bas

shunday ekan odam bolasi badiiy asarda tasvir etilgan qahramonlarning dardularmlarini ko'rganida ko'zi ochilib, ko'ngli ravshan tortadi va uning dilida shunday falokatlardan o'zini saqlash istagi uyg'onadi. Xullas, Aristotel o'zining katarsis nazariyasida san'at va adabiyotning insonga o'tkazadigan chuqur ma'naviy ta'sirining falsafiy tavsifini beradi. Aristotelning juda ko'p fikrlari to shu kunga qadar o'z qimmatini yo'qotgan emas. Vatanimizning san'at va adabiyot ahlilari ularni diqqat bilan o'rganib kelmoqdalar.

Bibliografiya	Bibliography	Kitoblar, vaqtli nashrlarda e'lon qilingan asarlar ro'yxatini tuzish, ularni tematik yoki boshqa jihatlariga ko'ra tasniflash, qisqacha annotatsiyalar yozish kabi vazifalarni o'z oldiga qo'yuvchi ilmiy-amaliy soha
Varvarizm	Loanword	(lotincha " barbaris- o'zga yurtniki") o'zga tildan o'zlashtirilgan so'z yoki jumla
Vulgarizm	Vulgarism	(lotincha " vulgarus- qo'pol, dag'al") nafosat talabi bilan badiiy adabiyotda ishlatish rasm bo'lmagan qo'pol so'z va birikmalar
Giperbola	Hyperbole	Tasvirlanayotgan narsa yoki hodisaning u yoki bu jihatini o'ta bo'rttirish, kattalashtirish asosiga qurilgan badiiy usul, stilistik figura
Bibliografiya	Bibliography	Kitoblar, vaqtli nashrlarda e'lon qilingan asarlar ro'yxatini tuzish, ularni tematik yoki boshqa jihatlariga ko'ra tasniflash, qisqacha annotatsiyalar yozish kabi vazifalarni o'z oldiga qo'yuvchi ilmiy-amaliy soha
Varvarizm	Loanword	(lotincha " barbaris- o'zga yurtniki") o'zga tildan o'zlashtirilgan so'z yoki jumla
Vulgarizm	Vulgarism	(lotincha " vulgarus- qo'pol, dag'al") nafosat talabi bilan badiiy adabiyotda ishlatish rasm bo'lmagan qo'pol so'z va birikmalar
Giperbola	Hyperbole	Tasvirlanayotgan narsa yoki hodisaning u yoki bu jihatini o'ta bo'rttirish, kattalashtirish asosiga qurilgan badiiy usul, stilistik figura

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Proza adabiyoti va tarixiy prozani o'rganishning ahamiyati nimada?

2. Notiqlik san'ati va uning namoyandalari haqida gapirib bering.
3. Falsafiy prozaning asoschilaridan kimlarni bilasiz?
4. Aristotelning "Poetika" asarida qanday masalalarga e'tibor qaratiladi?

Test topshiriqlari:

1. Tarixiy prozaning eng birinchi namoyondasi kim?
 - A)Gerodot
 - B)Demosfen
 - C)Platon
2. Falsafiy proza qachon rivoj topdi?
 - A)eramizdan oldingi 5-4 asrlarda
 - B) eramizdan oldingi 6-5 asrlarda
 - C)eramizdan keying 4-3 asrlarda
3. Platon nechinchi yillarda yashab,ijod qilgan?
 - A) 456-397 yillarda
 - B) 427-347 yillarda
 - C) 426-340 yillarda
4. "Poetika" asarining muallifi kim?
 - A) Gerodot
 - B) Aristotel
 - C) Platon
5. Falsafiy tafakkurning oqimlari to'g'ri berilgan qatorni toping?
 - A) romantizm va realizm
 - B) naturalizm va idealizm
 - C)materializm va idealizm

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.Alimuhamedov. T.1975 yil «Antik adabiyot tarixi».
2. Oybek tahriri ostida T., 1940y «Rim adabiyoti bo'yicha xrestomatiya».
3. F.Sulaymonova. T., 1997 yil «Sharq va G'arb».

7-Mavzu: O'rta asrlar Sharq adabiyoti.

1. **O'rta asrlar Sharq adabiyotining umumiy manzarasi.**
2. **Sharq adabiyotda an'anaviylik hodisasi.**
3. **Firdavsiy "Shohnoma"si.**
4. **Nizomiydan "Xamsa"chilik (Jomiy, Dehlaviy, Navoiy) an'anasining boshlanishi.**
5. **Rudakiy, Hofiz, Sa'diy, Xayyom she'riyati.**
6. **Rumiy asarlari.**

O'rta asrlar Sharq adabiyoti o'zining mahobati bilan ajralib turadi. Asosiy namoyandalari Firdavsiy, Nizomiy, Attor, Rumiy, Hofiz, Sa'diy, Umar Xayyom,

Rudakiy, Jomiy, Dehlaviy kabi shoirlar bo'lib, ularning ta'siri nafaqat Sharq xalqlari, balki dunyoning ko'pgina ilg'or mamlakatlari adabiyotiga qadar yetib borgan. Xususan, ulug' nemis shoiri Gyote Sharqning yetti ulkan shoirlari haqida juda baland fikrlarni bayon qilgan: Sharqning ulug' deb bilgan 7 shoiri bor, bu safga kirmaganlarning allaqanchasi ham mendan buyukroqdir, qabilidagi e'tirofini ko'p eslashadi.. Yana jahon she'riyatida 7 yulduz bor, ularning bari Sharq shoirlaridir deydi. Pushkin Sharqdan, Qur'ondan ta'sirlanib she'rlar bitgan. Uning "Bulbul va gul" she'ri buning yorqin misolidir. She'rni ona tilimizga A. Cho'lpon mohirona bir tarzda o'g'irgan. She'rning xamirturishi yana Sharq shoiri Hofiz g'azaliga borib taqaladi.

Abulqosim Firdavsiy. Abulqosim Firdavsiy (934-1030) Xurosonning Tus shahrida dunyoga kelgan. Zamonasining barcha asosiy ilmlarini egallab, arab va paxlaviy tillarini chuqur o'rgangan olim darajasiga yetgani uchun "hakim" deb ulug'langan. Firdavsiyning yoshlik yillari somoniylar davlati gullab yashnab, Eron va Turon xalqlarining qadimiy afsona va rivoyatlari, buyuk shohlar va bahodirlar haqidagi qissa va jangnomalar to'plangan edi. Somoniy hukmdorlar ushbu ma'lumotlarni she'rga solishni Firdavsiyga topshiradilar.

Firdavsiy Eron va Turon xalqlarining qariyb to'rt ming yillik tarixini yuksak mahorat bilan badiiy talqin qilgan 60 ming baytdan iborat "Shohnoma" ustida 35 yil mehnat qildi. Tadqiqotchilar asarni uch qismga bo'ladilar: birinchi bo'limda shoir eng qadimiy afsona va rivoyatlarni qayta ishlab, nazm ipiga tergan bo'lsa (mifologik), ikkinchi bo'limda xalq qahramonlari haqidagi qissa va jangnomalarga yangi hayot baxsh etadi (afsonaviy), uchinchi bo'limda tarixiy shohlar hayotini (tarixiy) qalamga oladi.

"Shohnoma" qadim qabilalar to'qigan afsonalar, qahramonlik dostonlarini va Eron, O'rta Osiyoning Iskandar Zulqarnayn davridan tortib, to arablar bostirib kelgungacha, ya'ni oxirgi sosoniylar shohi Yazgirdning o'limigacha (651) bo'lgan tarixni o'z ichiga oladi.

"Shohnoma" hajmi, mavzu ko'lami, obrazlar olami, qahramonlarning ko'p va xilma xilligi, g'oyaviy motivlar va ko'tarilgan masalalar yuzasidan jahon adabiyotidagi eng katta epik asardir. Bayron "Shohnoma"ni: "Forslarning "Iliadasi", deb ataydi.

Yunonlardan Firdavsiy ilhomlangan bo'lishi mumkin. "Shohnoma"dagi bir qancha afsonalardagi motivlar va qahramonlarga xos xususiyatlar shuni ko'rsatadi. Har bir shohlik davrining tasnifi va har bir doston debocha, asosiy qism va xotimadan iborat.

"Shohnoma"da zolim va qonxo'r ilonshoh Zahhok haqida, Rostam va Suxrob haqida, Jamshidu Faridun va shu kabi ko'plab dostonlar o'rin olgan.

"Shohnoma"dagi Jamshid, Faridun obrazlari "Avesto"da tilga olingan. Yazdon timsolida ezgulik, Axriman timsolida yovuzlik tasvirlanadi.

Navoiyning "Tarixi mulki ajam" nasriy asari ham "Shohnoma"ning nasrda yozilgan kichikroq turkiy varianti, deyish mumkin.

"Shohnoma" tugatilganda Somoniylar saltanati parchalanib, Qoraxoniylar va G'aznaviylar o'rtasida bo'lingan edi. Shuning uchun shoir asar muqaddimasida shoh Mahmudni madh etadi. Lekin u 120 ming misradan iborat asarga 20 kumush tanga beradi. Bundan qattiq ranjigan Firdavsiy ushbu mablag'ni saroy xodimlariga bo'lib

beradi va G'aznadan chiqib ketadi. Umrining oxirida qishlog'iga qaytgan shoirmi ruhoniylar otashparastlikda ayblab, musulmonlik qabristoniga ko'mishga ruxsat bermaydilar.

Shoirning bu asari ilk bor 1682 – yilda Xomushiy tomonidan turkiyga o'girilgan. XX asrning 70 yillarida Sh.Shomuhamedov, J.Jabborov, Nazarmat kabi shoirlar tomonidan she'riy yo'l bilan tarjima qilingan.

• **Musulmon Sharqi adabiyotida epik she'riyat an'anasini Firdavsiy boshlab berdi.**

Umar Xayyom. Umar Xayyom (1040-1123) Eronning Nishopur shahrida tug'ilgan. Faylasuf, matematik va astronom, mohir kosib hamda ruboiy janri taraqqiyotini yangi bosqichga ko'targan shoir. Uning asl ismi Abdulfath Umar binni Ibrohim bo'lib, Xayyom uning laqabidir. Xayyom “xayma”, ya'ni chodir so'zidan olingan bo'lib, “chodirdo'z” ma'nosini bildiradi. Umar Xayyom qadim Turkistonning Balx, Buxoro, Samarqand kabi ilmu fan markazlarida ta'lim olgan, 1079 yilda kalendar ishlab chiqqan, butun sonlarning ildizini topishni joriy qilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida ingliz shoiri Xerald Fidjerald shoir ruboiylarini tarjima qilib, nashr ettirgan. Shundan keyin Xayyom she'rlari butun dunyoga mashhur bo'lib ketgan. Olimlar Xayyom ruboiylari sonini 172 tadan, 251 tagacha deb belgilaydilar. Shoir she'rlarida may obrazi ko'p uchraydi. May Ollohga, hayotga va insonga muhabbatni ifodalaydi. Shoir ruboiylarini forsiydan o'zbekchaga Shoislom Shomuhammedov mahorat bilan o'giran. Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov “Tafakkur karvonlari” kitobida Xayyom ijodiga tadqiqiga bag'ishlab, “Xayyomnoma” nomli maxsus bob ajratadi.

Nizomiy Ganjaviy. Nizomiy Ganjaviy (1141-Ganja1209) fors-tojik tilida ijod qilgan ozarbayjonlik shoir va mutafakkir. N.Ganjaviy arab va fors she'riyatini mukammal o'zlashtirib, yoshligidanoq yetuk shoir sifatida shuhrat topadi. Uning hayoti haqida juda kam ma'lumot qolgan. Nizomiy fors, arab, yunon, qadimgi pahlaviy va sanskrit tillarini bilish bilan bir qatorda tibbiyot, falsafa, tarix, matematika va astronomiya kabi fanlarni ham chuqur o'zlashtirgani sababli, zamondoshlari uni “Hakim” deb ulug'laganlar. Ganja va uning atrofidagi hukmdorlar N.Ganjaviyni o'z saroylarida xizmat qilishini istab, uning she'rlari tufayli nomlarini abadiyatga muhrlamoqchi bo'lganlar. Nizomiy 3 bora uyulanadi va uchala xotini ham vafot etadi. Ofoq nomli xotinidan tug'ilgan o'g'li Muhammadni ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalagan, dostonlarida o'z o'g'liga nasihatlar qilgan. Nizomiy dostonlarini turkiyga o'girish qadim zamonlardanoq boshlangan. 1341-yilda Qutb “Xusrav va Shirin” dostonini tarjima qilgan bo'lsa, Ogahiy “Xaft paykar” asarini turkiyga o'giran.

Nizomiyning lirik she'rlari keng o'quvchilar ommasiga ma'lum bo'lmaganidan, u ko'proq masnaviy ustasi sifatida tilga olinadi.

Besh dostonni o'z ichiga olgan “Xamsa”si Nizomiyning nomini jahonga mashhur qildi. “Xamsa” 1173-1201-yillar orasida yozilgan. Ular “Mahzan ul-asror” (“Sirlar xazinasini” 1173-1179-yillarda Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohga bag'ishlangan), “Xusrav va Shirin” (1180-1181-yillarda Saljuqiylar hukmdori To'g'ul II iltimosiga ko'ra yozilgan), “Layli va Majnun” (1188, unga 118 ta nazira bitilgan. Bu asar Shirvonshohlardan Axsatan I buyrug'iga ko'ra yozilgan), “Haft

paykar” (“yetti go‘zal” 1196-yilda Alouddin Ko‘rpa Arslon topshirig‘iga binoan) va “Iskandarnoma” (1196-1201-yillar, bu doston “Sharafnoma” va “Iqbolnoma” degan 2 qismdan iborat) deb nomlangan. Dostonlar turli hukmdorlarning iltimosi bilan yozilgan bo‘lib, keyinchalik muxlislar tomonidan yaxlit to‘plam holiga keltirigan hamda “Xamsa” yoki “Panj ganj” (Besh xazina) nomi bilan shuhrat topgan. (“Avesto” besh katta qismdan iborat va hindlarning “Panchatantra” asari ham besh muqaddas kitob nomini anglatadi. Ehtimol, Nizomiy muxlislari shundan ilhomlanishgandir).

- Nizomiy dostonchilikda romantizmni yetakchi yo‘nalishga aylantirdi. Undan avval qahramonlik birlamchi edi. Masalan, “Shohnoma”da Firdavsiy Bahrom, Xusrav, Iskandarlarni qahramonlik jihatlarini qalamga olsa, Nizomiy mazkur timsollarning ichki olamlariga nazar tashlaydi.

- Hikmat, falsafa, nujum, riyoziyot va boshqa ilmlardagi tushuncha va istilohlarni she‘riyat tiliga moslashtirib, yangi ma‘no va mazmun baxsh etgan. Firdavsiy asarida ilmlarni badiiy aks ettirish hali shakllanmagan edi.

Nizomiy Ganjaviy ijodi keyingi asrlarda asl shoirlar uchun yuksak mahorat maktabi bo‘lib qoldi.

“Xamsa”chilik an‘anasining boshlanishi

Xamsanavislik ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviydan boshlangan. Nizomiy “Xamsa”si faqat bir xalqning adabiyotida emas, balki butun Yaqin va O‘rta Sharq adabiyotida yangi sahifa ochdi. Xamsanavislikning barqaror an‘anaga aylanishida Nizomiydan so‘ng yaratilgan Xusrav Dehlaviy “Xamsa”sining o‘rni muhim. Aynan Dehlaviy ijodi bilan xamsanavislik an‘anaga aylangan. Keyinroq, Navoiy zamonida Abdurahmon Jomiy “Xamsa” si ham shuhrat qozondi. Navoiyning ma‘lumot berishicha, Ashraf (vaf. 1459) nomli fors-tojik shoiri ham Nizomiyga javoban “Xamsa” yozishga muvaffaq bo‘lgan.

Xamsanavislik haqida so‘z ketganda, Firdavsiyni yodga olmaslik mumkin emas. Avvalo, epik she‘riyat an‘anasi Firdavsiydan boshlanadi. “Xamsa” qahramonlari muayyan qismining adabiy ildizlari “Shohnoma”ga borib tutashadi. “Hayrat ul-abror” hikoyatlaridagi No‘shiravon odil, Bahrom, Iskandar, “Farhod va Shirin”dagi Xusrav, Farhod, “Sab‘ai Sayyor”dagi Bahrom, “Saddi Iskandariy”dagi Iskandar obrazlari dastlab yozma adabiy manba bo‘lgan “Shohnoma”da uchraydi.

Navoiygacha yaratilgan “Xamsa” forsiy tilda bitilgan. Turkiy til Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy ijodida shakllanib, barqarorlasha boshlagach, turkiy kitobxonlar paydo bo‘lgandi. Navoiy bu kitobxonlarning turkiy tilda bitilgan asarlarni o‘qishga ehtiyojini hisobga olib, turkiy “Xamsa”ni yozadi.

Xamsachilik tarixida “Xamsa”ning bir yoki bir nechta dostoniga tatabbu‘ bitgan shoirlar ham oz emas.

Xamsanavislik an‘anasi, uning talablariga ko‘ra, yaratilayotgan har bir doston avvalgi shu mavzudagi dostonlarga mavzusi, obrazlar sistemasi, vazni kabi jihatlari bilan muvofiq kelishi kerak. Ayni paytda, doston originallik kasb etishi, yangi asar qiyofasida namoyon bo‘lishi zarur.

Har bir asar “Xamsa” atalmog‘i uchun:

- besh dostonidan tashkil topmog‘i;
- birinchi doston pand-nasihat ruhidagi ta‘limiy-axloqiy, falsafiy bo‘lmog‘i;

- ikkinchi doston Xusrav va Shirin mojarolariga bag'ishlanmog'i;
- uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatlarini mavzu qilmog'i;
- to'rtinchi doston Bahrom haqida bo'lmog'i;
- beshinchi doston Iskandar haqida yozilmog'i shart edi.

Farididdin Attor. Farididdin Attor (1145-1221- Nishopur) shoir, nosir va orif zotdir. Otasi attor va tabib bo'lib, shoirning Attor nomi bilan mashhur bo'lishi va uni adabiy taxallus qilib olishi shu bilan bog'liq. Yoshligida ilm olishga qiziqqan Muhammad adabiy, diniy, hikmatu kalom, nujum, tib va dorishunoslik fanlarini chuqur o'zlashtirib, o'z davrining peshqadam kishilaridan bo'lgan.

F. Attor Najmiddin Kubroning muridi shayxlar shayxi Majdiddin Bag'dodiy qo'lidan darveshlik xirqasini kiyib, kubraviya tariqatining davomchisi bo'lgan. (J.Rumiyning otasi ham Majdiddin Bag'dodiy muridlaridan edi).

F.Attor juda sermahsul shoir bo'lib, 40 dan 190 gacha asar yozgani naql qilinadi. Ular orasida "Mantiq ut-tayr", "Ilohiynoma", "Asrornoma", "Javhar uz-zot", "Ushturnoma" asarlari mashhurdir.

Attor J.Rumiya "Asrornoma" asarini taqdim etib, Rumiyning kelajagini bashorat qiladi. Navoiy bolaligida "Mantiq ut-tayr" ni yod olib, umrining oxirlarida unga javob o'laroq "Lison ut-tayr" asarini bitgan. Bulardan Attor daho bolalarni ilhomlantirib, yetishtirish xususiyatiga ega ekanligi ayon bo'ladi.

Jaloliddin Rumi: "Attor ruh ediyu Sanoiy uning ikki ko'zi. Biz Sanoiy va Attor izidan keldik", degan iqrori bejiz emas.

Jaloliddin Rumi. Jaloliddin Rumi (1207-Balx, 1273-Ko'nyo) buyuk fors-tojik shoiri va mutafakkiri. Tasavvufdagi mashhur Mavlaviya tariqatining asoschisi. O'z davrining dongdor ulamosi, yirik kubraviya shayxi bo'lgan otasi Bahovuddin Valad Muhammad Xorazmshoh bilan kelishmay, uning tasarrufidagi Balx shahrini haj safari bahonasida tark etadi. Safar chog'i Nishopurda avliyo shoir F.Attor bilan uchrashib, uning duosini oladi. Attor unga o'zining "Asrornoma" asarini tuhfa etadi. Otasi va uning shogirdlari tarbiyasini olgan, Halab va Damashq madrasalarida o'qigan Rumi o'z davrining yetuk olimi va mudarissi bo'lib yetishadi. Uning shoir sifatida dong taratishi, majzub darvesh Shamsiddin Tabriziy nomi bilan bog'liq. Tabriziyning Rumi hayotidagi o'rni shu qadarki, u o'z g'azallarini Shams taxallusi bilan yozadi, 42 ming bayt she'rdan iborat "Devoni Kabir"ning ikkinchi nomi "Devoni Shams Tabriziy"dir.

Rumi ijodi o'zidan keyingi Sharq va G'arb so'z san'atiga katta ta'sir ko'rsatgan. Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil kabi buyuk so'z ustalari uni o'zlariga ustoz bilishgan. Gyote Abulqosim Firdavsiy, Shayx Sa'diy, Hofiz bilan birga, Rumi ijodini ham "Xizr chashmasi" deb atagan. Rumiyning "Forsiy Qur'on" nomi bilan mashhur 25685 bayt (51370 misra)dan iborat "Masnaviyi ma'naviy"ni inmon ma'naviy hayotining qomusi sifatida nafaqat Sharq, balki G'arbda ham ixlos bilan o'rganishgan. "Dekameron" asaridagi ko'plab syujet va motiavlarni Sharq og'zaki va yozma adabiyotidan olgan Jovanni Bokachcho "Masnaviy"dagi qator hikoyatlar asosida ham novellalar yaratgan.

Abdurahmon Jomiy Rumi vafida: "Kitobi boru, lekin payg'ambar emas", deydi. Rumi ijodi nafaqat yuksak badiiyati, balki mantiq kuchi, falsafiy fikrlarga boyligi bilan ham katta qiymatga ega. Uning "mavhum mantiqiy kategoriyalarda emas,

balki otashin timsollar vositasida” talqin etilgan tabiat va jamiyat hodisalarining doimiy o‘shish, o‘zgarishda ekani, eskining yo‘qolib, yangining paydo bo‘lishi, dunyoning ziddiyatlar birligidagi ziddiyatlar jangidan iboratligi to‘g‘risidagi qarashlari buyuk nemis faylasufi Gegelning e‘tiroficha, unga dialektik metod yaratishda yordam bergan. Yoki ulug‘ mutafakkir Husn va Ishq tortishuvi misolida birinchi bo‘lib olamning asosida o‘zaro tortishish kuchlari yotishi haqidagi fikrni o‘rtaga tashlaydiki, mazkur qonun bundan bir necha asr keyin ingliz olimi Nyuton tomonidan kashf qilindi.

Rumiyning suhbatlarini o‘z ichiga olgan “Fihi mo fih”, “Majolisi sab‘a” va maktublari jamlangan “Maktubot” asarlari ham bizgacha yetib kelgan.

Sa'diy Sheroziy. Sa'diy Sheroziy (1203-1292) sherozlik davlat xizmatchisi oilasida tug‘ilgan. Mashhur fors-tojik shoiri, adib va mutafakkir. Bag‘dodagi Nizomiya madrasasida o‘qigan. O‘z davrining dongdor tasavvuf olimi va faylasufi Shahobiddin Suhravardiy qo‘lida tahsil oladi. O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida ko‘p bor sayohatda bo‘lgan. Sa'diy o‘z ijodini lirik she‘rlar yozish bilan boshlagan. **Uning boy hayotiy tajriba asosida yozilgan “Guliston” va “Bo‘ston” asarlari Musulmon Sharq adabiyotida didaktik yo‘nalishni boshlab bergan va shoirga olamshumul shuhrat keltirgan.** Bu asarlar keyinchalik Turkiston madrasalarida o‘quv qo‘llanma sifatida xizmat qilgan. **Sa'diy Sheroziy fors-tojik badiiy nasrining ham asoschilaridan sanaladi.**

“Bo‘ston” asari she‘riy usulda bo‘lib, 10 bobdan iborat, ta‘limiy-tarbiyaviy ruhdagi ibratli hikoyatlardan tuzilgan. “Guliston” asari esa 8 bobdan iborat bo‘lib, unda ham ta‘lim-tarbiyaviy mazmundagi hikoyalar va she‘riy uslubda yozilgan hikmatlar mavjud.

Sa'diy Sheroziyning g‘azallaridan tuzilgan 4 devoni bor. Undan keyin o‘tgan shoirlar, xususan, Hofiz va Jomiy kabi buyuk so‘z san‘atkorlari ham Sa'diy ijodiga ergashganlar. Shoir asarlari qadimdan o‘zbek xalqi orasida mashhur bo‘lgan. Madrasalarda asosiy darsliklar sifatida o‘qitilgan. “Guliston” 1310-1391 yildayoq Sayfi Saroyi tomonidan turkiy tilga tarjima qilingan. Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarini “Guliston” ta‘sirida yozgan va uning 22 g‘azaliga tatabbu‘ bitgan.

Xusrav Dehlaviy. Xusrav Dehlaviy (1253-1325, Dehli) turkiylarning lochin urug‘idan bo‘lgan hindistonlik forsiyzabon shoir va mutafakkir. Otasi Siyfidin Mahmud asli Kesh (Shahrisabz) a‘yonlaridan bo‘lib, Chingizxon bosqini arafasida Hindistonga borib, Shamsiddin Eltutmish saroyiga xizmatga kiradi. (Eslang, Rumiyning otasi Bahovuddin Valad ham Chingizxon bosqini arafasida shunday qilgandi). Otasidan 8 yoshida yetim qolgan Dehlaviy bobosi va onasi qo‘lida tarbiya ko‘radi. O‘z davrining yetuk donishmandlaridan ta‘lim olgan Dehlaviy fors, arab, hind tillarida go‘zal she‘rlar yoza boshlaydi. Hayoti davomida 9 hukmdor saroyida mas‘ul lavozimlarda ishlaydi. Chishtiya tariqatining baland martabalariga yetishadi. Lirik merosini umr fasllariga moslab (Eslang, Navoiy ham “Hazoyin ul-maoniy”ga shunday tartib bergan. Demak, Dehlaviydan olgan) “Tuhfat us- sig‘ar” (“Yoshlik tuhfası”), “Vasat ul-hayot” (Umr o‘rtasi), “Durrat ul-kamol” (“Kamolot ibtidosi”), “Baqiyai naqiya” (“Saralarning sarasi”), “Nihoyat ul -kamol” (“Kamolot nihoyasi”) nomi bilan jami besh doston tuzib, Sharq adabiyotida devonchilik tuzish an‘analarini boyitdi.

Dehlaviy Nizomiy "Xamsa"ga javob yozib, xamsanavislik an'anasini boshlab bergan. Uning 1299-1302-yillarda yozilib, Alouddin Xiljiyga bag'ishlangan "Xamsa"si quydagi dostonlardan iborat: "Matla' ul-anvor" ("Nurlarning chiqish joyi"), "Shirin va Xusrav", "Majnun va Layli", "Oynai Iskandariy", "Xasht behisht" ("Sakkiz jannat").

Bundan tashqari tarixiy mavzularda ham **beshta doston** yozgan. (Demak, Dehlaviy devonlarini ham, tarixiy asarlarini ham beshtaga yetkazib qo'ygan ekan. Bu bilan ijodida o'ziga xos uyg'unlik yaratmoqchi bo'lgan, shekilli). Adabiyotshunoslikning nazariy masalalarigashlangan "Xusrav mo'jizasi", tarix ilmiga oid "Tarixi Dehli", musiqa ilmiga oid "Risoi musiqiy" asarlari bor.

Hofiz Sheroziy. Hofiz Sheroziy (1320-1388- Sheroz) fors-tojik adabiyotining yirik vakili. Ismi Muhammad, laqabi Shamsiddin. Hofiz taxallusidir. Qur'oni Karimni to'liq yodlab, 14 xil qiroat bilan aytishi sababli shu taxallusni olgan. Hofiz yashagan davrda Fors o'lkasi notinch bo'lsada, shoir bir umr o'z ona shahrida yashab o'tgan. Uning vafotidan 35 yil keyin shogirdi Muhammad Gulandom lirik merosini jamlab, 4650 baytdan iborat devon tuzgan. Hofiz Sheroziy biror tariqatga rasman kirmagan bo'lsa ham, o'z g'azallarida tasavvufiy ma'nolar, qur'oniy hikmatlar va falsafiy xulosalarni shoirona ta'bi va iste'dodi bilan omuxta qilib, majoz tariqida ayni haqiqatni ayta olgan, "lisonul g'ayb" degan sharafli nomga sazovor bo'lgan. Navoiy g'azalnavislikda Hofizni o'ziga ustoz deb bilgan. Gyote, Pushkinlar undan ta'sirlanib she'rlar bitishgan. Gyotening "G'abu Sharq" devonida Hofizga murojaatlar ko'p. Uni o'ziga ustoz deb bilagn satrlari bor.

Abdurahmon Jomiy. Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy (1414-1492) fors-tojik adabiyotining yirik vakili, mutafakkir, orif. Navoiyning ustoz. Xurosonda shayxulislom Nizomiddin Ahmad oilasida tug'ilgan. Jomiyning ajdodlari arablarning Shaybon qabilasidan bo'lib, 8-asrda Xurosonga ko'chib kelishgan. U Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida Qozizoda Rumiya qo'lida ta'lim oladi. Jomiy umri davomida 7 marta safarga chiqqan, haj ziyoratiga ham borgan. Movarounnahrda qilgan safarlarida Xoja Ahror Valiy ziyoratiga kelib, uning qo'lidan tabarruk xirqa kiyadi. Xoja Ahror bilan suhbatlarining samarasi o'laroq, "Tuhfat ul-ahror" masnaviysini unga bag'ishlaydi. Jomiy asarlarini ilmiy hamda badiiy asarlarga ajratish mumkin. Ilmiy asarlari astronomiya, mantiq, tasavvuf nazariyasi, aruz ilmi, musiqa va tafsirga bag'ishlangan. Badiiy ijodda Jomiy ham nazm, ham nasrda qalam tebratib, fors mumtoz adabiyotining besh asrlik davrini o'zida mujasamlashtirgan va yakun yasagan adib sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun, "Xotimat ut-shuaro" ("So'nggi mumtoz shoir") faxriy laqabi bilan ulug'lanadi. Jomiy ham "Xamsa" payravida dostonlar bitdi. yetti dostonidan tarkib topgan "Xaft avrang" ("yetti taxt") tarkibiga kirgan "Silsilat ut-zahab", "Salomon va Absol", "Tuhfat ul-ahror", "Sabhat ul -ahror", "Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun", "Xiradnomai Iskandar" dostonlarining avvalgi ikki dostoni olib tashlansa, qolgan beshtasi "Xamsa" bo'ladi.

"Xamsa" bilan birga, uch dostonidan iborat lirik asarlar kulliyoti, insho san'atining yuksak namunasi bo'lgan "Munshaot", qirq hadis tarjimasiga bag'ishlangan "Arba'in" va "Bahoriston" asarlari shoirga jahoniy shuhrat keltirdi. "Xaft

avrang"ning Navoiy Jomiyning "Arba'in" va "Nafahot ul-uns" ("Do'stlik tarovati") asarlarini turkiy tilga tarjima qilgan.

Navoiy Jomiy vafotidan so'ng, uning xotirasiga bag'ishlab "Xamsatul muhtasayyirin" asarini yozadi. Ushbu asarda keltirilishicha, Jomiy asarlarining ilk muharriri va muharriri Navoiy bo'lgan.

Multon Husayn Boyqaro, Jomiy va Navoiy Hirot adabiy muhiti markazida turganlar va ular siymosida adabiyot va xalq, ma'naviyat va davlat uyg'unlashgan edi.

Glossary

Idilliya	Idyll	(yun. eidyllion – kichik manzara, uncha kata bo'lmagan asar) – shakily tuzilishga ko'ra turlicha, mazmun xususiyatlariga ko'ra tasniflanuvchi poetik janr.
Izometriya	Isometry	(yun.isometria – teng o'lchovlilik) – she'riy nutqni tashkil qiluvchi bo'lak (misra)larning teng o'lchovliliigi.
Impressionizm	Impressionism	(fr. impression- tassurot) – XIX asrning co'nggi choragida dastlab rangtasvir san'atida paydo bo'lib, keyinchalik boshqa san'atlarga ham sezilarli ta'sir o'tkazgan yo'nalish.
Improvizatsiya	Improvisation	(lot.improvisus – kutilmagan, birdan) – badiiy ijodning alohida bir ko'rinishi bo'lib, bunda asar bevosita ijro jarayonida yaratiladi.
Invektiva	Invective	(lot.invehor – tashlanmoq, hujum qilmoq) – biron shaxs, ijtimoiy guruh yoki hodisani keskin tanqid qilish, fosh etish, qoralashga qaratilgan nutq.
Inversiya	Inversion	(lot.inversion – ag'darish, o'rnini alamashtirish) – gap bo'laklarining odatdagi tartibini o'zgartirish asosida yuzaga keluvchi sintaktik usul, stilistik figura.
Intermediya	Intermission	(lot.intermedius – o'rtada joylashgan, ichidagi) – 1) o'rta asrlar teatrlarida o'ynalayotgn asosiy spektaklning parda oralaridagi tanaffus payti ijro etilgan maishiy mavzudagi kichik hajviy sahna ko'rinishi; 2) Estrada san'ati va televideniyaning rivojlanishi bilan bog'liq holda faollashgan komik xarakterdagi kichik dramaturgik janr.
Interpretatsiya	Interpretation	(lot.interpretation - tushuntirmoq) – talqin, adabiy asar mazmunini idrok

Intertekstuallik**Intertextuality**

qilish, uning mazmuni, badiiy konsepsiyasini anglash, tushunish. (lot. Inter-aro, textum – to‘qima, mato, matn) - har qanday matn avval mavjud bo‘lgan matnlarni transformatsiya qilgan holda o‘ziga singdirgan sitatalar majmuidir

Mavzu bo‘yicha nazorat savollari.

1. O‘rta asrlar Sharq adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Namoyandalari haqida gapirib bering.
3. Sharq mumtoz adabiyotining an‘analari haqida tushuncha bering.
4. “Xamsa” qanday asar?
5. Rumiylar asarlari mazmun-mohiyati haqida so‘zlang.

Test topshiriqlari

1. O‘rta asr Sharq adabiyotida “hakim” deb ulug‘langan shoir?
A)Nizomiy Ganjaviy
B)Umar Xayyom
C)Abulqosim Firdavsiy
2. Nizomiyning mashhur qilgan 5 dostonidan iborat “Xamsa”si qaysi yillar orasida yozilgan?
A)1173-1201 yillar orasida
B)1175-1220 yillar orasida
C)1173-1179 yillar orasida
3. O‘rta asr Sharq adabiyotida fors-tojik adabiyotining vakili kim?
A)Abdurahmon Jomiy
B)Hofiz Sheroziy
C)Nizomiy Ganjaviy
4. Jomiy asarlarining ilk o‘quvchisi kim bo‘lgan?
A)Husayn Boyqaro
B)Hofiz Sheroziy
C)Alisher Navoiy
5. A.Navoiyning 4 she‘riy kitobdan iborat asari qaysi?
A)“Mezon-ul avzon”
B)“Xazoyin-ul maoniy”
C)“Majolis-un nafaos”
6. Navoiy eng ustun bilgan til?
A) turkiy til
B) arab tili
C) yahudiy tili
7. Alisher Navoiy asarlarining nemis tarjimoni kim?
A)Dante
B)Alfred Kurella
C)V.Bartold

8 Alisher Navoiyning Berlin kutubxonasida qanchaga yaqin asarlari saqlanmoqda?

- A) 50 ga yaqin
- B) 20 ga yaqin
- C) 30 ga yaqin

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alisher Navoiy qomusi. T. Sharq. 2016.
2. Rumi. Ma'naviy masnaviy. T. Sharq.
3. Rumi. Ichindagi ichindadir. T., Yangi asr avlodi. 2013.
4. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., Ma'naviyat. 1999.

8-mavzu: O'rta asrlar G'arb adabiyoti.

Reja:

1. O'rta asrlar G'arb adabiyotining o'ziga xos jihatlari
2. O'rta asr g'arb ijodkorlari haqida

G'arbiy yevropa madaniyati va o'z-o'zidan adabiyotining boshlanishi eramizning IV-V asrlariga to'g'ri keladi. Chunki shu davrda, Rim imperiyasidan keyin, jahon maydoniga yangi bosqinchi xalqlar chiqq boshladi. Ular bir necha yillar mobaynida bir paytlar antik dunyo tarkibiga kiruvchi xududlarni (yevropani, Old va O'rta Osiyoni, Afrika shimolini) egallab oldilar. Germanlar, slavyanlar, arablar, mongollar va turklar ana shunday xalqlardan hisoblanadi. Ana shu xalqlar o'rta asr feodal davlatlarini tuzuvchilar rolini o'ynadilar.

Rim imperiyami yemirilishi davrida uning G'arbiy viloyatlari aholisi (Italiya, Galliya, Ispaniya) asosan romanlashib bo'lgandi, ya'ni Rim idora va sivilizatsiyasi tili bo'lgan lotin tilini qabul qilishgandi. Lotin tili bu yerlarda mahalliy tillarni siqib chiqara boshladi va natijada xalq orasida klassik, badiiy emas, balki xalq lotini, ya'ni «vulpgar lotini» paydo bo'ldi. Ana shu «xalq lotini»dan keyinchalik roman tillari (fransuz, italyan, ispan, portugalg va boshq.) rivojlandi.

Imperiya qulagandan so'ng (IV-V asrlarda) Germanlar juda ko'p joylarni bosib oldilar. Ammo ko'p o'tmay bosib olingan xalqlarning yuksak madaniyati taosiri tufayli o'z tillarini yo'qotdilar va o'z-o'zidan romanlashdilar. German tili esa «buyuk yurishdan» oldin bosib olingan xududlar aholisida Germaniya va Skandinaviya, Britaniyaning katta qismi (anglosaklar tomonidan egallangan) saqlanib qolindi. Ammo anglosaklar tili ham normandlarning Angliyani bosib olishidan so'ng bir muncha romanlashdi. Anglosakson va normand-fransuz elementlarining qo'shilishi natijasida hozirgi ingliz tilini bir xilda german va roman gruppasiga kiritish mumkin bo'ladi.

Bosqinchilarning katta xududlarini bosib olishi va ularni qirollik drujinachilariga bo'lib berilishi yirik yer mulkchiligini rivojlanishiga olib keldi. Kichik yer egalari esa tez-tez bo'lib turuvchi urushlar natijasida xonavayron bo'ldilar va ko'plari boy va kuchli qo'shnilarining krepostonylariga aylandilar.

Urug'chilik tuzumi mustahkam bo'lgan Skandinaviya va Kelpt viloyatlarida aloqalar keyinroq rivojlandi va o'z-o'zidan ana shu xududlar rivoji ham ancha kechikdi.

O'rta asrlar adabiyotining paydo bo'lishi va rivojini asosan 3 ta omil bilan belgilanadi: xalq ijodi anoanalari, antik davr madaniyati va xristianlik.

O'rta asrlar adabiyotining davrlarga bo'linishi yevropa xalqlarining rivojlanish bosqichlari bilan belgilanadi. Biz uni 2 ta davrga – qabila tuzumining inqirozga yuz tutishi va feodalizmni tarkib topishi (X asr XI-XV oxirigacha) va rivojlangan feodalizm davrlariga bo'lamiz. Ammo bu sana shartli ravishda olingan. Chunki barcha xalqlar hayoti bir xil rivojlanmagan. IX asrdayoq feodalizm shakllanib bo'lgan Fransiyada bu xol boshqa davlatlarga nisbatan ancha oldin sodir bo'ldi. yevropaning shimoli va shimoliy g'arbdagi viloyatlar (skandinavlar va kelptlar) da bu hol ancha kechroq sodir bo'ldi. Shuning uchun birinchi davr adabiyotiga asosan kelpt va skandinavlar poetik ijodi yodgorliklari to'g'ri keladi. Yuqoridagi xalqlar poetik yodgorliklarini yaxshi saqlanganligiga kelsak, bunga ular uchun xristian dini ruhoniylari asosan mahalliy aholidan tayinlanganligi, ular esa Rim direktivalarini bir oz sovuqlik bilan xayotga tadbiiq etganliklari, xristian diniga qadar u yerda xalq orasida tarkib topgan va yashayotgan marosim va odatlar bilan kelishib yashaganligi o'z taosirini o'tkazdi.

Agar quldorlik intirozi davri adabiyoti o'z tarkibiga ko'ra bir xillikdan iborat bo'lsa, rivojlangan feodalizm (XI-XV asrlar)da uch turdagi badiiy ijod-xalq adabiyoti, klerikal va feodal-ritsarp adabiyoti mavjud edi. Eng qadimiy va kuchlisi – xalq adabiyoti sanaladi. Klerikal adabiyot – yevropadagi eng birinchi yozma adabiyot hisoblanadi. Feodal-ritsarp adabiyoti esa XII asrga kelib shakllangan va avvalgi ikki adabiyot tajribasidan foydalangan. XII asrda shaharlarni qayd ko'tarish va rivojlanishi ijtimoiy xayotga o'z taosirini o'tkazadi. XIII asrga kelib, shahar sanoati va adabiyoti intensiv holda rivojlanadi va yetakchi o'ringa chiqib oladi. Madaniy sharoitni o'zgarishi bilan klerikal adabiyot alohida faoliyat ko'rsata olmay qoldi va shahar adabiyotining ajralmas qismiga aylanadi. Feodal-ritsar adabiyoti esa o'rta asrlar oxirigacha alohida faoliyat ko'rsatdi. Xalq poeziyasi bo'lsa shahar adabiyotining asosiy manbaasiga aylandi.

German eposi. Britaniyaga ko'chib o'tgan German qabilalari orasida paydo bo'lgan ingliz-saks qahramonlik eposining yagona namunasi «Beovulpf haqida doston» hisoblanadi. (Britaniyaga ko'chib o'tgan german qabalalari orasida paydo bo'lgan ingliz-sakson (qadimgi ingliz) tilidagi adabiyot ingliz - sakson adabiyoti deb atalgan).

Asar VIII-IX asrlarda yaratilgan bo'lib, X asr boshlarida yozib olingan. Dostonda xristialikkacha bo'lgan qadimgi German afsonalari aks etgan. Doston uch mingdan ortiq misradan va ikkita katta qismdan iborat.

Dostonning qisqacha syujeti quyidagicha: Daniya qiroli Xrotgar o'z drujinasi bilan o'tkaziladigan ziyofatlarga mo'ljallab katta mehmonxona qurdirib, uni «Xeorot», yaoni «Bug'i qasri» deb ataydi. Ammo mehmonxonadagi xursandchilik uzoqqa bormaydi. Dengiz bo'yidagi botqoqliklarda yashovchi daxshatli mahluq, Grendelp kechalari qirolning jangchilarini yeb keta boshlaydi. Bu xabar Shvetsiyaning geotlar qabilasigacha yetib boradi va qirollik bahodiri o'z askarlari bilan Daniyaga keladi.

O'sha kechasi odamxo'r soqchilardan birini o'ldirib qonini so'radi va go'shtini yutadi. Ikkinchisini yemoqchi bo'lib turganda u Beovulpfning metindek qo'llariga tushadi. U mahluqni suyak va poylarini majaqlaydi, qo'li esa Beovulpf qo'lida qoladi. Ertasi kechqurun Grendelning onasi kelib o'g'li uchun o'ch oladi. Beovulpf uni izidan borib, havfli botqoqlik ichiga kiradi va qattiq jangda dushmani yengadi. Beovulpfning xizmatlari munosib taqdirlanadi va katta tantana bilan o'z vataniga qaytadi.

Asarning ikkinchi qismida qahramonning keksalik chog'idagi hayoti va kurashi aks ettirilgan. Beovulpf boshqarayotgan yerda dahshatli o't sochuvchi ajdarho paydo bo'lib, hamma narsani kuydirib-quritib yubora boshlaydi. Beovulpf u bilan yakka olishmoqchi bo'ladi. U jangda ajdarhoni o'ldiradi. Lekin o'zi ham ajlarhonning zaharli tishidan og'ir yarador bo'lib o'ladi. Uning jasadini o'tda kuydirib, tantana bilan ko'madilar.

Dostonning bizgacha yetib kelgan variantidan u bir necha marta qayta yozib olinganini, xristian xattoti undan budparastlik xudolari nomlarini chiqarib tashlaganini sezish mumkin. (Grendelp «do'zax ruxi», «gunohi uchun xudo tomonidan quvingan shayton» deb atalgan.)

Kelpt qissalarida qahramonning kuch-qudratini ifodalashda mubolag'adan keng foydalanilgan. (Masalan, Kuxulinda «jangavor g'azab tug'ilganda» gi holat).

Bundan tashqari fenillar dahosi Finn haqidagi sikl, Dengiz sarguzashtlari haqidagi qissalari ham bizgacha yetib kelgan.

Qadimgi Kelpt eposi G'arbiy yevropa adabiyotiga sezilarli darajada taosir ko'rsatdi. Uning afsona va miflari syujetlariga murojaat qilish keyingi davrlar adabiyotida keng tus oldi.

V asr boshida Britaniyada yashayotgan Kelpt qabilalari imperiyani zaiflashib qolganidan (urushlar tufayli) foydalanib Rim hukmronligiga qarshi qo'zg'aladi va mustaqillikni qo'lga kiritadi. Shimoliy Germaniyada joylashgan ingliz – saks qabilalari Britaniyaga ko'chib o'ta boshlaydi va mahalliy qabilalar qarshiligiga duch keladilar.

Ingliz sakslari istilosigacha Kelpt qabilalari yerni jamoa bo'lib yashaganlar, o'z oralaridan chiqqan oqsoqolga bo'ysunganlar.

V asrda Irlandiyaning xristianlashtiriluvchi ham qadimiy irland jamiyatining hayoti va urf-odatlari katta o'zgartirish kiritmadi. Qabilalar urf-odatlari haqidagi xalq poeziyasi asosida asta-sekin qahramonlik eposi yuzaga keladi. Avvaliga ana shu eposni saqlovchilar ham, ijrochilar ham qabila oqsoqollari bo'lganlar. Vaqt o'tishi bilan bu ertaklar qo'shiqchilar tomonidan aytiladigan bo'ldi. Biz ijrochilarni 2 guruhga - bardlar va filidlarga bo'lamiz. Bardlar lirik poeziya bilan shug'ullanganlar. Filidlar esa asosan qonunlar va qabila urf-odatlarini eks ettirgan epik poeziya bilan shug'illanib, ularni qo'shiqchi – hikoyachi deb ataganlar. Ular epik hikoyalarni sistemalashtirganlar. Avvallari bu qissalar nasriy usulda bayon etilgan. Shuning uchun ularni keyinchalik saga (skandinav xalqlari nasriy qissasini – saga deb nomlashgan) deb atadilar. Filidlar sagadagi tasvirlar orasiga sheoriy parchalar kiritdilar. Sagalar qabiladan-qabilaga o'tib uzoq saqlanib qolgan. Irland sagalarini VII-VIII asrda yozib olgan monahlar o'zlarining xristian diniga oid qarashlarini kiritganlar. Lekin irland monahlari Rimga tobe bo'lmaganliklari uchun,

sagalarini ko'p o'zgartirmaganlar. Shuning uchun irland sagalarida majusiylik urf-odatlarini, qabila hayotining qoldiqlari aniq ifodalangan. Ana shu tomondan irland eposlari G'arbiy yevropaning boshqa halqlari eposiga nisbatan ancha boy hisoblanadi.

Ulad turkumi irland eposining qadimiy qismi hisoblanadi. U Irlandiya shimolida, ulad qabilalari orasida, tarkib topdi. Bunda uladlar qiroli Konxobar va uning jiyani Kuxulinlar bosh qahramon bo'lib gavdalanadilar. Kuxulinga bir qancha epizodlik sagalar bag'ishlangan. Agar ularni aniq tartibda joylashtirsak, ushbu qahramonni biografiyasini tuzish mumkin bo'ladi. Kuxulin haqidagi sagalar Kuxulinning tug'ililishi haqidagi qissa bilan boshlangan. Kuxulinning kelib chiqishi haqida turli afsonalar bor. Bir rivoyatda Kuxulin Konxobarning singlisi Dextri bilan Lug (qadimgi Kelpt afsonalaridagi Nur, sanoat xudosi) ning o'g'li deb ko'rsatiladi. «Kualpngendan buqa o'g'irlash» qissasi.

Konnaxt qirolichasi Medb uladlarning zo'r bir bo'qasini tortib olish bohonasida ularga xujum qiladi. Bu vaqtda ular sehrli dard (yilda bir marta sodir bo'luvchi) ga chalingan edi. Faqat Kuxulin, ilohiy avlodga mansubligi uchun kasal bo'lmaydi. Shuning uchun Kuxulinning o'zi butun Irlandiyani uch oy davomida dushmandan himoya qiladi. Uladlar kasallikdan tuzalib, yordamga kelgandan keyin, dushman butunlay tor-mor etiladi.

Ritsar – kurtuaz adabiyoti. XII-XIII asrlarga kelib Fransiya va boshqa G'arbiy yevropa davlatlarida feodallasish jarayonini asosan tugallanadi. Davlat tepasidagi qiroli boshqa feodallar uchun sinpor (syuzern) hisoblanar edi. Katta yer egalari bo'lgan graf, gersog, yepiskoplar va o'z grafliklari doirasida mustaqil hukmron edilar.

Kichikroq baronlar yirik graf va gersoglarni sinpor deb atashgan. Baronlarga esa kichikroq feodal va ritsarlar bo'ysunganlar.

Ritsar o'z xo'jayiniga sodiq, uning mol-mulki va manfaatlarini himoya qiluvchi jangchi edi.

Dabdabali ritsarlik qoidalarini yaratishda XII-XIII asrlarda paydo bo'lgan ritsar adabiyoti muhim rol o'ynaydi.

Biroq ritsarlik ideallari real turmush faktlariga zid edi. X asr boshlarida Provans viloyati alohida davlat edi. Janubiy Fransiyadagi ushbu viloyat iqtisodiy va ma'naviy sohada rivoj topadi. Bu yerda fransuz adabiy tilga asos solinadi.

Dastlab Provansda feodal sinporlari dunyoviy ritsar madaniyatining ifodasi bo'lgan Kurtuaz poeziyasi dunyoga keldi. Provans shoirlarini trubadurlar deb atashgan. Trubadur fransuzchadan «topmoq», «ijod etmoq» degan ma'noni anglatadi. Bu adabiyot saroyga xos nafislik, odob-tavoze, xonimlarga nisbatan xushmuomalalikni talab qiladi. Ayollarni ulug'lash – trubadurlar ijodida asosiy o'rin egallaydi. Provans shoirlari muhabbat oshiqni yaxshi fazilati etib tarbiyalaydi, qalbini poktantiradi deb tushuntiradi. Ularning fikricha, oshiq odam hych qachon yomon niyatlar, yomon ishlarni qilmaydi, aksinchâ hamma vaqt oliyhimmat bo'lishga intiladi. Shoir Arnaut de Maruel provans shoirlariga xos fikrni bayon qilib:

“Muhabbatsiz odam hurmatga sazovor bo‘la olmaydi” deb yozadi. Ishqqa bunday munosabatda bo‘lish hamma provans shoirlariga xos fazilatdir. (Sharqda g‘azal janri! U.H)

Provans trubadurlarining ishq fazilatlarini haqidagi fikrlari Sharq faylasuflarining qarashlariga hamohangdir. Endilikda provans trubadurlari ishqiy lirikasining mazmuni, shakli uslubi asosida Sharq she‘riyati yotganligi haqidagi fikrlar hech kimda shubha qoldirmadi.

Sharq va G‘arb aloqalari markazi bo‘lmish Provansda shakllangan saroy she‘riyatning asosiy mavzui mahbuba go‘zalligini maqtash, oshiqning azob-uqbatlarini izhor qilishdan iborat. Ritsar ishqiy she‘riyati keyinchalik boshqa yevropa mamlakatlari, ayniqsa Italiyada Yoqimli yangi uslub va Olmoniyada minnezanglar she‘riyati sifatida keng tarqaladi. Mahbuba qiyofasining go‘zalligi ritsar shoirlari uchun (Sharqda ham shunday) birinchi shart edi. Ritsar muhabattida jismoniy yaqinlikka intilish mutloq uchramaydi.

Trubadurlar she‘orning shakliga, qofiyalanishiga ortiqcha e‘tibor berar edilar.

Ikki uslub: yorqin uslub (munozara, bahs) tumanli uslub (kinoyali so‘zlar, murakkab, mavhum iboralar.) Oddiy xalq tushuna olmaydi.

Trubadurlar o‘rta asr poeziyasini yangi bosqichga olib chiqdilar. Biroq ularda sunoiylik va shaklbozlikka (formalizm) berilish kuchli bo‘lgan. Muhabbat mavzusi ritsarlik lirikasida murakkab sevgi qoidalarini yuzaga keltirib chiqaradi (30 ga yaqin qo‘shiqchi trubadur ayollar ham bo‘lgan).

Trubadurlar lirikasining eng gullagan davri - XII asr oxirlariga to‘g‘ri keladi. Shu davrda ijod etgan yirik trubadurlardan biri Bernard de Ventadorndir (taxminan 1140-1195).

U dastlabki sheorlarini o‘z sinporining xotiniga, so‘ngra Angliya qirolchasi Elenoraga bag‘ishlagan (uning xizmatida bo‘lgan). Uning sheorlari nafis va ohangdor. Ventadornd she‘riyati sevgi ruhi bilan sug‘orilgan.

U sheorlaridan birida “Qalbingda sevgi bo‘lmasa bu dunyoda yashashni hojati yo‘q” – deydi. Xonimga: “Men sizni mulkingizman” – deb xitob qiladi.

Uning qo‘shiqlarini boshqa qo‘shiqlardan farqi haqida “Chin qalbdan chiqqan poeziyagina mening uchun qimmatlidir. Lekin bu faqat haqiqiy sevgi xukmronlik qilgan qalbdagina bo‘lishi mumkin. Mening butun borlig‘imda sevgi hukmron” – deydi.

Bertran de Born esa aksincha asosan siyosiy mavzuda ijod qilgan. (taxminan 1140-1215 yillar).

U o‘zining sirventalari bilan mashhur bo‘lib, ularda tajavuzkorlik, jang lavhalari, ritsarlar urushlarini tasvirlagan. U qishda bahorni qumsaydi, chunki bahor sevgi fasligina emas, balki harbiy erishlar fasli hamdir.

Uning poeziyasida kurtuazcha nafis tuyg‘ular zo‘ravonlikka asoslangan eski, dag‘al ritsar ideallari bilan qo‘shilib ketadi. Shuning uchun u oddiy xalqni “surbet”, “yalqov” deb atab, ularni iskanjada saqlashni targ‘ib etadi.

U keyinchalik o‘z otasiga qarshi bosh ko‘targan shahzoda Genrixni qo‘llab quvatlaydi. (Go‘yoki de Born ota-bolani urushtirib qo‘ygan degan gaplar tarqalgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Gyote de Bornni “Faust” asarida do‘zaxda tasvirlaydi).

Shahzoda Genrix bezgak kasali bilan og'rib vafot etadi. Born unga bag'ishlangan mashxur marsiyalarini yozadi.

U bir qancha sevgi qo'shiqlari ham ijod qilgan.

XIII asr – provans lirikasining so'nish davridir. Chunki bu davrda yangi shahar adabiyoti paydo bo'ldi. Shu bilan birga, 1209 yilda shimolliklar Simon de Monfor boshchiligida janubga xujum qildilar (20 yillik urush) va g'alaba qozongan. Trubadurlarning ko'pchiligi qo'shni Italiya, Piriney yarim oroli, hatto Germaniyaga o'tib ketadi.

Minnezang. Nemis ritsar madaniyati va adabiyoti. XII-XIII asrlarda Fransiya taosiri ostida rivojlangan. Ritsarp lirikasi minnezang («sevgi qo'shig'i» Minne – «sevgi») deb ataladi. Uning birinchi namunalari 1170 yillarga to'g'ri keladi.

Ritsarp - sevgi poeziyasi 2 oqimdan iborat edi. Ulardan biri o'z uslubi bilan arxaik xalq qo'shig'iga yaqin poeziya bo'lib, unda hali ayolni ulug'lash g'oyalari sezilmaydi. (Kyurenberg va Ditmar fon Aystlar ijodi).

Ikkinchi oqim – provans trubadurlarining bevosita ta'siri ostida yuzaga keladi (G'arbiy viloyatlarda). Ditmar va Kyurenberglarning lirikasi erli ayollarga emas, ko'proq qizlarga qaratilgan. Ularning she'rlarida sevgi iztiroblari ko'pincha ayollarning qismati bo'lib qoladi. Ditmar fon Aystning «Ayol qo'shig'i» dagi ayol uchib ketayotgan lochinni ko'rib qoladi. Unga qarab: «Sen baxtlisan, hoxlagan tomoninga uchib borasan, istagan daraxtinga qo'nasan. Men ham shunday qildim. Ko'nglimdagi yorimni topdim. Biroq ayollar rashk qilib azob chekmoqdalar», deydi. Ko'p sheorlar xalq qo'shiqlari singari tabiat manzarasini tasvirlash (bahor yoki kuz kelishi) bilan boshlanadi va qahramonlar ruhiy xolatlariga mos keladi.

Ikkinchi oqim vakillari ijodi shaklining ancha murakkabligi ritsarp urf-odatlarining kiritilishi bilan izohlanadi. Endi tabiat tasviri, dramatik situatsiya ko'rinmaydi. Visolga yeta olmaslik iztiroblari bo'rttirib bayon etiladi.

Valter fon Fogelvejde (taxminan 1160-1230 yillar) – o'rta asr nemis lirikasining asosiy oqimlarini o'z ijodida birlashtirgan shoirdir. Uning qahramoni oliy tabaqadan chiqqan ayol emas, oshiqning iltijolariga samimiy javob beruvchi kamtar qizdir. U xalq poeziyasidagi tabiat tasviridan foydalanadi.

Bavariyalik shoir Neydxart fon Reyental (taxminan 1180-1240 yillar). U ham «oddiy», «real sevgini» tasvirlash tarafdori, ammo uni maishiy naturalizm ruhida rivojlantirgan (Feodal-aristokrat nuqtai nazaridan krestyan qo'shiq va laparlarini parodiyaga oladi).

Shoir Volfram fon Eshenbarx (taxminan 1170-1220 yillar) – o'rta arsdan nemis sevgi lirikasini yanada boyitdi. Uning alpba (tong qo'shiq) lari juda ham go'zal.

Bulutlarning quyuq jomasin
Tirnoqlari bilan yorgancha,
Tong adirlar ortidan vazmin
Qudrati-la ko'kka o'rlaydi.
Huzurimga o'zim chorlagan
Kimsaning shod daqiqalarin
Uzaytirmas endi tong ortiq.

(A.Oripov tarjimai)

XIII asrning ikkinchi yarmida minnezangda tushkunlik boshlandi.

Ritsarlik romani. Ritsarlik lirikasi kabi ritsarlik ham Fransiyada vujudga kelib, keyin boshqa yerlarga tarqaldi. Ritsarlik lirikasida bo'lgani kabi romanda ham sevgi, turmush quvonchlari asosiy mavzu edi. Sevgi ko'tarinki ruhda, fantastik bo'yoqlarda aks ettirilgan. Shuningdek, qahramonlar psixologik kechinmalarini tasvirlashga ham katta e'tibor berilgan. Ritsarp xonimga bo'lgan sevgisi tufayli jangovar burchguzashtlarga (aventyura) o'tlanadi, lekin endi ritsarp vatan manfaatlarini emas, balki o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlab safarga chiqadi.

Ritsar romanlari syujetlariga ko'ra 3 ta asosiy turkumga bo'linadi: antik, bretan va vizantiya turkumlari.

Dastlabki ritsarlik romanlari yartilgani uchun antik adabiyot asarlari qayta ishlangan. Ana shunday asarlardan biri «Aleksandr haqida roman»dir.

Aleksandr Makedonskiy ham o'z yurishlari davrida ritsarga xos burchguzashtlarni boshidan kechiradi. Lekin bu asar tom maonoda ritsarp romani bo'la olmaydi, chunki unda muhabbat mavzusi va xonimga ritsarcha xizmat etish aks ettirilmagan edi.

Roman Aleksandr Makedonskiyning hayoti va qahramonliklari haqida hikoya qilinadi. XII asr oxirlarida paydo bo'lgan bu romanning mualliflari Lambert Le Tor (Lambert Le Tort) va Aleksandr de Berne (parijlik) (Alexandre de Raris) lardir. Bu roman yozilgan sheoriy o'lchov keyinchalik asar nomi bilan aleksandr vazni deb atala boshlandi.

Antik turkumga kiruvchi romanlardan yana biri «Eney haqida roman» (Roman d'Eneas) XII asr) hisoblanadi. Nomaolum avtor Vergiliyning «Eneida» dostonining sevgi va romantik lahzalarini tasvirlagan.

Bretan turkumidagi romanlarda esa V yoki VI asrlarda yashagan qirol Artur asosiy qahramon hisoblanadi. Kurtuaz shoirlari kelpt din arbobi Golpfrid Momutskiyning «Britaniya qirollari» kitobi syujetlarini qayta ishlaydilar.

Qirol Artur saroyi ritsarlar olamining markaziga, qirolning o'zi ritsarlarning barcha ishlarida odil xakam bo'lib gavdalanadi. Artur saroyida 12 ta mashhur ritsarp bo'lib, ularni «yumaloq stol» ritsarlari deb atalgan. Bu stol atrofida gilarning barchasi barobar mavqega ega bo'lgan. Keyinchalik Qirol Artur haqidagi voqyealarga boshqa voqyealar ham qo'shiladi.

Shundaylardan biri «Tristan va Izolpda» haqidagi romanlardir. Kelpt rivoyatlari asosida yaratilgan Tristan va Izolpda haqidagi syujet XII asr o'rtalarida juda ko'p arablar tomonidan ishlangan. Ammo bizga yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan parchalar, syujetlar, tarjimalarni jamlash orqali XII asr o'rtalaridagi fransuz romanining fabulasini tiklash mumkin bo'ladi.

*Gyunter de Broynning, «Tristan va Izolpda» asari mustaqil o'qishga beriladi.

Glossary

Intonatsiya

Intonation

(lotinch intone-kuchli talaffuz etaman)-
jonli nutqning ifodaviyligini ta'minlovchi
asosiy omil, tilning fonetik vositalari
(tovush toni, talaffuz tempi,

		tembr, pauzalar, melodika, mantiqiy, emfarik urg'ular) majmui.
		(lot.intrico, fran.intrigue- chalkashtiramanvoqeaband asar personajlarining o'z oldiga q'ygan vaqsad yo'lidagi murakkab, tobora chigallashib boruvchi xatti-harakatlari, haqiqiy maqsadini yashirgan holda ishlatgan turfa xiyla-nayranglari
Intriga	Intrigue	
		(yunoncha eironeia- aynan o'zini go'llikka solish) qarang: kinoya
Ironiya	Irony	
		(lot.intermedius - o'rtada joylashgan, ichidagi) - 1) o'rta asrlar teatrlarida o'ynalayotgan asosiy spektaklning parda oralaridagi tanaffus payti ijro etilgan maishiy mavzudagi kichik hajviy sahna ko'rinishi; 2) Estrada san'ati va televideniyaning rivojlanishi bilan bog'liq holda faollashgan komik xarakterdagi kichik dramaturgik janr.
Intermediya	Intermission	
		(lot.interpretation - tushuntirmoq) - talqin, adabiy asar mazmunini idrok qilish, uning mazmuni, badiiy konsepsiyasini anglash, tushunish.
Interpretatsiya	Interpretation	
		(lot. Inter-aro, textum - to'qima, mato, matn) - har qanday matn avval mavjud bo'lgan matnlarni transformatsiya qilgan holda o'ziga singdirgan sitatalar majmuidir
Intertekstuallik	Intertextuality	

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. O'rt asrlar adabiyoti qanday davrlarga bo'linadi?
2. Kelt eposi qanday xususiyatlarga ega?
3. Ritsarlik poeziyasining paydo bo'lish asoslari va asosiy mavzusi?
4. Ritsarlik romani qanday turlarga bo'linadi?

Test topshiriqlari:

1. German qahramonlik eposining yagona namunasi qaysi?
A) "Beovulf haqida doston"
B) "Aleksandr haqida roman"
C) "Tristian va Izolda"
2. Ritsarlik ilk bor qayerda vujudga keldi?
A) Germaniyada
B) Fransiyada

- C) Rimda
2. "Eney haqida roman" qaysi turkumga kiruvchi doston hisoblanadi?
- A) Antik turkumga kiruvchi
- B) Ritsarlik turkumiga kiruvchi
- C) Qahramonlik turkumiga kiruvchi
3. "Minnezang" so'zining ma'nosi nima?
- A) "hayot qo'shig'i"
- B) "sevgi qo'shig'i"
- C) "baxt qo'shig'i"
4. Bertran de Born qanday mavzuda ijod qilgan?
- A) sevgi mavzusida
- B) siyosiy mavzularda
- C) komediya mavzularida
5. Provans lirikasining so'nish davri qaysi asrga to'g'ri keladi?
- A) 3-asr
- B) 5-asr
- C) 6-asr

Adabiyotlar:

4. O.Qayumov. «Chet el adabiyoti» Toshkent 1979 yil.
5. Borisova I.F. , Ermatov B.S. «O'rta asrlar G'arbiy Ovrupa adabiyotlari ravnaqining zamonaviy konsepsiyalari» Toshkent «Universitet» 1994 yil.
6. F.Sulaymonova «Sharq va G'arb» Toshkent «O'zbekiston» 1997 yil.
7. Smirnov A.A. «Srednevekovaya literatura» Ispaniya L., 1969 yil.
8. Gyunter de Broyn. «Tristan va Izolda». Toshkent., «O'zbekiston» 1994 yil.

9-mavzu: Jahon adabiyoti va Alisher Navoiy

ReJA:

1. Adabiyotda daho va uning ta'sir ko'lami.
2. Navoiyning Sharq adabiyotidan ta'sirlanishi va o'zidan keyingi turkiy adabiyotga ta'siri.
3. Navoiyning jahon miqyosida o'rganilishi.
4. Dante va Navoiyda adabiy til muammosi.

Dunyoda ijodkorlar ko'p, lekin hammasining o'z o'rni va darajasi bor. Shu ma'noda Navoiy jahon miqyosida daho ijodkor hisoblanadi. Bu alohida daraja hisoblanadi. Daho va iste'dod ham bir biridan farq qiladi. Xo'sh, bu nima ma'noni bildiradi? Ma'lumki, jahondagi ko'pgina xalqlarning o'z navoiysi, shekspiri va pushkini bor. Lekin hamma xalqning ham navoiysi, shekspiri va pushkini o'zbekning Navoiysi, inglizning Shekspiri va rusning Pushkinidek emas. Chunki bu

ulug' zotlar o'z zimmalariga tarix yuklagan bag'oyat og'ir va sharaflil vazifani juda baland darajada ado etganlar. Odatda, daho san'atkorlar o'zlari bilan birga yangi davrni boshlab beradilar. Bu davr esa sekin-asta butun boshli millat taqdirida aks etadi. Savol tug'iladi: daho kim o'zi? U qanday qilib butun boshli millatga tegishli sifatlarning asosini o'ziga singirib-yuqtirib oladi-da ularning barini ma'naviy merosiga joylab ketadi? Daho san'atkorlarning badiiy merosiyu tafakkur kengligini baholaydigan mezonlar bisyor, albatta. Shulardan biri - ular ishlatgan so'zlarning sanog'u salmog'i bilan ham belgilansa, ajab emas. Ayrim olimlar Pushkin o'z asarlarida 21000, Shekspir 23000, Navoiy 26000 dan ziyod so'zdan istifoda etgan deyishadi. Boshqalarida raqamlar sal o'zgaradi. Shubha yo'qki, yaqin kelajakda bu sohada aniq natijalarga kelinadi. Lekin aniqliklar natijasida daholar qo'llagan so'zlar soni 1000, 2000 va hatto 3-4 ming taga o'zgargan taqdirda ham raqamlarning salmog'i naqadar zalvorli ekanligini qabul qilmoq kerak. Chunonchi, bugun elimiz orasida ma'lumu mashhur shoirlarimizning leksik boyligi taxminan 3000 tani tashkil etar ekan. Shuni 8 ga ko'paytirsangiz, Navoiy, Shekspir va Pushkinning asarlarida ishlatilgan so'z boyligi kelib chiqadi. Albatta, gap lug'at boyligida emas. Gap mana shu so'z boyligi vositasida o'z davrining, shu davr insonlarining badiiy qiyofalarini aks ettirishda, olamga muvoziy ravishda yana bir olamni, badiiy olamni yaratishdadir! Haqiqiy shoir, yozuvchi, dramaturg va rejissyor o'zi mansub davrning bosh tomiriga tashhis barmog'ini qo'yib, uning holini aniqlab berguvchi tabibdir. Navoiy, Shekspir, Pushkinlar ana shunday ulug' yumushni muvaffaqiyat bilan bajargan daholar sirasiga kiradi. Bunday daholarning paydo bo'lishiga xos bir nozik jihat shuki, ulug' zotlarning intilishlari bilan ular tug'ilib, shakllangan davr talablari, ehtiyojlari bir-biriga uyg'un tushib qoladi. Dante, Navoiy, Pushkinlarni o'zi mansub millat adabiy tilining asoschisi, deb atashlari ham shu bilan belgilanadi. Ya'ni tarixiy zarurat, ehtiyoj bor ediki, Dante, Navoiy, Pushkinlar paydo bo'ldi. Lekin bu "kerakli joyda, kerakli vaqtda kerakli odam bo'lib paydo bo'lish" degan tushuncha bilan aynan bir narsa emas. Chunki Navoiy va Pushkin bajargan ishni o'nta iste'dod jam bo'lib ham bajara olmas edi. Buning uchun kerakli o'rinda, kerakli vaqtda daholik sifatlari bilan tug'ilish lozim edi. Pushkin ana shunday inson bo'lib dunyoga keldi. Qiziq, daho va iste'dodning farqi nimada? Bu savolga javob berish uchun, avvalo, iste'dodlini iste'dodsizdan ajratib olish kerakdir, ehtimol. Bitta iste'dodli kishi 10 ta iste'dodsiz odam bajara olmaydigan ishni uhdasidan chiqadi. Endi bitta daho o'nlab va hatto yuzlab iste'dodlilar birlashib ham ado etolmaydigan og'ir muammoni hal qilishini hazm qilib ko'raylik. Dante, Navoiy, Shekspir va Pushkinlar mana shu vazifani uddalashgan edi. Buni ularning o'zlari ham teran anglashgan, asarlarida ochiqchasiga e'tirof etishgan. Xususan, Pushkin haqli ravishda "Qo'l bilan tiklab bo'lmas Haykal qo'ydim o'zimga" deb faxr tuyadi bir she'rida. "Cherik chekmay oldim Xitodin to Xuroson", "Bu nazmda chu chekim alam, Ayladim ul mamlakatni yakqalam" deydi. Bunday faxr tuyg'usi daholarga xosdir. Vergiliy, undan oldin Qadim Misr adabiyotida ham mana shunday o'z ishidan haqli ravishda faxrlanish bor. Chunonchi, m.a. 2 ming yillikning oxirlariga tegishli "Kotiblarni madh qilish" asari Goratsiyning "Exegi monumentum" va A.S. Pushkinning "Haykal" she'rlariga xamirturish bo'lgan.

Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Merosi. Ahamiyati. Forsigo'y shoirlardan ta'sirlanish (Attor, Rumi, Jomiy, Nizomiy...). Turkiyadagi "Xamsa". Navoiyning turkiy shoirlarga ta'siri. Fuzuliy. Bobur.

Navoiy asarlarining dunyo miqyosida o'rganilishi. 2016 yilda Berlinda Navoiyning 575 yillik yubileyi nishonlandi. Unda Navoiyning Jahon adabiyotiga qo'shgan hissasi haqida ham so'z bordi. O'zbekistondan M.Ali, Sh. Sirojiddinov va A. Erkinov ishtirok etdi. A.N.ning 30 yaqin asarlari Berlin kutubxonasida saqlanmoqda.

V.Bartold, ye.Bertels, V.Jirmunskiy, A.Borovkov, V.Zohidov, H.Sulaymonov, G'.Karimov, N.Mallaev, A.Hayitmetov tadqiqotlarida Navoiy qoldirgan merosning dunyo miqyosida o'rganilishi haqida baholi qudrat yozilgan. "Biroq mutafakkir adib asarlarining tarjimalari va talqinini keng yoritgan monografik tadqiqotlar hozirgacha yaratilgani yo'q" deydi prof. M. Xolbekov.

XVII asrga doir manba —Bartolome d'yerbeloning «Sharq kutubxonasi» kitobining 99-sahifasida «Alisher» nomli maqolada yozadi: «Alisher yoki Mir Alisher Navoiy deb atashadi. Bu nom «Ali» va «Sher» so'zlaridan tarkib topgandir... Alisher Xurosonda vazir bo'lib, juda katta obro'-e'tibor qozongan. U yirik olim va shirinsuxan shaxs bo'lgan. Hirot shahrida o'zining boy kutubxonasini yaratgan va unga shogirdi — tarixchi Xondamirni mutasaddi etib tayinlagan». Kitobning 661-sahifasidagi "Navoiy" maqoladasida esa uning Boyqaroning vaziri bo'lganligiyu Xamsadagi bir necha asarlarining nomlarini sanaydi.

Professor M. Xolbekov "Navoiy merosi fransuz tilida" maqolasida quyidagi fikrlar mavjud: "XVIII asrga kelib G'arbiy yevropada, jumladan, Fransiyada filoorientalizm (Sharqni sevish va o'rganish — M.X.) tendensiyasi fan va madaniyatni diniy jaholatdan himoya qilishda muhim rol o'ynadi. Fransuz ma'rifatparvar adiblari — Monteskening «Fors nomalari», Volterning «Sharq qissalari», Didroning «Bevafo javohirlar» asarlarida sharqona syujetlar asosiy mavzu qilib olingan. Sharqona syujetlarni o'z qissalari mazmuniga singdirish an'anasi, ayniqsa, Volterning falsafiy asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, Sharq folklori, mifologiyasi va adabiyotini yaxshi bilgan yozuvchi o'zining «Zadig yoki taqdir» qissasidagi «It va ot» bobi mazmunini tabrizlik Kristofor Armaniyning «Sarandip podshosi uch o'g'lining sarguzashtlari» (1557) nomli asaridan olgani o'sha davrda ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lgan. Sharqshunos ye.Bertelsning yozishicha, Kristofor Armaniy ham o'z asariga bu syujetni Alisher Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostonidagi hikoyatdan erkin tarjima qilib olgan".

XVIII asrda Fransiyaga Sharq mamlakatlaridan ko'plab noyob qo'lyozmalarning olib kelinishi sharqshunoslik ilmining rivojiga katta zamin hozirladi. Asr oxiriga kelib, Parij G'arb sharqshunosligining yirik markazlaridan biriga aylandi. 1795 yili «Sharq jonli tillari maktabi» ochildi, 1821 yili «Osiyo jamiyati» tashkil topdi. 1823 yilda shu jamiyatning nashri — «Osiyo jurnali» chop etila boshlandi. Bu davrda S. de Sasi, A.Kloprot, E.Katremer, A.Remyuzo, F.Belen kabi sharqshunos olimlar turkiy xalqlar adabiyoti namunalarini o'rganish va tarjima qilish bilan mashg'ul bo'ldilar. Ayniqsa, ular o'zbek adabiyoti salafarlari — hazrat Navoiy va shoh Bobur ijodini o'rganishga alohida e'tibor qaratdilar. Masalan, taniqli sharqshunos olim

Silvestr de Sasi (1758—1838) tadqiqotlarida Alisher Navoiy merosini o'rganishga keng o'rin berilganini kuzatamiz”.

M. Xolbekov: “Fransuz adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodiga haqqoniy bahoni mashhur adib Lui Aragon (1897—1982) bergan. U o'zining 1955 yili nashr qilingan monografiyasida sobiq Ittifoq xalqlari adabiyoti xususida fikr yuritarkan, har bir yozuvchi faoliyatini o'z xalqi tarixi va madaniyati bilan bevosita bog'lab talqin qilishga urinadi. Taniqli fransuz adabiyotshunosi Jan Frevil so'zi bilan aytganda, Aragon «bu kitobi bilan fransuzlarga hali ma'lum bo'lmagan bir qator millat va elatlar madaniyatiga eshik ochib bergan edi». Aragon hazrat Navoiy hayoti va ijodi haqida aniq ma'lumotlarni keltirarkan, professor ye.Bertels, Oybek va G'afur G'ulomning shoir haqidagi maqolalaridan foydalanganini ham qayd etib o'tgan.

«Navoiy, — yozadi L.Aragon, — Sa'diy va Attor she'riyati, ayniqsa, Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy izidan borib, uning «Xamsa»si an'alarini davom ettiradi. Aynan shu hodisa fransuz o'rta asr adabiyotidan to Renessans davrigacha bo'lgan adiblar ijodida ham kechgan edi». Aragon kitobida Navoiyning ona tilida tengi yo'q asarlar yaratganini yana bir karra tasdiqlash va o'z o'quvchisiga yetkazish maqsadida «Farhod va Shirin» dostonidan bir she'riy parchani fransuz tilida keltirib o'tadi.

Lui Aragon Navoiyning davlat arbobi, madaniyat homiysi sifatidagi muhim tarixiy xizmatlarini ham alohida ta'kidlagan. Masalan, uning vazirlik lavozimida el-yurt farovonligi, xalq osoyishtaligi yo'lidagi faoliyatiga quyidagicha ta'rif beradi: «Navoiy vazir lavozimida xalqparvar fuqaroning istagi va talabini qondirishga intilgan shaxs edi. To'g'ri, uni tom ma'nodagi demokrat shaxs bo'lgan deya olmasak-da, biroq u zamonasining progressiv kishisi bo'lgan va ilmni, she'riyatni, san'atni juda qadrlagan. Shu xislatlari bilan u Renessans ziyolilariga juda yaqin turgan edi».

Keyinchalik ham o'z ijodida Sharq xalqlari adabiyotiga, jumladan, Nizomiy, Dehlaviy, Hofiz, Jomiy va Navoiy ijodiga hurmat bilan qaragan Aragon, ayniqsa, she'riyatda ular asarlaridagi sharqona an'analardan foydalanishga harakat qildi. Masalan, 1963 yili bosilib chiqqan «Majnun Elza» majmuasiga kirgan she'rlarida sharqona poetik tasvirning fransuzcha matn mazmuniga naqadar uyg'unlashib ketganini kuzatamiz. Aragon ushbu kitobidagi lirik qahramon Elzani Sharq klassiklari qalamiga mansub «Layli va Majnun» dostonidagi Qaysning sevgilisi Layliga o'xshatarkan, o'z ishqiga munosib sohibjamol parivash qiyofasida tasvirlashga harakat qiladi.

Darhaqiqat, Aragon «Majnun Elza» kitobini yozayotganida Sharqning qaysi shoiri ijodidan ilhomlanganini, qanday manbalardan foydalanganini ham o'quvchiga eslatib o'tgan. Kitobning oxiridan o'rin olgan «Izohlar»da Sharq klassiklari nomlariga tushuntirish berib o'tarkan, Alisher Navoiyga ham to'la ta'rif beradi”.

M. X. : “XX asrning so'nggi yillarida fransiyalik ijodkorlarning ham hazrat Navoiy merosiga, umuman, o'zbek she'riyatiga qiziqishi ortdi. Shu o'rinda Parijda chiqadigan jurnallardan biri «Action poetique» («She'riy harakat»)ning sa'y-harakatini alohida e'tirof etmoq joizdir. 1989-1990 yillarda chiqqan jurnalning ikki soni o'zbek she'riyatiga bag'ishlangan. 1990 yili jurnalning «O'zbek

g'azali»⁸ nomli maxsus soni bosilib chiqdi. Ushbu majmuada o'zbek mumtoz she'riyati vakillari — Xoja Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Husayniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Boborahim Mashrab, Nodirabegim, Ogahiy, Uvaysiy, Fazliy va Mahzunaning ijod namunalari berilgan. G'azallarni fransuz tiliga qilingan taglamadan iste'dodli shoir Jan-Pyer Balf mahorat bilan o'girgan. Shoir-tarjimon fransuz tarjima san'atida keng qo'llanadigan usul, ya'ni nazmni nasr bilan o'girish tajribasidan foydalangan. Natijada g'azallarning tarjimada mazmuni to'la saqlanganu, asliyatdagi musiqaviy ohang o'z kuchini yo'qotgan. Albatta, g'azal ohangini G'arb tillarida saqlash mushkul.

Fransuz shoiri Jan-Per Balf hazrat Navoiy she'riyatidan qilgan tarjimalari mundarijasini yanada kengaytirib, shoir tavalludining 550 yilligiga katta sovg'a tayyorladi. Parijdagi nufuzli nashriyotlardan sanalmish «La Diferans» kitob uyi 1991 yili Navoiy she'riyati majmuasini «G'azallar va boshqa poemalar» nomi bilan chop etdi⁹.

Fransiyada chop etiladigan "Osiyo" jurnalida Navoiyga bag'ishlangan qator maqolalar e'lon qilingan. Belen degan olim Navoiyni turkiy til mavqeini ko'targanini ta'kidlaydiyu uning ijodini taqlidchilikda ayblaydi. Prof. ye. Bertels huni "yengil yelpi bayon" deb ataydi. Qomuslarda ham Navoiy haqida alohida maqolalar bor.

Nemis olimi Alfred Kurella (1895-1975). *Nemis publitsist yozuvchisi, jamoat arbobi, tanqidchi va tarjima nazariyotchisi. Nemis San'at akademiyasi akademigi. Alisher Navoiyning nemis tarjimoni. "Inson o'zini o'zi yaratadi", "Ketma-ket", "Tarqoq ocherklar" kabi asarlarida u taraqqiyparvar yozuvchilar dunyoqarashini himoya qiladi. "Buyuk shoirning qayta kashf etilishi" maqolasida Alfred Kurella quyidagilarni yozadi:*

"Bundan chamasi 150 yillar muqaddam G'arbiy yevropada, aniqrog'i Germaniyada arab-fors madaniyati ahllarining asarlarini yangidan kashf etish boshlangan edi. Natijada, mashhur nemis olim va shoirlarining sa'y-harakatlari tufayli nemis kitobxonlariga fors tilida ijod qilgan *Firdavsiy, Nizomiy, Hofiz, Umar Hayyom, Jomiy* kabi buyuk shoirlarning nomlari ma'lum bo'ldi. Nemis o'quvchilari ular ijodi namunalaridan ba'zi birlari bilangina tanishgan edilar, xolos. Biroq o'tmishga nazar tashlab shuni aytish joizki, Yaqin Sharq bilan bu madaniy to'qnashuv nemis she'riyatiga davomli ta'sir ko'rsatdi, deyish qiyin. Ya'ni o'sha davr tarjimalaridan na fors tilidagi she'riy asarlarning birortasi, na Firdavsiyning nemis tiliga to'rt marta o'girilgan "Shohnoma"si oldingi tarjimalarning birortasidan yoki butunlay shu turdagi nemis adabiyotiga kirib kelgan Fos¹ ning Homer tarjimalaridek ommalashib ketmadi. Va ularning birortasidan nemis she'riyati o'zi uchun yangi kashf etilgan grek-rim klassiklaridan zavqlanganday zavqlanmadi. Zotan, o'sha davrdagi tarjimalar bugungi kitobxon uchun quruq va amaliy ahamiyatsiz bo'lib ko'rinardi. XIX asr nemis shoirlari ijodida ba'zan u yer-bu yerda uchrab turadigan "*Sharqona*

¹ Фос (1751-1821) – ўғиллари билан бирга "Минг бир кеча" эртаклари, Шекспир ва Ҳомер асарлари таржималарини амалга оширган.

uslubdagi she'rlar” esa kishida sun'iy ravishda begona ta'sir hissini uyg'otardi, ular Bodenshtedning Mirza Shafiy²

siday g'ayritabiiy holat bo'lib kulgili tuyuldi. Faqat Gyotening G'arb va Sharq yaqinlashuvidan paydo bo'lgan ajoyib nafis san'at asarlaridan biri “G'arbu Sharq devoni” bundan mustasno.

...Bugungi fikrimiz esa, nomi va asarlari asrlar davomida sukunat qo'yniga cho'mgan muallif (Navoiy – tarj.) haqida bo'lishi tabiiy, albatta. Ammo biz Navoiyni *qaytadan kashf etishni* boshlayotgan paytda, u allaqachon favqulodda ulkan siymo sifatida tan olingan edi.

...Mir Alisher yevropa ilm ahliga o'tgan asrning o'rtalaridan yaxshi tanish. yevropadagi barcha katta kutubxonalarda, ayniqsa Parij, Vena va Londonda uning ko'plab she'riy va nasriy asarlarining qo'lyozmalari mavjud. *Boburiylar saltanati asoschisi Bobur Mirzo qalamiga mansub* mashhur “Boburnoma” memuarining ingliz, fransuz va nemis tillarida jamlangan nashrlarining paydo bo'lishi, Boburning do'sti va zamondoshi Alisher nomini jahonga tanitdi. Shoir ijodi bilan batafsil shug'ullangan yevropa orientalistlarining ko'plab asarlari 1841 yildan boshlab paydo bo'la boshlagan edi. Chindan ham, bu asarlarning barchasida mualliflar Alisherni *mashhur shaxs sifatida baholadilar*, biroq *original ijodkor, buyuk shoir sifatida unga kam e'tibor berdilar*. Ya'ni yevropada uni o'rganish sharqshunoslarning tor doirasida, ha, aniqroq aytsak, turkiy tillar bilan shug'ullanuvchi filologlar doirasi bilan chegaralanib qolgan edi.

Bu ishlar asosini chuqurroq kuzatish, ya'ni nima uchun Alisher Navoiy shu bugungacha jahon adabiyotida o'ziga munosib o'rinni egallay olmadi, degan savol, bizni faqat ulkan tarixiy xizmatlarining yolg'iz o'zigina Alisher Navoiy nomini abadiy qilish uchun yetarli, degan tushunchaga olib keladi. Navoiy fors tili shu paytgacha so'zsiz madaniy va adabiy til darajasini egallagan saroyda ijod qilib, ushbu madaniy doiradan chiqib, o'zi shu tilni to'liq egallab, g'oyat boy nazm va nasrdagi asarlarining katta bir qismini turkiy tilda, aniqrog'i ilgari tilshunoslik ilmida “*chig'atoy*” tili deb yuritilgan va bugun biz zamonaviy o'zbek tilining oldingi shakli deb bilgan, ma'lum bir hudud, guruh yoki ijtimoiy tabaqa uchun xarakterli bo'lgan *bu ulkan tillar oilasining mushtarakligida yozdi*. Bu tilda XV asrda Sohibqiron avlodlari tomonidan egallangan xalqlar bilan bugungi Eronning Shimoli-Sharqidagi *Oksus va Jakarta*, ya'ni Jayhun va Sayhun daryolari oralaridagi hamda hozirgi Afg'onistonning Shimolida so'zlashishadi. Sal keyinroq Bobur Mirzo ham o'zining mashhur memuarini ushbu tilda yozgan edi. Umuman olganda, Navoiy bu tilda ijod qilganlarning birinchisi emas edi. Ha, darvoqye, uning o'tmish salafarlari bo'lmish shoirlar Lutfiy va Sakkokiylar bu tilni hali to'liq egallamagan edilar. Faqat Navoiygina buni madaniy-adabiy poetik til darajasiga ko'tardi. Va shu bilan birga, bitta zarb bilan uni hayratomuz darajada mukammal qilishga erishdi.

² Мирза Шафий Содик ўғли (1796-1852) – тахаллуси Возих, Озарбайжон шоири. Ғазал, маснавий, рубойлар ёзган. Асарларида жамият нуқсонларини фош қилган. Лирик шеърлари қўшиқларга айланган. Жумладан, “Зулайхо ва Ҳафиза”, “Тифлис билан видолашув”, “Мирза Шафий қўшиқлари” китоби кўп тилларда нашр қилинган. Дарсликлар яратган, озарбайжон тили ва адабиётидан луғатлар, хрестоматиялар тузишда қатнашган.

Hali ushbu ishning ahamiyati haqida to'xtalishimiz mumkin. Zotan, Navoiyni "*fors adabiyotiga*" boshqa dahli yo'q, u yolg'iz chig'atoy tili bilimdonlariga tushunarli, deyuvchilar borligi bois, uning nazmdagi asarlari faqat tor doiradagi filologik tadqiqotlar uchun mavzu bo'lishiga sabab bo'lgan. Filologlar Navoiyni dunyoda mustahkam qaror topgan yangi lisoniy ijodini fors muxoliflarining ba'zi birlariga ergashdilar va ular Navoiy nazmini haqiqiy tadqiq qilmasdan "*epigon*" va "*taqlidchi*", ha, salaflarining forscha she'rlarini, ayniqsa Nizomiyni, turk tiliga ag'dargan oddiy "*tarjimon*" sifatida tushuntirdilar.

...Biz Navoiyni chindan ham yangilik yaratgan novator ijodkor deya olamiz, biroq bu fikr nisbiy yangilik haqidaligini unutmashimiz kerak. Chunki Navoiy o'zining butun ijodi bilan Sharq she'riyatiga daxldor-ku! Uning she'riy asarlarida biz uchun ulug' fors shoirlariga nisbatan Gyote aytgan o'sha begonalik va ular she'riyatida tez-tez uchrab turadigan hayrat ham bor. Holbuki, bu hol u arab-fors she'riyatidagi an'anaviy shakllarini buzayotganida ro'y bergan. Navoiy alohida yangi vazn shakllarini ijod qilganida, nima uchun u o'zbek xalq she'riyatiga qaytganini va bunga eski o'zbek tilining ulkan leksik so'z va shakl boyligi sababchi bo'lganini, umuman, so'zlar ohangi bilan ko'proq fors shoirlari shug'ullanganlarini tadqiqotchi qiynalmasdan aniqlaydi.

...Qadimgi va zamonaviy Sharq klassiklarining nemischa tarjimalari ustida boshlangan bu ish "*Homer*" ni kashf etmoqchi emas. Ushbu boshlangan amal kelajakda *Homer* bilan birga, yonma-yon *Xorats* va *Shekspirni*, *Li Tay-po*, *Fidyaapati Takurni* hamda *Hofiz*, *Nizomiy* va *Navoiyni* ham o'z merosi deb hisoblaydigan she'riyat va madaniyatni yaratish uchun baholi qudrat hissa bo'lib qo'shilishini xohlaydi". (Nemis tilidan RoviyaJon *ABDULLAEVA* tarjimasini).

Navoiyda adabiy til muammosi. Navoiygacha ham Xorazmiy, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy kabi shoirlar turkiy tilda ash'or bitishgan. Lekin aynan Navoiy bu tilni adabiyoy til maqomiga olib chiqadigan asarlarni yozdi: 4 she'riy kitobdan iborat "*Xazoyin ul maoniy*" va 5 dostonni o'z ichiga olgan "*Xamsa*"si bu fikrimizning isbotidir. Jahonda ham bunday ulkan ishni uddalagan ijodkorlar bor. xususan, italyan shoiri A. Dante. Dante va Navoiy ijodlarining mushtarak jihatlari bor. Ularning har ikkisi ham o'z yurtlarida, o'z ona tillarida shunday asarlar bitishdiki, natijada bu asarlar orqali biri italyan, ikkinchisi esa turkiy tilni adabiy til darajasiga (o'zlarining shoh asarlari "*Ilohiy komediya*" va "*Xamsa*" vositasida) ko'tarishdi. "*Ilohiy komediya*" bosh qahramoni (shoirning o'zi) o'rmonda adashib, hayvonlar ta'qibiga uchrab, axiyri ustoz shoir Vergiliydan yo'l yo'riq so'rab oladi. Shundan so'nggina sevgilisi Beatchichega yetishishga harakat qiladi. Xuddi shunday, Navoiyning "*Farhod va Shirin*" dostonida Farhod ustoz Suqrot huzuriga yo'l oladi. Amm yo'lda turli tuman to'siqlarga, dev, sher, temir paykar, ajdahoga duch keladi. Shularni yengib o'tgachgina sevgilisi Shiringa borish imkonini qo'lga kiritadi. Bu to'siqlar o'ziga xos ramzlardir.

Tilshunoslik asarlari ham bir biriga hamohangdir. Danteda "*Xalq tili haqida*", Navoiyda "*Muhokamat ul lug'atayn*". Dante zamonida san'at tili lotin tili hisoblanib, italyan tilining obro'si yo'q darajada edi. Shuning uchun ham u o'z ona tili hisoyasida yuqoridagi asarini yozdi. Navoiy uchun ham shularni aytish mumkin. Fors tili san'at tili edi. Turkiy til esa unga tenglasholmasdi. Haydar Xorazmiy,

Sakkokiy, Atoyi, Yaqiniy, Gadoiy, Lutfiylar fors shoirlariga tenglasholmasdi. M. Qoshg'ariy "Devonu lug'otit turk" dan keyin Navoiyning til haqidagi asari turkiy tilning hyech bir boshqa tillardan qolishmasligini isbot qildi. Bu an'ana hozirgacha davom etib kelayapti. E. Vohidovning "So'z latofati", A. A'zamning "Til nomusi" yozdilar. Demak, bu asarlar bejiz yozimagan, yozilmayapti. Ma'lum bir ijtimoiy siyosiy vaziyatda til himoyasiga ehtiyoj tufayli yozilayapti. Dante va Navoiy asarlaridan so'ng yevropada italyan, Movarounnahr va Xurosonda turkiyning mavqeyi ko'tarildi. Bu tillarga o'zgacha nazar bilan qaray boshlandi. Hurmat qilindi. Dante yahudiy tilni birinchi til desa, Navoiy arabchani eng ustun til deb biladi. Dante nasroniy dini orqali dunyoni ko'radi, shu ma'noda Islomni, payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ni, Hazrat Alini tanqid qiladi, ularning sha'niga yarashmagan haqoratomuz so'zlar aytadi. Chunki u mutaassib nasroniy maqomida qolgan. "Ilohiy komediya" shunga dalil. Undan yuksakroqqa bo'ylay olmagan.

Dante ilk bor tilshunoslik tarixida jug'rofiy shevashunoslik yo'nalishiga asos soldi. Navoiy esa turkiy va forsiy tilni qiyoslaydi. Bu esa hozirgi tilshunoslikda kontrastiv lingvistikaning dastlabki ko'rinishi. (G'arblik tilshunoslar qiyosiy tilshunoslikka XIX asrdagina asos solindi, deb kelishadi) D. Yusupova va

A. Malikovlar "Aligeri Dante va Alisher Navoiy: adabiy til yaratish muammosi" maqolasida quyidagilarni yozadi: "Dantening "Xalq nutqi haqida" asari ikki kitobdan iborat bo'lib, birinchi kitobda tilning paydo bo'lishi, italyan lahjalarining fonetik-leksik xususiyatlariga doir qarashlar bayon etilsa, ikkinchi kitobda poetikaga doir ba'zi nazariy masalalar haqida so'z boradi. Umuman olganda, Dante ushbu asarida til taraqqiyoti masalalariga murojaat qilib, adabiy til yaratish muammolariga to'xtaladi. Dantening niyatiga ko'ra, bu asar to'rt kitobdan iborat bo'lishi kerak edi. Lekin bizga yetib kelgan nusxada asar ikkinchi kitobning o'n beshinchi bobida to'xtab qolgan. "Xalq nutqi haqida" asari 1304 yil lotin tilida yozilgan bo'lib, 1529 yilda italyan tiliga tarjima qilib nashr etilgan, 1577 yilga kelibgina asarning original matni – lotin tilidagi asl nusxasi chop etilgan. Dante yashagan davrda lotin tili adabiyot tili va umuman san'at tili hisoblanib, antik davr an'analari sodiq tarzda maktablarda lotin tilida she'r yozish qonun-qoidalari o'qitilgan. Shu sababli ham Dante o'z ona tili haqidagi fikrlarini lotin tilida yozadi. Asarning birinchi kitobida Dante xalq nutqi haqida o'zidan oldin hyech kim yozmaganligini ta'kidlaydi. Nutq ikki xil bo'ladi, deb hisoblaydi Dante: bu bolalikdan shakllanadigan xalq nutqi va rimliklarning adabiy til me'yorlariga amal qilgan nutqidir.

Shundan so'ng Dante: "Tilning inson uchun qiladigan xizmati fikrni ifodalashdir, – deydi. – Insondan boshqa mavjudotlarga nutq nasib etmagani uchun ular quyi darajadadirlar, Tangri tilni faqat insonga ato etgan. Hatto, farishtalarga ham nutq berilmagan, sababi, ularda jism yo'q, jimsiz ularga til va nutqning hojati yo'q".

Dante ilk so'zni kim aytgan va bu qanday so'z bo'lishi mumkin degan masalaga qiziqadi. Uning fikricha, ilk so'z Odam Atoga tegishli bo'lib, "Xudo" degan so'zdir. Boshqacha bo'lishi mumkin ham emas, deb hisoblaydi muallif, chunki inson avvalo o'z Yaratganiga murojaat qilishi tabiiy. "Ilk til yahudiy tilidir. Inson ilk gunohni qilgandan so'ng yana gunohda davom etaverdi, lekin bundan Nuhning o'g'li Som avlodlari o'zlarini tiydilar. Insonlar

dastavval Sharq bo'ylab tarqalib, keyin G'arbga ham keldilar. Jami tillar uchga bo'linadi: ok, oyl, si".

Mazkur uch tilni birlashtirib turuvchi xususiyat, ularda umumiy so'zlarning mavjudligidir. Dante tillar ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar ta'sirida o'zgarishini ta'kidlab, tillardagi o'zgarish sababini inson tabiati va yashash tarzining o'zgaruvchan ekanligi bilan ham bog'laydi. Shu tariqa asarning birinchi kitobidagi to'qqiz qism yakunlanadi.

Glossary

Komil	Perfect	(ar. yetuk, mukammal) aruz bahrlaridan biri
Kompozitsiya	Composition	(lot. tuzish, biriktirish) badiiy asar qismlarini yaxlit badiiy niyat ijrosi uchun eng optimal holda joylashtirish, badiiy sistemadagi unsurlarni o'zaro va menosabatlari ravshan anglashiladigan narxda butunlikka kiritish
Kontrast	Contrast	(fr. contraste- keskin qarama-qarshi qo'yish) – badiiy adabiyot va san'atning boshqa turlarida tasvirlanayotgan narsa-hodisalarni bir-biriga keskin qarshi qo'yishga asoslangan badiiy usul.
Konflikt	Conflict (clash)	(lot. conflictus- to'qnashuv) – personajlarning asar syujetida badiiy ifodasini topadigan o'zaro to'qnashuv va kurashlari, qahramon bilan muhit orasidagi yoki uning ruhiyatida kechuvchi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar.
Ko'rinish	Scene	dramatik asarning eng kichik tarkibiy qismi.
Lakonizm	Laconism	(yun.lakonismos - lakonikacha) – fikrni ixcham shaklda, lo'nda va aniq ifodalash.

Test topshiriqlari

1. A.Navoiyning 4 she'riy kitobdan iborat asari qaysi?

A) "Mezon-ul avzon"

B) "Xazoyin-ul maoniy"

C) "Majolis-un nafa'is"

2. Navoiy eng ustun bilgan til?

A) turkiy til

B) arab tili

C) yahudiy tili

3. Alisher Navoiy asarlarining nemis tarjimoni kim?

A) Dante

B) Alfred Kurella

C)V.Bartold

4.Alisher Navoiyning Berlin kutubxonasida qanchaga yaqin asarlari saqlanmoqda?

A)50 ga yaqin

B) 20 ga yaqin

C) 30 ga yaqin

5.Fransuz adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodini haqqoniy baholagan mashhur adib...?

A)Lui Aragon

B)A.Remyuzo

C)E.Katremer

Internet materiallari.

1. Sulaymonova F., Sharq va G'arb. T.,1997.

2. Komilov N., Tafakkur karvonlari. T., 1999.

3. Saidov U. Sharq va G'arb: madaniyatlar tutashgan manzillar. T., Yangi asr avlodi, 2008.

10-mavzu "Jahon adabiyotida Uyg'onish davri adabiyoti masalasi

(ma'ruza - 2 soat, seminar - 2 soat)

ReJA:

1. Uyg'onishning ma'nosi, Vatani, kelib chiqishi.

2. Italiya uyg'onishi va o'ziga xosligi.

3. San'atdagi uyg'onish.

4. Adabiyotdagi uyg'onish.

Renessans fr. so'z bo'lib, yangidan tug'ilish demak. O'rta asrlardan keyin kelib, Ma'rifatchilik davriga poydevor yasagan. Italiyada 14-asr. 15-16-asrda yevropaga yoyildi. 17-asrning uchinchi o'n yilligiga (1630) qadar davom etdi. Renessansda dunyoviy madaniyatga e'tibor berildi.

Asosiy xususiyati gumanizm. Antropotsentrizm (ya'ni inson va uning faoliyatiga ahamiyat). Termin (Uyg'onish) italyan gumanisti Jorj Vazari tomonidan iste'molga kiritilgan.

Italiyaning Florensiyasida paydo bo'lgan. Chunki Vizantiya davlatining yo'qolishi bilan vizantiyaliklar o'zlari bilan antik davr kitoblarini, san'at asarlarini olib, Florensiyaga qochib kelib, "Aflotun akademiyasi"ni tashkil etadi. Shundan uyg'onishning dastlabki kurtaklari ochildi va avval Florensiya (Italiya), so'ngra butun yevropaga tarqaldi.

Antik olam san'atiga e'tibor qaratildi. Dunyoviy ilmiy va san'at markazlari ochildi va ular cherkovdan holi bo'lib olishdi. 15 asr o'rtalarida paydo bo'lgan kitob nashri esa antik merosni butun yevropaga yoyilishini ta'minladi.

Renessans davrlari:

1. Uyg'onish oldi davri. Renessansga tayyorgarlik. 13-14-asrlar

2. Ilk uygʻonish davri. Italiyada 1420-1500-yillar. Eskidan batamom voz kecholmadi, ammo yangi elementlarni sinab koʻradi.

3. Yuksak uygʻonish davri. 1500-1527. Italiya .

Leonardo da Vinchi (1452-1519)

Mikelanjelo (1475-1564)

Rafael (1483-1520)

4. Soʻnggi uygʻonish davri (1530-1620 y.y.) Italiya

5. Shimoliy Uygʻonish davri. Italiyadan boshqa mamlakatlardagi uygʻonish davri. (Angliya, Germaniya, Ispaniya, Gollandiya va h.k...)

Oʻrta asrlarda diniy-feodal mafkura hukmron boʻlsa, Renessansda gumanistik gʻoya hukmron. Ozod inson olami yerdagi baxtni yaratuvchi sifatida qaraldi. (Namoyandalari Dante, Petrarka, Bakachcho / Italiya).

Renessans – bu Italiya, lekin shimoliy Renessans ham bor: Angliya, Germaniya, Niderlandiya, Portugaliya, Ispaniya.

Yangi janr va realizmning ilk kurtaklari paydo boʻldi.

Renessansning keying bosqichlarida maʼrifatchilik, sotsialistik qirralari koʻringan. Italiya Renessansning ona vatani.

Inson feodalizm va cherkov zulmidan ozod boʻla boshladi. Kapitalistik munosabatlar shakllandi. Siyosiy masalalarda oʻz fikrini bildirdi. Xalq ogʻzki ijodiga ahamiyat berdi. Adabiyotning asosiy tasvir obʼekti inson boʻldi.

Dantedan soʻng, Lauraga bagʻishlab sonetlar yozgan Petrarka va “Dekameron” muallifi Bakachcholar dastlabki gumanistlar hisoblanadi.

Fransiya renessansi Italiya renessansi taʼsirida rivojlandi. Italiyadan gumanistlar taklif etilgan. 16 asr birinchi yarmida qirol Fransisk 1 taklifi bilan Fransiyaga kelgan Leonardo da Vinchi qirolning qoʻlida 1516 yilda vafot etadi. Davr:

1. Optimizm bilan sugʻorilgan Renesans.

2. Kechki renessans. Inson faoliyatiga shubha-gumon paydo boʻlgan.

Rable. “Gargantuya va Pantagryuel”.

Angliyada Shekspir R.ning yirik namoyandasi hisoblanadi.

ShARQ ReNeSSANSI

M-O. 2-asrdan milodiy 15-asrgacha davom etgan Buyuk Ipak Yoʻlining mavjud boʻlganligi, 11-13 asrlarda Xorazm davlatining paydo boʻlishi M.Osiyo xalqlarining rivojlanishiga bosh omil boʻldi deiladi manbalarda. B.Ipak Yoʻli orqali qogʻoz, ipak, porox, chinni kabi turli xil mahsulotlar tashilgan. Bu yoʻl tufayli oʻlkalarda ilmu fan rivoj topgan. Maʼmun Akademiyasi Xivada 9-11 asrlarda, Bogʻdodda “Baytulhikma”(9-11 aa.) Donishmandlik uyi, Samarqandda M.Ulugʻbek ilmiy markazi (15 a.) tashkil etilgan.

Markaziy Osiyoda ikki Uygʻonish bor:

1. 9-12 aa.Uygʻonishi. (Dunyoga taʼsir qilgan)

2. 14-15 a.Uygʻonishi.

1. Farobiy Sharq Arastusi. Antik dunyo faylasuflarini sharhlar vositasida dunyoga qaytib bergan qomusiy olim. Hatto Ibn Sino Arastu asarini 100 bor oʻqib tushunmagan vaqtida bozordan Fobobi sharhini sotib oladi. U yerda F.asarni 2000

marta o'qigani va so'ng sharh yozgani aytiladi. I.Sino shu sharh vositasida A.ni tushungan.

2. Beruniy. 11 a.ilda Beruniy asri deyiladi. Globus nazariyasini, geodeziya faniga asos soladi. Kolumbdan 500 yil avval ummon ortida ulkan quruqlik borligini nazariy isbot qiladi.

3. Al Xorazmiy. Raqamlar X. Nomi bilan bog'liq. Londonlik jurnalist "Har birimizning telefonimiz ichida o'zbek olimi Al Xorazmiy bor" deya dunyoga e'lon qiladi. Algoritm, Algebra fanlarining nomlanishi ham Al Xorazmiy nomidan olingan.

4. Ibn Sino. Tib qonunlari. Yaqin yaqingacha uning asarlari yevropa med.oliy yurtlarida asosiy darslik sifatida o'qitilgan. Ammo yaqinda amerikaliklar ishlagan filmda yevropadan Sinoga shogird bo'lib tushgan tabib ko'richak amaliyotida bosh vazifani o'taydiki, ekspertlarning fikricha bu tarixiy va ilmiy haqiqatga ziddir.

6. Ahmad Farg'oniy. "Astronomiya asoslari" kitobi Kolumb, Magellan ahkabi sayyohlar uchun dastur bo'lgan. yevropada 17 a.gacha asosiy darslik sifatida o'qitilgan. Usturlob, ya'ni mikroskop nazariyasini ishlab chiqqan. "Nilomer" Nil daryosiga o'rnatilgan kashfiyoti XX asrgacha daryo suvini o'lchab turgan. Sayyoraning sharsimon ekanligini ilk bor aytgan.

ADABIYO'T SIYMOLARI. Rudakiy, Firdavsiy, Nizomiy, Jomiy, Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Rumi, Xayyom, Navoiy, Boburlar har ikki uyg'onishning buyuk vakillari hisoblanadi.

Glossary

Leytmotiv

Leitmotif

nem. leitmotiv – yetakchi motiv) – musiqadan o'zlashtirilgan termin bo'lib, keng ma'noda muallif tomonidan ilgari surilayotgan asosiy g'oyaning butun asar davomida ta'kidlab o'tkazilishi bo'lib, shu ma'noda g'oyaviy leytmotiv atamasi ham ishlatiladi

Libretto

Libretto

ital. libretto - kitobcha) – opera spektaklnining matniy asosi, shuningdek, balet spektaklining adabiy ssenariysi.

Lirika

Lyric

yun.lyra – musiqa asbobi, qadimda uning jo'rligida o'qilgan) – badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri.

Litota

Litotes

narsa-hodisaga xos xususiyatni aksini inkor qilish orqali ifodalashga asoslangan uslubiy figura, mohiyatan kinoyaga yaqin turadi

Mavzu

Theme

badiiy mazmun komponenti, asarda qo'llangan ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materiali, tema.

mumtoz adabiyotshunoslikda soʻzni oʻz maʼnosida emas, boshqa bir koʻchma maʼnoda ishlatish, koʻchimning umumiy nomi

Test topshiriqlari:

1. "Renessans" soʻzining maʼnosi nima?

A) yangidan tugʻilish

B) yangi hayot

C) yangi jamiyat

2. Yuksak uygʻonish davri qaysi yillarni oʻz ichiga oladi?

A) 1420-1500 yillar

B) 1500-1527 yillar

C) 1501-1522 yillar

3. Fransiya renessansi nima taʼsirida rivojlandi?

A) Sharq renessansi taʼsirida

B) Italiya renessansi taʼsirida

C) Kechki renessans taʼsirida

4. Kolumb, Migellan sayyohlari uchun Ahmad Fargʻoniyning qaysi kitobi dastur boʻlgan?

A) "Astronomiya asoslari"

B) "Astronomiya sirlari"

C) "Algebra"

5. Markaziy Osiyodagi 2 uygʻonish toʻgʻri berilgan qatorni aniqlang?

A) 11-13 asr uygʻonishi, 14-15 asr uygʻonishi

B) 9-11 asr uygʻonishi, 12-13 asr uygʻonishi

C) 9-12 asr uygʻonishi, 14-15 asr uygʻonishi

Adabiyotlar:

1. Internet materiallari.

2. Sulaymonova F., Sharq va Gʻarb. T., 1997.

3. Komilov N., Tafakkur karvonlari. T., 1999.

4. Saidov U. Sharq va Gʻarb: madaniyatlar tutashgan manzillar. T., Yangi asr avlodi. 2008.

11-mavzu. Italiya va Ispaniyada uygʻonish davri adabiyoti

ReJA:

1. Ispaniyada Uygʻonish adabiyoti.

2. Servantes. Don Kixot.

Ispaniyada uygʻonish davri adabiyoti. Ispaniya Uygʻonishi (shuningdek 1580-1640 ispan qirollari qoʻl ostida boʻlgan Portugaliya) oʻziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. XV asrning ikkinchi yarmida bu yerda kapitalistik munosabat shakllana boshladi; sanoat va tashqi savdo aloqalari oʻsdi, feodal munosabatlar inqirozga yuz tutdi.

Ispan maorifatparvarligi va gumanizmining o'ziga xos tomonlari quyidagicha:

a) Rekonkista xarakatining Ispaniyani turli viloyatlarida turli davrlarga bo'lish oqibatida mustaqillikka erishgan ispan viloyatlarida qonunlar, urf-odatlar turlicha bo'lishiga olib keladi. Qaytarib olingan yerlarda va bu yerda barpo bo'lgan shaharlarda dehqonlar va shaharlar bir biridan farq qiluvchi xuquq va erkinlikka ega bo'ldilar. Natijada turli viloyatlar bilan qirollik o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'ldi.

b) XVI asrda Ispan sanoati keskin qisqardi. Buning asosiy sababi Amerikaning ochilishi va mamlakatga oltinning ko'plab keltirilishi bo'ldi. Ispanlar uchun o'zida ishlab chiqarishdan ko'ra chetdan tovar olib kelish qulay edi. Dehqonchilikka ham putur yetdi. yer katta feodallarning qo'liga o'ta boshladi. Ko'plab dehqonlar baxt izlab yangi yerlarga keta boshladilar.

Ispan absolyutizmi (ayniqsa qirol Karl I davrida) dunyo xokimligiga intilar ekan, bunda uni harbiy kuch va katolik cherkovi qo'llab-quvvatlar edi. Lekin Ispaniya XVII asrning ikkichi yarmida yevropaning ikkinchi darajali davlatiga aylanib qoldi. Ispaniya uyg'onishi quyidagi davrlarga bo'linadi:

a) Ilk Uyg'onish davri (1475-1550 y.)

b) yetuk Uyg'onish davri (1550-XVII asrning boshlari)

Ispan Renesans sheoriyatida lirika va epik doston turlari rivojlandi. XVI asrning 30-yillarida shoirlar Boskan va Gosilaso dela-Velar italyan poetik formalarini (kansona, elegiya, eklog, noma, sonet) ispan adabiyotiga olib kirdilar.

Shoir Fernando de Errera (1534-1597) italyan uslubining eng iqtidorli shoiri edi. Zamondoshlari uni «ilohiy» deb atar edilar. U ham Petrarkaga o'xshab ruhoniylar bo'lgan va turmushga chiqqan ayolga bo'lgan ideal sevgisini kuylagan. Leonora de Mila'ni u Geliodora (ya'ni «Quyosh neomati») deb ataydi. Shoir uchun u - nur, quyosh, yulduz bo'lib, sheoriyat manbai va xayot quvonchidir.

Shoir Alose de Ersiliya (1533-1594 y.) «Arakuana» epik dostoni bilan mashhur bo'ldi. 37 qo'shiqdan iborat bo'lgan bu ulkan epopeya ustida de Ersilpya 20 yil ishladi. Dostonda Chili xindilarining Arakuanna qabilasini ispan bosqinchilariga qarshi kurashlari haqida xikoya qilinadi. Shoir o'zi bu urushning guvohi va ishtirokchisi bo'lgan.

Asarning bosh qahramoni Arakuanna qabilsining boshlig'i Kaupolikana mag'rur, jasoratli inson sifatida tasvirlangan.

Bu davrda Ispaniyada roman janri rivojlandi. «Amadio Golpskiy» romani yozuvchi Xuan de Montalpvo tomonidan yozilgan.

Syujet: Galliya qirol Perion va Bretanp qirolining qizi Elisening noqonuniy farzandi Amadis. Sharmandalikni yashirish uchun Elisena chaqaloqni yashikka solib dengizga tashlaydi. Bir ritsarp chaqaloqni qutqarib oladi va unga «dengiz yigiti» deb nom beradi. O'smirlik chog'ida Amadis Shotlandiya qirolining saroyida paj bo'lib xizmat qiladi. Amadis va Britaniya qirolining mehmonga kelgan qizi Oriana bir-birlarini sevib qolishadi. Ritsarp bo'lgan Amadis sevgilisining sharafiga jasoratlar qiladi. U o'zining ukasi Galaor, otasi bir necha marta o'limdan qutqaradi. Uning eng katta jasorati-«Metin orol» ni zab etishida ko'rinadi. Amadisa tuxmat uyushtirishadi. Saroyga qaytgan yigit Orianing onasini dushmanlardan qutqaradi, lekin o'zi yana saroyni tashlab ketishga majbur bo'ladi. "Ilohlar ritsari" nomi bilan

dahshatli mahluqni magʻlub qiladi. Rim imperatori ustidan gʻalabaga erishib, Konstantinopolga kirib keladi. Oxir oqibat Amadis Orianaga uylanadi.

Migel de Servantes(1547-1616 y.). Alpkala' de Ena'res shahrida tabib oilasida tugʻilgan. Universitetni tamomlagach, papaning Ispaniyadagi elchisi kardinal Akvaviva xizmatiga kiradi. Kardinal bilan Italiyaga boradi. Uning oʻlimidan keyin Italiyadagi Ispan armiyasiga xizmatga kiradi. 1571 yili Lepanto jangida ishtirak etib, qahramonlik namunalarini koʻrsatadi va chap qoʻlidan yaralanadi. 1575 yili Ispaniyaga qaytayotib Jazoir Korearlari qoʻliga asir tushib qoladi va 5 yil asirlikda boʻladi. Vataniga qaytgach, teatr uchun ppesalar, shuningdek, badavlat odamlarga bagʻishlab sheor yoza boshladi. 1597, 1603 yillarda qamoqda, xayotning oxirgi 15 yili moddiy qiyinchiliklarda oʻtdi. Shunga qaramay ijodining gullab-yashnagan davri ayni shu yillarga toʻgʻri keldi.

Servantesning 1605 yili «Ayyor idalgo Don Kixot Lamancheskiy» romanining birinchi qismi chop etilgan boʻlsa, 1616 yili romanning ikkinchi qismi yozib tugatildi. Xuddi shu yili uning ppesalar toʻplami ham nashrdan chiqdi. 1613 yili novellalar toʻplami nashrdan chiqqan edi. Servantes ppesalari katta shuxrat qozondi. Biroq ularning koʻpchiligi yetib kelmagan.

«Numansiya» ppesasida iberlarning (ispanlarning ajdodi) rimliklarga qarshi kurashi tasvirlangan. Rim qoʻmondoni Ssipion qoʻshinlari tomonidan qamal qilingan Numansiya shahri ximoyachilari sharmandali asirlikdan voz kechib, hamma qimmatbaho narsalarga oʻt qoʻyadilar va oʻzlarini halok etadilar.

Servantesning 1605-1611 yillarda yozilgan intermediyalari katta shuhrat qozondi. Xalq xayoti va psixologiyasini ochib beruvchi bu kichik komik ppesalarda u ruxoniylar, nayrangbozlar ustidan kuladi («Moʻjizalar tetri», «Salamank gori», «Rashkchi qariya», «Ikki laqma»).

14 hikoyadan iborat «Ibratli novellalar» toʻplami bu davr ispan adabiyotida katta voqyea boʻldi.

«Don Kixot» asari zamondoshlari tomonidan yetarli baholanmagan boʻlsada, keyinchalik insoniyat tarixidagi eng buyuk asarlardan biri deb eolon qilindi. Asar ritsarlik romaniga parodiya sifatida yozilgan. Ritsarlik romanlarini oʻqib-oʻqib aqldan ozgan kambagʻal idalgo Don Kixot oʻz «xonimi» sharafiga xoʻrlangan va haqoratlanganlarni himoya qilishga ahd qiladi. Uning asbob anjomlari zang bosgan sovut, qari ot, xizmatkori ayol dehqon, «xonimi» choʻchqaboqar Aldonsa Lorenzo (Don Kixot uchun Dulsineya Toboskaya). Romanda ritsarlik urf-odatlarini, marosimlari parodiya qilinadi; ritsarlikka qabul qilish, ritsarlar olishuvi, goʻzal xonimga xizmat qilish va boshqalar. Don Kixotning yer yuzida «adolat oʻrnatish uchun» olib borgan kurashi teskari natija beramadi. Don Kixot himoya qilgan choʻpon Andres u ketgach yanada qattiq jazolanadi, u ozod qilgan jinoyatchilar yana jinoyat qila boshlaydi, Ispan ritsarini qutqarish natijasida shu spektakl oʻynalayotgan qoʻgʻirchoq teatrini vayron boʻlishiga olib keladi. Oʻz uyiga qaytib kelgach koʻzi ochiladi.

Glossary

Marsiya

Elegy

biror kishining vafoti munosabati bilan, uning fazilatlarini eʼtirof etish, vafotidan

Melodrama	Melodrama	afsuslanish mazmunida yoziladigan lirik janr.
Metafora	Metaphor	dramaturgiya janrlaridan biri. ma'no ko'chishining keng tarqalgan turlaridan biri, narsa-hodisa orasidagi o'xshashlikka asoslanuvchi ko'chim turi.
Modernizm	Modernism	XIX asr oxiri- XX asr boshlarida ommalashgan termin, san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi.
Modus	Modus	qarang: badiiylik modusi
Monolog	Monologue	yakka shaxsning ayni paytda javob berilishini talab qilmaydigan, o'zgalar repliklari bilan bo'linmagan nutqi.
Muallif	Author	adabiy asarni yaratgan odam, <i>avtor</i> terminiga sinonim sifatida ishlatiladi
Nazm	Poetry	(ar. – tuzuk, Tartib, tartibga keltirish, terish tizish) - badiiy nutq shakllaridan biri, tizma, she'riy nutq.
Nasr	Prose	(ar - tizilmagan, tarkok, sochma) - badiiy nutq.
Naturalizm	Naturalism	(lot. natura -tabiat) -1) tabiiy fanlar sohasida erishilgan ulkan muvaffakiyatlar ta'sirida XIX asrning 60-yip- laridan boshlab yevropa adabiyotlarida shakllangan adabiy yo'nalish.
Nekrolog	Obituary	(yun. nekros - o'lik, logos - so'z, nutq) - biron-bir shaxsning (odatda tanikli kishilar, davlat yoki jamoat arboblari, san'atkorlar, adiblar va h.) o'limi munosabati bilan yozilgan maqola;
Nido	Exclamation	(ar. - qichkiriq, chakiriq, nido) - insho yo'llaridan biri.
Novatorlik	Novelty	(lot. novator - yangilovchi, yangilanuvchi) - adabiy jarayon bilan bog'lik kategoriya, adabiy jarayonda an'ana bilan har vakt dialektik aloqada mavjud bo'lgan hodisa.

Test topshiriqlari:

1. Italiya Uyg'onish davri adabiyotini o'rganish kimning ijodidan boshlanadi?
 A) Franchesko Petrarka
 B) Dante Aligperi

C) Djovani Bokachcho

2. "Ilohiy" so'zi badiiy jihatdan qanday ma'noni bildiradi?

A) "yuksak"

B) "tuban"

C) "sevgi"

3. Ispaniya Uyg'onishi qaysi davrlarga bo'linadi?

A) Ilk Uyg'onish davri, yetuk Uyg'onish davri

B) Uyg'onish davri, Ilk Uyg'onish davri

C) Ilk Uyg'onish davri, yuksak Uyg'onish davri

4. "Arakwana" epik dostoni bilan mashhur bo'lgan shoir?

A) Alose de Ersiliya

B) Fernando de Errera

C) Xuan de Montalvo

Adabiyotlar:

1. O. Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi. «O'qituvchi» T., 1979 y

2. M. P. Alekseev I. dr. Istoriya zarubejnoj literatury. Srednie veka i Vozrojdenie. Moskva, Vysshaya shkola

3. Rable Fransua. Gargantuya va Pantagryuel, Toshkent, «Yosh gvardiya», 1970

12-mavzu. Fransiyada Uyg'onish davri adabiyoti

ReJA:

3. Fransuz uyg'onish adabiyoti.

4. F. Rable ijodi.

Fransuz uyg'onish adabiyoti. Fransuz Uyg'onishi o'z rivojlanishida Italiyaga xos xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birgalikda, o'zining farqli tomonlariga ham ega edi. Fransuz burjuaziyasi bir qadar ortda qolganligi sababli gumanistik harakatda faol ishtirok eta olmadi. Fransuz Uyg'onishiga Italiya katta taosir o'tkazdi. Fransisk I davrida (1515 –1547 y.) Italiya Rennensans madaniyati faol inport qilindi. Qirol Leonardo da Vinchi, Andres del Sart, Bekventuto Chellinilarni Fransiyaga taklif etdi. Dante, Petrarka, Bokkachcho asarlari tarjima qilindi. Fransuz gumanistik harakatining atoqli arboblardan biri Margarita Navarskaya edi (Fransisk I singlisi 1492-1549 y). Italpyan, grek, lotin tillarini yaxshi bilgan o'qimishli ayol Margarita ko'plab sheorlar va dostonlar yaratdi. Uning mashxur asari «Gektameron» («etti kunlik») novellalar to'plami edi. «M.Navarrskayaning to'garigi» da shoir Kleman Maro, yozuvchi Bonaventura Diperpe faol ishtirok etganlar.

Fransua Rable (1494-1553 y). Fransuz gumanizmining atoqli nomoyondasi, buyuk fransuz yozuvchisi F.Rable Shinonda tug'ildi. Yoshlik yillarida monastirda diniy bilimlar bilan birgalikda yozuvchilarni va huquqqa oid risollalarni o'rgandi. Nomaolum sabablarga ko'ra, monastirdan ketib meditsinani o'rganadi. 1532 yildan boshlab Leon gospitalining vrachi lavozimida ishlay boshladi. Parij yepiskopi, kardinal Jan dyu Belle, qirol Fransisk I qo'l ostida xizmat qildi. 1553 yili Parijda vafot etdi.

Meditsina, huquqshunoslik, arxeologiyaga oib asarlar yozgan. Yozuvchi sifatida «Gargantyua va Pantagryuel» romani bilan shuhrat qozondi. Romanni yozishga 1532 yilda Leonda colon qilingan «Gargantyuanning buyuk va bebaho xronikasi» nomli xalq kitobi turtki bo'ldi. Shu yili Rablening «Buyuk dev Gargantyuanning o'g'li, dipsodlar qirol shavkatli Pantagryuelning daxshatli ishlari va qahramonliklari» kitobi yozildi. Yozuvchi xalq kitobidagi sxemalarni saqlab qoldi, unda ko'plab obrazlar va syujetlar motivini oldi. Shu bilan epopoeiyaga Pantagryuelning do'sti va hamroxi Panurg obrazini olib kirdi. 1634 yili Rable o'zining «Pantagryuelning otasi buyuk Gargantyuani dahshatli hayoti» nomli asarini colon qildi. Roman epoyaning birinchi kitobi sifatida yozildi. Bu romanda yozuvchi baozi motivlarni (Gargantyua va uning ota-onasini bahaybatliiligini, uning bahaybat otda yurishi, Notrdam ibodatxonasidan qo'ng'iroqni o'g'irlashi) ishlatgan holda asosan o'z ijodiy fantaziyasiga tayanadi. Romanda eski tarbiya usullari tanqid qilinadi va unga gumanistik pedagogika qarama-qarshi qo'yiladi. O'g'irlangan qo'ng'iroqlarni so'rab nutq so'zlagan magistr Ianotus de Bragmardonning so'zlari sarbannachilarning balandparvoz ritorikasiga parodiyadir. Shundan so'ng Pikraxolning bosqinchilik rejalari - feodallar, qirollar, feodal urishlari tanqib qilinib, satira ostiga olinadi. Urush fonida jismoniy va maonaviy sog'lomlik, hayotga ishonch ramzi sifatida monax paydo bo'ladi. Roman Janni rejasi ostida bunyod qilingan Telem abbatligining ochilishi bilan yakunlanadi. Bu yerga oqil, madaniyatli va ozod shaxslar to'planganlar.

«Pantagryuelning qahramona hayoti haqida uchinchi kitob» 1546 yili paydo bo'ldi. U oldingi kitoblardan anchagina farq qiladi, chunki bu paytga kelib qirol Fransisk I siyosati o'zgargan edi. Reaksiyanerlar g'alaba qozondi. Ozod fikrlovchilar va kalpvinstlar taoqib ostiga olingan edi.

Ushbu kitobda Pantagryuel tomonidan bosib olingan dipsodlar mamlakatidagi tinch-osoyshta hayot ko'rsatilgan. Bu zamonaning bosqinchilik siyosatiga antitezadir. Shundan keyin o'z mulklarida uch yillik daromadni ikki xafta ichida sarf qilib yuborgan Panurgning sarguzashtlari hikoya qilinadi. So'ngra har qanday voqyealarga yakun yasaladi. Va kitobda botanika, meditsina, huquq haqidagi suhbat va mulohazalarga keng o'rin beriladi. Bu suhbat va mulohazalarga Panurni uylanish yoki uylanmasliklari to'g'risidagi ikkilanishlari (rog) sabab bo'ladi. Bu suhbat jarayonida Panurg aqlli gap ayta olmaydigan turli «faylasuf» lar, hamma masalani suyak tashlab hal qiladigan sudpya Brudua bilan uchrashadi.

1548 yili to'rtinchi kitob yoziladi. Oradan to'rt yil o'tib ushbu kitobni kengaytirilgan varianti paydo bo'ldi. Romanda Panurgning Xitoyga safari haqida hikoya qilinadi. Yo'lda sayyohlar Prokuratsiya oroli (klyaz, sudyaga), kareapna (katolik ro'zadorlar), kolbasa, panefiklar (papaga fig ko'rsatuvchilar), papimanlar (papa tarafdorlari), mister Gaster («Oshqozon») orollarida bo'ladi. Kitobda danil fantazimni qo'llab-quvvatlovchi yangi qirol tanqid qilinadi.

1564 yili Rablening o'limidan 10 yil keyin beshinchi kitob nashr etildi. Roman Rablening qo'lyozmalari asosida do'stlari tomonidan nashrga tayyorlangan. Asarda Panurgning siyosatini nihoyasiga yetishi haqida hikoya qilingan edi. Rable o'z romanlari bilan badiiy realimni kengaytirdi va chuqurlashtirdi. «Gargantyua va Pantagryuel» fransuz renesansining eng demokratik asari hisoblanadi. Roman

fransuz tilini rivojlantirishda ham katta xizmat qildi. Uning keyingi davr yozuvchilariga taosiri beqiyosdir. Molper, Lafonten, Lesaj, Volpter, Balpzak, A.Frans, R.Rollan va boshqalar shular jumlasidandir.

Glossary

Paradoks	Paradox	(yun. paradoxos – kutilmagan, g'alati) - jamiyatda an'anaviy tarzda hukm surib kelayotgan, aksariyat tomonidan kabul kilingan fikrga, ba'zan esa zohiran sog'lom mantiqqa zid gap.
Parallelizm	Parallelism	(yun. parallelos - yonma-yon turuvchi yoki boruvchi)- (yun. paraphrases - qayta hikoya qilish) - adabiy matnni boshqa so'zlar bilan, ba'zan esa boshqacha yo'sinda (nasriy asarni she'riy, she'riy asarni nasriy yo'lda) qayta bayon qilish.
Parafraz(a)	Paraphrase	dramatik asarning sahnaga qo'yilganda uzluksiz voqea sifatida ijro etiluvchi bo'lagi.
Parda	Act	(yun. parodia - teskari qilib ko'ylash) - 1) biron-bir asar, ijodkor, ijodiy uslub, janr kabilar ustidan kulib yoziladigan asar.
Parodiya	Parody	

Nazorat savollari:

1. Ingliz uyg'onish davrining ilk vakili Tomos Mor qaysi asari bilan mashhur bo'ldi?
2. Kristofer Marlo o'zining qaysi asari bilan sohibqiron Temur timsoliga murojaat qilgan?
3. Ispaniya ilk uyg'onish davrida she'riyatning qaysi turi rivojlandi?
4. Servantesning «insoniyat tarixidagi eng buyuk asari».
5. F.Rable «Gargantyua va Pantagryuel» romanida qanday muammolarni ko'tarib chiqdi?

Test topshiriqlari:

1. Fransuz gumanizmining atoqli namoyondasi, buyuk fransuz yozuvchisi to'g'ri berilgan qatorni toping?
A) Alose de Ersiliya
B) Fransua Rable
C) Dante Aligperi
2. Fransuz renessansining eng demokratik asari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) "Pantagryuelning qahramona hayoti haqida uchinchi kitob"
B) "Gargantyua va Pantagryuel"
C) "Pantagryuelning otasi buyuk Gargantyua dahshatli hayoti"

Adabiyotlar:

4. O.Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi. «O'qituvchi» T., 1979 y
5. M.P.Alekseev I.dr. Istoriya zarubejnoj literatury. Srednie veka i Vozrojdenie. Moskva, Vysshaya shkola
6. Rable Fransua. Gargantuya va Pantagryuel, Toshkent, «Yosh gvardiya», 1970
7. Serventes M. «Lamanchlik Idalg'go uddabrron don Kixot sarguzashtlari», T., «Yosh gvardiya», 1969.

13-mavzu. ANGLIYADA UYG'ONISH DAVRI ADABIYO TI

Reja:

1. Angliyada uyg'onish davrining o'ziga xos jihatlari

2. Angliya renessansi namoyondalari

XV-XVI asrlarda yevropa mamlakatlarida o'rta asr feodalizmidan kapitalizmga o'tish davri bo'ldi. Bu davr Uyg'onish yoki Renesans nomini oldi. Shaharlarning rivojlanishi, manfaktura-larning paydo bo'lishi, keng savdo munosabatlarini o'rnatilishi natijasida o'rta asr feodal tartiblari inqirozga uchradi.

Bu davr buyuk geografik kashfiyotlarning ochilishi davri bo'lib tarixga kirdi (Amerikaning ochilishi, Xindistonga savdo yo'lining ochilishi). Bu davrda yangi milliy davlatlar paydo bo'ldi. Ilm-fan, sanoat, madaniyat, adabiyot beqiyos darajada rivojlandi. Aql-idrokka, o'z kuchiga, yaxshilikka ishonch Uyg'onish davri odamlariga xos fazilatdir.

Angliyaning o'sha davr falsafiy qarashlari Frensis Bekon taolimotida o'z aksini topdi (F.Bekon ingliz materializmning otasi 1561-1625).

Angliyada Uyg'onish davri Italiya, Fransiya, Ispaniyadan kechroq boshlandi. XV-XVI asrlarda Angliyada qirol hokimiyati dvoryanlar qarshiligini sindirdi. Hokimyatga intilgan juda ko'p feodal baronlar o'zaro urushlarda halok bo'ldilar.

Tyudorlar sulolasidan bo'lgan Genrix VII va Genrix VIII lar davrida mutloq xokimyat kuchaydi. Genrix VIII ning islohatlari natijasida ko'plab monastirlar yo'qotildi. Mamalakat Rim papasiga tobelikdan qutuldi va qirolning o'zi ingliz cherkovini boshqara boshladi. Uilpyam Tindal «Injil» ingliz tiliga tarjima qildi. Mamalakatni qirolicha yelizaveta (1558-1603) boshqargan yillarda Angliya iqtisodiyati tez suroatlar bilan rivojlandi. 1588 yili ispanlarning Buyuk armadasi tormor qilgan Angliya uchun dengiz yo'llarining barcha osonlik bilan ochila boshladi. Ko'plab dehqonlar o'z yerlaridan mahrum bo'ldilar. (Jun sotish bu paytda katta foyda keltirar edi).

Ilk ingliz Uyg'onish davrining nomoyondasi Tomas Mor (1478-1535) edi. U Oksford universitetini tamomlab, o'z davrining yirik siyosiy arbobi aylandi. (Genrix VII davrida lord kansler qirolning 1-vaziri bo'ldi. Qirol maslahatchilariga qarshi chiqqanligi uchun Genrix VIII buyrug'i bilan qatl etilgan). T.Morning eng mashxur kitobi - «Yangi Utopiya oroli haqida» asaridir. (1516 y). «Utopiya» («Yo'q joy») da yozuvchi davridagi jamiyat haqida tanqidiy fikrlar bildirilgan. Asar nafaqat falsafiy,

shuningdek badiiydir. Kitob 2 qismdan iborat bo'lib, 1-qismida muallif o'ziga zamondosh bo'lgan Angliyani tanqid qildi. 2-qismda esa Utopiya orolidagi tartiblar tasvirlanadi.

T.Mor birinchi bo'lib jamiyatda xususiy muksiz yashash mumkin degan fikrni bildiradi. Utopiyada xususiy mulk bekor qilingan, xalqlar o'rtasida diniy, irqiy, tenglik o'rnatilgan. Aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi qarama-qarshiliklar bartaraf qilingan. Dehqonlar jamoa bo'lib yashaydilar. Birgalikda mehnat qiladilar. (Isroilda hozir bunday jamoalar bor). Utopiyada oltinning qadri yo'q. Lekin bu jamiyatda qullar bor.

T.Mordan keyin shunga o'xshagan bir qator asarlar yaratildi. T.Komponellaning «Quyosh shahri», F.Bekonning «Yangi Atlantida», Garingtonning «Okean» E.Kabening «Ikariyaga sayohat» asarlari shular jumlasidandir.

Ingliz Renesansning ilk davrida sheoriyat yetakchi o'rin egalladi. Birinchi ingliz gumanist shoirlari Uayet va Sarrilar aristokratlardan edilar. Qirol Genrix VIII davrida Uayet Tauer qamaldi. Sarri esa qatl etildi. Tomas Uaet (1503-1542) Italiyaga sayohat qilgan davrida Petrarka sheoriyatiga maftun bo'ldi. Uning sheorlarini ona tiliga tarjima qildi. Keyinchalik o'zi ham ingliz tilida sonetlar yozdi.

«Sevishganlarning qarama-qarshi tuyg'ulari» sonetida lirik qahramon bir vaqtning o'zida qo'rquv va quvonch tuyg'usini xis qiladi. Sevgi o'zida hamma qarama-qarshiliklarni jam qilgan. U hayot va o'lim, urish va tinchlik kabi muhimdir. «O'zgaruvchan orzu» sonetining lirik qahramoni orzulari ro'yobga chiqishini juda istaydi. Lekin taqdir u bilan og'ir xazil qiladi. Natijada qahramonning orzulari orzuligicha qoladi.

Genri Govard Sarri (1517-1547) ham asosan sonet janrida ijod qildi. Petrarka sonetlardagi Laura Sarri syujetlarning qahramoni Jeralpdinining o'ziga xos praobrazi bo'lib xizmat qildi. Sonetlarning birida shoir Jeralpdini Florensiya qizi deb atasa ham, bu obrazda o'sha davr ingliz aristokratlarini sezish mumkin.

«Vinzordagi tutqinlik» soneti Sarrining eng yaxshi sheorlaridan biri hisoblanadi. Shoir o'z do'sti Rigmandning o'limidan chuqur qayg'uga botib, beg'ubor yoshlik yillarini eslaydi. Genri Sarri ingliz adabiyotiga oq sheorni olib kirdi, «Eneida» ni ingliz tiliga tarjima qildi. Keyinroq Marlo va Shekspirilar ham o'z tragediyalarida oq sheordan foydalandilar.

XVI asrda Angliyada dramaturgiya gullab yashnadi. Ingliz teatri xalq manfaatlarini ifoda qilganligi sababli, xalq orasida katta shuhrat qozondi. Asr oxiriga kelib Angliyada 20 dan ortiq teatr mavjud edi.

Robert Grin (1550-1592) qissa va dramalar muallifi sifatida mashxur bo'ldi. Uning qissalari novella va sheorlardan iborat edi.

Grinning 6 qissasi saqlanib qolingan. Uning «Aragon qiroli Alp fons» (1587), «Qirol Yakov IV tarixi» (1598), «Vokfild dalasi qo'riqchisi Jor Grix haqida maroqli komediya» komediyalari alohida ajralib turadi. Grin bu asarlarida London jamiyatidagi kamchiliklar ustidan kuladi. Dramaturg asarlarida ingliz afsonalaridan unumli foydalanadi.

Grin demokratizmi uning Veklid dala qo'riqchisi Jorj Grik komediyasida o'zining yaqqol ifodasini topgan. Komediya qahramoni Jorj oddiy xalq vakili bo'lib, poetik

buyoqlarda tasvirlangan. Qissada qo'zg'alon ko'targan xalq orasida afsonaviy qahramon Robin Gud paydo bo'ladi. Grin, o'z mafaatlarini ko'zlab isyon ko'targan feodallarga qarshi kurashib, qahramonlik ko'rsatadi. Ko'rsatgan jasorati uchun qirol unga ritsarlik unvonini taqdim etmoqchi bo'ladi, lekin Jorj undan voz kechadi.

Kristofor Marlo (1564-1593). Marloning «Doktor Faustning fojivaviy taqdiri» dramasi Iogan Shpis tomonidan chop etilgan xalq kitobidagi Faust haqidagi afsona asosida yaratilgan.

Olim Iogann Faust zamonasidagi fanlar va diniy akidalardan qoniqmay, odamning paydo bo'lishi haqida bilishni hohlaydi va qudratga erishish yo'llarini izlaydi. Buning uchun qora magiyaga murojaat qilishga tayyor bo'ladi. Faust o'z ruxini do'zax xukmdorlari – Lyusif, Velezuval va Mifestofelga sotadi. 24 yil davomida qudratli insonga aylanadi, va nihoyat azoblarga duchor bo'ladi.

Faust obrazida bilim kuchi, inson aql-zakovati ulug'lanadi. K.Marlo biz uchun Amir Temur siymosini adabiyotga olib kirgan dastlabki G'arb mualliflaridan biri ekanligi bilan qadrlidir. Uning «Sohibqiron Temur» asarida buyuk sarkarda hayoti tasvirlanadi.

Glossary

Nazm	Poetry	(ar. – tuzuk, Tartib, tartibga keltirish, terish tizish) - badiiy nutq shakllaridan biri, tizma, she'riy nutq.
Nasr	Prose	(ar - tizilmagan, tarkok, sochma) - badiiy nutq.
Naturalizm	Naturalism	(lot. natura -tabiat) -1) tabiiy fanlar sohasida erishilgan ulkan muvaffakiyatlar ta'sirida XIX asrning 60-yip- laridan boshlab yevropa adabiyotlarida shakllangan adabiy yo'nalish.
Nekrolog	Obituary	(yun. nekros - o'lik, logos - so'z, nutq) - biron-bir shaxsning (odatda. tanikli kishilar. davlat yoki jamoat arboblari, san'atkorlar, adiblar va h.) o'limi munosabati bilan yozilgan maqola;
Nido	Exclamation	(ar. - qichkiriq, chakiriq, nido) - insho yo'llaridan biri.
Novatorlik	Novelty	(lot. novator - yangilovchi, yangilanuvchi) - adabiy jarayon bilan bog'lik kategoriya, adabiy jarayonda an'ana bilan har vakt dialektik aloqada mavjud bo'lgan hodisa.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. «Shekspir masalasi» deganda nima tushuniladi?
2. Shekspir ijodining birinchi davrida qanday asarlar yaratgan?

3. Shekspir tragediyalarida qanday umuinsoniy muammolar ko'tarilgan?
4. «Tarixiy xronikalar» qanday mavzuga bag'ishlangan?
5. Shekspir ijodining so'nggi davri qanday xususiyatlarga ega?
6. Tragikomediya janrining o'ziga xosligi nimada?

Test topshiriqlar:

1. Ingliz materializmining otasi kim?
 - A) K. Marlo
 - B) R. Grin
 - C) F. Bekon
2. T. Morning eng mashhur kitobi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang?
 - A) "Yangi Utopiya oroli haqida"
 - B) "Ikariyaga sayohat"
 - C) "Vinzordagi tutqinlik"
3. Genri Govard Sarri asosan qaysi janrda ijod qilgan?
 - A) tragediya janrida
 - B) komediya janrida
 - C) sovet janrida
4. "Eneida"ni ingliz tiliga tarjima qilgan shoir qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
 - A) Tomas Mor
 - B) Genri Govard Sarri
 - C) Jorj Grik

Adabiyotlar:

14. Q. Azizov, O. Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi.
7. A. Anikst. Istoriya angliyskoy lit-ri, M., 1956
8. M. Yelizarova i dr. Istoriya zarubejnoy lit-rq XIX veka, M., 1972.
9. Dhyakonova N. Ya. Liricheskaya poeziya Bayrona. M., 1975.
10. Jirmunskiy V. M. Bayron i Pushkin, M., 1978.
11. Vinogradov A. «Bayron». M., 1985.
12. Bayron. Saylanma, sheorlar, dostonlar, T., 1974

14-mavzu. Klassitsizm adabiyoti

ReJA:

1. XVII asr – yevropa madaniy hayotidagi muhim davr.
2. XVII asr Ispan adabiyoti:
 - a) Lope de Vega ijodi;
 - b) Kalderon ijodi;
3. Fransuz adabiyoti:
 - a) Kornel ijodi;
 - b) Moler ijodi.

XVII asr murakkab, ziddiyatli va shu bilan birga yevropa tarixidagi muhim davr hisoblanadi. Bu davrni o'tish davri deb ham atashadi. Chunki shu

davrda feodlizmdan kapitalizmga o'tish amalga oshirildi. Yangi burjuaziya munosabatlari shakllandi. Bular o'z davri uchun progressiv edi. Ammo ular ekspluatatsiyaning yangi shakllarini olib keldi.

yevropa davlatlari orasida iqtisodiy rivojlanish borasida Gollandiya va Angliya birinchi o'ringa chiqib oldi. Bu davlatlarda kapitalizm tez suroatlar bilan rivojlanganligini ko'rsatadi.

Ispaniya va Portugaliyaning avvalgi qudratiga putur yetadi.

Davlatlardagi progressiv tarixiy rivojlanish hych qanday to'siqlarsiz amalga oshirildi, deb bo'lmaydi. Feodal-katolik tartibi g'arbiy yevropa xalqlari hayotiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu davrda cherkov tomonidan ko'rsatiladigan qarshilik konturreformatsiya deb ataladi.

XVII asrda yevropa ilm-fani katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Odamlar ongida katta taosir ko'rsatgan fan yutuqlaridan – Galiley, Kampanella va Kaplerlar tomonidan Olam tuzilishining galeotsentrik tizimini ishlab chiqarilishini ko'rsatish mumkin.

XVII asrda falsafa fanida yanada oldinga siljish ko'zga tashlanadi. Bekon («Inson insonga dushman»), Spinoza, Dekart («Men fikr qilyapman, demak borman») va boshqa faylasuflar faoliyati shu davrga to'g'ri keladi.

Shu bilan birga cherkovning taosiri hali kuchli edi.

Davrining ilg'or vakillaridan bir qanchasi inkvizitsiya qurboni bo'ldilar. 1619 yil faylasuf Vaninini o'tda yondirdilar. 1662 y. fransuz shoiri Klod Le Pti qatl etildi. Kampanella o'z hayotining 33 yilini qamoqda o'tkazdi.

Hayotning murakkablik va qarama-qarshilikka to'laligi bu davr adabiyotining ham ziddiyatli rivojlanishiga olib keladi. Adabiyotda renessans realizmi, klassitsizm va barokko singari turli yo'nalishlarning baravariga rivojlandi.

1) Renaissance realizmiga hos bo'lgan hislatlarni ko'rpi saqlab qolindi. Shu bilan birga ularni yangi, ancha yuksak darajada davom ettirildi. (Lope de Vega).

2) Barokko o'tra asr madaniyati tushkunligi natijasida kelib chiqqan, absolyutizm kuchayib borayotgan davrda feodal-katolik reaksiyasi taosirini aks ettirgan adabiy yo'nalishidir. Ular realistlardan farqli o'laroq, atrof-muhit bilan uyg'unlik bo'lishi mumkin emas, deyдилar. Inson sir va jumboqlarga to'la dunyoda yashaydi, tabiatning dahshatli va shafqatsiz kuchlar oldida inson zaif va ayanchli mahluq, deb qaraladi.

Barokochchilarda tasvir nozik va bejirim tusga kiradi. O'quvchini hayratga solish maqsadida g'aroyib metafora, taqqoslashlarga keng o'rin beriladi.

Barokko adabiyotida diniy g'oyalar asosiy o'rinni egallaydi. Klassitsizm XVII asrning birinchi yarmida Fransiyada kelib chiqqan adabiy oqimdir.

Klassitsizm yozuvchilari mutloq hokimiyat mamlakat milliy birligi manfaatlarig mos keladi, deb uni mustahkamlash g'oyasini qo'llaydilar.

Ular mualliflar tabiatga taqlid qilish kerak degan prinsipni ilgari surdilar. Lekin voqyelikni «qo'pol» tomonlariga emas, balki faqat go'zal tabiatga taqlid qilishga chaqiradi. Klassitsizm qahramonlar xarakteri umumiy va biryozlamadir.

Klassitsizm bo'yicha butun adabiy janrlar «Yuksak» (tragediya, epos, qasida) va «Tuban» (komediya, satira, epigrama) janrlarga bo'linadi.

Klassitsizm antik adabiyotga taqlid qilish asosida kelib chiqqan yoʻnalish hisoblanadi.

XVII asr insoniyatga Milpton, Kornelp, Rasin, Molper, Lope da Vega va Kalpderon kabi yozuvchilarni yetishtirib berdi.

XVII asr ispan adabiyoti. XVI asrning ikkinchi yarmidan eotiboran tarkib topa boshlagan ispan absolyutizmi XVI asr davomida mustahkamlanib, XVII asrning birinchi choragida inqirozga uchraydi.

XVII asrga kelib Ispaniya yevropaning ikkinchi darajali davlatiga aylandi. Mamalakat iqtisodiyoti izdan chiqadi. Ijtimoiy va milliy zulmga qarshi qoʻzgʻolonlar shafqatsiz bostiriladi. Bu vaqtda cherkov absolyutizmining eng dahshatli quroliga aylanadi. 7 mln. kishilik mamlakatning 1 mln. 200 mingi ruhoniy, erkak monax va ayollar edi.

Inkvizatsiya (XVII-XVII asr) davrida 30 ming odam oʻtda kuydirildi, 300 mingi zindonda oʻldirildi. Mustamlaka mamalakatlar qoʻldan ketdi (Gollandiya, Portugaliya).

Mamalakat hayotidagi ana shu voqyealar adabiyotida ham oʻz aksini topdi.

Ispaniyada Rennassans boshqa davlatlarga qaraganda ancha kechikdi. Lekin Uygʻonish davrining soʻnggi ikki titani - Servantes va Lope de Vega ijodi butun insoniyat mulkiga aylandi.

XVII asr ispan adabiyotida 3 adabiy yoʻnalish - Uygʻonish realizmi (Lope de Vega boshchiligida), klassitsizm (bir qancha filolog olimlar va universitet tomonidan qoʻllab-quvvatlangan); va borakko (eng oliy talqini - Kalpderon ijodida).

Oʻzida antik madaniyat va milliy anoanalarni mujassamlashtirgan renessans realizmi XVII asr I yarmida Ispaniyadagi eng kuchli va sermahsul badiiy yoʻnalishdir.

Lope de Vega (1562-1635). Buyuk Servantes oʻlimidan bir yil burin (1625) u haqida «Tabiatning moʻjizasi – buyuk Lope de Vega paydo boʻldi» degan ekan. Ispan xalqi oʻz farzandini juda ham sevadi. Har qanday usta oʻz maxsulotini reklama qilar ekan «Hatto Lope ham bunday qilolmagan boʻlardi» – degan soʻzlarni aytadi.

Lope de Vega 1562 yil 25 noyabrda Madridda hunarmand oilasida tugʻilgan.

Universitetda oʻqishi bilan bir qatorda qirollik matematika akademiyasida maoruzalar tingladi.

Lope de Vega bilim doirasi juda keng boʻlib, xilma-xil janrlarda oʻz mahoratini sinab koʻrdi. (Sonet, roman, qasida, doston, xikoya, roman va dramatik asarlar) Yozuvchilarning shu vaqtgacha topilgan pesalari 426 ta boʻlib, shulardan 50 tasi diniy mavzudagi dramalardir.

Dramatik asarlari. Uning sarlari asosan 3 ta katta qismga boʻlish mumkin: Tarixiy qahramonlik, sotsial-siyosiy va sevgi-maishiy mavzulardagi drama komediyalar.

Yozuvchining dramaturgiya sohasidagi qarashlari «Komediya yaratishda yangi sanʼat» (1609) sheʼriy asarlarida bayon etilgan. Unga koʻra makon va vaqt birligidan voz kechgan. Italyan klassitsistlari nazariyalariga qarshi chiqdi.

Pesada bir necha epizod yoki syujet yoʻli boʻlishi mumkin. Fojiaviylik bilan kulgini aralash holda tasvirlash zarur.

«Qoʻzibuloq» («Fuente Ovexuna») 1612-13 tarixiy qahramonlik va ijtimoiy-siyosiy mavzusidagi dramalarning eng yaxshi namunasi.

Syujet: Kalatravo Ritsarp ordenining komandori feodal Fernan de Gusman o'ziga tobe Qo'zibuloq qishlog'ida yashab, aholiga qattiq zulm o'tkazadi. U qishloq oqsoqoli qizi Laurensiyani zo'rlab olib ketmoqchi bo'ladi. Lekin dehqon yigit Frondoso yo'l qo'ymaydi Mamalakat birligiga putur yetkazish maqsadida Spyudal Realga qarshi kurash ochgan va yengilib qishloqqa qaytgan komandor Laurensiya va Frondoso to'qi vaqtida kirib kelib, yigitni qamoqqa olib ketib, Laurensiyani olib ketadi.

Tahqirlangan Laurensiya paydo bo'lib, o'z qizini dushman qo'lga berib qo'ygan otasi va qarindoshlarini «qo'zini bo'riga oldirgan va qo'rqib turgan cho'ponga o'xshatadi. Erlar bilan birga ayollar ham qurollanib, komandor saroyiga bostirib kiradi va uni o'sha yerda jazolab o'ldiradi. Komandor xizmatkorlaridan biri bri Flores yashirincha qirolga borib, voqyeani yetkazadi. Qirol qishloqqa chinovnik jo'natdi. Tergovchi qiynab so'roq qiladi. Aybdor kim? degan savolga: Aybdor qo'zi buloq» deb javob beradi. Tergov to'xtatiladi. Va dehqonlarni gunohidan kechadi. Qishloq bevosita qirol nazorati ostiga o'tadi.

Asarda bir odamning, balki butun xalqning fojeasi aks ettirilgan. Dramaturg voqyealarni bejab, bo'rttirib ko'rsatmaydi. Unda hamma narsa oddiy va hayotiy. Uning barokko shoirlaridan farqi ham shunda.

Asarning markaziy figurasi – Laurensiya. U mag'rur, aqlli qiz. Shu bilan birga o'z shaxsiy g'ururi birovlar tomonidan toptalishiga yo'l qo'ymaydi.

Qizning otasi oqsoqol Esteban va Fronosning otasi dehqon Xuan Rijiy sodda va mo'min kishilardan bo'lib, zolimlarga qarshi bosh ko'targan kurashchilarga aylanadilar.

Voqyealar quvonchli yechim bilan tugaydi. Dehqonlar g'alaba qozonadilar. Boshqacha bo'lishi mumkin emas edi, chunki doimo hayotga g'alaba qozonadi, qaerda adolat uchun kurash, g'alabaga ishonch bo'lsa, o'sha yerda hayot bor – dramaturg falsafasi ham ana shunday.

Bundan tashqari uning «Sevilp yulduzi», «Valensiya bevasi», «Raq's muallimi», «It o't yemas, birovga ham bermas» (Bahil) ppealari ham mashxur.

Ispaniyada Lope de Vega traditsiyalarini davom ettiruvchi bir qancha yozuvchilar yetishib chiqdi. (Gilpen de Kastro (1569-1631), Alerkon (1581-1639); Tirso de Molina (1557-1648).

Kalpderon (1660-1681) Ispaniyadagi iqtisodiy va siyosiy tushkunlik XVII asr o'rtalariga kelib kuchayadi. Ispaniyaning avvalgi shuhratidan asar ham qolmaydi. Feodal-katolik laeksiyasi hujumi natijasida barokko adabiy oqimi endi xukmron bo'lib qoladi.

Ana shu davrning (adabiyotning) tipik vakili Kalpderondir.

Don Pedro Kalpderoy de La Baraka Madriddan voryan oilasida tug'ilgan.

Dramaturg o'z hayotining I yarmini o'qish universitet, harbiy yurishlar ishtirokchisi va voqyealar bilan o'tgan bo'lsa, hayotining II yarmini cherkoga bag'ishlaydi. O'z davrining katta din ulamolaridan biriga aylanadi.

1636 yil u saroy dramaturgi nomini oladi. Uning adabiy merosi 120 ppesa, 78 ta diniy mazmundagi ppesa (aumtos sakramentalis) va 200 ga yaqin intermediyalardan, 2 dostonidan iborat.

Kolpderon ppe-salarining personajlari uzundan-uzoq monologlar o'qishadi va hoh hoh bo'lsin, hoh xizmatkor falsafa yurgizadi. Kolpderon taqqoslanishni, kuchli va yuksak metaforalarni yaxshi ko'radi.

«Hayot uyqu demak» (1634) «Bu shu davrgacha o'qigan va ko'rganlarim ichidagi eng ulug'vor dramatik konsepsiyadir... (I.S.Turgenev – 1847)

Voqyealar Polpsha (Poloniya)da bo'lib o'tadi. Ammo voqyealar joyi, vaqti, tarixiy davri asarda hych narsani hal qilmaydi.

Munajjimlar Polpsha qirolining o'g'li Siguzmundni, zolim va dahshatli kimsa bo'lib yetishadi, deb bashorat qilishadi. Qirol bundan xavfsiriab uni qamab qo'yadi. Bir necha yildan so'ng qirol Basilio shubhalanib shahzodani ozod qiladi va butun hokimyatni unga topshiradi.

U shohona qasrda uyg'onadi. Siguzmundni gunohi bo'lmasa-da, Munajjimlar quroasi bilan uni olamdan, odamlardan ajratishdi, odamdan vahshiy hayvonga aylantirdilar. Endi u qasos olishga ahd qildi. U otasiga ham shafqat qilmadi. Ota o'g'lini tuzata olmasligini sezgach, uyqu berib, uni yana qamoqqa yuboradi. Siguzmund uchun ko'rgan kechirganlari uyqu bo'lib tuyuladi. Baxt haqida o'ylash, yashash uchun intilish behuda narsa, degan xulosaga keladi. Mag'rur, kuchli irodali Siguzmund pG'yesa oxirida mo'min-qobil, taqdirga tan beruvchi kishiga aylanadi. Xudo tomonidan taqdirga nima yozilgan bo'lsa shu bo'lishi kerak, inson unga qarshilik ko'rsatishga o'ziz.

Katolik – shoir (Kolpderon)ni fikri shunday. Agar insonga butunlay erk berib qo'yilsa, u dunyoni ostin-ustin qilib yuborishi mumkin.

Kalpderon or-nomus masalasiga bag'ishlangan qator dramalar yaratadi. «Nomus g'alabasi», «Nomus tufayli adablanish», «Mahfiy nikoh», «Oqilona jazo» va boshqalar.

XVIII asrga kelib Kolpderon shuhrati so'nadi. Ammo romantizm davrida (XIX asr boshlarida) yana tilga olinadi. Nemets F.Shlegelp uni hatto Shekspirdan ham yuqori qo'yadi.

XVII asr fransuz adabiyoti.

XVII asr fransuz adabiyotining rivoji va o'ziga xos xususiyatlari ana shu tarixiy davr sharoitlari bilan bog'liq.

XVII asrda Fransiya yevropadagi eng qudratli mamlakat edi.

XVII asr oxirida taxtga chiqqan Genrix IV davrida fitnachi feodallarni bostirish va markazlashgan hokimiyat o'rnatish uchun ko'p harakat qiladi.

1610 yil qirol (suiqasdan) o'limidan so'ng taxt uning o'g'li 9 yoshli Lyudovik XVIII ga qoldi. Qirolicha Mariya Medichi (italpyanka) va uning favoritmari davlat isholarini bir oz izdan chiqaradi.

1624 yili Lyudovik XIII o'zi mustaqil davlatni boshqarishga o'tadi.

Kordinal Rishelpe (qirolicha jazmani) qirolning I ministri bo'ladi. Lyudovik XIII mohir qilichboz, yaxshi kuylaydi, rasm soladi, ballarda mohir kavalier, ammo davlat ishlarida iqtidorsiz. Shuning uchun davlatni Rishelpe 1642 yilgacha, yaoni o'limigacha boshqaradi. Qirol ham shu yili vafot etadi.

Rishelpe monarxiya tizimini mustaxkamlaydi. Madaniy hayot sohasida ham yagona nazorat o'rnatdi. 1635 yilda Fransiya akademiyasida ochiladi.

Lyudovik XIII o'limidan so'ng uning besh yoshli o'g'li qoladi. Anna Avstriyskayaning favoriti kardinal Mazareni davlatni boshqaradi va uning o'limi (1661) dan so'ng 24 yoshli Lyudovik XIV o'zi davlatni boshqaradi. («Men o'zimni birinchi ministrim bo'laman») 1715 yilgacha O'sha davr yevropa adabiyotidagi uch adabiy yo'nalishlardan Fransiyada klassitsizm boshqa davlatlarga qaraganda juda ravnaq topdi. Fransuz klassitsistlari antik adabiyot tajribasini milliy anoanlari bilan uyg'unlashtira oldilar. (Boshqa davlatlarda bunday bo'lmadi).

Renessans realizmi badiiy proza, asosan roman janrida davom etdi. Barokko esa aristokratik adabiyotda, shuningdek Rasin ijodining so'nggi davrida («Ataliya») aks etdi. Klassitsizm esa asosiy yo'nalish edi. 1) Omil u qattiq qonun asosida ish tutgan absolyut xokimiyatning rasmiy adabiy uslubi edi. Reshelve adabiyotda ham qat'iy formalarga e'tibor berish talabini qo'yadi. Nazorat olib borishni akademiya yuklaydi, yagona fransuz tili lug'ati bo'lishi kerak.

2) omil Dekart va Gassendi filosofiyasi. «Idrok – haqiqatni yagona o'lchovi».

Klassitsizm nazoratchilari aql-idrok kuchiga qattiq ishonadilar va o'z qarashlarini shunga asoslaydilar. Fransuz klassitsistining birinchi vakili shoir Malerb (1555-1628) dir. U Genrix IV davrida saroy shoiri, Reshelve davrida Fransiya xazinaboni bo'lib xizmat qildi. O'z oralarida qirol hokimiyati va uning siyosatini madx etdi.

Pper Kornelp (1606-1684). Korner Ruan shahrida sud chinovnigi oilasida tug'ildi. Iuzit maktabida o'qidi. Huquqshunoslikni o'rganib, advokat bo'lib ishladi.

Bir kuni Kornelpning do'sti o'z sevgan qizi bilan tanishtiradi. Qiz esa Kornelpni yoqtirib qoladi. Ana shu voqeaning kulgili tomoni uni komediya yozishga undaydi. Shunday qilib, «Melita» komediyasi yaratildi. Shundan so'ng «Beva», «Qirollik», «Maydoni», «Sud galereyasi» komediyalarini yaratdi. Ammo Kornelpga uning Tragediyalari shuxrat keltiradi. 1635 yilda «Medeya» tragediyasi Antik yozuvchilar yevripid va Sekikaning Mediya haqidagi asarlari syujetidan olinadi. Ammo, voqeya asosida mifologik tarix yotsa ham, Kornelp o'z zamonasi aristokratiyasini yaramasiliklarini fosh etadi.

1636 yilda Fransuzlar faxriga aylangan «Sid» tragediyasini yaratdi va akademiya tragediyani sinchiklab o'rganib chiqadi. 1639-1641 yilda u «Goratsiy» «Sinna» asarlarini yozdi. 1652 yilda ijodiy omodsizlikka uchradi. «Pertarit» tragediyasi muvaffaqiyatsizlikka yuz tutadi. Kornelp 7 yil hech narsa yozmaydi. 1659 yilda «Edip» tragediyasini yozdi. 1662 yilda Parijga ko'chib kelib yozishni davom etadi, Ammo uning shuhrati so'na boshlaydi. Uni o'rniga yangi iste'dod – Rasin keldi.

1674 yilda yozishni bas qiladi va 10 yildan so'ng 1684 yilda vafot etdi. Bir kuni Kornelp bir necha yil bo'lmagan teatrda keladi. uni tanib aktyorlar o'yinni to'xtatishadi. Zalda to'xtovsiz qarsaklar yangraydi. Ammo shon-shuhrat Kornelpga moddiy manfaatdorlik keltirmaydi. U umrining oxirida moddiy qiyinchilikda hayot kechiradi.

«Sid» tragediyasi (1636).

Kornelpning «Sid»ini rus tiliga tarjima qilinagn Kateninga Pushkin «Men seni va talabchan Kornelpimni qutlaymay. «Sid»ni uning eng yaxshi tragediyasi deb hisoblayman» (1822) deb yozgan edi.

Asar syujeti ispan baxodiri Radrigo Dianis haqidagi o'rtas asr qahramonlik eposi va Gilen de Kastroning «Sidning yoshligi» ppeasidan olingan. Ammo Kornelp bu mavzuni zamonasiga yaqinlashtirib, imustaqil original asar yaratdi.

Syujet: Don Gomes graf Gormasning qizi Ximena bilan Don Dionning o'g'li Rodrigo bir birini sevadi. Ota ham qizini Rodrigoga berishga tayyor. Lekin... Ikki feodal urush o'rtasida tortishuv Don Gomis Rodrigoning otasini haqarot qildi. Keksa Don Diego o'ch olishni o'g'liga topshiradi. Radrigo uchun bu juda og'ir. 1. Sevgilisidan ayrilishi. 2. Oila haqorati;

Radrigo qizini otasini qizni otasini duelda o'ldiradi. Ximena qirol xuzuriga borib, otasini qotilini jazolashni so'raydi. Ular ikkisi ham urf-odatlar, ota oldidagi burch va yoshlik tuyg'usi o'rtasida azob chekadilar. Shu vaqtda Radrigo davlatga bostirib kelgan. Marvlarga qarshi kurashda zo'r qahramonliklar ko'rsatadi. Dushman tomoni ham uning botirligiga qayoil qolib «Sid», yaoni janob deb ataydi.

Ximena qancha talab qilsa ham qirol xanuz qahramonni, Radrigoni jazolashga botinolmaydi. Ximena Radrigoni o'ldirgan odamga turmushga chiqishini aytadi. Qirol jangda kim g'olib bo'lsa qiz o'shaniki bo'ladi deb shart qo'yadi. Qiz talabgori Sekgo duelda yengiladi. Qirol maslahati bilan Radriga bilan Ximena topishadi.

Kornelp klassitsizmning uch birlik qonuniga amal qilsada, unga yuzakiholda bo'ysunadi. «Sid»da vaqt birligi, Makon birligi bir oz buziladi. Radrigo Fimena bilan otasini o'limidan so'ng saroyda emas qizning uyida uchrashadi.

Rishelpe ham asrni yoqlamaydi. Kornelp qahramonlari bo'yi boshqalardan baland, bu tomondan romantikaviy, ammo ular nafaqat jang maydonida, balki o'z hislari bilan kurashda ham g'alaba qozonuvchi irodali kishilardir.

Napoleon Kornelp ijodini juda qarlagan: «Korner hozir yashaganmidi, men uni shahzodagi aylantirardim» degan edi.

Tom Kornelp – ukasi (19 yosh kichik). U ham ppeasalar yozadi. Ular opa-singilga uylanishadi. Juda ham inoq bo'lishgan.

Jan Rasin (1639-1699).

1667 yilda «Andromaxa» tragediyasi sahnaga qo'yiladi. Bu Kornelp tragediyalaridan farqli Kornelp o'z xarakterlari ideyalari bilan o'ziga asr etgan bo'lsa, Rasinlar insonlar qanday bo'lsa, shunday tasvirlaydi. (Kornelp qanday bo'lishi haqida). Rasin chinovnigi oilasida tug'ildi. Ota-onalaridanjkda erta ajralgan. Buvisi qo'lida (xudojo'y ayol) tarbiyalanadi. 1658-yilda Parijga keladi. 1664 yilda «Fifiada» tragediyasi shuhrat keltirmydi. 1665 yilda yozilgan «Aleksandr» tragediyasi «Britaktik» – hokimyatini suistemol qilish, despotizm asorati haqidagi tragediyalar edi. Rim tarixi - Neron hukmronligi davri tasvirlandi.

1677 yilda «Fedre» tragediyasi yaratildi. Asarning syujeti qadimgi yunon mifidan olingan.(Evrripidda «Ipolit») 1670 yilda Kornelp va Rasin bir syujetda ikki asar – «Tit va Berenika», «Berenika» tragediyalarini yaratadilar. Bu musobaqada Rasin ppeasasi ustun chiqadi. «Berenika» tragediyasida Rasin shaxsiy manfaati va ijtimoiy burch bir-biriga zid kelmasligi va monarxiya tuzimining gumanizmiga zid ekanligini ko'rsatadi. Saroy intriigallari natijasida Rasinning eng yaxshi tragediyasi – «Fedra» muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Bundan so'ng yozuvchi dramaturgiyani tashlaydi. 12 yildan so'ng qizlar pansionini boshlig'i De Montenoi xonim iltimosi bilan «Esfir» tragediyasini yaratadi. 1661 yil so'nggi asari – «Ataliyani» yaratadi.

Uning so'nggi asari Lyudovik XIV ni g'azablantirdi va yozuvchi hayotining so'nggi yillari osoyishta o'tmadi. 1699 yili vafot etadi.

«Andromaxa» (1667) ppsaning syujeti antik mifologiyadan olingan. Asarning bosh qahramoni Troya paxlavoni Gektorning xotini Andromaxadir. Uning yosh o'g'li bilan (Astianaks) bilan Gektorni o'ldirgan. Ahilesning o'g'li Pirr qo'liga asir tushish voqealari tasvirlanadi. Pirrda Andromaxa muhabbat uyg'otadi. Shoh Meneay va qizi Germiska Pirr Andromaxaga uylanishini eshitib undan o'ch olishni Orestga topshiradi. Nikoh rasmiyati o'tkazilayotgan bir paytda Orest Pirrni o'ldiradi. Bundan so'ng Germiono ham o'zini halok etadi.

Rasin qadimgi sejetni olib, unga yangi maono kiritdi. Shoh, Pirr, Germioni va Orest obrazlari orqali davlat manfaatlarni unitgan, egoist hokimyatni tanqid qildi.

Burch va istak (his) orasidagi kurash tasvirlanadi. Fedra Tezeyni xotini. Ippolit uning o'gay o'g'li bo'ladi. Fedra Ipolitni sevib qoladi. yevrepedan farqli, Rasin enaga obraszini kiritadi. Qahramonlarni ichki kurashini aniq ifodalaydi. Bunday kichik xatolar xatto jinoyat haqidagi o'ylr ham o'z jacosini oladi.

Glossary

Ertak	Fairy tale/ tale	xalq og'zaki ijodidagi epik janr, cho'pchak. E. barcha Xalqlar og'zaki ijodida qadimdan shakllangan va faol janrlardan sanaladi. E.lar, asosan, nasrda yaratilib, syujeti asosida sehri-fantastik, sarguzasht yoki maishiy xarakterdagi voqealar yotadi, voqealar bayoni va talqinda ijodiy fantaziya, to'qima salmoqli o'rin tutadi.
Yumor	Humour	(ingl. humour – kayfiyat, moyillik) - 1) komiklik turlaridan biri. Badiiy asarda kishilar, voqea-hodisalar ustidan yengil, do'stona, beg'araz kulish
Yangi roman	A new novel	XX asrning 50-yillarida maydonga chiqqan bir qator fransuz yozuvchilari (N.Sarrot, A.Rob Griye va b.)ning roman bobidagi eksperimental izlanishlariga xos xususiyatlarni anglatuvchi shartli termin
Qasida	Poem/ triumphal poem praising a person or event	(ar. - maqsad, niyat qilish) - mumtoz lirikadagi janr; biror shaxs (shoh, arbob, qahramon). biror muhim voqea, tabiat va sh.k.larni madh etish, ularning yuksak fazilat va xususiyatlarini e'tirof etish maqsadida yoziladigan she'r.
Qissa	Short story	(ar.-hikoyat, sarguzasht)-1) xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan voqeband xarakterdagi, qahramon hayoti va sarguzashtlarini hikoya qiluvchi rivoyaviy asar. Xalk ijodidagi Q.lar og'zaki ijro

Qofiya

Rhyme

qilingan, folklorning boshqa janrlari kabi variantlilik xususiyatiga ega bo'lgan.

(ar. - misra oxiridagi so'zlarning bir-biriga mos bo'lishi) - she'riy misralar oxiridagi qo'shimcha, so'z, ba'zan so'z birikmalarining ohangdosh bo'lib kelishi, aniqrogi, ularning tarkibidagi tovushlar guruhining ohangdoshligi.

Qo'shiq

Song

xalq og'zaki ijodida shakllangan lirik janr. Q-ning muhim belgisi - ijro uchun mo'ljallanganlik.

Test topshiriqlari:

1. Olam tuzilishining geotsentrik tizimini ishlab chiqarilishi qaysi olimlar tomonidan amalga oshirildi?

- A) Galiley, Kampanella, Kapler
- B) Kampanella, Kapler, Jorj
- C) Genri, Jorj, Galiley

2. Barakko adabiyotida qanday g'oyalar asosiy o'rinni egallaydi?

- A) tragedik
- B) tasavvufiy
- C) diniy

3. Klassitsizm bo'yicha adabiy janrlar to'g'ri berilgan qatorni toping?

- A) "Yuksak" va "Yetuk"
- B) "Yuksak" va "Tuban"
- C) "Tuban" va "Yetuk"

4. "Tuban" janrga nimalar kiradi?

- A) tragediya, epos, satira
- B) komediya, satira, epos
- C) komediya, satira, epigrama

5. Antik adabiyotga taqlid qilish asosida yuzaga kelgan yo'nalish qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) romantizm
- B) realizm
- C) klassitsizm

6. "Saroy dramaturgi" nomini olgan adabiyotning tipik vakili?

- A) Lope de Vega
- B) Kalpderon
- C) Bokachcho

7. "Nomus g'alabasi" dramasi muallifi kim?

- A) Kalpderon
- B) Jan Rasin
- C) Dante

8. Kornelp ilk bor qaysi komediyasini yaratadi?

- A) "Beva"

B) "Melita"

C) "Qirollik"

9. Molperning "Kulgili nozaninlar" asari nechinchi yilda yaratilgan?

A) 1659- yilda

B) 1670- yilda

C) 1672- yilda

Adabiyotlar:

15. Q. Azizov, O. Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi.

13. A. Anikst. Istoriya angliyskoy lit-ri, M., 1956

14. M. Yelizarova i dr. Istoriya zarubejnoy lit-rq XIX veka, M., 1972.

15. Dhyakonova N. Ya. Liricheskaya poeziya Bayrona. M., 1975.

16. Jirmunskiy V. M. Bayron i Pushkin, M., 1978.

17. Vinogradov A. «Bayron». M., 1985.

18. Bayron. Saylanma, sheorlar, dostonlar, T., 1974

15-mavzu. Ma'rifatchilik adabiyoti

ReJA:

8. Ma'rifatchilik adabiyoti haqida.

9. Angliya adabiyoti;

a) D. Defo ijodi;

b) J. Svit ijodi.

10. Fransuz maorifatchilik adabiyoti:

a) Volpter ijodi;

b) Bomarshe ijodi;

11. Nemis adabiyoti:

a) Shiller ijodi;

b) Gyote ijodi.

XVIII asr adabiyoti Angliya adabiyoti.

XVIII asrga kelib G'arb, yevropa davlatlari turlicha siyosiy tuzimga ega edilar. Angliyada absolyutizm o'z umrini yashab bo'ldi. Qirollik hokimiyati siyosatiga taosir o'tkazmaydigan hokimyatga aylandi. (1648-49 burjuaziya revolsiyasi).

Fransiyada hali absolyutizmi yashamoqda edi. Germaniya mayda knyazlik, geruochliklarga bo'linib ketgan edi. Italiyada ham Germaniya singari mayda davlatlarga bo'linish yuz bergan, shimoli esa Avstriya mustamlakachiligi azoblarini totarmoqda edi.

yevropa ilg'or kuchlarining siyosiy kurashlari asosan antifeodal xarakterda bo'lgani uchun, XVIII asr adabiyoti ham asosan antifeodal yoki maorifatchilik ruhda edi.

«Maorifat» soʻzi, keng maonoda xalqni bilimli, maorifatli qilish maonosida qoʻllansa, tor maonoda burjuaziyaning feodalizmiga qarshi kurashi avj olgan davrdagi aqliy harakatni ifoda etadi.

Maorifatparvarlar uchun, aql-idrok bosh masaladir. Ular insonning aqliy faoliyatiga, odamiylik fazilatlariga yuqori boho berganlar. Shu bilan birga, maorifatparvarchilik gʻoyasiga yuqori baho berishadi. (Davlat tepasida oʻqimishli, odil podsho turishi kerak).

Maorifatparvar yozuvchilar adabiyoti tugʻilib kelayotgan yangi sinfning gʻoyaviy kurash quroli deb biladilar. Maorifatparvarlar «tabiiy inson haqidagi» konsepsiyasini ilgari surdilar. Ularning fikricha inson tabiatan goʻzal va yaxshi xulqli, uni faqatgina hayot, yashash sharoiti buzadi.

Djon Lokk falsafasi maorifatchilarga katta taosir oʻtkazdi. Uning «Inson aqli haqida tajriba» (1690) kitobi. Uning fikricha, inson olayotgan barcha bilimlar aql-idrok orqali keladi.

Danielp Defo (1660-1731). Savdogar oilasida tugʻildi. Otasi uni puritan diniy akademiyasiga oʻqishga berdi. Ammo Defo savdo ishiga qiziqib umrining oxirigacha yirik kommertsant boʻlib qoldi.

U jurnalist ham boʻlgan, satirik pamfletlar, romanlar, traktalar yozgan. Koʻp sonli maqola va pamfletlarida feodal-aristokratlar bilan cherkov reaksiyasini fosh qiladi. «Robinzo Kruzo» romani (1719)

Defo davri kitobxonlari adabiyotga, xususan, prozaga shunday talablar qoʻyadilar: hikoya ajabtovur narsalar haqida boʻlishi, boshqalardan ajralib turishi va shu bilan bir qatorda toʻqilgan boʻlmasligi kerak. Defo birdaniga 2 talabni bajaradi.

Uning romani biz hozir xujjatli prozaga qoʻshilgan boʻlur edik. Romanni hujjatlilikini shu narsa ham taokidlaydiki, Robinzonni proobrazi - real odam shotlandiyalik matros Selpkosdir.

U kimsasiz orolda 4 yilu 4 oy yashaydi.

Romaning I qismidan soʻng II vva II va III qismlarini yozadi. Ammo eng mashhur I qismi. Romanning asosiy qismi yolgʻiz insonning kimsasiz orolda yovuz tabiat kuchlari bilan yuzma-yuz olishuviga bagʻishlangan.

Adabiyotda birinchilardan boʻlib yaratuvchanlik mehnati mavzusini koʻtardi. Mehnat Robinzonni odam boʻlib qolishiga yordam berdi.

Voqyealarning sodda, qiziqarli tilda hikoya qilinishi asarning oʻqimishli boʻlishini taominlagan.

Robinzon 28 yil. Kimsasiz orolda yashaydi. 25-yili Jumovoyini uchratadi.

Djonatan Svift (1667-1745). Irlandiya poytaxti - Dublinda ruhoniylar oilasida tugʻilgan. Yirik ingliz amaldori Vilpyam Tempel saroyida kotib boʻlib ishlagan. Vilpyam Boy kutubxonasidan foydalangan. Jurnalist sifatida tanilib «Kitoblar janggi», «Bochka haqida ertak» (1704) va boshqa hajviy asarlari bosilib chiqqan.

«Kitoblar janggi» pamfleti.

XVII asr oxirida Fransiyada – 2 xil lager – yaʼni eski antik adabiyoti tarafdorlari va yangi, zamonaviy adabiyot tarafdorlari oʻrtasida katta tortishuvlar boʻlgan. Birinchi lagerdan Bualo (“Poeziya sanoati”) - ikkinchi tomondan aka-uka

Perrolar (3 aka-uka). Asosiy rol - Sharlp Perro. ("Qizil shapkacha", "Zolushka", "Uyqudagi go'zal" va boshqalar) badiiy ertak asoschisi.

TemplG' hali qadimiy adabiyot tarafdori edi. Kutubxonada yangi avtorlar kitobiga polkadan yaxshi joy, qadimiy avtorlar kitobiga - qorong'u, burchak. Xafa bo'lgan qadimiy avtorlar qo'zg'olon qilgan. O'tliqlarni Gomer va Pindor, qurollilarni Aristotelp va Ploton va boshqalar g'alaba qozongan.

Svift – asosan siysiy yozuvchi. Uni asosan ijtimoiy masalalar qiziqtiradi. Uni dunyo sirlari, go'zallik, chuqur psixologizm qiziqtirmaydi. Faqat jamiyat nuqsonlari qiziqtiradi.

"Gulliverning sayyohatlari" (1726).

Roman qahramoni - afsonaviy mamlakatlarni Liliputiya, ulkan odamlar mamalakatiga, Brobdingnegga, aqlli otlar mamlakatiga (Guinginiya) va boshqa yerlarga sayyohat qilgan shaxs.

Sayyohatchining maqsadi – insonlarni maorifatli qilish (yaxshi va yomon misollar orqali) edi. Shuning uchun Svift fantaziyasi ostida falsafiy podtekst yotadi.

Roman 4 qismdan iborat.

1) liliputlar mamlakati haqida. Ular oddiy odamlardan 12 baravar kichik. (Bu Angliya). Amaldorlari ham xalq manfaatidan ko'ra o'z foydasini ko'proq o'ylaydi. Angliya kabi bu yerda 2 partiya bor: baland poshnalilar va vichilar partiyasi.

2 xildagi badiiy janr (Defo singari): sayyohat va utopiya janri uning romani yaratilishadi namuna rolini o'ynaydi. (Tomas Mor "Utopiya", Komponella "Quyosh shahri") Svift ironik holda hikoya qilish ustasi. Agar u "olijanob", "har narsaga qodir" deb aytsa, demak buning aksi.

Svift kitobi tendensioz ruhda. Unda 2 qarama-qarshi – ijobiy va salbiy tomonlar bor. Masalan: guingmlar (otlar) va iexular (buzilgan odamlar) qabilasi.

XVIII asr Fransuz maorifatchilik adabiyoti.

XVIII asrda Fransiyada maorifatchilik xarakati keng quloch yozdi. Fransiya jahonga maorifatchilik adabiyotining tipik namunalarini berdi.

Butun asr davomida Angliya va Fransiya o'rtasida dengiz va quriqlikda birinchilik uchun kurash bordi.

Asr boshida Fransiya Amerikadagi bir qancha koloniyalardan ajraldi. yetti yillik urush (1756-1763) dan so'ng Kanada, Xindistondagi Koloniyalar Angliya ixtiyoriga o'tdi.

Fransiyada absolyutizm (mutloq hokimiyat)ning va umuman feodalizmga qarshi kurash, yemirilish davri Lyudovik XIV hokimligining so'nggi davrlaridan boshlanadi va uning vorislari paytidla yanada zo'rayadi. (Flipp Orlevskiy, Lyudovik XV, Lyudovik XVI – inqilob(1789-1794).

Materialist Golpbah: «Taqdir taqozosi bilan taxtga maorifatli, adolatli, dono monarxlar o'tirishi mumkin va xalq o'tkazayotgan azob-uqubatlarni tushunib, ularni aqlli ko'rsatmalari bilan bartaraf etishadi».

Maorifatchilar ana shunday orzularga juda ham ishonishar edi.

Teatr maorifatchilar minbariga aylandi. Volpter 60 yil davomida teatr uchun asarlar yozdi. Uning trageliya va komediyalari yevropaning deyarli barcha teatrlari sahnasida (XVIII asrda) ko'rsatildi. Maorifatchilar teatr sohasida islohat qildilar:

Ijtimoiy hayotning real konfliktlari va qahramonlari tasvirlandi. (uchinchi qatlam odamlari).

Ular badiiy publistik prozaning yangi janri – falsafiy roman va qissani yaratdilar. (Monteskpe – «Fors xatlari», Russo – «Emil», «Yangi Eloiza», Didro «Romanning hijriyati». Volpter «Kandir»)

Fransua Mari Arue Volter (1694-1778). Volterni fransuz ma'rifatchilari yetakchisi desa bo'ladi.

Parijda amaldor oilasida tug'ilgan. Kollejda o'qish paytida sheor yoza boshladi. Juda tez mashhur bo'lib ketdi. Ammo amaldorlardan biri de Roganga yoqmaganligi uchun kaltaklanadi va Bastiliya qamoqxonasiga tashlanadi.

3 yil mobaynida Angliyada yashadi.

Umriining so'nggi yillarini Fransiya va Shvetsariya chegarasidagi Ferney degan joyda o'tkazadi. «Ferney patriarxi»ni ziyorat qilish uchun juda ko'plab kishilar kelib turardilar.

1778 yilda Parijda vafot etdi.

Volter badiiy so'z ustasi. Barcha ma'rifatchilar singari inson ongiga, aql-zakovatiga san'at orqali ta'sir ko'rsatishni bosh vazifa deb bildi.

O'zi dinga qarshi bo'lsada, amalda deist bo'lib qoldi. (Xudo – itoat uchun). «Xudo bo'lmaganda baribir uni o'ylab topilgan bo'lardi».

Klassitsistlar estetikasiga qarshi chiqqan Volter Rasin va Kornelp ijodiga yuksak baho beradi. Shekspirni Fransiyadagi birinchi targ'ibotchisiga aylanadi.

«Shekspir buyuk daho, ammo u qo'pol, dag'al asrda yashadi va uning ppesalarida ana shu dag'aliklar ta'sirini ko'rish mumkin».

Volter ijodi ko'p qirrali bo'lib, (epik, falsafiy dostonlik, odalar, satira, sheoriy novellalar) 52 ta pesa yozdi. (24 tasi tragediya).

1718 yilda birinchi tragediyasi «Edip»ni yozadi. Bundan tashqari yana 4 ta tragediyasida u antik davr mavzusiga murojaat qiladi va yana 5 tasida («Brut», «Sezarning o'limi» va boshqalar) Rim tarixi syujetlariga murojaat qiladi. Volpter tragediya oldiga yangi vazifalar qo'yadi. (tarbiyaviy ahamiyati). U ppesalarni ma'rifatchilik g'oyalarini targ'ib qiluvchi qurol vazifasini o'taydi.

«Edip»da u Sofoklga xos bo'lgan taqdir oldida tiz cho'kishini ko'rmaymiz. Kohinlar halqni soddaligidan foydalanuvchi yolg'onchilar sifatida ko'rsatiladi.

Agar Kornel ana shu mavzudagi pesasida «O'z qiroli uchun jon bergan xalq baxtlidir» degan fikr ni ilgari surgan bo'lsa, Volter – «o'z yurti uchun jon berish – qirollar burchi» deydi.

«Brut», «Zaira», «Muhammad» tragediyalari juda katta shuhrat qozongan. Qadimgi Rim tarixi. «Zaira» xristian qizi Zaira vaMisr sultoni Orosman o'rtasidagi muhabbat . Nereston - Zairani akasi. Orosman Zairani rashk tufayli o'ldiradi.

Ikki xil g'oya – gumanizm soflik va munofiqlik, bosqinchilik kurashi «Muhammad» tragediyasi. Muhammad obrazi Makka xukmdori Safir va uning bolalari Polpmira va Said, Napoleon bu ppesa haqida o'z fikrlarini bildirgan.

Volter «Genriada» epik dostoni haqida.

U o'z ijodidagi shu turdagi yagona asarni yaratar ekan o'z oldiga ikki vazifani qo'yadi: Fransiya milliy epos namunasini berish, (Vergiliy, Tasso singari) va shu bilan birga aql-idrokni, ideal hukmronni madh etish.

Asarda olim ma'budlarni o'rnini Nizo, fanatizm alvastisi singari figuralar egallagan. Dante qahramoni singari Genrix IV do'zaxga va osmonu falakka - taqdirlar qasriga sayohat qildi.

«Orlean qizi» dostonida Janna.

Janna D'Ark nomi bilan bog'liq cherkov safsatalarini fosh qiladi. Ruanda 1431 yil o'tda yondirilgan qahramon qiz haqida.

Falsafiy qissalarida Volter zulm, adolatsizlik, diniy jaholat, inson erki masalalariga to'xtaldi.

«Kandid yoki optimizmi» (1758)

Asar qahramoni Kandid sofdil, aqlli yigit. Uning ustozu faylasuf Panglos dunyodagi barcha narsalar ezgulikka olib boradi deb bilim beradi. Avvaliga bu falsafaga ishongan Kandid ongida (bir qancha davlatlar kezib chiqqandan so'ng) Panglos falsafasiga ishonch yo'qoladi. U har holda dunyoda qandaydir aqlga muvofiq keladigan narsa bo'lishi kerak, deb o'ylaydi. Qahramon yer yuzida shunday yerni - sarobni axtaradi.

Shunday tuzum deb Volter Eldorado mamlakatini tasvirlaydi. Bu yurtida tillayu javohirlarning hisobi yo'q Qirol olijanob, insonparvar. Sud qilish, jazolash kabi xodisalar yo'q. Ammo Eldoradoga olib boradigan yo'l tog'lar, baland qoyalar bilan to'silib yotadi. Amalda unga borish mumkin emas.

Muallif asar oxirida qahramon mehnat qilish kerak, degan xulosaga keladi. "Mehnat bizni uch xil falokatdan: zerikish, nuqson va muhtojlikdan xalos qiladi".

Per Ogyusten Karon Bomarshe (1732-1799). Melnxor Grimm (Bomarshe zamondoshi): Volter, Russo va boshqalarni asarlari ta'sir kuchi ortiq, ammo ularni xalq kam o'qirdi.

Bomarshe professional yozuvchi emas. U yozishicha muxtojlik sabab murojaat qilgan. «Agar ishlarim oshib yotsa – adabiyot bilan shug'illanish o'taversin, ammo ishdan bo'sh bo'lsam, qo'lim peroga intiladi va har xil bema'nichilikni hikoya qilaman» (Bomarshe).

Soatsoz farzandi. O'zi ham usta soatsoz. Parijda ko'zga ko'ringan soatsozlardan biri. Dvoryanlik unvoniga ega bo'lib (Karon ismini de Bomarshega almashtirgan). Yirik Bankir Pari Dyuverne bilan yaqinlashib katta boylikka erishadi. Dyuverne vafotidan keyin kichik meros masalasida sudlashadi va sud Bomarshe ziyoniga hukm chiqaradi. U sud sistemasini poraxo'rlikini fosh etuvchi «Memuar» (xotira)larni yozadi va butun yevropaga taniladi.

Bomarshe dramaturg sifatida «Seviliyalik sartarosh» (1775) va «Fugaroning to'yi» (1784) komediyalari bilan jahon adabiyotida qoldi. Bosh qahramon Figaro haqidagi trilogiyaning birinchi qismi - «Seviliyalik sartarosh» komediyasi. Asar voqyealarni ispaniyada kechadi. Figaro-epchil, aqlli yigit. U turli ishlarni qilib ko'radi. Nihoyat Seviliyaga kelib sartaroshlik qiladi. Komediyaning har bir sahnasida Figaroning ishbilarmonligi, chaqqon, xalqqa yaqinligi sezilib turadi. Uning yordamida graf Alpmaviva sevgan qizi Rozinaga uylanadi. Avtor uchinchi tabaqadan chiqqan qahramonni boshqalardan ustunligini ko'rsatadi.

9 yildan so'ng «Fugaroning to'yi» komediyasini yozdi. Komediya butun yevropaga mashhur bo'lgan (1785 yilning o'zida Germaniyada asarining 12 turdagi tarjimasi amalga oshirildi).

Endi Figaro grafning ishonchi xizmatkori. U uy xizmatchisi Syuzannani sevadi. Ammo graf Syuzannani o'ziga tobe qilib olmoqchi. Figaro buni sezib unga qarshi kurash olib boradi. Bu kurash graf va xizmatkor to'qnashuvi emas, balki ijtimoiy kurash tusini oladi.

Syuzanna, grafniya va Figarolar graf Almavivani kirdikorlarini fosh qiladi. U sevgilisiga erishish uchun o'zidagi barcha kuch, tadbirlarni ishga soladi. Asar Figaro va Syuzanna to'yi bilan tugaydi.

Napoleon keyinchalik (revalyusiyadan keyin) «Figaroning to'yini» amalda revalyusiya deb ataydi.

Trilogiyaning so'nggi asari «Jinoyatkor ona» - unchalik shuhrat qozonmadi. Graf olijanob, rahmdil kishi qilib tasvirlanadi. Figaro unga sodiq xizmatkor.

Nemis ma'rifatchilik adabiyoti.

XVIII asrda yevropadagi bir necha davlatlarda (Fransiya, Angliya) markazlashgan mutloq hokimiyat vujudga kelgan bo'lsa, Germaniya juda ko'p maydda knyazlik, graflik, imperiya shaharlaridan iborat kichik davlatlarga parchalanib ketgan edi.

Nemis maorifatchilarining asosiy vazifasi – mamlakatni milliy jihatdan birlashtirish. (Fransiyada – inqilobga tayyorlagan). Bu davrda falsafa ham juda ham ravnaq topadi. (Kant, Fixte, Gegelp). Yozuvchilar o'z asardarida falsafiy masalalarga keng o'rin berdi. Nemis maorifatchiligi rivojini 4 ta bosqichga bo'lishi mumkin.

- 1) 20-30 yil adabiyotda klassitsizm hukmronlik qilar edi. (O'tmishimizga murojaat qilish)
- 2) 60-yillar – bu davrda tasvirlashning realistik uslubi aso'iy bo'ladi. Maorifatchilik harakati boshchisi – Lessing.
- 3) 70 va 80 yillar yarmi («Bo'ron va tazyiq») buni kuchli va olijanob qahramonlar amalga oshirishi mumkin. (Shunday fikrlarni Getening «Gets fan Berlixingen» va Shilleming «Qaroqchilar» dramalarida ham kuzatish mumkin).

Shtyurmerlar nazariyotchisi bo'lib Gerder (1744-1803) edi. U birinchilardan bo'lib adabiyotda milliy kuchlarning millat rivojlanishining aks etishini aniq sistemali holda e'tirof etdi. U badiiy adabiyot xalqchilligi tushunchasini kashf etdi. (Shundan beri bu termin ishlatilmoqda). Ungacha ham xalq ijodiy o'rganishni umumxalq ishi deb bildi, unga falsafiy ko'z bilan tahlil qildi.

Gotxolpd Efraim Lessing (1729-1781). Kemens shahrida dindor oilasida tug'ildi. U avval Leypung universitetida, so'ngra Berlin va Vittenburgda o'z ma'lumotini oshirdi. 1767-1769 yillarda Gamburgda yashaydi. Teatr tashkilotchilaridan biri. «Gamburg dramaturgiyasi» - teatri qo'yilgan asarlar taqrizlardan iborat. 1770 yil moddiy qiyinchilik gersoglk kutubxonasi mudiri bo'lib ishlaydi. Yozuvchi 52 yoshida juda kambag'allikda vafot etadi.

Lessingning «Gamburg dramaturgiyasi» asari nemis maorifatchilar dasturiga aylandi.

Shiller (1759-1805). Marbah shaharchasida tug'ildi. Harbiy akademiyaning meditsina fakultetini tugatdi. O'sha paytdayoq sheoriyat bilan qiziqdi. 1781 yilda

«Qaroqchilar»ni yozadi. U soʻramay ketganligi (spektaklp sahnalashtirish) uchun gauptvaxtada oʻtirib chiqadi. (Shahzoda Karl yevgeniy) 1782 yil bu gersoglikdan chiqib ketadi. Germaniya boʻylab yuradi.

1795 yilda «Kishini estetik jihatdan tarbiyalash toʻgʻrisida xatlar» nazariy maqolasini yozadi. Uning fikricha, inson goʻzallik taʼsiri ostida, insonparvarlar, haqqoniy boʻladi va hayotdagi nuqsonlar bartaraf etiladi va aql-idrok, ozodlik, tenglik xukm suradi.

U yozuvchilarni oʻz asri farzandi (quli emas) boʻlishiga, oʻz davri ehtiyojiga qarab yozishga chaqiradi.

«Qaroqchilar» (1781 yil)

Graf Maksimilian fon Moorning ikki oʻgʻli Karl (Lepsigda oʻqiydi) va Frans (shuhratparast) bor. Karl qarzga botib, yordam soʻrab yozgan xatlarini Frans qari otasiga buzib, soxtalashtirib oʻqib beradi, akasiga tuxmat qiladi. Graf Karldan voz kechadi. Ilojsiz Karl Qaroqchilar guruhini tuzadi. (Butun mamlakatga dahshat soladi) Otasi bundan habar topadi. Frans bir kishini yollab, otasiga Karlning oʻlimi haqida yolgʻon habar beradi. Hasta graf olamdan oʻtadi. Frans otasi oʻrnini egallaydi va saroyda adolatsizlik oʻrnatadi. Begona kishi qiyofasida saroyga kelgan Karl barchasidan habar topadi. Sevgan qizi Amaliyani qaroqchilar tutib Qaroqchilar huzuriga keltiradi. Ammo Karl sevgan bilan birga Amaliyaga xanjar uradi. Oʻzini xukumat qoʻliga topshirmoqchi ekanini qaroqchilarga maolul qiladi.

Qaroqchi Karl jamiyatni oʻzgartirmoqchi boʻladi.

Longann Volpfgang Gyote (1749-1832). Frankfurt shahrida yurist oilasida, tugʻildi. Laykuna universitetida (grafik) oʻqibgʻ yurganda birinchi sheorlarini yozadi. Uning dunyoqarashiga Spinoza falsafasi «Poetika» taosir katta boʻladi. Studentlik yillari Ganpening «Muhammadning hayoti» kitobidan ruhlanib Muhammad haqida drama yozmoqchi boʻladi (parchalar).

Oʻz hayoti davomida 1600 ga yaqin sheor yozadi. Juda koʻpchiligi xalq qoʻshiqlariga aylanadi. «Gets fon Berlixingen» (1773) Gyotening nomi butun Germaniyaga mashhur qiladi. Drama XVI asr voqyealariga murojaaat qilinadi. Bosh qahramoni Gets ritsor. U xalq orasida juda mashhur. Isyonkor shaxs taqdiri uni juda qiziqtiradi. Asar uning Shekspir bilan juda qiziqqan davrda yaratildi. (Xronikalar ruhida)

Asar klassitsizm teatridan butunlay farq qiladi.

1774 yili «Yosh Verterning iztiroblari « romanini yozdi.

«Faust» fojjiasi. Bu asar ustida Gete 60 yil davomida ishladi. «Faust»ni yozish niyati unda studentlik yillaridan boshlangan edi.

Afsungar doktor Faust haqidagi afsonalar XVI asrda paydo boʻlgan. 1592 yil. Kristofer Marlo «Doktor Faustning fojiiyaviy tarixi» sahna asarini yaratdi. XVII-XVIII asarda tabiat sirlarini oʻzlashtirgan doktor haqida Germaniyada turli kitoblar bosilib chiqqan.

2-qismida – Mefistofel uni qadimiy Yunonistonga olib borgan. Sparta malikasi, Menelayning xotini yelena obrazi.

Glossary

Novella

Novella

(ital. novella - yangilik) - kichiq epik janr.

Obraz	Character	(rus. obraz - aks) - qarang: badiiy obraz
Oktava	Octave	(lot. octo. octava - sakkiz, sakkizlik) - sakkiz misradan tarkib topuvchi
Ocherk	Essay	(rus. ocherkat - tasvirlash) - epik turning kichiq shakli, badiiy-publitsistik janr.
		(fr. pame feuillet - uchar varaka) - publitsistika janri, anik bir shaxs yoki ijtimoiy tuzilma (tuzum, partiya, harakat, guruh va b.)ni keskin fosh etish maksadiga qaratilgan kichik xajmli asar.
Pamflet	Pamphlet	(yun. palaios - kadimgi, grapho - yozmok) - yozuvlar tarixini o'rganuvchi tarixiy-filologik fan sohasi.
Paleografiya	Paleography	

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Ma'rifatchilik adabiyoti deganda nimani tushunasiz?
2. Angliyadagi romantizmning asosiy nomoyondalari kimlar?
3. "Robinzon Kruzo" romantimida maorifatparvarlik tomoyillarining aks etirilishi.
4. Fransuz maorifatchilik adabiyotining asosiy vakillari kimlar?
5. "Odil podsho" g'oyasining adabiyotdagi talqini.
6. "Bo'ron va taxyiq" qanday adabiy xarakat edi.
7. Shiller ijodida isyonkor qahramon .

Test topshiriqlari:

1. Klassitsizm qoidalari qobig'ini yorib chiqqan yirik realistik asar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A)"Don Juan"
B)"Tartyuf"
C)"Zo'raki tabib"
2. "Inson aqli haqida tajriba" kitobining muallifi kim?
A)Djonatan Svift
B)Danielp Defo
C)Djon Lokk
3. "Gulliverning sayohatlari" asari nechinchi yilda yozilgan?
A)1738-yilda
B)1726-yilda
C)1722-yilda
4. Fransuz ma'rifatchilik adabiyoti nechinchi asrda yuzaga keldi?
A)17-asrda
B)18-asrda
C)19-asrda
5. Fransuz ma'rifatchilari yetakchisi to'g'ri berilgan qatorni toping?
A)Fransua Mari Arue Volter
B)Per Ogyusten Karon Bomarshe
C)Daniel Defo
6. Shillerning 1781-yilda yozilgan asari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) "Qaroqchilar"
- B) "Yosh Verterning iztiroblari"
- C) "Faust" fojeasi

ADABIYOTLAR:

1. Q. Azizov, O. Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1987.
2. S. Artomonov. Zarub. Leteratura. XVII-XVIII, v.v, M., 1988
3. Problemi prosveo'eniya v mirovoy literature. M., 1970
4. Neustraev V., Nemetsskaya literatura epoxi Prosveo'eniya. M., 1958.
5. Swift. «Gulliverning sayohatlari» T, 1974.
6. Defo D. «Robinzon Kruzoz», T., 1965.
7. Gete. «Verterning iztiroblari», T., 1975.
8. Gete I.V. «Faust, T., Adab va sanoat nashriyoti, 1972-74 y.

16-mavzu. Romantizm adabiyoti

ReJA:

1. Romantizm adabiyotining asosiy hususiyatlari;
2. Nemis romantizmi;
 - a) Gofman ijodi;
3. Fransuz romantizmi;
 - a) V. Gyugo ijodi;
4. Daniya romantizmi.

Shartli ravishda XIX asr deb ataladigan asr, jahon tarixi va adabiyotidagi yangi davr nafaqat fransuz burjuaziya inqilobi tomonidan tayyorlangan, balki ana shu inqilob voqyealari bilan ochiladi.

Inqilob aks-sadosi asr davomida tinmay yangrab turdi. XIX asr haqida gapirib V. Gyugo shunday degandi: "XIX asrni buyuk onasi – fransuz inqilobi bor. Uning tomirlarida uning tunganmas qoni jo'sh urmoqda".

Inqilobning ijtimoiy-siyosiy sohadagi asosiy yutug'i-u feodal ijtimoiy munosabatlarni sindirdi, uning «Ozodlik, tenglik, qardoshlik» deb ataluvchi shiori katta kuchga aylandi, qo'shni mamlakatlarda inqilobiy kayfiyatni vujudga keltirdi.

Fransuz inqilobining adabiy-estetik g'oyalar va formalarga ko'rsatgan taosiri boshqa sohalar singari adabiyotda ham sezildi.

Inqilob davri (1789-1894) o'z adabiyotini yaratadigan darajada ancha vaqtga cho'zildi. Klassitsizm va sintimentalizm anoanalarini davom ettirgan va inqilob g'oyalaridan ruhlangan yangi adabiyot vujudga keldi. Inqilobiy klassitsizimning vakili shior va dramaturg Mari Jozef Shenpe (1764-1811) hisoblanadi.

Inqilobiy lirikaning namunasi sifatida Ruje de Lilning « Reyn armiyasining xarbiy qo'shig'i» (1792) – «Marselpeza» paydo bo'ldi.

Sheoriyatda fransuz inqilobi sabab tarkib topgan anoanalar butun XIX asr (1830, 1848, 1871 yillar inqilobi) va XX asr (antifashistik qarshilik harakatida) o'z dolzarbligini yo'qotmadi.

Inqilob soʻz sanoati sohasida tugaganmas mavzuni ochib berdi. Masalan: Beranjening “14 iyul” sheori, Stendalning “Parma ibodatxonasi” romani, G. Geynening liro-publistik esselardan iborat «Gʻoyalar. Le grange» toʻplami, Bayronning «Chaylpd – Garolpdning sayyohatlari» dostoni, Gyugonning «93 yil» romani (1874) va XX asrdagi R. Rollan va A. Frans asarlari.

Fransuz inqilobi yevropa va jahon adabiyotidagi kuchli oqim – romantizmni vujudga kelishiga zamin hozirladi.

Biz romantizmni yevropa va Amerika adabiyotida, 18 asr oxiri va 19 asr 1 yarmida tarqalgan yirik oqimlardan biri deb bilamiz. Bir necha oʻn yillardan beri tadqiqotchilar nimani «Romantizm» deb atash toʻgʻrisida baxs olib bormoqdalar. (Fransuz olimi Surpe bu oqimga butunlay qarama-qarshi boʻlgan naturalizmni ham romantizmga qoʻshadi). 50-yillarga kelib sobiq ittifoqda butun boshli yangi konsepsiya paydo boʻldi. Unga koʻra romantizm yoʻnalishi oʻz badiiy uslubi bilan bir-biridan farq qiluvchi, ikki oqimdan iborat.

a) faol romantizm;

b) passiv romantizm;

Ammo 60-70 yillarga kelib bu borada bir qancha ilmiy ishlar paydo boʻla boshaldi. Ularda yangi materiallar asosida (Chyen romantiklari; Gofman, Po ijodi va boshqalar asosida), yangi xulosaga keldilar. Bu romantiklar badiiy uslublarining birligi haqidagi xulosadir.

Romantiklar ijodi har bir mamlakatda oʻz belgilariga ega. Bu davlatlarning milliy, tarixiy xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, romantiklar oʻz umumiy xususiyatlariga ham egadirlar:

a) romantiklar paydo boʻlgan tarixiy sharoit;

b) uslub hususiyatlari;

v) qahramon xarakteri;

a) yevropa romantizmi uchun fransuz inqilobi tarixiy sharoit boʻlib xizmat qiladi. Romantiklar inqilob ilgari surgan inson ozodligi gʻoyasini qabul qildilar. Ammo shu bilan birga, inson jamiyatda himoyasiz ekanligini, mulkchilik xissi barcha narsa ustidan ustunlikka erishayotganini xis qildi. Shuning uchun muhit oldidagi ojizlik, ikkilanish, qahramonlar taqdirini fojiiyaviyligi romantiklar dunyosining oʻziga xos tomonlardandir.

b) Bir tomondan shaxsga nisbatan alohida munosabat, uni atrof muhit bilan aloqalari xarakteri, ikkinchi tomondan, real muhitga ideal dunyoqarashni qarshi qoʻyish oʻziga xos badiiy uslub boʻlishini belgilab beradi. Romantiklarning vazifasi turmushni aniq va ravshan tasvirlash emas, balki turmush haqidagi orzu umidlarni tasvirlashdir. Shunday yoʻllar orqali ular oʻz ideallarini aks ettiradilar.

v) Romantizm adabiyoti oʻz qahramonini ham ilgari suradi. Romantik qahramon asosan yuksak va nozik xis soxibi, boshqalar boʻysunuvchi qonunlarga boʻysunmaydigan magʻrur shaxsdir. Shuning uchun u doim boshqalardan ustun qoʻyiladi va ajralib turadi. Bunday qahramon koʻpincha yolgʻiz boʻladi. Shu sababdan yolgʻizlik mavzusiga juda koʻp janrlarda, asosan sheoriyatda keng oʻrin berilgan.

Romantiklarni shaxsning ichki dunyosiga boʻlgan qiziqish lirik va liro-epik janrlarning gullab yashnashiga sabab boʻlgan. XVIII asr oxiriga kelib

maorifatparvarlik ideologiyasi o'z umrini yashab bo'lgani maolun bo'lib qoldi. XVIII asrning ikkinchi yarmida maorifatparvarlarning o'zlaridan o'z adreslariga tanqid paydo bo'la boshladi (Didroning «Jiyanim Ramo» asari).

Yangi tarixiy sharoitda - yevropada, fransuz inqilobidan so'ng, hayot romantiklar oldiga juda ko'p muammolarni qo'ydi, bunday muammolar Volper yoki Russolarga butunlay yod edi. Maorifatparvarlar kutgan va ishongan «Aql-idrok» mamlakati ro'yobga chiqmadi. Romantiklar hayotga maorifatparvarlarga qaraganda boshqacha, o'ziga xos yo'llar bilan yondoshdilar. Hayot maorifatparvarlar taklif etgan sxemalarga tushmadi. Romantiklar muhitning zidiyatli ekanligini aniqladilar. Romantiklar adabiyotda tarixiylikni kashf etdilar. Maorifatparvar esa o'tmish to'g'risida antitarixiy xolda («yaxshi-yomon» deb) fikr yuritgan edilar. Klassitsistlar tragediyalarining syujetini asosan tarixiy voqyealar tashkil etsada ularni, tasvirlanayotgan davr xususiyatlari qiziqitirmaydi. Ular o'z asarlarida umumiy bo'lgan burch va ehtiros masalasini qo'yadilar va yechadilar.

Romantiklar o'tmishda nafaqat inson xarakterlarini, balki o'z zamonasi taosirida shakllangan xarakterlarni ham ko'ra oldilar. Maorifatparvarlar yuksak maonaviyat, aql-zakovat egalari bo'lgan ko'plab ijobiy obrazlarni yaratgan bo'lsalar. Romantik qahramon ijobiy bo'lishi shart bo'lmay, u muallif idealini o'zida aks ettirishi lozim edi.

Romantizm adabiy yo'nalish sifatida XVIII asr oxiriga kelib birdaniga bir necha mamlakatlarda paydo bo'la boshladi. Estetik manifest, traktatlari bilan Germaniyadan Chyen romantiklari, Fransiyadan Shatobriion va de Stalp, Angliyadan ko'l maktabi vakillari chiqdilar.

Ammo bu sxematik davriylashtirish barcha yevropa davlatlari uchun bir deb bo'lmaydi. Germaniyada ilk romantizm yen romantiklari (Novalis, aka-uka Shlegelar) nomlari bilan bog'liq. Ikkinchi bosqichidagi Geydelpberg romantiklari davri Napalion okkuputsiyasi va milliy uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Xuddi shu paytda aka-uka Grimm ertaklari paydo bo'lgan.

20-yillarga kelib, Gofman o'limidan so'ng va yosh Hyeynining relizm anoanalarini yoqlab chiqish munosabati bilan nemis romantizmi egallagan mavqyeini boy bera boshladi.

Angliyada esa Shelli (1822) va Bayron (1824) ning hayotdan ko'z yumishi romantizmning ikkinchi o'ringa tushib qolishiga asosiy sabab bo'ldi.

Romantizm Fransiyada 30-yillarga kelib to'la shakllandi. Bu paytda Angliya va Germaniyada romantizm o'z umrini yashab bo'lgandi deyish mumkin. Fransiya romantiklari yangi drama uchun kurashdilar. (ungacha klassitsistlar teatri xukmron edi). Drama janrining reformati bo'lib V.Gyugo maydonga chiqdi.

Polshada romantizm haqidagi bahslar 18-10-yillarga to'g'ri kelgan. 20-yillarga kelib, adabiyotga A.Mitskevichning kelishi bilan shakllandi va o'zini asosiy o'rni uzoq vaqt saqlab qoldi.

Romantizm tiplari haqidagi masala to'laligicha o'rganilmagan.

Nemis romantizmi. Germaniyada Fransiyada bo'layotgan voqyealarni zo'r qiziqish bilan kuzatib bordilar. Germaniyaning ilg'or vakllari ularning qoloq, o'nlab mustaqil knyazliklarga bo'lingan mamlakatida inqilobiy o'zgarishlar bo'lmasligiga ko'zlari yetdi. Shuning uchun ular maonaviy sohada inqilob qilishga harakat qildilar.

Nemis romantiklari idealist Fixte falsafiy qarashlarini yoqlab chiqdilar. «O‘z diqqat-etiboringni seni o‘rab turgan atrof-olamga emas, balki o‘zingga qarat» (Fixte).

O‘z intilish va harakatlari tufayli inson yanada yaxshi bo‘lishi mumkin va bo‘lishi kerak. Bunda unga yordam berish kerak. Nemis romantiklarining asosiy vazifa va maqsadi ana shundan iborat edi.

Bu yerda Gofman, Shamisso, Hyeyne (ilk ijodi) va Byuxerlar ijod qiladi.

Nemis romantiklarining katta ishlaridan biri-xalq og‘zaki ijodini o‘rganishlari bo‘ldi. Yakob (1785-1863) va Vilpgepm (1786-1859) Grimmlar folpklarning estetik qimmati yuksak qadrlaganlardan edi: Ularning tarix, til tarixi, huquq va mifologiya bo‘yicha bir qancha ilmiy maqolalar mavjud. Ammo ularga xalqdan yozib olingan 3 tomli va 200 ta ertakdan iborat «Bolalar va xonadon ertaklari» (1812-1822) katta shuhrat keltirdi. Ertaklarni ular butun Germaniya bo‘ylab yurib turli toifa odamlardan yozib olishadi.

Ertaklarni 3 guruhga bo‘lish mumkin: sehrli, hayvonlar haqidagi (Bo‘ri va yetti echkicha), «Bremen muzikantlari») va maishiy ertaklar.

Barcha ertaklarda mehnatni sevuvchi, dono, sabr-toqatli qahramonlar doimo g‘alaba qozonishadi.

Pushkin «Oltin baliq va baliqcha haqida» ertagi uchun «Kambala baliq haqidagi ertak» epizodidan foydalangan.

ERNST TeODOR AMADeY GOFMAN (1776-1822).

Gofmanning fantastik novella va romanlari nemis romantizmining eng katta yutug‘i hisoblanadi. U muhitni aql bovar qilmaydigan (irotsional) holda qabul qiladi, chunki shunday holda dunyoviy uyg‘unlik (garmoniya) mumkin emas.

Gofman asarlarida ko‘pincha personajlarning ikkiga ko‘payish hollarini kuzatish mumkin. U XIX asr yozuvchilari orasida birinchi bo‘lib, inson naturasining ikkiga ko‘payishini ochdi. Yaoni, Gofman asarlarida insonning qarama-qarshi hislatlari alohida, aralashmagan holda maydonga chiqadi.

Bo‘lajak yozuvchi Kyonisbergda tug‘ildi. Huquq fakulptetini bitiradi. Tirikchilik vajidan boy byurgerlarning qizlarini musiqaga o‘qitadi. 1814 yilda to umrini oxirigacha Berlinda yashaydi. Gofman umr bo‘yi nochorlikda hayot kechirdi.

Sanoat va sanoatkor mavzusi - Gofman ijodining asosini tashkil etadi. Uning asrlarida iqtidorli musiqachilar, sanoatkorlar doimo Germaniyaning zerikarli, pastkash hayotida bo‘g‘iladilar, o‘z ideallari va nemis hayoti o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni ko‘rib azob chekadilar.

1809 yilda “Umumiy musiqqa gazetasi”da “Kavler Glyuk” novellasi bosilib chiqadi. Bundan so‘ng kompozitor Kreyeslerga bag‘ishlangan boshqa asarlari ham paydo bo‘lgan va ularni “Kallo ruhidagi fantaziya” to‘plamiga biriktiradi (1814-1815). (Jak Kallo – XVII asr fransuz rassomi). Ushbu to‘plam hikoyalari markazida musiqachi va kompozitor Iogan Kreysler turadi. Kreysler - darbadar musiqachi. U juda ham istedodli bo‘lsa-da tirikchilik uchun ko‘chada kezib yurishga majbur. U sanoatni hayotdan ham ustun qo‘yadi. Haqiqiy sanoat ko‘plab burjua – zodogonlar uchun tushunarli emas. Ushbu jamiyatda sanoat ularning past, jirganch, maonaviyatdan uzoqdagi hayotini bezash, ovunish uchun xizmat qiladi xolos.

Gofmanning «Sinnober laqabli mitti Saxes» (1819) ertagidagi voqyealar mitti nemis knyazligida yuz beradi. Romantik bo‘yoqlarda tasvirlangan barcha voqyealar Gofman yashagan davrini hajviy qiyofasini ochib tashlaydi.

Gofman hayotidagi qarama-qarshiliklarini «qora va yorug‘» kuchlar kurashi sifatida tasvirlaydi. Qora kuchlar – boylik, mansabparstlik, egoistik ko‘rinishlari. U bu kuchlarni chizishda grotesks va satiradan unumli foydalanadi. Ular baozida dahshatli kuchlar sifatida tasvirlanadi. Yorug‘ (sof) kuchlar esa insonning sof xislari va uning orzu hayollar dunyosidir.

Gofmanning «Magnitizor» da «Qo‘rqinchili mehmon» novellalarida sevgi yirtqich instinkt sifatida tasvirlanadi. Birinchi novellada Alpban ismli yigit baron xonadoniga keladi. Baronning Mariya ismli qizi bo‘lib, u Ippolit degan yigitga unashtirilgan edi. Alpban Mariyani sevib qoladi va asta-sekin uni o‘ziga bo‘ysundirib, ixtiyorini o‘ziga bog‘lab qo‘yadi. Ippolit bilan Mariyaga nikoh o‘qilayotgan paytda qiz hushsiz yiqiladi. U endi Alpbansiz yashay olmas edi. Alpbanning yirtqichlarcha istagi Mariyani halok etadi.

Gofmanning «Mushuk Murning xotiralari» romani (1821) ham juda mashhurdir.

VIKTOR GYUGO (1902-1885).

Viktor Gyugo fransuz romantizmining eng yirik vakili hisoblanadi.

Viktor Gyugo Bezonsen shahrida ofitser oilasida tug‘ildi. Otasi Napoleon davrining generali, onasi esa aksincha, Burbonlar tarafdori edi.

O‘zining birinchi sheorlarida burbonlarni madh etadi.

1827 yili birinchi dramasi «KROMVELP» ni yaratadi. Va unga kengaytirilgan so‘z boshi yozadi. Ushbu so‘z boshi Fransuz romantizmining manifestiga aylandi. Romantik dramalar Gyugogacha ham yaratilgan. Klassitsizm hukmronligi davrida dramalar sahnalashtirilmagan. Ularni o‘qish uchun yozilgan dramalar deb atashar edi. Viktor Gyugo Shekspir tajribasidan foydalanib tragediya emas, romantik tarixiy drama yaratadi. (XVII asr Angliya burjuaziyā revolyusiyasi va uning dahosi Kromvel haqida) U klassitsizm qonun qoidalaridan voz kechishga (vaqt, makon, harakat birligi, yuqori va quyi janrlar) chaqiradi. Viktor Gyugo Shekspir ijodini ana shunda qonun-qoidlardan holi deb biladi.

1831 y. «Parij Bibi Mariyam ibodatxonasi» romani yaratildi. Asar mavzusi XV asrdagi Fransiya tarixidan olingan.

O‘rta asr ibodatxonasi ustunlaridan birida «Ananke» so‘zini o‘qidi. (taqdir, qismat degani) Yozuvchi bu so‘zga keng maono berdi. (Din anankesi, jamiyat anankesi va boshq).

Ibodatxona ruhoniysi Klod Frollo - o‘z umrini din yo‘liga tikkan odam. U yoshi o‘tib qolgan bo‘lishiga qaramay Parij ko‘chalarida o‘yinga tushib tirikchilik o‘tkazuvchi lo‘li qiz Esmiraldani sevib qoladi. Qiz buni rad qiladi. Frollo kapitan Feb bilan Esmiraldani kuzatib yuradi. Qizni qirol armiyasi ofitseriga suiqasd qilishda ayblab, o‘limga hukm qiladilar. Uni jazolash uchun olib ketayotganda Kvazimodo uni ibodatxonaga olib ketadi. U qashshoq odamlar bilan ibodatxonada yashaydi.

Frollo qizga o‘z sevgisini majburlab o‘tkazmoqchi bo‘ladi, ammo bu befoyda. U qizni jallodlar qo‘liga topshiradi. Qizni dorga osishadi. Kvazimoda Klod Frolloni o‘ldiradi. O‘zi ibodatxonani tark etib Esmiralda jasadi oldida jon beradi.

Asardagi ibodatxona - o'rta asrchalik, feodalizm, zulm adaolatsizlik maskani sifatida tasvirlangan.

Viktor Gyugo 1862 «Ho'rlanganlar», 1869 yili. «Kulgich odam», 1874 yili esa «93 yil» romanini yaratdi.

XIX asr daniya romantizmi. Daniya romantizmi milliy adabiyot anoanalari negizida paydo bo'ldi. Shu bilan birgalikda Daniya romantizmi rivojlanishiga nemis va ingliz romantiklari: Garmon, Tike, Shamisso, Reyne, Skottyular katta taosir ko'rsatdilar. Daniya romantiklari qatoriga V.Skott asarlari ruhida yozgan Ingeman, saga syujetlaridan foydalanib dramalar yozgan K. Xaux, X.Xerslarni qo'shish mumkin. Daniya romantizmining boshlanishi 1802 yili chop etilgan shoir va dramaturg Adam Eleklegerning «Oltin shohlar» sheoriy to'plami bilan bog'liq.

Daniya romantizmida afsona va ertaklar alohida o'rinda turadi. 1810-1820 yillar Daniya adabiyotida ertaklar davri deb ataladi. 1818 yilda Yu.Til «Daniya xalq rivoyatlari», S.Grundvich «Qadimgi Daniya rivoyatlari» (1854-1861), Vinter «Daniya xalq ertaklari» to'plamlarini chop ettirdilar.

1816 yili Elekleger «Turli xalqlar ertaklari» to'plamini nashr etdilar. Bu davrda adabiyotga buyuk daniya ertakchisi X.K.Andersen kirib keldi.

XANS KRISTAN ANDERSEN (1805-1875). Buyuk ertakchi Odens shahrida etikdo'z oilasida dunyoga keldi. 1819 yili Kopengagenga keldi. 1822 yili Andersen qadimgi skandinav syujeti asosida yozilgan. «Elpflar qo'shig'i» asallarini teatrga olib keldi. Katta qiyinchilik, muxtojlikda avval gimnaziyani, keyin esa universitetni tamomladi.

Andersen Kopengaginga kelishidan oldinroq sheorlar yoza boshlagan. Dramatik asarlardan I aktli «To'ng'ich» satirik ppesasi shuhrat qozondi. Andersen 6 ta romanning muallifi hisoblanadi. Uning «Improvizator», «Faqat skripkachi» romanlari mashhur bo'ldi. Andersen romanlari Daniya romantizmi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Uni V.Skott va V.Gyugoga qiyoslashar edi.

Yozuvchiga umumjahon miqyosida shuhrat keltirgan asarlari - uning ertaklari bo'ldi. U 1835 yildan ertaklar yoza boshladi. Adabiy ertaklardan ko'ra xalq ertaklariga yaqin turuvchi bu asarlar xalq orasida mashhur bo'ldi. 1835-1841 yillarda Andersenning «Bolalarga atalgan ertaklar» to'plami bosilib chiqarildi. Bu to'plamdan «Chaqmoqtosh», «Kichkina Klyaus va katta Klyaus», «Yo'ldosh», «Yovvoyi oqqushlar», «Cho'chqaboqar» kabi ertaklar o'rin oldi. Bu ertaklar xalq ertaklari asosida yozilgan. Ushbu to'plamga boshqa xalqlar asarlari asosida yozilgan asarlar ham keltirilgan. Qirmizi bo'ta Elpfi» (Italiya qo'shig'i asosida), «Uchar sandiq» («1001 kecha») kabi ertaklar ham kiritilgan. Shunigdek bu to'plamga Andersenning o'zi to'qigan «Kichkina Idaning gullari», «Dyumovochka», «Suv parisi», «Baxt kovushlari», «Jannat bog'i», «Ole Lukoye» ertaklari ham kiritilgan. Andersenning ertaklari o'quvchilar va adabiyot tanqidchilarining eotiborini o'ziga tortadi. Bolalarga atalgan bu ertaklar o'ziga xos edi. Andersen bolalarga o'z tengiga murojaat qilgandey qaror, pand-nasihahat qilmas edi. Bu ertaklarda yaxshilik faol kurashadi, inson tabiatidagi haqiqat, chin sifatlar namoyon bo'ladi.

Andesenning eng go'zal, yorqin ertaklaridan biri «Suv parisi» ertagidir. Suv parisining insonga javobsiz sevgisi haqida yozuvchi ilgari ham, yozgan edi. («Samse orolidan kelgan suv parisi»)

Bu ertakda Andesen insonning go'zal ruhiy olamini nafaqat hayajonli syujet orqali, balki qahramonning ruhiyatini chuqur ochib beruvchi psixologizm orqali tasvirlaydi.

BAYRONNING HAYOTI VA IJODI

ReJA:

16. Bayron tarjimai holi haqida maolumat.

19. Bayron dostonlari.

20. Bayron dramalari.

21. Bayron she'riyati.

Jorj Gordon Noel Bayron 1788 yil 22 yanvarda Londonda tug'ildi. Uning otasi angliya aristokratiyasining kambag'allashib qolgan tabaqasiga, onasi esa shotlandiyalik boy dvoryan oilasiga mansub edi. Jorj Bayron tug'ilgan paytda otalari ajrashib ketadilar. Otasi 1791 yilda Fransiyaga ketib, u yerda vafot etadi. Bayronning bolaligi Shotlandiyada - onasi yonida o'tadi. Jorj tug'ma oqsoq edi. Ammo bu uning mohir suzuvchi, boksyor, chavandoz bo'lishiga halaqit bermadi. Bo'lg'usi shoir dunyoqarashining shakllanishida Shotlandiya tabiatiga bo'lgan chuqur muhabbat alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Bayron o'n yoshga to'lganda unga lordlik unvoni meros sifatida qoldi. Bayron jahon tarixining, Angliya hayotining shiddatli davrida yashadi, ijod qildi. U fransuz burjua revolyusiyasi va xalq xarakatining guvohi bo'ldi. Bu revolyusiyaning maqsadi sanoat to'ntarishiga, Angliya sotsial hayotini o'zgartirishga qaratilgan edi.

Bayron bolaligidan siyosat bilan qiziqdi. U maktabda o'qib yurgan paytlaridanoq notiqlik sanoati bilan tanishdi. Shu bilan birga 1807 yilda o'qigan kitoblari ichida birinchi o'rinni tarixiy asarlar tashkil etar edi. Bayron Volpter, Russo, Lokk, Gibbon asarlarini ham sevib o'qidi.

1807 yilning yozida birinchi sheoriy to'plami «Hordiq soatlari» nashr etildi.

Bayron 1809-1811 yillarda chet el sayohatiga chiqadi. Bu sayohat yosh shoirning hayot voqyeligini keng atroflicha tushinishida katta yordam beradi. U sayohati davomida Napalion intervensiyasiga qarshi qaqshatqich zarba bergan ispan partizanlari harakatining guvohi bo'ldi. U Gretsiyadagi milliy ozodlik qo'zg'olonining guvohi bo'ldi. U hatto Villington qumondonligidagi Britaniya armiyasida Napaleon qo'shinlariga qarshi kurashda qatnashdi. Shu bilan birga Malptada - O'rta dengiz harbiy bazasidagi harakatlarini ko'rib, Buyuk Britaniya reaksion hukumatining tashqi siyosatini qoraladi. Bayron bu davrda turk, yangi grek, alpban va italpyan tillarini hamda xalq og'zaki ijodini o'rgandi. 1816 yilda arman tilini o'rganishga kirishdi.

Bayron sayyohatlarining mevasi sifatida 1812 yilda «Chaylpd Gorolpd» dostonini yaratdi. Bu asar Bayron shuhratini Angliya va uning tashqarisiga yoydi. Bu asarning ilk qo'shiqlarida Bayron sheoriyatining demokratik tendensiyalari ko'zga tashlanadi.

Bayron o'z ona yurtiga qaytganida Angliyada ishchilarning stixiyali norozilik to'liqlari ko'tarilgan, ozodlik harakatlari kuchaygan edi. Ammo reaksiya bu

harakatni ayovsizlik bilan bostirdi. 1799-1800 yillarda ishchilar harakatiga qarshi qonunlar qabul qilinishi natijasida bu harakat 25 yil davomida yashirin holga o'tishga majbur bo'ldi.

Bayron Lordlar palatalarida bir necha marotaba nutq so'zladi. U o'z nutqlarida luddachilik harakati deb nom olgan ishchilar harakatini yoqladi.

Bayronning 1814-1815 yillar davomida «Yahudiy oxanglari» sheoriy to'plami nashr etildi. Ma'lumki Bayron bolaligidan «Injil» ni yaxshi bilgan. Bu sheor turkumida shoir Injil obrazlariga murojaat qiladi.

Bayronning parlamentdagi dadil chiqishlari hamda siyosiy qarashlari uchun reaksion-romantizm vakillari o'ch olish rejasini tuzib qo'ygan edi. Ayniqsa, Bayronning o'z xotini bilan bo'lib o'tgan mojarolarini reaksion guruhlar o'z maqsadlari yo'lida foydalanmoqchi bo'ladilar. Bayronga qarshi har qanday kuchlarni ishga soladilar. Matbuotda Bayron shaoniga mos kelmaydigan turli bo'xton axbortlar tarqatildi. Ammo bunday hurujlar Bayron matonatini buka olmadi. U o'z vatanini tashlab ketishga majbur bo'ladi. 1816 yil 26 aprelda Bayron bir umrga vatanini Angliyani tashlab ketdi.

Bayron 1816 yil yozida Shvetsariyada bo'lishi, uning ruhiy tushkinlik davriga to'g'ri keldi. Bu ruhiy tushkunlik bir tomondan Vatandan ajralish bo'lsa, ikkinchi tomondan oilaviy bo'lib o'tgan ko'ngilsizliklar edi. U bu davr haqida «Mening qalbim qayg'uga tutqin bo'lsa ham, ammo qayg'uning quli emas» deydi. Bayron romantizmidagi qarama-qarshiliklar bevosita shoirning Vatandan judolik, xalq ozodlik harakatidan ajralib qolishi, shaxsiy hayotidagi fojialar bilan bevosita bog'liqdir.

Bayron «Manfred» /1817/ dostonida isyonkor shaxs obrazini aks ettirishni maqsad qilib qo'yadi. Manfred obrazi orqali yaqqalanib qolgan shaxs istiroblari va fojeasini aks ettiradi. Manfred jamiyat aqidalaridan yuqori turuvchi, o'ziga xos qarashlarga ega bo'lgan mag'rur shaxs. U jamiyatning qonunlariga, hayot qonunlariga qarshi shaxs. Mutelik unga yot narsa.

Bayronning «Shilpon tutqini» /1816/ dostoni ham yolg'iz isyonkor shaxs qiyofasini aks ettirishga baishlangan edi. Bu doston Bayronning Shilpon qaloasiga borganidagi taassurotlari asosida yozilgan edi. Shilpon qaloasi Jeneva ko'lida joylashgan bo'lib, bu yerda 1530-1535 yillarda respublikachi, Shvetsariyaning mustaqilligi uchun tolmas kurashchi Fransua Boniver qamoqda saqlangan. U gersog Savatskiy buyrug'i bilan qamoqqa olingan edi.

Bayron 1816 yilning kuzida Italiyaga keldi. Bu yerda Bayron ijodi gullab yashnadi. Bu davrda Italiyada karabanariylar rahbarligidagi xalq ozodlik harakatida avstriya bosqinchilariga qarshi avj olgan edi. U ko'p o'tmay Italiya revolyusion harakatining ishtirokchisiga aylandi. Boloniya, Rim, Venetsiya politsiyasi uni va uning do'stlarini doimo nazorat ostida saqladi. Bayronning tarixiy tragediyasi «Marks Falpero» Neapalda yozildi. Bu yerda 1820 yilning revolyusiya g'alabaga kilgan edi.

1821 yilda yozilgan «Kain» dramasida ham shoir «Injil» mavzusiga murojaat qildi. Drama mifologik obrazlarni aks etgan bo'lsa-da: unda oddiy inson, uning hayotiy kechinmalari, huquqlari haqida fikr yuritiladi.

Bayron «Don Juan» sheoriy romani ustida bir necha yil davomida, Italiyada yashayotgan 1819-1824 yillar davomida ishladi. Bayron ijodining yuksak cho'qqisi

bo'lgan «Don Juan» romani yevropa ijtimoiy hayotining satirik ensklopediyasi bo'lib xizmat qildi. Asar yakunlanmagan.

Bayron 1924 yilda Italiyada vafot etdi

Bayronning ijodiy faoliyati isyonkorlik ruhi bilan to'ladir. Utabiatning extirosli kuychisi emas, inson shaxsiy kechinmalarini katta sheoriy qudrat bilan ocha olgan ijodkordir.

Bayronning isyonkor, o'z mohiti bilan to'lg'in ijtimoiy-siyosiy sheoriyati ingliz jamiyatining reaksion doiralari qarshi qaratilgan edi. Butun reaksion matbuot Bayronga qarshi ig'volar yog'dirdi.

O'liklar sharpasi bo'ronlar oshib,

Qulog'imga huddi nidoday kelar.

Qahramonlar ruhi yurar adashib,

Ona yurt ko'ksiga shamolday yelar.

Bayron Angliyada inqilobiy ko'tarilishini orziqib kutdi, u agar inqilob bo'lsa, kurashda shaxsan ishtirok etish uchun vataniyaga qaytajagini ko'p marta aytgan edi. U umrini oxirigacha sobit kurashchi sifatida ijod qildi. Uni doimo ozodlik uchun kurash maydonlari o'ziga tortdi. 1823 yilning iyunida Bayron «Gerkules» kemasini o'z mablag'i hisobiga qurollantirdi. U Gretsiya milliy-ozodlik kurashining ilhomchilaridan biriga aylandi. Grek qo'zg'alonchilarini bilashtirishda fidokorona ishlar olib bordi. Zamondoshlari uning harbiy qo'mondon sifatidagi yuksak iqtidori haqida ham so'zlaydilar.

Bayronning eng yaxshi asarlari bugun ham katta kuchga egadir. V.Belinskiy taobiri bilan aytganda, XIX asr Promiteynning ijodiyoti ozodlik va haqiqat jarchisi sifatida butun insoniyat uchun qadrlidir.

Bayron muhabbat mavzusiga bag'ishlangan sheorlarida ham davrning muhim siyosiy, ijtimoiy – falsafiy fikrlari o'z aksini topadi:

Yo'qol, ey, jimjimador adabiy inja so'zlar,

Tarqal yolg'onu yashiq, g'iybatlarning to'dasi.

Nurin sochib maftunkor nafisu shahlo ko'zlar,

Sarxush etadi meni sevgining ilk bo'sasi.

Hayol tasavvurga asir qofiyabozlar,

yetar chuchmal tuyg'ular va ohanglar chashmasi.

Sovuq sonetlaringiz – bachkana ehtirolar,

Sizga tanishmas jonbaxsh sevgining ilk bo'sasi.

«Sevgining ilk bo'sasi» sheoridan olingan ushbu parchada lirik qahramon jamiyatning illatlarini tanqid ostiga oladi. Bachkana extirolardan holi bo'lgan porloq tuyg'ular jarchisiga aylanadi. Yoki «Bosh suyakdan qilingan kosadagi yozuv» sheoridagi ushbu satrlar inson umrining o'tkinchiligi haqidagi falsafiy fikrlarni ifodalashga intiladi:

Qo'rqma: men oddiy suyakman, xolos,

So'ngan qalbimni eslab, qilma xumori.

Endi bu kosadan chiqolmas paqqos

U tirik boshlarning shum kirdikori.

Men senday yashadim, sevdim va ichdim,
Endi-chi, jonsizman, to'ldirib may quy!
Mastlik jinniliging ranjitmas, kechdim,
Qurtlar chaynagandan shu menga maouqul.

Xullas, Bayron sheoriyati mavzu jihatdan g'oyat rang-barang. Unda mavjud tartiblarga qarshi isyonkorlik ruhi kuchli bo'lib, davrning shiddatkor voqyeligining o'zida mujassamlashtiradi.

Glossary

Parodiya	Parody	(yun. parodia - teskari qilib ko'yilash) - 1) biron-bir asar, ijodkor, ijodiy uslub, janr kabilar ustidan kulib yoziladigan asar.
parsel	Parcellation	(fr. parcelle - uzv, bo'lak) - nutq ifodaviylikni oshirish usullaridan biri, melodika bilan bog'liq nutq figurasi.
Pauza	Pause	(yun. pausis - to'xtam) - nutqning bir tekis oqimidagi uzilish, to'xtam.
Pafos	Pathos	(yun. pathos - his, ehtiros) - ijodkorning o'zi tasvirlayotgan vokelikka g'oyaviy-hissiy munosabati, avtor emotsionalligi.
Peyzaj	Scenery	(fr. paysage - joy, yurt) - adabiy asarda yaratiluvchi badiiy vokelikning muhim komponenti.
Peripetiya	Upheaval	(yun. penpeteia - kutilmagan burilish) - syujet-shunoslik kategoriyalaridan biri, vokea rivoji va qahramon takdiridagi kutilmagan keskin burilish.
Personaj	Character	(lot. persona - shaxe, teatr maskasi) - badiiy ada-biyotdagi inson obrazi.

Nazorat savollari:

1. «Chayld Garold» dostonida qanday anoanalar ko'zga tashlanadi?
2. «Yahudiy ohanglari»da shoir qanday obrazlarga murojaat qiladi?
3. Bayron o'zining «Manfred» dostonida qanday lirik qahramonni yaratdi?
4. Shoir sheoriyatining ideal qahramonlari qanday shaxslar?

Test topshiriqlari:

1. Fransuz inqilobi Yevropa va jaxon adabiyotidagi kuchli oqim, vujudga kelishiga zamin hozirladi. Bu qaysi oqim

- A. Romantizm oqimi
- B. Barakko oqimi
- S. Marifatchilik oqimi
- D. Klassizm oqimi

2. Biz romantizmni Yevropa va Amerika adabiyotida nechinchi yillar oxiri va boshida tarqalgan yirik oqimlardan biri deb bilamiz.

- A. 17 asr oxiri 18 asr 1 yarmida
 B. 16 asr oxiri 17 asr 1 yarmida
 S. 18 asr oxiri 19 asr 1 yarmida
 D. 19 asr oxiri 20 asr 1 yarmida
3. Romantizm adabiy yo`nalish sifatida nechinchi asr oxiriga kelib bir necha mamlakatlarda paydo bo`la boshladi.
 A. XVII asr oxirida
 B. XVI asr oxirida
 S. XV asr oxirida
 D. XVIII asr oxirida
4. Germaniyada ilk romantizm yen romantiklari kimlarning nomlari bilan bog`liq.
 A. Novas, Aka- uka Shlegelar
 B. Shotobrion, Novalis
 S. Aka – uka Shlegelar, Shotobrion
 D. SHotobrion, Stalp
5. Angliyada (1822) va (1824) yillarda kimlarning hayotdan ko`z yumishi romantizmning ikkinchi o`ringa tushib qolishiga sabab bo`ldi.
 A. Shelli (1822) va Bayron (1824)
 B. Bayron (1824) va Gyugo (1822)
 S. Gofman (1824) va Gyugo (1822)
 D. Shelli (1822) va Gofman (1824)

Adabiyotlar:

17. Q. Azizov, O. Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi.
 22. A. Anikst. Istoriya angliyskoy lit-ri, M., 1956
 23. M. yelizarova i dr. Istoriya zarubejnoj lit-rq XIX veka, M., 1972.
 24. Dhyakonova N. Ya. Liricheskaya poeziya Bayrona. M., 1975.
 25. Jirmunskiy V.M. Bayron i Pushkin, M., 1978.
 26. Vinogradov A. «Bayron». M., 1985.
 27. Bayron. Saylanma, sheorlar, dostonlar, T., 1974

17-mavzu: Realizm va tanqidiy realizm adabiyoti

ReJA:

1. Adabiyotda realizm tushunchasi.
2. Fredik Stendal ijodi.
3. Onore de Balzak ijodi.
4. Angliyada tanqidiy realizm. Charzl Dikkens ijodi.
5. Uilyam Tekkerey ijodi.

Borliqni, inson va uni o'rab turgan dunyoni xarakterli tomonlarini aks ettiruvchi uslub sifatida realizmni ilk bor toshlarga solingan suratlarda, antik davr asarlarida uchratishimiz mumkin. Biz uyg'onish davri, ma'rifatparvarlik davri realizmining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida gapirishimiz mumkin. Ammo burjua aloqalari asosida yetilgan adabiy oqim sifatida XIX asrning 30-40 yillarida shakllanadi. (Bu vaqtga kelib burjua sinfi va ishchilar orasida ziddiyat kelib chiqdi. Shu ziddiyat negizida esa adabiyotga olamni tanqidiy realistik aks ettirish tamoyili paydo bo'ldi).

XIX asr realizmini unga xos bo'lgan tadqiqotga moyilligini (analitizm) hisobga olib «tanqidiy» yoki «klassik» deb ataydilar. Chunki realizmga xos bo'lgan xususiyatlar XIX asarda shakllandi.

(Tanqidiy realizm romantizm va realizmning uyg'unligidan pado bo'lgan).

M.B.Xronchenkoning fikricha realizm shaxs va jamiyatning doimiy xarakterida, dinamik aloqalarda aks ettiradi. Buning uchun badiiy tasvirning turli formalaridan foydalaniladi.

Roman faqat o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lgan holda, boshqa adabiy sistemalar «kashfiyotlaridan» foydalanadi, ularni to'ldiradi. Masalan, asr boshlarida romantizmga xos bo'lgan tipiklashtirishning bir qancha hususiyatlarini qabul qilsa, asr oxirida naturalizm va simbolizm yutuqlaridan foydalanadi.

«Realizm» termin paydo bo'lishiga Shanflyori va Dyuranti boshchiligidagi bir guruh fransuz yozuvchilari sababchi bo'ldilar. Ular 50-yillarda ushbu termin bilan haqqoniy avtor munosabatisiz, borliqni aks ettirilishini atadilar.

Realistik sanoat o'z tadqiqotlarida fan kashfiyotlariga, avvalombor, jamiyat rivoji haqidagi fanlarga tayanadi. (20-30 yillarda Angliya va Fransiyada tarix fanining rivoji. Buyuk ingliz iqtisodchisi Adom Smitning Tannarx, jamiyatining sinfiy sutrukturasi haqidagi tadqiqotlari va boshq.)

Realist dunyoqarashining shakllanishida dunyoviy bilimlarda erishilgan kashfiyotlar ham katta rol o'ynaydi.

(XVIII asr o'rtalarida K.Linniy o'simliklari va hayvonot dunyosining birinchi klassifikatsiyasini tuzdi. J.Byufonning barcha jonzoatlarning birligi va uning turlarining muhit almashuviga qarab o'zgarishi haqidagi fikri. J.Kyuve XIX asr boshlarida tirik organizm organlari orasidagi aloqa va ularning bir-biriga ta'siri haqidagi fikri va boshq.) Balzak ham «Insoniyat komediyasi»ni so'zboshisida Kyuve va Sent - Ilerlarning tilga olib o'tadi.

Realizmining umumiy qonuniyatini ishlab chiqqan, milliy hususiyatlarini shakllantirgan yozuvchilar sarasiga Fransiyada F.Stendal, O.Balzak, P.Merime, G.Flober, Sh.Bodler, P.J.Beranje;

Angliyada – Ch.Dikkens, Utekkeriy, E.Gaskell, Sh.Bronte, J.Eliot, Amerikada esa realistik sanoatning muhim bir davri deb U.Uitmen, G.Bicher–Stou ijodi, romantizm ko'proq saqlanib turgan Germaniyada esa Geyne va Fontane ijodining so'nggi davrlari kiradi.

Fransuz realizmining shakllanishi mamlakatdagi muhim siyosiy voqyealar bilan bog'liq. Ayniqsa 1830 y. iyul inqilobi katta ahamiyatga ega.

1831-34 yillar ionlar qo'zg'aloni. Lui Filipp monarxiyasi krizis holatga keladi.

Revalyusiyadan so'ng 1830-31 yillarda matbuotning roli oshdi. Gazetalarda professional jurnalistlardan tortib student, etikdo'zgacha o'z maqollariri bilan qatnashadilar.

Fransuz adabiyotida realizmning hukmronlik davrini ikki bosqichga bo'lishi mumkin: 1) Realizmning paydo bo'lishi va tan olinishi (20-yillarning oxiri va 40-yillar) Beranje, Merimi, Stendal, Balzak.

2) 50-70 yillar. G.Flober nomi bilan bog'liq (1848 yildan keyingi adabiyot)

Realizmning metod-sifatida paydo bo'lishi 20-yillarning oxiriga, asosiy rolni romantiklar o'ynagan davrga to'g'ri keladi. 1830yil revalyusiyasidan so'ng ularni ijodiy yo'llari turlicha bo'lgan.

Realizmning gullab-yashnagan davri 30-40 yillarga to'g'ri keladi. Bu esa Stendal, Balzak, Merime kabi realist yozuvchilar ijodlari bilan bog'liq. O.Balzak «Inson komediyasi»da. «Fransuz jamiyati o'ziga-o'zi tarixchidir. Men esa uning tarixini tasvirovchi oddiy kotibman» deydi.

FRIDRIK STENDAL.

(1783-1842)

Yuzlab taxalluslarga ega bo'lgan fransuz yozuvchisining bitta taxallusi asosiy bo'lib qoldi. – Fredrik Stendal (Stendal – XVIII asrdagi mashhur san'atshunos Vinkelman tug'ilgan Germaniyadagi shahar).

Stendal Grenobl shahridagi advokat oilasida tug'ildi. Onasidan erta ajraydi. 1800 yili 17 yoshli Stendal Napoleon armiyasi safiga kiradi va bir qancha harbiy yurishlarda ishtirok etadi.

Napoleon qulashi va Burbonlar taxtga qaytgandan so'ng Stendal Italiyaga ketdi. Italiyani sevgan adib zo'r qiziqish bilan italyan sanoatini o'rganadi. Italiya uning «Italiya tasviriy sanoati tasviri tarixi», «Rim. Florensiya. Neopol», «Rim bo'ylab sayohat» singari sanoat tarixi bo'yicha ishlarini, bir qancha novellalarni va «Parma ibodatxonasi» romanini yaratilishiga asosiy sabab bo'lgan mamlakat. Stendalning bu mamlakatga muhabbati boshqacha bo'lgan.

Stendal hayotlik davrida katta shuhrat qozonmaydi. U ko'pincha, «Meni yoki XIX asr oxirida, (80-yillar) yoki XX asrning 30-yillari o'qishi mumkin» deb aytadi.

Stendal san'atda haqqoniylikni yoqlab chiqadi. U «Rasin va Shekspir» risolasi (1825) – yozuvchining badiiy dasturiga aylanadi. Bunda ikki buyuk tragik shoir ijodi batafsil tahlil qilinadi. San'atkor jamiyatni o'z ortidan ergashtira olsagina, o'z vazifasini uddalagan bo'ladi, deydi Stendal.

«Rasin va Shekspir» o'z ma'nosiga ko'ra realizm manifesti hisoblansa ham Stendal o'zini romantik deb tan oladi. «Romantizm san'atning barcha turlarida – bu qahramonlik davrlari odamlarini (bizdan yiroq bo'lgan va balki butunlay bo'lmagan) tasvirlash emas, balki zamonamiz kishilarini tasvirlashdir» - deyiladi risolada.

San'at haqqoniy bo'lishi kerak. U romanni («Qizil va qora») katta yo'l bo'ylab olib boriluvchi oynaga o'xshatadi.

Stendalning ilk asarlaridan biri «Armans» (1827) romanidir. Bu asar rus qizi Armans Zoilovaga va Oktava de Maliverlarning dramatik sevgisi haqida.

Yozuvchi 20-yillari «Vanina Vanini» novellasini yozadi. Bunda italyan karbonariylarining inqilobiy harakatlari tarixidan bir epizod berilgan. Asar qahramoni – yosh karbonar Petro Missirilli U mahfiy tashkilotning rahbari Bir kuni politsiya ta'qibidan qochib zadogon qiz Vanina Vanini xonadoniga yashirinadi. Ikki yosh bir-birini sevib qoladi. Qiz yigitni inqilob ishidan ajratish va uni tamomila o'ziga qaratib olish maqsadida mahfiy tashkilot aozolari nomlarini politsiyaga maolom qiladi. Buni bilgan Ppetro qizni laonatlaydi shaxsiy baxtini xalq ozodligidan ustun qo'ymaydi.

1830-yil «Qizil va qora» romani paydo bo'ldi. Romandagi qizil sifati «erkinlik», «respublika» tushunchalarini anglatga, «qora» reaksion kuchlarni anglatadi.

Roman syujeti 1827 yil gazetada bosilgan sud xronikasidan olingan. Antuan Berto ismli yigit o'zi o'qituvchilik qilgan xonadon bekasi Mishu xonimga suiqast qilgan va buning uchun o'lim jazosiga xukm etilgan.

Romandagi qahramon biografiyasi zinasimon harakat sifatida tasvirlangan. Qahramon tarixi uning otasi – kambag'al duradgor xonadonidan boshlanadi. Bilimli va iqtidorli Sorelni jismoniy mehnatga unchalik uquvi yo'q. Shuning uchun unga otasi va akalari tekinxo'r sifatida qarashadi Keyingi bosqich- Verper shahri meri janob de Renal xonimga muhabbati bu xonadonni tark etishga majbur qiladi.

Keyingi qadam –Bezanson seminariyasi. Sxolostik bilim berish usuli, har qadamda talabalarni ta'qib ostiga olish, ular ketidan josuslik qilish kabi seminariya tartiblari qahramonni qanoatlantirmaydi.

Va nihoyat, Jyulpen Parijda yirik zodagon markaz de Iya Molp saroyiga kotib va bibliotekari bo'lib ishga kiradi. Qobiliyatli yigit tez orada ko'zga tashlanib qoladi. Markiz qizi uni sevib qoladi. Ammo qiz otasi yigitni avvalgi ish joyidan xarakteristika so'raydi. Renal xonim katolik ruhoniysining tazyiqi ostida Sorelga salbiy xarakteristika yozadi. Sorel Renal xonimga o'q uzadi. Keyin qamoq va o'lim jazosi.

Stendal vafotidan ancha keyin – 1850 yillardan boshlab uning asarlari qayta nashr etila boshlandi. Keyinchalik realist yozuvchilar Stendalni o'zlarining yo'l boshchilari deb tan oldilar. Simvolistlar esa Stendal romanlarini yod oldilar. Ular yozuvchi asarlaridagi psixologik tahlilni qadrlar edilar.

ONORE De BALZAK.

(1799 – 1850)

Balzak Tur shahrida tug'ilgan. Ota – onasi hohishiga ko'ra huquq fakultetini tugatadi. U o'z otasidan yozuvchi bo'lishga qiziqishi orzu emasligini isbotlash uchun 2 yillik muhlat so'raydi. Birinchi she'riy tragediyasi «Kromvel» muvaffaqiyatsiz chiqadi.

Shaxsiy hayotda ham omadi chopmaydi. Polyak grafinyasi rus fuqarosi Evelina Ganskaya bilan bo'ladigan nikohni uzoq vaqt kutadi va hayotining so'nggi yili bunga erishadi.

Uning asarlarini noshirlar jon deb nashr qilishar va bundan katta foyda olar edilar. Muallif esa hayotining oxirigacha qutula olmadi.

Yozuvchi sifatida Balzak nomini tanitgan asar – «Shuanlar» romani (1829) hisoblanadi. Shundan so'ng «Gobsek», «Sag'ri teri tilsimi», «Polkovnik Shaber», «evgeniya Grande», «Gorio ota» va boshqa asarlari bosilib chiqdi.

Birinchi qism B rejasiga ko'ra 6 ta bo'limdan («Provinsiya hayoti sahnalari», «Siyosiy hayot sahnalari», «Parij hayoti sahnalari», «Qishloq hayoti sahnalari», «Shaxsiy hayot sahnalari», «Gorio ota», «Gobsek», «Polkovnik Shober» va boshqalar.) 111 asardan iborat bo'lishi kerak edi – aslida 72 tasi yozildi.

Ikkinchi qism (bo'limlarga bo'linmaydi) 27 roman bo'lishi kerak, edi – 22tasi yozildi.

Uchinchi qism – 5ta – aslida 2ta («Nikoh fiziologiyasi», «Oilaviy hayot noxushliklari») yozildi. Barchasi bo'lib rejadagi 143 tadan 96 tasi yozilgan. Balzak o'z asarlarida restavratsiya davridagi 1815 dan to 1848 yilgacha bo'lgan voqyealarni o'z ichiga oladi.

«Inson komediyasi»da 2 mingdan ortiq personaj qatnashadi. Agar fransuz jamiyati tarixchi bo'lsa, Balzak o'zini uning kotibi deb atadi.

Uning asarlarida boylik, pul kishi xarakterini, psixologiyasini o'zgartiruvchi, izdan chiqaruvchi salbiy kuch sifatida ko'rsatiladi.

«Gobsek»

Gobsek hikoyasining qahramoni hayotida puling qancha ko'p bo'lsa, sen shuncha qudratli bo'lasan degan falsafani o'zlashtirib olib, yoshligidan oltin, pul to'playdi. Gobsek sudxo'r. Pul jamiyat hayotining asosiy kuchi bo'lgan davrda u ishbilarmon, ministr, yozuvchi, artistlarni o'z qo'liga qaram qilib olgan.

Ana shu odamlar hayoti, taqdiri uning qo'lida, u o'z shartlarini qo'yadi.

Uning qarindosh-urug'lari ham, do'stlari ham yo'q. Juda xarob kiyinadi va eski uyda yashaydi.

Tilladan boshqa narsani tan olmaydigan bu chol : «Bordi-yu mendan qirol qarz bo'lganda va qarzini muddatida to'lolmaganda, men uni boshqa qarzdorlardan oldinroq sudga berardim» - deydi.

INGLIZ TANQIDIY ReALIZMI.

1830-40 y. ingliz adabiyoti

Angliyada tanqid.realizmni gullab-yashnagan davri XIX asr 30-40y. to'g'ri kelgan. (18 asrda sanoat inqilobi yuz berdi va bu hol Angliyada kapitalizmning rivojlanishiga turtki bo'ldi). Bu davrda zabardast realist yozuvchilar (Dikkens, Tekkerey, Bronte, Gastel va chartist shoirlari Jons va Lintonlar) ijod qiladi. Bu yillarda paydo bo'lgan va qudratli kuchga aylangan ishchilar g'alayoni chartistlar harakati nomini oldi. Bu ingliz va AQSh yozuvchilari ijodiga ta'sir etmay qolmaydi. Chartistlar ishchilar hayotining, ayollar mehnatkashining ayanchli tomonlarini ko'rsatadilar, halqning muhtojligini, mamlakatda islohat o'tkazish zarurligini talab qiladilar

Eng isteododli shoir va harakat vakili Charlz Jons (1819-1869)

Ch. Dikkensning «Dombi va o'g'li», Tekkereyning «Shuhratparastlik bozori», Sh.Brontening «Jeyn Eyr», E.Gakkellning «Meri Barton» kabi romanlari ana shu davr adabiyotining eng sara asarlaridan hisoblanadi.

ChARLZ DIKKeNS.

(1812-1870)

Angliya janubida dengiz xizmatchisi oilasida tug'ildi. Juda qiyinchilikda katta bo'ladi, yaxshi bilim ola olmaydi. (Otasi qarzdorligi tufayli qamaladi. 10 YoShIDAN FABRIKAGA KIRIB ISHLASHGA MAJBUR BO'LGAN). O'zining mashaqqatga to'la yoshligini keyinchalik yozgan «David Kopperfilpd» va «Mitti Dorrit» romanlarida hikoya qilib bergan.

Dickens dunyoqarashi va estetik qarashlari 30-yillarda shakllandi. Chartislar harakati (1835 yilda tashqil etilgan ishchilar siyosiy tashkiloti) tarafdori bo'lmasada, uning ijodida ishchi sinfi va ezilgan xalq holatiga achinish kayfiyatini kuzatish mumkin. (U tarbiyaga katta ahamiyat beradi. Tarbiya vositasida jamiyatni qayta jonlantirish mumkin deb hisoblaydi).

Dickens jahon adabiyotiga yumor va satiraning ajoyib ustasi sifatida kirgan. (Bular orqali u chirik burjua jamiyatini fosh qilmoqchi bo'ladi. Ba'zan yumor mana shunday ta'sir qiladi. Jiddiy tanqiddan ko'ra kulgi orqali tanqid ko'proq maqsadiga yetadigan o'rinlar bor).

Uning ijodini 4 ta davrga bo'lish mumkin.

- 4) 1883-41 – asosan yumoristik asarlarini yaratdi. «Boz ocherklari» «Pikkvik» klubining so'nggi maktublari», «Oliver Tvist».
- 5) «Dombi va o'g'li», Martin Chezlvit»
- 6) 1849-59 – hajviy asarlar yaratdi. «Devid Kopperfild», «Sovuq uy», «Mudhish zamonlar», «Mitti Dorrit»
- 7) 1860-70 Dickens qarashlarida umidsizlik kayfiyati ustunlik qilgan. «Ikki shahar haqida qissa», Katta umidlar», «Bizning umumiy do'stimiz»

Birinchi asari. 1836 yil. «Boz ocherklari» hikoya va ocherklar repartyor bo'lib ishlagan davridagi asarlari jamlangan. Ocherklarda London va uning ahaolisi hayotining turli tomonlarini ochib beradi.

1836-37 y. birinchi romani «Pikvin klubining maktublari»ni yaratadi. Asar juda mashhur bo'lib ketadi.

40-yillar ijodining eng yaxshi asari «Dombi va o'g'li» (1848). Asar markazida yirik kapitalist savdogar Dombi turadi. U o'z korxonasining boyishi, rivojlanishidan bo'lak hych narsani tan olmaydi. O'g'li tug'ilganda farzand ko'rgani uchun emas, balki korxonani davom ettiruvchi merosxo'r tug'ilgani uchun quvonadi. O'g'li 6 yoshda vafot etadi. Birinchi xotini o'lgach, Edit ismli ayolga uylanadi. Dombining odamlar bilan aloqasi savdo-sotiq munosabatlarini eslatadi. (O'ziga xotin sotib oladi. Editga uyni bezab turuvchi buyum sifatida qaraydi). Edit ish boshqaruvchi Karker bilan korxonani pullarini o'g'irlab qochadi. Bundan so'ng qizi Florensini ham uyidan haydab chiqaradi. Qiz kambag'al yigit Uolterga turmushga chiqadi. Bularning barchasi Dombi oilasining inqirozga yuz tutishiga olib keladi.

Asar oxirida Dombi o'zgarib, kuyovi, qizi bilan gaplashadigan, nabirasi Polni sevuvchi kishi sifatida tasvirlangan.

Uilyam TeKkerEy.

(1811-1863)

Angliyada tanqidiy realizmning yirik vakillaridan biri. Hindistonning Kalkutta shahrida tug'ilgan. 6 yoshida onasi o'limidan so'ng Angliyaga qaytadi. Bu yerda u bilim oladi. 2 yil Kembridj universitetida ta'lim oladi.

Adabiy faoliyatini 1840 yili jurnalist sifatida boshlagan. Uni o'tkir ocherk, parodiya va karikaturalari «Panch» hajviy jurnalida bosiladi.

U ko'plab xajviy hikoyalar, qissalar va bir necha romanlar yozgan. («Snoblar kitobi») (1847)» Shuhratparastlik g'ulg'ulasi» (1848) «Pendonis» (1850), «Npyukomler» (1855) va boshqalar.

Tekkerey ijodida satira va ijtimoiy asosiy o'rinni egallaydi. Bu borada u Dikensdan bir oz farq qiladi. Dikens ijodkorning vazifasi ijtimoiy hayotning faqatgina salbiy tomonlarini ochib tashlashdan iborat bo'lib qolmasligi kerak, u o'quvchiga o'shu illatlar bilan qanday kurash yo'llarini ko'rsatib berish kerak deb hisoblaydi. Tekkerey uchun muhimi – hych qanday pardozlarsiz hayotiy haqiqatni ochib tashlash. Uning realistik estetikasini asosini «Haqiqat har doim ham yoqimli bo'lavermaydi, lekin haqiqat barcha narsadan afzal», insonni tabiiy holda tasvirlamoq kerak» kabi tezislar tashkil etadi. Ular uning eng yaxshi asarlari uchun asos bo'ladi. (Navoiy: Xiradmand chin so'zdin o'zgani demas, Valekin har chin ham degulik emas.)« Shuhratparastlik g'ulg'ulasi» romanida Angliyaning XIX asr 1 yarmidagi hayoti keng tasvirlanadi. Asardagi voqeyalar Angliya poytaxtida, London atroflaridan Belgiya, Fransiya, Germaniya, Italiya davlatlariga ham ko'chadi. Qahramonlar esa turli tabaqa vakillari (Aristokratlar, parlament a'zolari, chinovniklar, harbiylar, o'qituvchilar va boshqalar). Ular «g'ulg'ula» (yarmarka) qonunlari asosida yashadi. Bunda inson qiymati kapitalining miqdori bilan o'lchanadi. Bu muhitda yozuvchi asarda asosiy o'rinni egalovchi bosh qahramon topishga qiynaladi. Asarga «qahramonsiz roman» sarlavhasi qo'yilgan.

Tekkerey asarining bunday nomlanishiga XVII asr Angliya yozuvchisi Jon Benyanning «Ziyoratchining yo'li» (1678) asari sabab bo'ldi. Allegorik - falsafiy bu asarida bir sayyohning Shuhratparastlik (London) shahriga kelishi hikoya qilinadi. Payshanba kunlari bu shaharda barcha-barcha (uy, yer, mansab, mamlakatlar, bola-chaqa, ota-ona, hayot, oltin...) narsalar sotiluvchi yarmaka bo'ladi.

Tekkerey zamonaviy Angliyani ham shunday yarmarkaga o'xshatadi. Asarga qo'g'irchoq obrazi ham kiritilgan.

Glossary

Plagiat	Plagiarism	(lot. plagio - o'g'irlamok) - adabiy o'g'irlik, o'zga ijodkorning asarini o'zlashtirib, o'zining nomidan (yoki taxallus osti da) e'lon qilish.
Pleonazm	Pleonasm	(yun. pleonasmos - ortikchalik) - ko'pso'zlilik, nafakat muayyan mazmunni to'lik ifodalash uchun, balki uslubiy jihatdan ham ortikcha so'z qo'llash.
Polifoniya	Polyphony	(yun. polys - ko'p. phone - ovoz) - musiqashunoslikdan o'zlashgan termin, M.Baxtinning «Dostoevskiy ijodi mu ammolari» (1929) asarida ilk bor adabiyotga tatbiqan ishlatilgan

Portret

Portrait

(fr. peindre - tasvirlamoq) - 1) personajning soʻz vositasida tasvirlangan tashqi koʻrinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi yuz-koʻz ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari). oʻkuvchi tasavvurida jonlanadigan toʻlaqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri.

Postmodernizm

Postmodernism

(fr. postmodernisme - modernizmdan keyingi) - oʻtgan asrning ikkinchi yarmidan adabiyot va sanʼatda, umuman, ijtimoiy-gumanitar sohalarida koʻzatila boshlagan oqim, ijodiy metod

Poststrukturalizm

Poststructuralism

(fr. poststructuralisme - strukturalizmdan keyingi) - ijtimoiy-gumanitar bilim sohalarida oʻtgan asrning 70-yillaridan boshlab shakllangan ilmiy yondashuvlarning umumiy nomi.

Test topshiriqlari

1. Fransuz adabiyotida realizmning hukmronlik davrini ikki bosqichga boʻlish mumkin bular qaysilar.

A. 1. Realizmning paydo boʻlishi va tan olinishi (20- yillar oxiri va 40- yillar boshi) 2. 50-70 yillar G. Flober nomi bilan

bogʻliq (1848 yillardan keyingi adabiyot)

B. 1. Realizmning tan olinish davri (20-30 yillar)

2. Realizmning paydo boʻlish davri (20-40 yillar)

S. G. Flober nomi bilan bogʻliq davr

D. Realizmning paydo boʻlishi va Flober nomi bilan bogʻliq

2. Realizmning gullab yashnagan davri nechinchi yillarga toʻgʻri keladi.

A. 20-40 yillarga

B. 20-30 yillarga

S. 30-40 yillarga

D. 20-30 yillarga

3. Realizm gullab yashnagan davrda qaysi realist yozuvchilar ijodlari bilan bogʻliq boʻlgan.

A. Stendal, Balzak, Frederik

B. Stendal, Balzak, Merime

S. Stendal, Merime, Frederik

D. Bolzak, Frederik, Merime

4. XIX asr realizmini unga xos boʻlgan tadqiqotga moyilligini (analitizm) hisobga olib qanday nom bilan ataydilar.

A. <<Tanqidiy>> va <<Analitizm>>

B. <<Analitizm>> va <<Klassik>>

S. <<Tanqidiy>> va <<Klassik>>

D. <<Klassik>> va <<Realizm>>

5. Realizmga xos bo'lgan xususiyatlar nechinchi asrda shakillanadi.

A. XIX asrda

B. XVIII asrda

S. XVII asrda

D. XV asrda

Adabiyotlar:

1. Azizov Q. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. T., O'qituvchi, 1982.
2. Istoriya fransuskiy lit-rq. M., 1951. T.2
3. Balzak Onore de. Gobsek, Sag'ri teri tilsimi. T., Adab va san'at. 1981.
4. Balzak Onore. Gorio ota. T. Badiiy adab. nashr. 1968.
5. Stendal. Qizil va qora. 1830 yil xronikasi – T., Adab va san'at nashriyoti, 1979.
6. Stendal. Parma ibodatxonasi. – T. Meditsina, 1990.

18-mavzu: XIX asr oxiri va XX asr jahon adabiyoti

Reja:

1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida jahon adabiyoti

- a) Fransiya
- b) Germaniya
- c) Rossiya

2. Demokratik adabiyot

Adabiy jarayonga eng tez ta'sir qiluvchi bu jamiyatdagi siyosiy holatdir. Aynan yangi adabiyotlarning yaratilishi jamiyatdagi muhitga bog'liq bo'lib qoladi. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Yevropa mamlakatlarining madaniy hayotida realistik oqim bilan dekadentlik oqim o'rtasida kurash avj oldi. Xalq dekadentlik ruhida yozilgan asarlarni qabul qilmadi. Natijada turmushni aniq ifodalaydigan asarlarga ehtiyoj ortdi. Realistik yozuvchilar atrofdagi voqelikni daddil va haqqoniy aks ettirishga intildilar. Shuning uchun bu davr realizm yoki tanqidiy realizm nomini oldi. Bu davrda rus adabiyoti namoyondalari F. M. Dostoyevskiy, L.N. Tolstoy, A. P. Chexov chet ellardagi zamondoshlariga realistic oqimning yangi imkoniyatlarini ochib berdi. Gi de Mopassan, Emil Zoiya, Annatol Frans, Romen Rollan, Genrix Mann, Jon golsuorsi, Bernard Shou, Mark Tven, Teodor Drayzer, Rabindranat Tagor, Lu Sin va boshqalar tanqidiy realizmning eng yirik namoyondalari edilar.

Gi de Mopassan (1850-1893) o'zining "Hayot", "Azizim", "Mont oriol" va boshqa asarlari bilan fransuz badiiy dunyosida qator ijtimoiy masalalarni mahorat bilan tasvirlagan tengsiz ijodkordir.

Belgiyalik mashhur shoir Emil Verxarn (1855-1916) "Halokat", "Qora mashala", "Oqshom" kabi asarlarida qishloq va shaharlarda xalq hayoti, iztirobi, kechinmalarini ustalik bilan qalamga oladi. Germaniyalik Gerxart Gauptman (1862-1946) "Tong", "To'quvchilar" pyesalari, angliyalik Gerbert Uells "Vaqt mashinasi", "Ko'rinmas odam" nomli fantastik asarlari bilan mashhur bo'ldi. J. londonning ijodi radikal intilishlar bilan ajralib turadi. Uning "Temir tovon" romanida insoniyat oldida turgan halokat yoki dahshatli azoblar oldindan aytib

berildi. Avtobiografik tarzidagi "Martin Iden" romanida yozuvchi halol san'atkorlarning soxta madaniyat bilan fojiali to'qnashuvini ochib berdi.

Amerikalik yozuvchi T. Drayzerning "Moliyachi", "Titan" va "Jenni Gerxart" romanlarida amerikalik monopolist, tojsiz qirol, puldor Kaupervudning umumlashgan obrazi berilgan.

j. Golsuorsi tanqidiy realizmning yirik ustasiga aylandi. U "Munofiqlar oroli", "Forsaytlar haqida doston" asrlarida hukmron doiralarning jaholati, ikkiyuzlamachiligi va o'ta cheklanganligi keskin tanqid qildi.

Bu davrda satira kata ahamiyatga ega bo'ldi. Nemis yozuvchisi, yumorist G. Manning "Sodiq fuqaro" romani hamda "Imperiya" trilogiyasiga kirgan boshqa asarlari juda kata fosh etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ldi. Uning saxifalarida ko'plab qirollar va kanslerlarni, zodagonlarni va amldorlarni, hatto imperator Vilgelm II ni ko'rish mumkin.

Mavjud tuzumni hajv qilishning yirik ustasi atoqli fransuz yozuvchisi A. Frans edi. Uning "Silvester Bonnarning jinoyati", "Oqtoshda", "Pingvinlar oroli" asarlarida "Uchunchi respublikaning illatlari, hukmron doiralarning ma'naviy buzilishi, siyosat arboblarning sotqinligi oshkora kulgu ostiga olinadi."

Bernard Shouning dramalari, atoqli amerikalik satirik M. Tvenning romanlari, hikoyalari, maqolalari, achchiq va darg'azab satiraga boydir.

Bu davrda jahon demokratik madaniyatining fondi Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari yozuvchilarining ijodi bilan ham boyidi. Atoqli Yapon yozuvchisi A. Kyunoske novellalarida parazit mulkdorlar axloqining inqirozi, xalq ommasining umumiy kuchini anglash o'z aksini topdi.

Hind gumanist yozuvchisi R. Tagor falsafiy teranligi va badiiy barkamolligi bilan ajralib turuvchi romanlar, pyesalar, hikoyalar va she'rlari bilan butun dunyoga mashhur bo'ldi.

Demokratik adabiyot: demokratik adabiyot ijodkorlari tenglik va adolat tamoyillarining g'alaba qilishiga, insonning ijodiy kuchlariga, uning dunyoni o'zgartira olishiga ishonar edilar. Uning namoyondalaridan biri amerikalik adiba G. Bicher-Stoiidir. Bicher Stouning "Tom tog'aning kulbasi" romani jaxon adabiyotining nodir asarlaridan sanaladi. XIX asr Amerika qullari va quldorlari hayoti, ularning o'rtasidagi ziddiyat, qulchilikka qarshi negrlar isyoni haqqoniy yoritilgan.

Amerika yozuvchisi Jek Londonning yoshligi qashshoqlikda va og'ir mehnatda o'tgan. Ish qidirib AQSH va Kanadani kezib chiqqan. 16 yillik adabiy faoliyatida 19ta roman va boshqa ko'plab asarlar yaratdi.

Jek London tabiatni o'ziga bo'ysundirgan qahramon haqidaghi "Hayotga Muhabbat", ishchi va dehqonlar hayotiga bag'ishlangan "Sokramento sohillarida", "Bir parcha go'sht" va boshqa asarlari bilan mashhurdir.

Glossary

Poema

Poem

(yun. poieo, poiema - ijod qilmok, ijod kilingan) - qarang: doston

Poetika

Poetics

(yun. poietike techne - ijod sanati) - keng ma'noda adabiyot nazariyasi, tor va

Proza	Prose	hozirda ko'prok qo'llanilayotgan ma'noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi. (lot. prosa - odatiy) - 1) hozirda keng qo'llanuvchi ma'noda badiiy nutqning ikki asosiy tilidan biri
Prozaizm	Prosaism	badiiy matn tarkibida begona, o'rinsiz ko'rinadigan so'z, so'z shakllari, sintaktik birliklar
Poema	Poem	(yun. poieo, poiema - ijod qilmok, ijod kilingan) – qarang: doston
Poetika	Poetics	(yun. poietike techne - ijod sanati) - keng ma'noda adabiyot nazariyasi, tor va hozirda ko'prok qo'llanilayotgan ma'noda adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi.
Proza	Prose	(lot. prosa - odatiy) - 1) hozirda keng qo'llanuvchi ma'noda badiiy nutqning ikki asosiy tilidan biri
Prozaizm	Prosaism	badiiy matn tarkibida begona, o'rinsiz ko'rinadigan so'z, so'z shakllari, sintaktik birliklar

Test topshiriqlari:

1. Nechinchi asrning oxirlari va nechinchi asrning boshlarida kapitaliz o'zining so'ngi va yuqori bosqichi imperializm davriga o'tadi

A. XIX asrning oxirlari XX asrning boshlari

B. XIV asrning oxirlari XIX asrning boshlari

S. XV asrning oxirlari XIX asrning boshlari

D. XVIII asrning oxirlari XX asrning boshlari

2. Emil Zol 1840-yilning 2- aprelida qayerda tug'ulgan

A. Amerikada

B. Parijda

S. Fransiyada

D. A. Q. SH

3. Zolya epopeya asarida Fransiya o'tmishida eng og'ir zamon bo'lgan nechinchi asrning nechinchi yillarida

A. XIX asrning 50-60 yillarida

B. XX asrning 50-60 yillarida

S. XIX asrning 40-50 yillarida

D. XIX asrning 20-30 yillarida

4. XIX asrning ikkinchi yarmida yashab o'z ijodida o'sha davr Fransuz voqeligini aks etirgan yirik realist yozuvchi kim

A. Gi de Moposson

B. SHellon

S. Anatol Frans

D. SHello, Anatol Frons

5. Jek London nechinchi asrlarda yashab ijod qilgan

A. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida

B. XIX asrning oxiri XVI asrning boshlarida

S. XVIII asrning oxiri XX asrning boshlarida

D. XII asrning oxirida XX asrning boshida

Adabiyotlar:

18. Q. Azizov, O. Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi.

28. A. Anikst. Istoriya angliyskoy lit-ri, M., 1956

29. M. Yelizarova i dr. Istoriya zarubejnoj lit-rq XIX veka, M., 1972.

30. Dhyakonova N. Ya. Liricheskaya poeziya Bayrona. M., 1975.

31. Jirmunskiy V. M. Bayron i Pushkin, M., 1978.

32. Vinogradov A. «Bayron». M., 1985.

33. Bayron. Saylanma, sheorlar, dostonlar, T., 1974

19-mavzu: Kavkaz, Slavyan va Boltiqbo'yi xalqlari adabiyoti.

ReJA:

1. Kavkaz adabiyoti.

2. Ukrain adabiyoti.

3. Rus adabiyoti.

Kavkaz adabiyoti. Kavkaz tog'lari yon bag'irlarida yashagan aholi qadimiy va boy madaniy merosga ega. Bu xalqlar ham jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Shimoliy Kavkazda yigirmadan ortiq millat va elatlar istiqomat qiladi. Ozarbayjon, arman, gruzin, abxaz, lezgin, kabardin, osetin, kumik, lak, darg'in kabi xalqlar shular jumlasidandir. Bu millat va elatlar adabiyoti ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, yozma adabiyot nisbatan keyingi davrlarda rivojlangan.

Shimoliy Kavkazda yashovchi balqar, qo'miq, qorachay, no'g'oy kabi xalqlar adabiyoti boshqa turkiy xalqlar adabiyoti bilan yaqin aloqada bo'lib rivojlangan. XX asr boshlarida Shimoliy Kavkazdagi turkiy xalqlar hayotida madaniy rivojlanish ko'zga tashlanadi. Ko'plab ijodkorlar jadidchilik g'oyalari targ'ib etuvchi asarlar yaratdilar. XX asrda bu xalqlar adabiyotida realistik metod yetakchilik qildi. Ko'plab yetuk asarlar paydo bo'ldi, ularning ko'pchiligi turli tillarga tillariga tarjima qilindi. Bu yerdagi turkiy tilda gaplashuvchi xalqlarning tillari o'zaro juda yaqin bo'lib, ular bir-birlarini tarjimasiz ham tushunishadi. Lekin sho'ro tuzumi davrida bu xalqlar ayrim-ayrim hududlarga bo'lib tashlandi. Natijada ularning bir-biridan sal farq qiluvchi milliy adabiy tillari shakllandi.

Qo'miq xalqi Dog'istonda yashovchi aholisi oz sonli millatlardan biridir. Keyingi yillardagi ma'lumotlarga qaraganda qo'miqlar 200 mingga yaqin kishini tashkil etar ekan. Qo'miq xalqining qadimgi adabiyoti asosan folklor asarlaridan iborat bo'lib, unda ertaklar, qo'shiqlar, latifalar, turli afsona va rivoyatlar va boshqa janrdagi asarlar mavjud. «Dada Qo'rqu» haqidagi afsonalar, «Oyg'oz» kabi dostonlar qo'miq xalqi orasida ham qadimdan mashhur bo'lgan, keng tarqalgan.

XII-XV asrlardan boshlab arab yozuvidagi adabiyot xalq orasida keng tarqala boshladi. «Ahdnoma», «Tarixi Dog‘iston» singari asarlar arab yozuvida bitilgan. XV asrda yashagan Ummu Kamol nomli shoirning ayrim she‘rlari bizgacha yetib kelgan. Bu shoir taqdir taqozosi bilan o‘z yurtidan uzoqlarda yashagan. Uning asarlarida ona-yurt sog‘inchi, o‘z qismatidan nolish motivlari sezilib turadi.

Qadimgi qo‘miq ijodkorlarining ko‘pchiligi o‘z asarlarini arab tilida yozgan. Lekin bu xalqning yozma adabiy merosi saqlanib qolmagan. Qo‘miqlar Rossiya tarkibiga kirgandan keyin esa xalq og‘zaki ijodi namunalarini yig‘ib olish ishlari boshlandi. Efendi Osmonovning «No‘g‘ay va qo‘miq xalqi qo‘shiqlari to‘plami» 1883 yilda Peterburgda e‘lon qilingan edi.

Shimoliy Kavkazda yashovchi no‘g‘aylar ham turkiy tilda gaplashuvchi xalqlarga taaluqlidir. Bu xalqning adabiyoti o‘z atrofidagi qo‘shni xalqlar adabiyoti bilan chambarchas aloqada rivojlangan. Ko‘pgina folklor asarlari boshqa turkiy xalqlar og‘zaki ijodi bilan umumiy mushtaraklikni tashkil etadi. «Qo‘blandi botir», «Erjardin» singari epik dostonlar, ko‘plab ertak va afsonalar, xalq qo‘shiqlari – bu xalqning og‘zaki ijodi juda boy ekanligidan dalolat beradi. Qadimgi adabiyot asosan folklor asarlaridan iborat bo‘lib, uning ijrochilari xalq baxshilari sanalgan. Tarixda Sabri, Asan Qayg‘u, Do‘stmambet Azauli, Qaztug‘an kabi baxshilar xalq orasida juda mashhur bo‘lgan.

No‘g‘ay yozma adabiyoti asosan XX asrda shakllandi. Bu davrda turli mavzularda xilma-xil asarlar yaratildi. Fozil Abduljalilovning «Bo‘ronli oqim» romanida 30-yillar no‘g‘ay ovulida yuz bergan katta o‘zgarishlar tasvirlanadi. Romanning ikkinchi kitobi «Ulkan jamoa xirmoni» deb nomlanib, bunda ham urush va urushdan keyingi davr no‘g‘ay ovullaridagi kishilarning hayoti aks ettirilgan. Suyun Kataevning «Bekpo‘lat» romanida ayrim tarixiy voqyealar katta mahorat bilan berilgan. Bunda bir qancha afsona va rivoyatlar roman syujetiga singdirib yuborilgan. Yozuvchining «O‘tish joyi», «Bolalar uchun hikoyalar», «Ko‘hna hovli», «Oqshakvarak ovulida», «Xonadon» kabi hikoyalar to‘plami kitobxonlarga manzur bo‘ldi. X.Abduljalilov «Asantoy» nomli qissasida 20-30-yillardagi tarixiy voqyealarni aks ettirgan. Hozir no‘g‘ay adabiyotida bir qancha yosh talantlar ijod qilmoqda.

Arman yozma adabiyoti asosan milodning V asrdan boshlab shakllanib, rivojlanib bordi. Bunga asosiy sabablardan biri arman milliy alfavitini yaratilishi bo‘ldi. Arman yozuviga arman rohibi Mesrop Meshtots asos solgan edi.

Arman xalq og‘zaki ijodi asarlari orasida ertak, qo‘shiq va termalarni, epik dostonlar va afsonalarni, maqol va hikmatli so‘zlarni ko‘p uchratish mumkin.

Arman xalq qahramonlik dostonlari orasida eng mashhuri “Sosunlik Dovud” dostonidir. Bu dostonda xalqning VIII-X asrlarda arab bosqinchilariga qarshi olib borgan ozodlik kurashi zo‘r badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Unda uzoq asrlar davomida haqiqat va adolat uchun qon to‘kkan arman xalqining ozodlik sari intilishi yorqin ifodalangan. Arman xalq og‘zaki ijodida, ertak va eposlardan tashqari, marosim qo‘shiqlari ham keng o‘rin tutadi.

XII asrgacha arman adabiyotida “grabar” deb ataluvchi qadimgi arman cherkov tili hukm surgan. XII asrdan boshlab “grabar” zamiriga asta-sekin oddiy avom xalq tili

– “ashxarabar” singib kirib bordi. XIX asrga kelib “ashxarabar” – arman adabiy tiliga aylandi.

XIX asrda yangi arman adabiyoti shakllandi. Uning asoschisi va yirik vakillaridan biri buyuk ma'rifatparvar-demokrat shoir Xachatur Abovyan edi. Pushkin davri rus adabiyoti ta'sirida voyaga yetgan X.Abovyanning xizmati shundaki, u cherkov tarafdorlarining o'lik grabar tilini qayta tiklash yo'lidagi urinishlariga qaqshatqich zarba berdi. O'zining turli janrlardagi ajoyib asarlarini “ashxarabar” deb ataluvchi yangi arman tilida yozdi. Uning eng yaxshi nasriy asarlaridan biri “Armaniston jarohatlari” asari bo'lib, bu birinchi arman romani edi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, arman adabiyotida dramaturgiya taraqqiy etdi. Arman dramaturgiyasining eng yirik vakili G.Sundukyan edi. Uning “Pepo”, “Buzilgan uy”, “Yana bir qurbon”, “Xatbala” nomli sahna asarlari xukmron muxitdagi jiddiy ziddiyatlarning dramatik tasvirini yaratdi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Armanistonda kapitalizmning taraqqiy etishi munosabati bilan asta-sekin patriarxal munosabatlar yemirila boshladi. Dehqonlar hayoti og'irlashdi. Arman yozuvchilaridan A.Aganyan, A.Adeyan, A.Shaxnazaryanlarning ijodi ana shu tarixiy davrga to'g'ri keldi. Xuddi shu vaqtlarda oyda bir marta chiqib turgan “Murch” (“Bolg'a”) jurnali atrofiga uyushgan Ovanes Tumanyan, Avetik Isaakyan, Akop Akopyan, Derenin Demirchyanlar arman demokratik adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. Bular orasida O.Tumanyan ijodi alohida ajralib turadi. U o'z to'rtliklari, doston, masal va ertaklarida klassik adabiyot an'alarini davom ettirdi; xalq hayotining realistik lavhalarini chizib berdi; optimistik g'oyalarni tarannum etdi. Uning eng yaxshi asarlariga misol qilib “Anush”, “Eski kurash” va “Sosunlik Dovud” syujeti asosida yozilgan dostonlarni ko'rsatish mumkin.

XX asr adabiyotining asosiy ulushini romanchilik tashkil etadi. Ikkinchi jahon urushi mavzusi keng ko'lamda yoritilgan yirik badiiy asarlar vujudga keldi. R.Kocharning “Katta xonadon bolalari”, M.Armenning “Yasva”, A.Sirasning “Ararat”, V.Alazanning “Shimol yulduzi” romanlari bilan bir qatorda, chet el xalqlari hayoti va kurashi tavariga bag'ishlangan “Tehron” (G.Sevuns), “Sahroda”, “Mag'lubiyat” (S.Alajanyan) nomli romanlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, arman adabiyotida she'riyat ham sezilarli xolatda rivojlandi. Adabiyot sahnasiga ye.Charens, G.Saryan, N.Zaryan, O.Sheroz kabi qobiliyatli ilg'or shoirlar kiribkelishdi. Ularning qalamiga mansub bo'lgan “Chanensdan salom”, “Rushan cho'qqisi”, “Bahor fasli” kabi she'riy asarlari to'rlamlari badiiy yetukligi bilan ajralib turadi.

Gruzin adabiyoti juda qadimiy tarixga ega bo'lib, u milodiy asrdan ming yillar avvalgi davrlarga borib taqaladi. Biroq qadimiy yozma adabiyot va og'zaki ijod namunalari bizgacha yetib kelgan emas. Ular IV asr boshlarida xristian cherkovi va mamlakatni ko'p asrlar davomida talab kelgan chet el bosqinchilari tomonidan yo'q qilib tashlangan.

Gruzinlarda yozuv ham qadimdan mavjud. XI asrgacha ular xutsuri (cherkov yozuvi) deb ataladigan, XI asrdan boshlab mxedruli (fuqaro yozuvi) nomli yozuvlar bilan ish yuritganlar. Hozirgi gruzin yozuvi ana shu mxedruli yozuvining birmuncha ixchamlashtirilgan turidir.

Gruzin xalq og'zaki ijodi zaminida shakllanib, uzoq asrlar davomida gruzin xalq tarixi bilan chambarchas bog'liq ravishda rivojlanib kelayotgan gruzin yozma adabiyoti tarixi, odatda, quyidagicha davrlashtiriladi:

1. Qadimgi gruzin adabiyoti - V-XVIII asrlar:
 - a) ilk feodalizm davri gruzin adabiyoti (V-XI asrlar),
 - b) feodalizm taraqqiy topgan davr gruzin adabiyoti (XI-XIII asrlar),
 - v) so'nggi feodalizm davri gruzin adabiyoti (XIII-XVIII asrlar).
2. XIX asr gruzin adabiyoti:
 - a) XIX asrning birinchi yarmi gruzin adabiyoti,
 - b) XIX asrning 60-70-yillari gruzin adabiyoti,
 - v) XIX asrning 80-yillari gruzin adabiyoti,
 - g) XIX asrning 90-yillari gruzin adabiyoti.

3. XX asr gruzin adabiyoti.

Shota Rustaveli XII-XIII asrlarda yashab ijod etgan. U haqda ma'lumotlar deyarli yetib kelmagan. Rustaveli shoirning taxallusi bo'lib, joy nomi bilan bog'liqligi aytiladi. "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" shoirning yagona saqlanib qolgan asari bo'lib, XIV-XV asrga oid manbalarda undan parchalar uchraydi. Asarning eng qadimiy qo'lyozmasi 1646 yilda ko'chirilgan. Asar uch qism: kirish, bag'ishlov va qisqa epilogdan iborat. Kirish qismi Rustavelining dunyoqarashi va badiiy-estetik olami haqida ma'lumot beradi. Bu qismda shoir tangridan ilhom tilaydi, so'ng shoh ayol Tamarani madh etadi. Poeziya haqida so'z yuritib, she'riyat tangrining inoyati, shuningdek, qisman donolik mevasi ekanini qayd etadi.

Doston to'rtlik usulida yozilgan bo'lib, turli variantlarda 1500-1700 misrani tashkil etadi. Misralar 16 bo'g'inli shoiri uslubida yozilgan. Doston ilk bor 1712 yilda Tbilisida tipografiya usulida chop etilgan. So'nggi gruzin shohi Georgiya XIIning o'g'li Teymuraz Bagrationi rustavelishunoslikka asos soldi. Doston turli tillarga tarjima qilingan. Rus tiliga 6 marta o'girilgan.

Rasul Hamzatov. Avar shoiri. «Mening Dog'istonim». 1967. Hassos shoirning Vatan, til, millat, odam, xalq, urf-odat haqidagi falsafiy mushohadalari, purma'no she'rlari, faqat o'zigagina xos badiiy o'xshatishlari, topildiq, tashbehlari, ibratomuz ko'rgan-kechirganlari, avar, umuman, Kavkaz va jahon xalqlari hayotidan olingan rivoyatlar, hikoyatlar va hikmatlar ruhiga yo'g'rilib ketgan. Ular kitobxon qalbida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga sadoqat, urf-odatlarga hurmat tuyg'ularini uyg'otadi. Shu bois asarning birinchi kitobi nashr etilishi bilan (1967 yil) kitobxonlar o'rtasida mashhur bo'lib ketdi va ko'plab jahon tillariga tarjima qilindi. Shoir Asror Mo'min «Mening Dog'istonim» asarini ona tilimizga to'liq tarjima qildi. Kitobda quyidagicha hikmatlar bisyor:

Odam tilga kirishi uchun ikki yil kifoya, lekin tilini tiyib turishni o'rganishi uchun oltmish yil kerak bo'ladi.

* * *

Har bir odam bolaligidan o'z xalqining vakili bo'lish uchun dunyoga kelganini bilishi va shu sharafli vazifani zimmaga olishga o'zini tayyorlashi kerak.

* * *

Hyech bir yozuvchi faqat o'z millati quvonch-tashvishlari bilan chegaralanib qola olmaydi. Uning qalbini hamisha umuminsoniy quvonch-tashvishlar ham bezovta qiladi.

* * *

Ayrimlar o'ylaydiki, katta mavzularga qo'l ursam bas, darhol buyuk bo'laman, deb. Ammo buyuklikning zamini oddiqlikda. Axir, bir tomchi yomg'irda butun bir selning kuchi bor.

* * *

O'tkir fikrni jo'n ifoda etish, qo'zichoqni och bo'riga ro'para qilishday bir gap.

* * *

Tilni o'rganmasdan she'r yozishga uringan odam suzishni bilmasdan o'zini sarkash daryoga tashlagan telbaga o'xshaydi.

* * *

Birovning otini qancha minma, baribir egardan tushib otni egasiga qaytarasan.

* * *

O'tmishga to'pponchadan o'q uzsang, kelajak seni to'pga tutadi.

* * *

Burgut tovuqlar orasida bemalol yuraversa, u burgut emas.

* * *

Yaxshi ish qilmagan bo'lsang ham — yaxshilik qilish niyating bo'lgani uchun tashakkur!

* * *

Yog'ochdan qilingan pichoq qancha chiroyli bo'lmasin, jo'jani ham so'ya olmaysan.

* * *

Onam beshigimni tebratib aytgan alla qulog'im tagida jaranglamagan biron kun, biron daqiqa bo'lmagan, desam, mubolag'a emas. Bu alla mening barcha qo'shiqlarimni allalab ulg'aytirdi.

* * *

Ba'zan odamlar miyasida fikr bo'lgani uchun emas, tilining uchi qichib turgani uchun gapirishadi.

* * *

Tog'lik ona hyech qachon qoidasi buzilgan she'ni jigarbandiga o'qimaydi.

* * *

Odamlarning tillari har xil bo'lishi mumkin, lekin yuraklari bir xil tepsa bas.

* * *

Biz Vatanni tanlamaymiz, chunki Vatan bizni allaqachon tanlab bo'lgan.

* * *

O'zga mamlakatlar, o'zga xalqlar haqida yozgan yaxshi, agar sen o'zligingni topib olgan bo'lsang.

* * *

Qo'shiq aytishni o'z uyingda o'rganmagan bo'lsang, uyingdan uzoqda qanday o'rganasan?

* * *

Kerakli narsani umring bo'yi izlasang ham omad kulgan lahzadagina topasan.

* * *

Yozuvchi biror mavzuning boshini tutar ekan, faqat yurak amriga quloq solishi lozim.

* * *

Dog'iston — mening muhabbatim, mening kelajagim, mening tavbam, mening ibodatim! Dog'iston — hayotimning mazmuni, barcha she'rlarimning bosh mavzusi

* * * O'zing bilgan narsalar haqida yoz. Bilmagan narsalaringni boshqa kitoblardan o'qi.

Ulug' she'riyat uchun (Hamzatov maqolasidan iqtiboslar) Mening tog'lik yurtim zargarlarida yaltiroq sariq metalning oltin yoki oltin emasligini aniqlaydigan maxsus vosita bor. Ular shu vosita yordamida har qanday sariq yaltiroq metalning oltin yoki oltin emasligini aniqlashadi.

Bizning o'quvchilarimizda ham shunday tuyg'u borki, uni zargarlarning o'sha vositasiga o'xshatish mumkin. Shu bois misralar qanchalik chuqur o'ylangan badiiy o'xshatishlar bilan bezalmasin, o'quvchilar o'sha ichki tuyg'usi bilan qaysi asl she'riyat, qaysisi "chiroyli" tizmalar ekanini darhol biladi.

O'quvchi yaxshi she'rni o'qiganda bu men uchun yozilgan, mening she'rim ekan, deb o'ylaydi. Ha, shoir qachon maqsadiga yetadi, agar o'quvchi uning she'rlarini o'qiganda: "Bunda mening o'ylarim, tuyg'ularim, muhabbatim, hayotim, tilim, o'zligim mujassam ekan", deb aytsa.

Bir xillik, o'zgalarni va o'zini-o'zi takrorlash, muhimi his-hayajonning yo'qligi, oddiy she'riyat qoidalariga rioya etmaslik, bu — keyingi yillardagi she'r deb taqdim etilayotgan tizmalarga xos umumiy xususiyat.

To'g'ri, bulardan tashqari shu sohaning ustasi bo'lgan ijodkorlarning ham she'riy asarlari bor. Ammo ular qanchalik mahorat bilan yozilgan bo'lmasin, o'quvchilar qabul qila olmaydi. Chunki, ularda xalqning fikr-o'ylari, orzu-maqсадlari o'z ifodasini topmagan. Bu she'riy misralar kimsasiz vohada qaynagan va o'ziga yo'l topa olmay singib ketgan buloqlarga o'xshaydi. Bu buloqlarning suvi qanchalik toza bo'lmasin, undan odamlarga hyech qanday naf yo'q. Ularga o'quvchilar tog'lik dehqon xon saroyiga qaraganday qarashadi. Ular bir-biriga begona, ular bir-birini tushunishmaydi.

Bizda har xil shoirlar bor. Lekin ularning ijodi hamma vaqt ham millionlab o'quvchilarning yuragidan joy topa olmayapti. Shuning uchun hayron qoladigan joyi yo'q. Keyingi yillarda gazeta-jurnallarda she'riyat haqida kuyunchaklik bilan yozishayapti. Bu haqda o'quvchilarimiz ham o'z fikrlarini bildirishmoqda.

Bizning she'riyatimiz yashovchan va uning taqdiriga umrboqiylik bitilgan, chunki, ularda bunyodkor xalqimizning umrboqiy ishlari o'z ifodasini topadi. Ammo ayrim shoirlar she'riyatning bu umrboqiy hikmatini, ya'ni zamon bilan tengma-teng qadam tashlash, xalqning hayoti, quvonch-tashvishlari bilan yashash degan tushunchani juda yuzaki tushunishadi, shekilli. Negaki, iste'dod — noyob voqyelik ekanini unutishib, Yozuvchilar uyushmasiga layoqati bor kishilarni shoshma-shosharlik bilan qabul qilishyapti. Gazeta-jurnallar, bayozlar zerikarli, qofiyadosh satrlarni she'r deb chop etishayapti, sababi ular zamonaviy mavzuda yozilgan emish. Bu bilan ular nafaqat she'riyatning, balki she'riyatning yuragi bo'lgan zamonaviy katta mavzularning ham qadrini pasaytirishayapti.

Tushunaman, zamonaviy mavzuda yozish oson emas, lekin zamonaviy mavzuda yozganda, shoirning o'ziga xosligi, kuzatuvchanligi, fikrlashi, mahorati yetukligi, qisqa qilib aytganda, iste'dodi namoyon bo'ladi.

Demak, zamonaviylik haqida fikrlashamiz. Agar shoir o'zgalarni takrorlamasdan o'z zamon va zamondoshlari haqida o'zligiga xos yorqin badiiy asar yozsa, menimcha, she'riyatdagi chinakam yangilik shu. Zamon haqida yozish degani, bu — hamisha xalq bilan birga bo'lish, odamlar quvonganda quvonish, hayajonlanganda hayajonlanish, mavjud muammolarga bezovta chora izlash va yechimini topish, yana izlanish va yana tadbir topish. Zamon haqida yozish degani, bu — dam olish nimaligini bilmay mehnat qilish, har qanday vaziyatda old qatorda bo'lish deganidir...

Ba'zi qalamkashlar yozganlarining o'qilmayotganiga meni targ'ib etishmayapti yoki ijodim haqida tushuntirish ishlari olib borilmayapti degan bahonani ro'kach qilishadi. O'quvchilarning dunyoqarashi va talabini bilgan, she'riyat mening taqdirim deb yashayotgan shoirlar bunday o'ylashmaydi. O'quvchilar hiech qanday tushuntirishsiz qaysi bulbul, qaysi to'ti ekanini yaxshi bilishadi. Xalq hatto devorga mix qoqishiga qarab, kim usta, kim endi qo'liga bolg'a ushlaganini ayta oladi.

Shunga qaramay she'riyatda kosiblarning paydo bo'lishini hayot taqozosi deb qarayotganlar ham bor. Ular bu holni nafaqat yoqlashadi, balki rag'batlantirishga harakat qilishadi.

...Agar shoir xalqning turmush tarzini bilmasa, yozganlariga yolg'on aralashadi, yolg'on aralashgan asar esa hiech qachon yaxshi bo'lmaydi. Ayrimlar o'ylaydiki, yozuvchilar hayotni to'laqonli bilishi kerak, shoirlarga esa ilhomning o'zi kifoya, ularda iste'dod va she'rni ilg'ash tuyg'usi bo'lsa bas. Shuning uchun bizda xalqimiz hayotidan olingan keng qamrovli umumlashgan she'riy timsollar yaratilgan asarlar kam, aksincha qofiyalashtirilgan tantanavor misralarga to'la mashqlar ko'payib bormoqda.

Ko'pgina shoirlar o'zlari bilmaydigan narsalar haqida salmoqsiz gaplar aytishga odatlanib qolishdi. Go'yo ular qizni ko'rmasdan unashtirishga shoshiladigan sovchilarga o'xshashadi.

Shoir o'z xalqining sadoqatli farzandi bo'lishi kerak. Sadoqatli farzand bo'lishi uchun esa xalqning hayotini va mehnatini bilishi zarur. Afsuski, ko'pgina iste'dodli shoirlar o'zining ijodiy layoqatini erta sarflab bo'lishadi. Chunki ularda mehnat malakasi, ish tajribasi yo'q. Ular avval maktab partasida, keyin institut auditoriyasida o'tirishgan va she'riyatga, Yozuvchilar uyushmasiga kirib kelishgan. Xalqning turmush tarzini qisqa ijodiy safarlardagina ko'rishadi. Ular qanday yerni shudgor qilishni, otni egarlashni, dalada hosil yig'ishtirishni bilishmaydi. Shuning uchun ularning bu mavzuda yozgan mashqlari el nazariga tushmaydi. 1979 yil. **Ruschadan Asror MO'MIN tarjimasini).**

Nodar Dumbadze. Nodar Dumbadze (1928-1984) — taniqli gruzin yozuvchisi. Tbilisida tug'ilib, Tbilisida vafot etgan. Otasi raykom sekretari (hozirda hokim) bo'lgan. 37 yilda "xalq dushmani" sifatida qamalgan. Nodarning bolaligi 30 yillarning ana shunday siyosiy tamg'asi va urushning qiyinchiligi bilan kechgan. Qarindoshlarining uyida, qishloqda o'sadi. Ulg'ayib, iqtisod fakultetiga o'qishga kiradi. Bitirib, inst.da lobarant bo'lib ishlaydi. Ammo ma'lum vaqtdan keyin umrini

adabiyotga bag'ishlaydi. "Tong" degan jurnalda adabiy xodim bb ishga kiradi Taniqli yozvchiga aylangandan keyin Gruzin Yozuvchilar uyushmasi raisi lavozimida umrining oxiriga qadar ishlaydi.

Ham shoir, ham nosir, ham maqolanavis. Bolalarga atab ham asarlar yozgan Asarlari kino bo'lgan.

Ilk hikoyalar to'plami — «Qishloq bolalari» (1958). Dastlabki yirik asarlari — «Men, buvim, Iliko va Illarion» (1960) qissasi va «Quyoshni ko'ryapman» (1962) romanida 2-jahon urushi yillaridagi gruzin qishloqlarining og'ir hayoti aks etgan. «Quyosh kechasi» (1967), «Oq bayroqlar» (1972) romanlarida zamonaviy muhim ijtimoiy-axloqiy masalalar ko'tarilgan.«Abadiyat qonuni» (1978)da insonning jamiyatdagi o'rni, yashashning ma'nosi mavjud hayotiy lavhalar, shaxslar orqali aks ettirilgan. Dumbadze asarlari chuqur lirizm bilan sug'orilgan, ularda dramaturgiya yumor bilan uyg'unlashib ketgan. Asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan («Quyoshni ko'ryapman», 1969; «Qo'rqmang onaginam», 1982; «Abadiyat qonuni», 1983 va b.). «Abadiyat qonuni» asari asosida o'zbek tilida telespektakl yaratilgan (1985).

Atoqli gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadze o'zbek o'quvchilariga yaxshi tanish. Uning "Nishonga tegmagan o'qlar" ("Kukaracha"), "Abadiyat qonuni", "Qo'rqmang, onaginam", "Oq bayroqlar", "Ellada" ("Hellados") kabi asarlari allaqachon kitobxonlarning ko'ngil mulkiga aylangan. Dumbadze ijodiga kuchli insonparvarlik, oqibat, mehr-muhabbat tuyg'ulari singib ketgan.

"Men, enam, Iliko va Illarion" romani unga shuhrat keltirdi. Bu asar avtobiografikdir. yetib qolgan bolaning qishloqda enasi bilan yashagan pallalari qalamga olingan. Qo'shni, keksa cholu kampirning qismatlari, bolaga mehribonchiligi, har qanday damda ham yordamga tayyorgarligi haqida hikoya qiladi roman.

Oxirgi "Abadiyat qonuni" romanida ezgulik va yovuzlik kurashi aks ettirilgan. Qahramon Bachananing yuragi kasal. Lekin shu holida ham jamiyatdagi har qanday qing'ir ishlarga, odamlarga qarshi kurashadi. Bachanaga pul taklif qilib, evazmga ishini bitirib berishlarini so'rab kelgan odamning boshiga yotgan joyida tuvak bilan tushiradi.

"Biz hayot ekanmiz, qalblarimizning mangu yashashai uchun bir birimizga yordam berishimiz kerak" deganda u ezgu ishlar borasidagi yordamni nazarda tutadi.

"Xelados" (Ellada) hikoyasi fojeaviy. Unda yunon bola Xelados kemada o'z tarixiy yurtiga ketaturib, oxirgi lahzada o'zi tug'ilib katta bo'lgan yurtga talpinib, o'zini kemadan tashlab suvga g'arq bo'ladi. Chunki u bolaligi o'tgan Suxumini, do'stlarini tashlab ketolmaydi. Uning tanasiga "Xelados" deb yozilgan bo'ladi. yunonchadan Vatan degani.

Adibning bir qancha asarlarini taniqli tarjimon Nizom Komil o'zbekchaga mahorat bilan o'giran.

Slavyan xalqlari adabiyoti. XX asr belorus adabiyoti.

XX asr boshlaridagi tarixiy sharoit ilg'or belorus adabiyotining maqsad va vazifalarini belgilab berdi. Yozuvchilar o'z ijodlarida ijtimoiy taraqqiyotning muhim masalalarini, jumladan, agrar va milliy masalalarni aks ettirdilar.

Yosh belorus adabiyotiga M.Gorkiy ijodining ta'siri katta bo'ldi. Gorkiy belorus shoirlari ijodini zo'r qiziqish bilan kuzatar, ulardan yordamini ayamasdi. U ukrain yozuvchisi Kotsyubinskiyga yozgan xatida belorus shoirlari Yanka Kupala va Yakub Kolas she'rlariga yuksak baho bergan edi. Ya.Kupala va Ya.Kolas rus klassik adabiyotining estetik prinsiplariga amal qilib, adabiyotni xalqqa, jamiyat rivojiga xizmat ettirish uchun kurashdilar. Ular hozirgi belorus adabiy tili qoidalarini ishlab chiqib, badiiy ijodda milliy til boyliglaridan barakali foydalandilar. Ya.Kupala vatanparvarlik mavzusida mazmundor she'rlar yaratdi. "Igor polki jangnomasi"ni belorus tiliga tarjima qildi.

Urushdan keyingi yillarda "Palimya", "Belarus" jurnallari hamda "Adabiyot va san'at" gazetasi belorus adabiyotining faol jarchisiga aylandi. Ya.Kolas, A.Kuleshov, P.Brovka, P.Panchenko, M.Tank, M.Linkov, I.Shamyakin, Ya.Brill, K.Krapiva va boshqalarning asarlari ilk marta shu nashrlarda elga tanilgan.

Ukrain adabiyotining shakllanishi

Ukrainlar sharqiy slavyan xalqlari (rus, belorus) guruhiga kiradi. Ukrain adabiyoti qadimgi rus adabiyoti zaminida shakllandi va rivojlandi. Ukrain shoirlari T.Shevchenko, I.Franko, S.Rudanskiy, P.Mirniy hamda M.Rilskiy va N.Zabilalarning "Igor polki jangnomasi"ga bo'lgan qiziqishlari juda kuchli edi. Ular bu ajoyib adabiy yodgorlikni ukrain tiliga tarjima qildilar.

Ukrain adabiyotining eng qadimgi namunalari xalq og'zaki ijodi shaklida yaratilgan. Xalq tomonidan yaratilgan qo'shiq, ertak, duma (katta hajmdagi epik va liro-epik asarlar), latifa va rivoyatlarda mehnatkash ommaning orzu-umidlari, chet el bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashlari, jumladan, 1648-1654 yillarda keng quloch yoygan xalq ozodlik kurashi, 1812 yilgi Vatan urushi voqyealari o'z aksini topgan.

Ukrain xalqining 1648-1654 yillarda polyak panlariga qarshi olib borgan ozodlik kurashlari Ukrainaning Rossiyaga qo'shilishi bilan yakunlandi. Ikki xalqning qo'shilishi "Kazak yilnomalari" va memuar asarlarda aks etdi. Rus va ukrain adabiyotlari o'rtasidagi do'stona munosabatlar shu vaqtdan boshlab yana-da avj oldi. E.Slavinetskiy, S.Polotskiy, F.Prokopovich singari ukrain shoirlari Moskvaga ko'chib bordilar. Ular o'z asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy qarama-qarshiliklarni aks ettirdilar; yangi adabiy janrlar va shakllarni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shdilar.

Taras Shevchenko (1814-1861) 1814 yil 25 fevralda Kiev guberniyasida kambag'al oilada dunyoga keldi. 1838 yilda San'at Akdemiya-siga sirdan o'qishga kiradi, taniqli rassom Bryullof qo'lida tahsil oladi. U ayniqsa portret janrida samarali ijod qiladi. Shevchenko she'r yozishni 1839 yildan boshlagan.

Taras Shevchenko juda murakkab hayot yo'lini bosib o'tdi. 1859 yilda Leypsigda "Pushkin va Shevchenkoning yangi she'rlari" to'plami bosilib chiqdi. Bu to'plamga shoirning "Kavkaz" va "Vasiyat" nomli she'rlari kiritilgan edi. 1961 yil 10 martda shoir og'ir xastalik tufayli vafot etdi. Uni Smolensk qabristoniga dafn etishdi. Ikki oydan so'ng o'z vasiyatiga binoan uning hoki Ukrainaga qayta dafn etildi.

"Katerina" dostonida T.Shevchenko voqyelikni realistik aks ettirishga erishdi. Panlarning axloqiy tubanligini ayovsiz fosh etish bu asarning asosiy g'oyasidir.

“Gaydamaklar” poemasida 1768 yilda polyak panlariga qarshi ko‘tarilgan dehqonlar qo‘zg‘oloni tasvirlangan. “Uch yil”, “Tush” dostonlari ham boshdan-oyoq xalq dardini kuylash asosiga qurilgan.

Lesya Ukrainka (1871-1913) – Larisa Petrovna Kosach, 25 fevralda Novograd volinskida ziyoli xonadonda dunyoga keldi. U o‘n yoshidan she‘rlar yoza boshladi. 1884 yilda Lvovdagi “Zarya” jurnalida uning dastlabki she‘rlari e‘lon qilindi. 1893 yilda shoiraning “Qo‘shiqlar qanotida” nomli birinchi to‘plami chop etiladi. “Dengizga sayohat”, “Qrim xotiralari” kabi to‘plamlari shoiraning yuksak poetik mahorati mevalaridir.

1899 yilda shoiraning “O‘ylar va orzular”, 1902 yil “Taqrizlar” nomli to‘plamlari bosmadan chiqdi. Shoiraning musiqa va folklorga doir ishlari ham diqqatga sazovor. 1903 yilda u “Bolalar o‘yinlari, qo‘shiq va ertaklari”, 1904 yilda “Xalq raqsi qo‘shiqlari” to‘plamlarini tuzdi.

rus adabiyoti

Rus adabiyotshunosligida rus adabiyoti tarixi shartli ravishda ikki qismga bo‘lib o‘rganiladi:

1. Qadimgi rus adabiyoti XVII asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

1. Yangi rus adabiyoti XVIII asrdan keyingi adabiyot.

Qadimgi rus adabiyoti VII asrlik davrni o‘z ichiga qamrab oladi va uch davrga bo‘linadi:

1. Kiev Rusi adabiyoti (X-XIII asrlar).

2. Shimoliy-Sharqiy Rusi (Novgorod) davri (XIII-XV asrlar).

3. Moskva Rusi davri (XVI-XVII asrlar).

“**Igor polki jangnomasi**” XII asr oxirida noma‘lum muallif tomonidan yaratilgan. Bu manbani ilmiy doiraga Barsov olib kirdi. Olimning “Igor polki jangnomasi” adabiy yodgorlik sifatida” deb nomlangan uch tomlik tadqiqoti Moskvada 1887-1889 yillarda nashr etildi. Bundan keyin juda ko‘plab olimlar bu asarga qayta-qayta murojaat etishdi. Asar rus knyazlarining ko‘chmanchi qipchoqlarga qarshi birlashishga chaqiradi. Muallif Rus davlati olida turgan xavfni yaqqol his etdi va uni badiiy jonlantirdi. Asar chaqiriq ruhida yaratilgan bo‘lib, o‘z davri voqyealari teran tahlilga tortilgan. Muallif rus xalqi tarixiga nazar tashlash, folklor asarlaridan foydalanish orqali kitobxonda g‘urur, iftixor tuyg‘ularini uyg‘otishga intilgan. Jangnomada Igor va uning ukasi Vsevolodning qahramonliklari hikoya qilinadi. Jangnoma 80 marta rus tiliga tarjima qilingan. (Bu asar haqida ulug‘ qozoq shoiri O‘ljas Sulaymonovning “AZiYa” asari bor. Tamomila o‘zga ruhda yozilgan bo‘lib, u yerda aytilishicha dostonning 70 % so‘zlari qadimgi turkiychadir. Asarga rus olimlari tanqidiy qaraydi.)

Pyotr I davrida (1682-1725) Rossiyada ilm-fan, adabiyot, madaniyat rivojlandi. Moskva, Peterburg shaharlarida bosmaxonalar qurildi. Gazetalar chop etiladi. Teatr ochilib, turli xil pesalar qo‘yila boshlandi. Buning oqibatida rus adabiyotiga G‘arbiy yevropa adabiyotidan klassitsizm oqimi kirib keldi. Lokk, Montaske, Labryuer, Audison, Lessagi, Moler kabi adiblarning asarlari rus tiliga tarjima qilinadi.

Aynan shu davrlarda Antiox Kantemir, Vasiliy Trediakovskiy, Mixail Lomonosov, A.P.Sumorokov kabi taniqli shoir va adiblar yetishib chiqishdi. Kantemir (1708-1744) va Trediakovskiy (1703-1768) ijodida fransuz adabiyotining ta'siri kuchli edi. Kantemir o'tkir mavzulardagi satirik asarlari bilan shuhrat qozondi. Rus adabiyotida yekaterina II davri (1762-1796) ham alohida o'rin tutadi. Bu davrda jamiyatga erkinlik berildi, adabiyot xalqchillashdi. yekaterina rus xalqi va uning urf-odatlari, qadriyatlarini e'zozlard, o'zi she'rlar yozardi, adabiy jurnalni boshqarardi. Ona tiliga hurmatsizlik qilgan fuqarolarni "Telemaxida" (ayblangan odamga shu nomli poemadan parcha yodlatilardi) bilan jazolardi. Bu davrda Derjavin (1743-1816) ijodida Goratsiyning tarixiy-epik poema va odalaridan ruhlanib she'riy ertaklar va masallar yaratdi. "Felitsaga maktub", "To'ra", "Brigadir", "Ovsar", "Tungri", "Shalola" kabi asarlari o'z davrida ijobiy baho olgan edi. Fonvizin xalqchil she'rlari bilan tanildi.

Kuramzin (1766-1826) "Boyar qizi Natalya", "Bechora Liza" (1792) poemasi, "Rus sayyohining maktublari" (1791), "Rus davlati tarixi" (1818-1829) asarlari bilan rus adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Rus adabiyotining oltin davri Pushkin nomi bilan bog'liq. A.S.Pushkin 1799 yil 6 iyunda Moskva shahrida dvoryan oilasida tug'ildi. Aleksandr 12 yoshgacha uyida o'qidi, keyin uni 1811 yil Sarskoe Selo shaharchasida yangi ochilgan litseyga o'qishga berishadi. Litseyda u o'ziga Delvig, Pushin, Kyuxelbeker va shunga o'xshash do'stlar orttirdiki, ular bir umrga qadrdon bo'lib qolishdi. 1820 yil 9 mayida Pushkinni shaxsan Aleksandr I buyrug'iga asosan general Inzov qo'l ostiga sızmatga (aslida surgun qilishgan edi) yuborishadi. Shu yilning yoz oylarida Inzov ruxsati bilan Raevskiy oilasi bilan sayohatga boradi. U Shimoliy Kavkaz, Qrimda bo'lib, Simferopol va Odessa orqali Kishinyovga qaytadi.

Kishinyovda u ilk poemasi "Kavkaz asiri"ni yaratdi(1822). 1823 yilda ikkinchi poemasi "Bog'chasaroy fontani"ni yakunladi. Shu yili "yevgeniy Onegin" she'riy romanini boshlaydi. Pushkin 1837 yil 27 yanvar kuni 38 yoshida vafot etadi.

U litseyda Derjavin, Batyushkov, Jukovskiylarga o'xshashga intilardi. Shu paytlarda "Shoir do'stinga" (1814), "Mening do'stlarimga vasiyatim" (1815), "Mening epitafiyam" (1815), "Mening Aristarximga" (1815), "Hijron", "Ayriliq" nomli she'rlari odamlarning diqqat e'tiborini o'ziga tortgan edi.

XIX asr oxiri XX asr boshi rus adabiyotining "kumush davri" deyiladi. (oltin davr – Pushkin davri). Bu davrda ko'plab iste'dodlar yetishib chiqdi, yangi yo'nalish va oqimlar paydo bo'ldi. Rus ijodkorlari davr bilan hamnafas bo'lishdi, o'z davri voqyea-hodisalarini teran tahlil etishdi. XX asrning boshida diniy mavzular va talqinlar ancha chuqurlashganini ko'rish mumkin. Inqilob rus ijodkorlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Rus adabiyotining kumush davrini 1892-1917 yillar deb belgilaydilar. Ayrimlar esa bu davr 1921-22 yillarda, ya'ni ko'plab rus namoyandalarning emigratsiyasi, Blok va Gumilevning vafot etishi bilan tugadi deb aytishadi.

L. Tolstoy, F.Dostoevskiy, A.Chexov ijodlari nafaqat rus adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

XX asr rus adabiyotida namoyon bo'lgan adabiy yo'nalishlar:

1. Realizm

1. Modernizm (akmeizm va simbolizm)

1. Adabiy avangardizm (futurizm)

Simvolizm namoyandalari

V.Ya.Bryusov, K.D.Balmont, D.S.Merejkovskiy, Z.N.Gippius, F.K.Sologub, N. Minskiy, A.A.Blok, Andrey Belyy (B.N. Bugaev), V.I.Ivanov va boshqalar.

Akmeizm namoyandalari:

N.S. Gumilev, A.A. Axmatova, S.M. Gorodetskiy, O.E. Mandelshtam, M.A. Zenkevich, V.I. Narbut.

Futurizm namoyandalari:

D.D.Burlyuk, V.V.Xlebnikov, V.V.Kamenskiy, V.V.Mayakovskiy, A.ye.Kruchenykh, I.Severyanin, I.Ignatev, V.Gnedov, V.Shershenevich, B.L.Pasternak, N.N.Aseev, S.P.Bobrov.

XX asrning 30-yillari rus adabiyoti uchun ham og'ir yillar bo'ldi. Ikki mingdan ziyod ziyolilar qatag'on qilindi. Bu davrda V.V.Mayakovskiy, S.A.yesenin, A.A.Axmatova, A.N.Tolstoy, ye.I.Zamyatin, M.M.Zoqenko, M.A.Sholoxov, M.A.Bulgakov, A.P.Platonov, O.E.Mandelshtam, M.I.Svetaeva singari ijodkorlar faol ijod qilishdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida M.Sholoxov, A.Fadeev, N.Tixonov, I.Erenburg, Vs.Vishnevskiy, ye.Petrov, A.Surkov, A.Platonovlar ijodida vatanparvarlik va harbiy safarbarlik mavzulari keng o'rin egalladi. She'riyatda A.Axmatova, K.Simonov, N.Tixonov, A.Tvardovskiy, V.Sayanov ijodi ajralib turadi. Shuningdek, bu davrda publitsistik ocherklar, reportaj, pamflet va hikoya janrlari ham rivojlandi.

XX asrning ikkinchi yarmi rus adabiyoti:

so'nggi stalinizm davri (1946-1953 yy);

konfliktsizlik davri (1953-1965 yy);

turg'unlik davri (1965-1985 yy);

qayta qurish davri (1985-1991 yy);

islohotlar davri (1991-2000 yy).

Glossary

Pesa	Play	(fr. piece - parcha, kiem) - dramatik turga mansub har qanday asar
Ramz	Symbol	(ar. - imo-ishora, imlash) - simvol: ko'chim turlaridan biri.
Realizm	Realism	(lot. realls - mavjud, haqiqiy) - adabiyotshunoslikda R. termini tor va keng ma'nolarda qo'llanadi. Keng ma'noda R terminining ma'nosi badiiy asar (unda tasvirlangan badiiy voqyelik) bilan real voqelik munosabatidan kelib chiqadi.
Realiya	Realia	(lot. realis - ashyoviy) - muayyan xapkning turmo'sh tarehi madaniyati, tarixi bilan bog'liq betakror. o'zga xalklarda

		o'chra maydigan narsa-hodisa. tushuncha; shunday narsa va tushunchalarni anglatuvchi so'z.
Replika	Remark	(fr. <i>replique</i> - javob, e'tiroz) - dialogning nutq sub'ekti almashishi bilan chegaralanuvchi qismi, bitta nutq sub'ekti tomonidan aytilgan nutq bo'lagi.
Refren	Refrain	(fr. <i>refrain</i> - naqorat) - 1) naqorat, qo'shiqning kar bir bandidan so'ng aynan qaytariladigan band, yarim band yoki misra

Adabiyotlar:

- 19. Q. Azizov, O. Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi.
- 34. A. Anikst. Istoriya angliyskoy lit-ri, M., 1956
- 35. M. Yelizarova i dr. Istoriya zarubejnoy lit-rq XIX veka, M., 1972.
- 36. Dhyakonova N. Ya. Liricheskaya poeziya Bayrona. M., 1975.
- 37. Jirmunskiy V.M. Bayron i Pushkin, M., 1978.
- 38. Vinogradov A. «Bayron». M., 1985.
- 39. Bayron. Saylanma, sheorlar, dostonlar, T., 1974

20-mavzu: Turkiy tilda so'zlashuvchi qardosh xalqlar adabiyoti

ReJA:

- 1. Umumiy xarakteristika.
- 2. "Devonu lug'atit turk".
- 3. Qozoq adabiyoti.
- 4. Turkman adabiyoti.
- 5. Qirg'iz adabiyoti.
- 6. Ozarbayjon adabiyoti.
- 7. Tatar adabiyoti.
- 8. Qoraqalpoq adabiyoti.

Shimoliy yeniseydan Mo'g'ilistongacha bo'lgan territoriyada yashovchi turk, turkman, ozar, o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, uyg'ur, tatar, bashqird, bolqar, oltoy, shuur, xakas, tuva, yoqut, kenagas, no'g'ay, gagauz, ko'mik, salar, dog' xalqlari turkiy xalqlar deb ataladi.

Har bir xalqning o'z tarixi, madaniyati, san'ati bo'lgani kabi turkiy xalqlarning ham o'z tarixi, madaniyati va adabiyoti mavjud bo'lib, ular juda qadimiydir. Bu xalqlar o'z fani va madaniyatini V-VI asrlardanoq rivojlantira borganligi, ular jahonga mashxur bo'lgan buyuk kishilarni yetkazib berganliklari ma'lum.

Turkiy xalqlarning qadimgi zamonlarga oid adabiy yodgorliklari turli manbaalar va xalq og'zaki ijodi orqali bizgacha yetib keldi. Turkiy xalqlarning kelib chiqishi va madaniyati haqida tarixchi olimlarning asarlarida, yozma manbaalarda grek, xind, xitoy va arman tarixchilarining kitoblarida hamda «Avesto», «Bekustin», «Urxun yenisey» yodgorliklarida, shuningdek, Beruniy, Narshaxiy kabi olimlarning

asarlarida ma'lumotlar beriladi. Bulardan eng muhimi M.Qoshg'ariyning «Devon lug'otit turk» asari bo'lib, bu asarda qadimgi qo'shiqlar, lirik she'rlar, maqolalar berilgan, qolaversa, Termiz shahri yaqinidagi Ayritomda, Ashxobod yaqinidagi joylashgan Nisa, Tuproqqala, Baraxsha saroylaridan topilgan yodgorliklarning ham turkiy xalqlarning qadimgi madaniyatini sezish mumkin.

M.Qoshg'ariy o'z asarida Kichik Osiyodan Xitoygacha bo'lgan territoriyada yashovchi xilma-xil turkiylar qabilasi birlashib ketganligini ta'kidlaydi. (Masalan qipchoq, o'g'uz, yaman, bashqir, damik, kay, tatar, qirg'iz, chigil, tuxar, yag'mo, igrak, taruk, xumur, uyg'ur, tanchu, xitoy, tovgich). Shuningdek M.Qoshg'ariy turli qabilalarning chatishuvi va aralashuvi natijasida ug'uz, chigil qipchoq guruhidagi tillar vujudga kelganligini, chigil guruhidagi tillardan o'zbek tili hosil bo'lganligini, bu til turkiy til deb atalganligini uqtiradi.

VI asrda Oltoy, Yettisuv va Markaziy Osiyodagi turli qabilalar birlashib, «Turk xoqonligi» deb ataldi.

Turkiy xalqlar madaniyati va san'atining hamma sohalari rassomlik, naqqoshlik, xaykaltaroshlik, arxitektura hamda musiqalari bilan mashxur bo'lganlar. Bu xalqlar o'z adabiyoti, san'ati va madaniyatini bir-birlari bilan mushtarak holda yaratganlar. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz kabi xalqlarning umumiy adabiy merosi sanaladi. Turkiy xalqlar asrlar osha o'z mustaqilliklari uchun kurashganlar, ilm-fanni, san'at va madaniyatni rivojlantirganlar. Bizga qadar saqlanib qolgan Sug'd kalendari, Beruniy asarlaridagi ma'lumotlar qadimgi O'rta Osiyoda ilm-fanning ayrim sohalari, ayniqsa, astronomiya taraqqiy etganligini ko'rsatadi. Shoxlar saroyidagi astronomlar sayyoralar dunyosini tekshirganlar, fizika, matematika, falsafa, tabiiyot fanlari bilan shug'ullanganlar. Bu xalqlar qadimgi zamonlardan oq sug'orish inshootlari qurganlar, kanallar qaziganlar, kemalar yasaganlar, yulduzlarga qarab uzoq yerlarga safar qilganlar, mustaxkam imoratlar qurganlar, toshni eritib shisha ishlab chiqarganlar, shuningdek, bu xalqlar dehqonchilik va chorvachilik bilan ham shug'ullanganlar. Badiiy so'z san'ati, madaniyati bilan eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lgan sohadir. Badiiy so'z tajribasining o'sishi xilma-xil badiiy shakllarni, adabiy janrlarni vujudga keltiradi. Badiiy so'z san'ati yozuv va yozma adabiyotdan ko'p zamonlar ilgari og'zaki ijod shaklida paydo bo'lgan.

U og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, davrdan-davrga ko'chdi, natijada, qadimgi zamonlarga oid ayrim og'zaki adabiy yodgorliklar bizga qadar yetib keldi. Ularda o'zlarini chet el bosqinchilaridan yoki yovuz kuchlardan saqlash uchun kurashgan qahramonlar jasorati hikoya qilinadi.

GeRHASIP AFSONASI. Bir ajdar kishilarga ko'p baxsizliklar keltiradi, qabilaning xayoti xavf ostida qoladi. Qahramon Gershasp ajdarga qarshi kurashga o'tlanadi, ajdar maskaniga qarab yo'l oladi. Ajdarni qidiradi, lekin topolmaydi. U o't qalab ovqat pishirmoqchi bo'ladi. Ajdar katta bo'lganligi sababli Gershasp o'z o'chog'ini uning o'stiga qurgan bo'ladi. U ajdarning uxlab yotgan badanini qizitadi, ajdar qimirlay boshlaydi, shundan so'ng Gershasp uni payqab qoladi va dahshatli maxluqqa qarshi jang boshlaydi. Uni yengib, kishilarni halokatdan qutqaradi. (O'limni yenguvchi bahodir Gershasp).

ELIBEK AFSONASI. VIII-IX asrlarga mansub bu asarda quyidagilar tasvirlanadi:

Ular Elibek qabiladoshlaridan ko'p kishini qirib yuboradi. Raxshosh nomli dahshatli dev yuqumli kasallik tarqatib yuboradi. Fidokor Elibek el-yurtning talokatidan qutqarib qolmoq uchun dushmanlarga qarshi jangga o'tlanadi. U shaharhuda son-sanoqsiz jinlarga duch keladi, ular kishilarni burdalab, qonlarini to'qib, ichaklarini o'rab olgan emishlar. Jinlar vahimali shovqin-suron ko'tarib, unga yopirila boshlabdilar. Biroq Elibek qo'rqmabdi, yo'lbarsdek jangga o'tlanib, jinlarga qarshi bunday debdi: «Ey jinlar, menga bot so'zlangiz, meni shahrimdagi elni nega o'ldirasiz? Mening bu o'tkir qilichimni ko'ring, tanlaringizni burdalab tashlayman. Ular yana vahima solib, qurol ishlatib, Elibekni o'ldirmoqchi bo'ladilar. Biroq Elibekka bas kelolmaydilar. Elibek kuch-quvvati va shijoati bilan ularga dahshat soladi. Jinlarni yenggan Elibek shaharning janub tomonida, bir azim tolning kavgagida yashovchi uch ko'zli, olov tusli Raxshoshning el-yurtiga kasallik yuborayotganligini bilib, unga qarshi jang qiladi va uni yengadi.

«ZARINA VA STRIANGIYA». Shohlarning shohi o'lib, uning o'rniga xotini malika Zarina qabilaga bosh bo'libdi. Tadbirli va shijoatli bu ayol qabilaning osoishtaligi va mustaqilligini saqlab qolish uchun jonbozlik qilibdi. Shohlar bilan Midiya o'rtasida qattiq jang bo'libdi. Bu jangda malika Zarina katta jasorat ko'rstibdi. Biroq Midiya shaxzodasi Striangiya uni yarador qilibdi. Zarinaning botirligiga va husniga maxliyo bo'lgan Striangiya uni kechiribdi. Parfiya shoxi esa Zarinaga uylanib, shoxlarini o'ziga tobe qilmoqchi bo'libdi. Zarina uning taklifini rad etibdi. Biroq shox zo'rlik qilib unga uylanib, shoxlarni qaram qilibdi. Shu orada Parfiya bilan Midiya o'rtasida qattiq jang bo'lib, Midiyaning ko'p askarlari asir olinibdi. Zarina asirlar yordamida Parfiya shoxiga qarshi kurashib, najot topish rejasini o'ylabdi. Asirlar orasida Striangiya ham bo'lib, Zarina u bilan asirlarga bosh bo'lib, Parfiya shoxiga to'satdan hujum boshlaydi. Parfiya shoxi yengiladi, asirlar ozod bo'ladi. Zarina qabilasi (Shoxlar) ozodlikka erishadi. Striangiya Zarinani sevib qoladi, lekin xotini borligi uchun bunga jurat etolmaydi. Striangiya bunga chidolmasdan o'zini halok qiladi.

«RUSTAM» dostoni. Rustam devlarni shaharlari yonigacha quvib boradi, ko'p devlar halok bo'ladi, qolganlari shahar eshigini berkitib oladi. Yolg'iz Rustamdan mag'lub bo'lgan devlar g'azablanib, unga qarshi jangni davom ettirmoqchi bo'ladilar. It, ilon, cho'chqa, fil, tulkilarni minib yo'lga chiqadilar. Rustam uyquda, uning oti – Raxsh o'tlamoqda edi. Uzoqdan devlarni ko'rgan ot Rustamni uyg'otadi. Rustam devlarni yaqin keltirish uchun qochadi. Devlar uni tirik tutmoqchi bo'lib, quvadilar. Yaqinlashib qolgan devlarga Rustam to'satdan hujum qilib, ko'pini qirib tashlaydi. Devlarning bir qismi qochadi, lekin yaralanadi.

Bu adabiyotning maqsadi turkiy xalqlar o'rtasidagi qadimiy aloqalarni, do'stlik va birodarlikni ko'rsatib berish, vazifasi esa hozirgi avlodni xalqparvarlik, insonparvarlik, oliyanoblik an'analari ruhida tarbiyalashdir.

Milliy istiqloлга yerishgan hozirgi kunimiz uchun bu g'oyalar ma'naviy kamolot sari yetaklaydi. Ana shu og'zaki ijodning samarali ta'siri ostida xalq eposlari vujudga keldi. Eposdan so'ng esa yozma adabiyot yuzaga keldi.

Muammoli vaziyat: 1. afsona deb nimani aytiladi? Siz oila sharoitida biror afsona eshitganmisiz? 2. Turkiy so'zi ma'nosini izohlang. 3. O'zbek so'zi qachon va qanday kelib chiqadi? Talabalarga bu savollar yozdirib qo'yiladi. So'ng «Devonu lug'atit

turk» asari bo'yicha ma'lumot beriladi. Dars oxirida muammo yechimi so'raladi. Talabalar javob beradilar.

«DeVONU LUG'OTIT TURK» ASARI.

Bu asar qabilachilik tuzumi davri adabiyotining namunalarini, mavzusi va ifoda mazmuniga qarab, mehnat qo'shiqlari, qahramonlik qo'shiqlari, mavsum va marosim qo'shiqlari, ishqiy-lirik va ta'limiy she'rlar hamda maqollar kabi guruhlarga bo'lib bergan. Olim bularni qabila va urug'lar ichida yurib tekshirgan va to'plagan. Mehnat qo'shiqlari. Bu qo'shiqlar mehnat jarayonining mahsuli bo'lib, ular mehnat og'irliklarini yengillashtirish, xordiq chiqarish va yoshlarni mehnatga o'rgatish, chiniqtirish vazifasini o'taganlar. Ana shunday mehnatlardan biri ovchilik edi. Ov haqidagi qo'shiqlarda qabilalarning ovchilik usuli, ovda ov qushlari va turli hayvonlardan foydalanishlari tasvirlanadi:

Ov qushi berib yigitlarni qush oviga yuboraylik.

Chaqqon itlarimizni qush ketidan solib tishlatsinlar.

To'ng'izlarni tosh bilan urushga buyuraylik,

Bu yaxshi ishlarimiz bilan faxrlanaylik.

QOZOQ ADABIYOTI: ABAY QO'NONBOEVNING HAYOTI VA IJODIY YO'LI

Qozoq klassik adabiyotining asoschisi, ma'rifatparvar shoir Abay Ibrohim o'g'li Qo'nonboev 1845 yil 10 avgustda Semey viloyati (Abay tumani)ning Chingiz tog'i etaklaridagi To'pikli yaylovda chorvador oilasida dunyoga keldi.

Abay o'z yurtidagi diniy maktabda o'qib, 8 yoshida savodi chiqdi, so'ng Seminalatinf shahridagi Ahmad Rizo madrasasida o'qidi. Bu yerda A.Navoiy, Sh.Sa'diy, X.Hofiz, M.Fuzuliy kabi sharq klassiklari asarlarini o'rgandi, ularning ayrim g'azallarini yod oldi. «Fuzuliy», Shamsiy Sayqaliy (1858) «Yuzi ravshan» she'rlari Abayning bolalik davrida sharq klassiklari uslubida yozilgan daslabki asarlari edi. Shaharda 3 yil ta'lim olgach, otasi uni o'qishdan olib, elni boshqarish ishlariga aralashtirdi. Lekin Abay o'z bilimini oshirishni afzal ko'rdi. Qunt bilan mutolaa qilib, Sharq va G'arb adabiyoti bilan tanishdi. 19 yoshida «Alifbe» she'rini yozib, xalqni ma'rifatga undadi. Abayning ijodiy merosidan 1865-1885(20yil)yillarda yozgan she'rlari topilgani yo'q.

Abay hayotidagi eng sermahsul davr 1886-1889, 1895 yillar hisoblanadi. Urug'larning o'zaro janjalidan, eskilik va nodonlikdan bezigan mutafakkir bu illatlarga qarshi qalamini qurol qilib kurashga otlandi. Cho'qon Valixonov bilan Ibray Oltinsarin boshlagan ma'rifatparvlik g'oyalari ilgari surdi. «Ilm topmay maqtanma», «Yoshlikda ilm bor deb o'ylamadim», «Internatda o'qiydi»(1886) kabi she'rlarida ilm-ma'rifat o'rganishga chaqirdi.

Abay progressiv g'oyalarni targ'ib etgani uchun 1887 yil Seminalatinskka surgun qilingan demokratlar bilan tanishdi. Abay xalqni insonparvarlikka da'vat etuvchi «Mening elim- qozog'im», «Boylar yurar molin ardoqlab», «Adashganning oldi yo'l» (1886) kabi ko'plab she'rlar yozdi. Abay xalqni ilm-ma'rifatga, madaniyatga undovchi 44 ta hikoyadan iborat «Naqliy so'zlar» deb atalgan falsafiy kitob yozdi.

Abay faoliyatidagi muhim ishlardan biri yoshlarni tarbiyalash bo'ldi. Shoirlik iste'dodi sezilgan yoshlarga o'zi mavzu berib, dostonlar yozdirib, tanqidiy mulohazalarni bildirib bordi. Masalan, o'g'illari – Mag'ash (1869-1904)ga «Medgat

Qosim» Oqilboy (1863-1904)ga «Qissai Yusuf» dostonlarini yozishda rahbarlik qildi. Abay ijodidan bizgacha 200 dan ortiq she'r, 4 ta doston («Ma'sud», «Iskandar», «Azim hikoyasi», «Vodim») yetib kelgan. Abay she'riyatining mavzusi rang-barang bo'lib, xalqni ilm-marifatga, insoniylikka da'vat etuvchi she'rlar bilan bir qatorda, muhabbat va do'stlikni ulug'lovchi «Ey muhabbat», «Ey do'stik», «Yigitlar o'yin arzon, kulgi qimmat», «Ba'zan tusar ko'ngil», «Qiz so'zi», «Yigit so'zi», «Ko'zimning qorasi», «Oshiq so'zi – tilsiz so'z», «Tat'yananing qo'shig'i» kabi lirik she'rlar ham uchraydi. Abayning bu mavzudagi she'rlarida «Muhabbatsiz, do'stiksiz hayot bo'lishi mumkin emas», hayotda inson insonni sevmasdan jamiyat uchun foydali ish qilish qiyin degan g'oyani ilgari surildi.

Qozoq adabiyoti va qozoq adabiy tiliga asoslangan, qozoq xalqini boshqa xalqlar madaniyatidan baxramand bo'lishga undagan, ilm-ma'rifat, insonparvarlikka da'vat qilgan qozoq xalqining ulug' mutafakkir va ma'rifatparvar shoiri Abay Qo'nonboev Sharq adabiyotining so'nmas yulduzlari qatoridan munosib o'rin oldi.

Abay lirikasida muhabbatning ikki tomonlama pokiza samimiy bo'lishini, shundagina sevgi lazzat bag'ishlay olishini ta'kidlaydi:

Berdim salom qalamqosh,

Senga qurbon mol ham bosh.

Seni o'ylab kunu tun,

Oqar ko'zdan qaynoq yosh.

Asil odam aynimas,

Ishq o'tidan qayrilmas.

Ko'rsam ham, ko'rmasam ham,

Ko'ngil sendan ayrilmas.

Abay poeziga doston janrini olib kirdi. Yaratgan dostonlarida ilg'or, demokratik g'oyalarni ilgari surdi. Masalan, «Iskandar», «Ma'sud» dostonlarida bunday g'oyalar badiiy tasvir etildi.

Abay badiiy prozada ham qalam tebratdi. «Nasihah» nomli epik asarida didaktik g'oyalarni ilgari surdi, kelgusi avlodlarga (nasi'atlar yozib qoldirdi).

Abay birinchi qozoq kompozitori ham edi. U bir qancha she'riy asarlarga kuy bastalagan. Abay 1904 yil vafot etdi.

TURKMAN ADABIYOTI. MAXTUMQULI IJODI.

Turkman klassik adabiyotining yetakchi shoir va mutafakkiri Maxtumquli Firoqiy 1733 yilda Turkman cho'li(Eron)ning Oqto'qay qishlog'ida Davlatmand Ozodiy oilasida tug'ildi. U avval ovul maktabida, so'ng Xevadagi Sherg'oz, Qizilbek ovulidagi (Chorjo'y viloyat Xalach rayoni) Idrisbobo mpadrasalarida ta'sil ko'rdi. Maxtumquli yoshligida bir qancha fanlarni chuqur o'zlashtirdi, shu bilan birga, zargarlik 'unarini o'rganadi. Ozarbayjon, Eron, Afg'oniston, Hindiston, O'rta Osiyo mamlakatlariga sayo'atlar qildi. Nizomiy, Firdavsiy, Navoiy ijodlaridan ba'ramand bo'ldi. 9 yoshidan (otasi uyidagi yig'inlar ta'sirida) qo'shiqlar to'qiy boshladi.

Maxtumquli chet ellarda bo'lar ekan, xalq hayoti bilan tanishdi, xalq dushmanlariga qarshi kurashdi, bir necha marta asir tushdi, lekin topqirligi bilan o'zini saqlab qoldi. Maxtumquli yoshligida Mengli ismli qizni sevgan, lekin talab qilingan qalin pulini to'lay olmagach, qizning otasi uni boshqa birovga sotib yuboradi. Shoir ko'pgina she'rlarida ana shu Mengli qizni tilga oladi:

A) muhabbat mad'i:

Bir xulqi bordir so'zida,

Hikoyat bordir ko'zida

Mengli yorni gul yuzida

Bizga qarshi kamon bormi?

Shoir Oqqiz ismli bir qizga uylanadi va ikki o'g'li bo'ladi, lekin ular yoshligidan oq vafot etadi. Bu og'ir judolikdan keyin shoirga oilaviy hayot lazzat bera olmaydi. U yozadi:

Jahongashta devonalar,

Men kabi hych yongan bormi?

Ishq qurboni parvonalar,

U olovdan qongan bormi?

U hayotining so'nggi damlarida o'zning qadrdon tog'lari ko'rinib turadigan joyga chiqarib qo'yishlarini iltimos qiladi. Maxtumquli qorli chuqqilarga tiqilib, hayotning foniyligi va dunyoning abadiyligi tug'risida so'nggi she'rlarini aytdi. 1793 yili uning otasi qabri yoniga – Sangi tog' yonbag'riga dafn etadilar.

Maxtumquli bir qancha lirik she'rlar, liroepik dostonlar, g'azallar yozadi. Bizgacha uning 20 ming misraga yaqin she'rlari yetib kelgan.

B) Xalq mavzusi:

Ularda xalq hayoti, urf-odati, o'sha davrdagi ijtimoiy voqyealar aks etgan (masalan, «Bo'lmasa», «Kelgay», «Yomg'ir yog'dir», «Naylayin», «etmas», «Bo'lar», «Kechdi zamona», «Bilinmas» kabi). Maxtumquli lirikasida falsafiy-sufistik oqimning ta'siri seziladi, lekin unda dunyoning grajdanlik she'riyatining ta'siri ustun edi.

V) Vatanni ulug'lash. Uning poeziyasi vatanga muhabbat, adolatli podshohini orzu qilish, adolatsizlikni fosh etish ru'i bilan sug'orilgan. M., «Chaqiriq» she'rida turkman xalqini Eron bosqinchilariga qarshi kurashga da'vat etadi. Maxtumquli turkman she'riyatida shakl va mazmun novatori edi. U g'azalchilikni mukammallashtirishda, ishq-muhabbatni ijtimoiy mavzu bilan bog'lab rivojlantirdi. Maxtumquli ijodida vatanparvarlik mavzusidagi «El ko'zlar», shuningdek, insonni, insoniy muhabbatni ulg'lovchi she'rlar asosiy o'rinni egallaydi. Ijodida hukmdorlar zulmi ostida ezilgan xalqning og'ir a'voli yorqin ifodalangan shoir dingu buysunsada, boy-feodallarning tayanchiga otlangan islom dini vakillariga qarshi chiqadi. U oddiy xalq manfaatlarini ko'zlovchi jamiyatni orzu qiladi. Ammo shoir antigonistik ziddiyatlarni anglab yetmaydi, ijtimoiy tengsizlikni bilishga intiladi. Maxtumquli turkman adabiyotiga obrazli xalq tilini, maqol va matalni birinchi bo'lib olib kiradi. Shoir qo'shiqlarining tematikasi xilma-xil. Birinchi o'rinda qahramonlik, ikkinchi o'rinda axloqiy-didaktik, so'ng qadimgi afsona va rivoyatlarni hikoya qiluvchi syujetli qo'shiqlar ham bor.

Qabilalar o'rtasidagi nizolarni tugatishga, turkman qabilalarining birlashishlariga chaqiriq shoir ijodida asosiy o'rinni egallaydi.

Turkmanlar bolasi bir bo'lib belni,

Quritar qulzumi, daryoi Nilni.

Taka yovmut, cho'qlang, yazir ilili,

Bir davlatga qulluq esak boshimiz.

Ammo ozodlikka erishish, mustaqillikni saqlash uchun birlashishning o'zi yetmas
buning uchun jangda qahramonlik ko'rsatish, dushmanga shafqatsiz bo'lish lozim
edi.

Maxtumquli boyluk uchun hech qanday qabihlikdan qaytmaydigan qo'rqqoq, sotqin
kishilarga qarama-qarshi ideal yigit obrazini yaratadi. U turli illatlarga, bema'ni
odatlariga qarshi chiqadi. Shoir qo'shiqlarida yana bir tema dunyoning foniyligi,
odam umrining qisqaligi ko'p marta kuylanadi.:

Doniydan boqiyga ko'ch, 'a kuch bo'lsa,

Termulib sen boqa-boqa ketarsen.

Ajal jomi berilib, ich 'a ich bo'lsa,

Jon achchig'in cheka-cheka ketarsan.

Maxtumquli fikricha, inson umri qisqadir, shuning uchun o'tkinchi muvaffaqiyatlar
bilan maqtanish va takabburlanish kerak emas. Shu bilan birga, boshga baxsizlik
tushganda, ruhan tushkunlikka tushmaslik kerak, chunki baxt singari kulfat ham bir
zunda o'tib ketadigan narsadir. Yaxshi ishni ertaga qoldirib bo'lmaydi, faqat yaxshi
ish orqali kishining ismi asrlar davomida saqlanib qoladi. shunday qilib, undagi
pessimistik kayfiyatlar optimistik kayfiyatlarga aylanadi.

Maxtumquli she'rlari kitobxonlaridan buyuk turkman shoiri ijodiyoti bilan, turkman
xalqining o'ziga xos madaniyati bilan tanishishga va xalqlarimiz o'rtasidagi
do'stlikni yanada mustakamlashga yordam beradi.

QIRG'IZ ADABIYOTI. CHINGIZ AYTAMATOV HAYOTI, IJODI VA PROZASI.

Qirg'iz xalq yozuvchisi, Mehnat Qahramoni Ch. Aytmatov 1928 yil Talas
vodiysidagi Shakar qishlog'ida xizmatchi oilasida tug'ildi. 1953 yil Bishkek qishloq
xo'jalik institutini, 1958 yil Moskvadagi M. Gorkiy nomli jahon adabiyot institutini
bitirdi. Qirg'iz va rus tillarida kichik hikoyalar yoza boshladi. «Gazetachi
Dzyuydo»(1952), «Hoshim»(1952), «Sepoyachi»(1952), «Oq yomg'ir»(1954),
«Raqiblar»(1955) kabi to'ng'ich hikoyalarida qirg'iz xalqining o'tmish tarixidagi
illatlarni qoraladi. «Boydamtol sohillarida» (1955), «Yuzma-yuz»(1957) asarlarida
halollik va to'g'rilikni, insof va adolatni ulug'ladi. «Jamila»(1958) qissasi uni
jahonga tanitdi. Bu lirik qissasida go'zallik va ozodlik qaror topgan, yangi
hayotbaxsh davr ruhi, yoshlarning jo'shqin hayoti, pok va qaynoq sevgi kuylandi.
Bu qissa qirg'iz adabiyotida xotin-qizlar ozodligini ishlanishida yangi bosqich
bo'ldi.

«Sarvqomat dilbarim», «Bo'tako'z»(1961), «Birinci muallim»(1960), «Somon
yo'li»(1963), «Alvido Gulsari»(1966) kabi xalqchil qissalari elu xalqqa manzur
bo'ldi. Yozuvchi 1963 yili «Tog' va sahro» qissalari uchun Oliy mukofotga sazovor
bo'ldi.

Hozirgi Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi Prezidenti. «Aldvido
Gulsari»da shaxs va ijtimoiy burch, eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurash, sevgi
va do'stga sadoqat kabi muhim mavzular realistik ifoda etildi. Shuning uchun bu
asar 1968 yilda Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

«Oq kema» qissasida hayot va nafosat, inson va tabiat, moziy va kelajak, zulm va
shafqat, ezgulik va yovuzlik, insonparvarlik va vahshiylik, yozuvchi va voqyelik
kabi falsafiy muammolar tasvirlandi. Bu qissa juda katta badiiy ko'tarinki kuchga

ega bo'lib, Aytmatov ijodida yangi sahifa ochdi. Aytmatov qahramonlari qalbi keng ichki dunyosi boy, oddiy mehnatkash kishilardir. Ular Asya, Asal, Asilboy, Saida, Jamila, Kamol, Doniyor, To'lg'anoy, Oltinoy, Suvonqul, Dushan, Tanaboy, Sultonmurod, Mo'min buvalar o'zlarining rostgo'yligi, matonati, yuksak insoniy fazilatlari bilan keng kitobxonlar muhabbatini qozondi.

M.Avezov yozganidek, «Aytmatov qahramonlari qalbi keng, ichki dunyosi boy, samimiy, rostgo'y, manfaatli, yuksak insoniy fazilatlarga ega ekanliklari uchun ham kitobxonlar qalbidan o'rin oldi».

Ch.Aytmatov o'z asarlari bilan xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlikni ko'rsatib berdi. U realistik prozaning barcha imkoniyatlaridan foydalanishi tufayli prozaning badiiy takomillashuviga katta hissa qo'shdi. Ch.Aytmatov ijodi buloq suvdek musaffo, bahor shabbodasidek yoqimlidir.

Adib asarlarini o'qigan kitobxon o'zini yangi bir olamga, notanish kishilar orasiga borib qolgandek his qiladi. Bu o'lkada yashovchi kishilarning qalb orzularini mehnatda mo'jizalar yaratayotganliklarini, hayotga, insonga, ona-yeriga bo'lgan muhabbatlarini ko'rib, quvonchlarga to'ladi.

«Sarvqomat dilbarim», «Bo'tako'z», «Jamila», «Birinchi muallim», «Alvido Gulsari» asarlari ekranlashtirilgan. Ko'pgina asarlari chet tillariga tarjima qilingan. «Jamila», «Alvido Gulsari», «Oq kema»ni o'zbek tiliga A.Rashidov tarjima qilgan.

Ch.Aytmatov «Asrga tatigulik kun» asarida ikki qahramon orqali o'z g'oyaviy niyatlarini ifoda etadi, ba'zi voqeya-hodisalarni shu qahramon taqdiri bilan bog'laydi. Bulardan biri Qozongap, ikkinchisi Edigey bo'lib, temir yo'l xizmatchilari. Muallif ularni Qozog'iston dashtiga olib borib tashlaydi. Bu yerda zahmatkashlarning matonati, mustahkam irodasi sinovdan o'tkaziladi. Bu ikki kishi bo'ronlardan, izg'irinlardan, turli-tuman dahshatlardan qo'rqmasdan mardonlik o'tadilar. Qozongap 44 yil, Edigey 30 yildan oshiq vaqt ana shunday xizmatda bo'ladilar. Edigeydagi vatanga muhabbat uni frontga yetaklaydi. Frontda u jon olib, jon berdi, nihoyat kontuziya bo'lib frontdan qaytgan Edigey rohat qilib dam olishni istamaydi. Shunday qilib, u saxroga, temir yo'lga chorlaydi. Edigeyning insoniylikdan mahrum bo'lgan Sobitjon hamda, aql-farosatdan chetda qolgan Tansiqboev bilan uchrashuvda uning g'azabi tohsa, oilasiga hurmat bildirishida, Zarinaga sevgi izhor yetishida, Kozongapga mehribonlik ko'rsatishida, Abutolibni himoya qilishida uning olijanob fazilatlari namoyon bo'ladi. «Men tirik ekanman, deydi-u nohaqlikni ko'rib indamay turolmayman, jonim boricha kurashaman!».

Qahramoning bu so'zlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, jamiyatda ba'zi bir kishilar qing'ir shi bilan shug'ilanganligini bilsak-da loqayd qarash xollari mavjud. Natijada vatan boyligi nopok kimsalar qo'lga tushadi. Asarda shaxsga sig'inish davridagi yaramas oqibatlarini ochishga ham ahamiyat beriladi, asosiz qurbon berishlar qattiq qoralanadi.

Bu hodisalar ikki-uch misolida beriladi. Qozongapning o'rta hol otasining badarg'a qilinishi frontda, mardonavor jang qilib, Yugaslaviyada portizanlik qilgan Abutolibni qamashlari orqali qahramoning ichki kechinmalari ochib beriladi.

Asarda ikki xil oila muhitiga duch kelamiz, ya'ni Abutolib oilasida halollik, poklik, bolalarni to'g'ri tarbiyalash hukm sursa, Qozongap oilasida uning aksi

to'rinadi. Qozongapning vafoti munosabati bilan oilaning ham ma'naviy halokatga qarab yo'l olganligiga urg'u qilinadi.

Abutolib bolalariga meros qoldirishinig, shu merosda o'zining tirik ruhini saqlashni, shu orqali haqiqat ziyosini ularni ongiga singdirishni niyat qiladi. Bu meros o'ziga sos. U mol-mulk, davlat, katta boylik emas, bunday narsa baxt ham, balo ham keltirishi mumkin. Abutolib qoldirgan merosining hech kimga zarari yetmaydi, faqat foyda keltiradi. U ham bo'lsa o'zining hayotini, faoliyatini ifoda etuvchi yozuvchilar esdaliklaridir. Chunki, bu ibratli esdaliklar uning farzandlari uchungina emas, boshqa yoshlar uchun ham tarbiya maktabi bo'lib xizmat qiladi. Kazongap mehnatda mardlik ko'rsatish orqali o'g'lini tarbiyalashni istamaydi. Shu sababdan bot-yo'g'ini Sobitjonga to'kib soladi. Afsuski, ota tarbiyasi unga yo'qmaydi, otasi ungari insofli, kishilarga mehribon bo'lib o'smaydi. Shuning uchun otasini kumish paytdida ham loqayd bo'ladi. Otasi qadriga yetmagan kishidan Vatanga xizmat qiluvchi chiqmaydi. Bunday odamning niyati -maqsadi qolish, ko'proq martabaga erishish. Buning uchun uning quroli laganbardorlik. O'zidan balandroqning oyog'ini o'psa, kichiklarga oyog'i uchini ko'rsatadigan mahluq.

Sobitjonga o'xshashlar hayotda uchrab turadi. Ota -onalarning foydalari tekkanida, ular farzandlariga kerak bo'ladilar-u, o'jizlanib qolganda ulardan qutilish yo'lini qidiradiganlar oz bo'lsa-da mavjud. Bu achinarli hol Ch.Aytmatovni ham tashvishga soladi.

Shu munosabat bilan muallif ertangi kunga nazar tashlab, kelajakdagi yoshlarning hayoti, faoliyati qanday kechishi masalasiga ham to'xtaydi.

Asardagi Edigey ideal obraz emas. U hayotiy, asl obraz. Unda oliyjanob fazilatlar bilan birga, insonda uchrab turadigan o'jiz tomonlari ham mavjud. U hayotini

Ukubolani juda sevgani, hurmatlagani holda, Zarifaga ko'ngil qo'yadi. Asarda insonni xotiradan, aqldan judo qilish dahshat ekanligi, o'gil onasini bilmasdan, otib o'ldirishi zaminida achinarli ma'no yotadi.

Nayman ona inson qaerda bo'lishidan qat'iy nazar, kishining farzandi ekanligini unutmazligi lozim, deyishga majbur bo'ladi. Asarda Ch.Aytmatov qirg'iz xalqining feodal o'tmishidagi qora dog' bo'lib qolgan xotirasidan ayrish fojiasini qattiq qoralaydi. Jo'lamon o'z xohishi honasini eslay olmaydigan holga keltirilganidan afsuslangan muallif junjanglar degan qabilaning beshafqatligiga, zolimligiga nafrat bilan qaraydi.

Ch.Aytmatov faqat qirg'iz yozuvchisigina emas, butun Sharq, G'arb tan olgan yozuvchidir. U yaratgan barcha asarlar xalqimizni ezgulikka, to'g'rilikka, halollikka, mehr-oqibatga, sahovatga, mehnatsevarlikka, samimiylikka undaydi. Uning «Asirga tatagulik kun», «Jamila» qissalari Hamza teatri san'atkorlari tomonidan ekranlashtirildi.

OZARBAYJON ADABIYOTI. FUZULIYNING HAYOTI VA IJODI.

Muhammad Fuzuliy ulug' Ozarbayjon shoiri va mutafakkiridir. Uning adabiy faoliyati bilan ozarbayjon adabiy tili va adabiyoti taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Sharq xalqlari mumtoz adabiyotining ko'p asrli an'alaridan ta'lim olgan Fuzuliy faqat Ozarbayjon adabiyoti taraqqiyotiga emas, bir qator Yaqin Sharq xalqlari namoyandalari ijodiga ham samarali ta'sir etdi.

Fuzuliy 1498 yil Iroqning Karbalo shahrida tug'ildi. Uning otasi Sulaymon Karbaloning ma'rifat ahillaridan biri edi.

Muhammad avval maktabda, keyin madrasada taxsil oldi, u tarix, medicina, astronomiya, geometriya, logika va boshqa fanlar bilan shug'ullanadi. Maktab yillaridanoq she'r yozishni mashq qiladi, adabiyot ahillari orasida shuhrat qozonadi.

XIV asrda Ozarbayjon adabiyoti shakllana boshladi. XVI asrda bu til Ozarbayjonlardagina emas, balki Iroqqa ham, xususan, Bog'dod, Karbalo shaharlarining adabiy doirasida ham sezilarli o'rin oladi. Ozarbayjon badiiy tili va adabiyoti taraqqiyotida XVI asrda yetishgan Kaloniy, Shamsiy, Bog'dodiy, Kishvari va ni'oyat so'z san'atkori M.Fuzuliy katta rol o'ynadi.

Fuzuliy buyuk shoir, adib va tarjimondir. U Ozarbayjon tilida yaratilgan asarlaridan tashqari, fors-tojik va arab tillarida ham qimmatli asarlar yozdi. Fuzuliy katta va boy adabiy meros qoldirdi. Ozarbayjon va fors-tojik tilidagi devonlari, qasidalar to'plami, »Layli va Majnun» dostoni, »Bangu boda», «»Suhbat ul aqmor» (»Mevalar suhbat») munozaralari, «»Shikoyatnoma»» hajviyasi va boshqalar bu adabiy merosning asosini tashkil etadi. Fuzuliy jo'shqin va mohir lirik shoiridir. Uning lirikasi diniy mistik va reaksion saroy adabiyotiga qarshi kurashda o'sdi, kamol topdi. Fuzuliy lirik turning xilma xil janrlarida she'rlar bitdi, uning devonlarida g'azal, muxammas, ruboiy, qit'a, tarji'band, tarki'band va boshqa janrdagi she'rlarni ko'ramiz. Biroq g'azal Fuzuliy lirikasining yetakchi janri bo'lib qoladi. Eng nozik xis tuyg'ularni g'azallarida mujassamlashtiradi. U g'azal janrining mohiyatini qayt etib yozadi:

G'azal bildirar shoir qudratini,
G'azal ortirar nazim shuhratin,
Ko'ngul, garchi ashori cho'k rasim vor,
G'azal rasmin et jumladan ixtiyor.
Ki, Har maxfilni ziynatidir g'azal.
Xiradmanllar san'tidir g'azal.

Fuzuliy hayotida oshig'i, sevgining hassos kuychisidir. U tabiat lavxalaridan, insoning faoliyati va madaniy fazilatlaridan zavq-shavq oladi, sevgini "noshgan komil" deb tariflaydi. Binobarin, shoir tarkidunyoni va badbin shayx zoxidlardan kuladi, aldamchi, reokorlarni fosh etadi.

Muxabbat lazzatidan bexabardir zoxidi g'ofil, Fuzuliy, ishq zavqini zavq ishq bor ulandan so'r. Shoir odamlarni ilm-ma'rifatga jamiat uchun foydali ishlar bilan shug'ullanishga chaqirdi.

Ey ko'zum, zog'in maorif birla rangni edi ko'r,
Xatti mushkin, pardan ruxsori gulgun o'lmadan.
Suhbati arbobi ilmu ma'riqatdan kasb qil
Xusun siyrat, surati xali digargun o'lmadan.

Fuzuliy lirikasi g'azab va nafrat lirikasi hamdir. Shoir o'z she'rlarida yashagan illatlarni tanqid qiladi, adolatsizlikka razolatga qarshi g'azab-nafrat hislarini ifodalaydi. Shoir feodal-klerikal istebdodga qarshi ochiq kurasha olmasa-da, uni fosh etish uchun ishqiy lirikadan foydalanadi:

Davr javridan tanu jonimda ro'at qolmadi,
Surati holimda asori farog'at qolmadi.

Mehnatu g'am chekmagan minba'd toqat qolmadi,
Rahim qil davlatli sultonim muruvvat chog'idur.

Fuzuliy qasidalarida mubolag'ali maqtovlarga berilib ketmaydi, balki feodal sultondorlarni insofli - adaolatli bo'lishga, chaqiradi, ularga o'git beradi, adolatsizlik va insofsizlikdan shikoyat qiladi. Fuzuliy ustoz dostonavisidir. U 1537 yilda «»Layli va Majnun»» dostonini yaratadi. Fuzuliy o'ziga qadar ko'pgina shoirlar tomonidan yaratilgan «»Layli va Majnun»» masida kitobxonlarga manzur bo'la oladigan yangi bir asar yaratishdek g'oyat og'ir va mushkul ishni jasorat bilan bajaradi. U Layli va Majnun mavzusini qayta ishlab, «Layli va Majnun» galareyasiga yangi arigenal doston qo'shdi. Shoir dostonga yashagan muhitning hayot haqiqati va ruhini angdirdi, dostoning mohiyati va kompazitsiyasiga, obrazlari va portretlariga katta o'zgarishlar va yangiliklar kiritdi. U Laylining maktabdan chaqirib olinishi, onaning o'qitishini Laylining javobi, Qaysning tog' bilan, Laylining chiroq, va oy shamol bilan suxbatini kiritdi, ayrim epizodlarni qisqartirdi. Epik tasvir bilan lirikani bir-biriga uyg'unlashtirdi, epizodlarga ko'plab lirik she'rlar, g'azallar kiritdi.

Fuzuliy «»Layli va Majnun»»ni XVI asar voqyeligining fojiali lavhasi darajasiga ko'tardi. Shoir bu asari bilan feodal-klerikal axloqqa, ijtimoiy adolatsizlikka, inson suquqining poymol qilishiga qarshi isyon ko'taradi. Shoir qahramonlarning ruhiy kechinmalari tasviri orqali yashagan muhitning illatlariga qarshi g'azab va nafrat toshlarini yog'dirdi. Feodal odatlari Layli va Majnunlarning musibat va kulfat soldi, ular orzusi ushalmadi. Zolim ota Laylini sotib yuboradi. Qayg'u - alam girdobida qolgan Layli bemahal xalok bo'ladi. Layli qabri ustida paydo bo'lgan Majnun mungli g'azal o'qiydi:

Yondi jonim hajr ila vasli ruxi yor istaram,
Dardmandi furqatam darmoni diydor istaram.
Bulbuli zoram, degil bexuda afg'on ayladim.
Qolmadim nolon karas qo'ynida gulzor istadim.

Majnun ham xalok bo'ladi.

Fuzuliy ozarbayjon adabiyotida munozara janrining go'zal namunalarini yaratdi. U yaratgan munozaralardan biri «»Bangu boda»» bo'lib, shoir majoziy feodal xukmronlarining mutakabbirligini, ishratparastligini tanqid qildi. Asarda boda majoziy obrazlaridan tashqari Sokiy, Araq, Bo'za, Afyun kabilar ishtirok etadi. Bangga qarshi jangga o'tlanayotgan Boda davlat kengashini chaqiradi, uning tarafdorlaridan biri qo'qqisdan jang boshlaydi, yana biri hiyla ishlatishni maslaxat beradi. Boda Bangga elchi yuboradi. Ikki tomondan o'z "sifati" va "fazilatleri" bilan maqtanishga kirishdi:

May aydir: man nabirai takam,
Bang aydir: san palidu mak pokam.
May aydir: man nadimu sultonam,
Bang otadir: piri ahli urfonam.
May aydir: xokimi havasamu xusha.
Bang aydir: sufiyamman, arzaqpush,
May aydir: man shafiq kimi olam,
Bang aydir: man sipexr timsolam.

Og‘zaki jang harbiy to‘qnashuvga aylandi. Boda g‘olib chiqdi. Biroq shu ikki tomon timsolida ham feodal aristokrat tabaqalarini, ularning manmanlik, munofiqlik, buzuqlik kabi xususiyatlarini fosh etdi. Shuningdek, shoir »Suhbat al-asror» (»Mevalar suhbat») munozarasida turli mevalarning o‘zaro munozarasi orqali feodal xukmdorlar saroydagi ixtiloflarni, ayonlarning kibr - xavosini, axloq, tubanlikni ochib tashladi. Fuzuliy fors-tojik tilidagi «»Sixat-va Maraz», «»Rind va Zohid» kabi asarlarida ham munozara usulini qo‘llaydi. «»Sihat va Maraz» da insob a‘zolari o‘rtasida munozara boradi. Yozuvchi salomatlikni saqlash borasida o‘z davr meditsina fani saviyasida fikr yuritadi. «»Rind va Zohid» da esa ota va o‘g‘il o‘rtasida shakl va mazmun savod va ilm-fan, dehqonchilik va tijorat, oila va bola tarbiyasi yuzasidan munozara boradi. Ota zohid, tarkidunyochi, o‘g‘il Rind, yan reaksiyon bo‘lib taraqqiyparvar fikrlarini qoralaydi. Ota - bola shaharga keladilar, ota o‘g‘ilni masjidga boshlaydi. O‘g‘il bunga ko‘nmaydi, mayxonaga yo‘l oladi. Ota bundan darg‘azab bo‘ladi. Oxirida ota - bola kelishib masjid bilan mayxona birdi - degan xulosaga keladilar. Asarda reaksiyon qarashlarni, nodonlik va jaholatni fosh etadi. Maktub shaklida yozilgan «Shikoyatnoma» hajviyasida Fuzuliy feodal saroy va uning mahkamalaridagi poraxo‘rlik, tamagirlik, munofiqlik va xushomadgo‘ylik kabi odatlarni kulgi qamchisi bilan savalaydi. Fuzuliy bulardan tashqari yana bir necha she‘riy, nasriy asarlar yaratdi.

M. Fuzuliy tarjimon ham edi.

Xusayin Vazning «Razvat-ush shuhado» (»Shoxidlar bog‘i»), Jomiyning «»Xadisi arbain» (Qiriq hadis) kabi asarlarni Ozarbayjon tiliga tarjima qildi. 1556 yil vafot etdi.

QORAQOLPOQ ADABIYOTI. XALQ SHOIRI BERDAQ.

Qoraqalpoq adabiyotining asoschisi, demokrat shoir Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li Berdaq Orol dengizi janubidagi «Mo‘ynoq rayonida kambag‘al oilada dunyoga keldi. Avval ovul maktabida so‘ng madrasada ta‘sil ko‘rdi. A.Navoiy, Fuzuliy, Mahtumquli va Qoraqalpoq klassik shoiri Kunjuma asarlarini chuqur mutolaa qildi. U tarix va xalq og‘zaki ijodini yaxshi o‘zlashtirdi. Berdaqning lirik she‘er dostonlarida Qoraqalpoq xalqining 18-19 asrlardagi ijtimoiy hayoti o‘z ifodasini topgan. U o‘z davri voqyealariga demokrat shoir sifatida baho beradi, asarlarida tinchlik, insonparvarlik, vatanparvarlik va adolat g‘oyalarini ilgari suradi. Berdaq ijodida yozilgan, xo‘rlangan xalqning ayanchli ahvoli asosiy mavzu bo‘ldi. «Soliq, «Umrin, «Bo‘lgan emas, «Bu yil» kabi she‘rlarida kambag‘al xalqning og‘ir turmushini, ekspluatator sinflarining shavqatsizligini ko‘rsatib mehnatkash ommaning qayg‘u alamini kuylaydi. «Shoir yaxshiroq», «Shekilli» she‘rlarida «Ahmoq podisho» dostonida ijtimoiy tengsizlik, zulm hukmronlik qilgan davirni qoralaydi, haqiqat uchun, xalq ommasinining baxti va kelajagi uchun fidokor kurashchilarni orzu qiladi.

Tarixiy mavzudagi «»Avlodlar», «»Ernazarboy», «Omongeldi» she‘rlariga shoir xonlar zulmiga qarshi kurashgan xalq qahramonlarini fahr bilan kuylaydi. Berdaq «»Avlodlar» asarida Qoraqalpoq xalqi bilan O‘rta Osiyoning xalqlari o‘rtasidagi mushtarak voqyealarni qalamga oladi, qabila va xalqlarning kelib chiqishi xususida o‘z fikrlarini bayon etadi. «Omongeldi» dostonida Buxoro amirligiga qarshi qo‘zg‘olonning boshlig‘i Omongeldining Jasoratini tasvirlaydi.

Niva xonligi zulmiga qarshi ko'tarilgan isyon (1855-56) ga bag'ishlangan «Uzambarboy» dostoni asosida milliy ozodlik g'oyasi yotadi unda isyon va uning taxbarlariga taxsin hamda xon zulmiga nafrat bildiradi.

Berdaq ijodi ko'p qirrali va murakkab bo'lib, dinni yo'qotish tarafdori emas lekin din vositasida mehnatkashlarga zulm o'tkazayotgan ayrim ruhoniylarning kirdikorlarini «Yaxshiroq», «Shekilli» asarlarida fosh etadi. «O'ylanma», «Kelinchak» she'rlarida ayollar huquqini himoya qiladi. «O'g'limga», «Axmoq bo'lma» she'rlarida yoshlarni vatanni sevishga, ma'rifatni egallashga chaqiradi.

Shoirning «Axmoq poshsho» dostonida oddiy mehnatkash qiz jasorati ifodalaniadi. Guloyim-baliqchi cholning qizi. U xalqni zolim podshoga qarshi kurashga chorlaydi. Kurash natijasida xalq g'alaba qozonadi, tinch va farovon hayotga erishadi. Bu dostonda shoirning ijtimoiy qarashlari tasvirlanadi. Biroq Berdaq ijtimoiy tengsizlik mohiyatini to'la tushunib yetmaydi, kelajakdagi jamiyat va uning taraqqiyotini ham xira tasavvur qiladi. Shunday bo'lsa-da, mehnatkash xalqning qashshoqligiga xonu beklar, boylar va otaliqlar sababchi ekanligini anglaydi. Ular shular zulmidan qutilsagina baxtiyor hayot kechirishi mumkinligiga ishonadi. She'riy mushohadalari va hayotga qarashlarida, Berdaq kambag'allarning xo'rlanishi va yezilishiga norozilik bildiradi. Xalq hayoti haqida qayg'uradi. Haqiqat tuntasini orzu qiladi.

Berdaq ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashdi stixiyali norozilik pozitsiyasida edi. U xalqning baxtli hayotini orzu qilar ekan, «Yordam ber», «Izladim» she'rlarida xudoni yordamga chaqiradi, baxtni har yerdan izlaydi, odil shohni o'ylaydi. Ayni paytda odil shoh fikrlaridan qaytib «Dunyo yaralganidan buyon odil shoh bo'lga emas» dedi. Zolimlarni yo'qotish haqida fikr bildiradi. Umuman, Berdaq jamiyatni yangicha qayta kurash vazifasini tushuna olmadi, ammo xalqni o'z ozodligi va baxti uchun kurashishi kerakligini angladi va uni targ'ib qildi. Berdaq ijodi mehnatkash xalq mehr - muhabbat ruhi bilan sug'orilgan. Butun hayotini ona xalqi ximmatiga bag'ishlagan shoir vafot etgan.

TATAR ADABIYATI. ABDULLA TUQAY. (1886-1913)

Tatar xalqining demokratik shoiri va vatanparvar adibi Abdulla Tuqay 1886 yil 26-fevralda tug'ildi. Go'dakligida otasi, to'rt yoshida onasi vafot etib, yetim qoldi va hayoti qashshoqlikda o'tdi.

Tuqay ijodi 1905 yillarning alangasi ostida boshlandi. U dastlabki asarlaridayoq reaksiyaga, adolatsizlikka qarshi chiqdi, tatar 'kmdorlarini tanqid qildi, ularga qarshi kurashdi. Bu kurash unda izchillik bilan davom etdi, rivojlandi. Shoir o'z she'rlari va boshqa prozaik asarlari bilan mehnat a'lining manfaatlarini himoya qildi. Masalan, «Tekinxo'rlarga» she'rida mehnatkashlarni ozodlikka chaqirdi. 1906 yilda yozgan «urriyat» she'rida u chor politsiyasini «azroilllar» deb, podsho va uning amaldorlarini «va'shilar guru'i» deb nomladi.

A.Tuqay «Yangi keskin bosh» poemasi bilan tatar burjuaziyasining realistlik qiyofasini ochib tashladi. Uning ijodida xotin-qizlar ozodligi uchun kurash muhim o'rin tutadi. U bolalar uchun pedagogik qimmatga ega bo'lgan asarlar yaratdi. 1913 yili vafot etdi.

XX asr boshlarida adabiyotga kirib kelgan ilg'or tatar adiblari G'.Kamol, O.Ibrohimov, G'.Ma'rufiyalar edilar. Tatar yozuvchilarining K.Najmiy, M.Maqsud,

1942 yil frontga olindi, 1944 yil 25 avgustda asirga tushdi va Berlindagi Maobit (Shkandov) turmasida otili.

Musa ijodini 1919 yilda boshlangan edi. II jahon urushi unga soldatlik shinelini kiydirdirish bilan birga, uning she'rlariga jangovar ru' bag'ishladi.

Pushistlarning konslagerlarida azob torsa ham, ularga taslim bo'lmadi. Musa yashirin 'olda tashkilot tuzdi, unga ra'barlik qildi.

"Maobit daftari" nomli badiiy yuksak she'rlar turkumini yozdi. Unga 1956 yilda "Vatan qahramoni" unvoni berildi.

M.Jalil besh yilliklar davomida kolxoz yo'lini ulug'lovchi, quloqlarga qarshi kurashga chaqiruvchi "Biz boramiz", "O'rtoqqa", "Ordenli millionerlar" nomli she'r va poemalar to'plamini yaratgan bo'lsa, urush davrida "Okopdan xatlar" kitobini yaratib, jangchilarni qahramonlikka ilhomlantirdi. Asir olinganidan keyin ham dushmanga buyin egmadi. Turmada yashirin tashkilot tuzdi, asirlarning qochishini uyushtirdi, jangovar she'rlar yozib, dushmanni qoraladi, Vatan g'alabasiga ishondi.

Glossary

Ritm	Rhythm	(yun. <i>rhythmos</i> - teng o'lchovlilik) - keng ma'noda R. muayyan bo'laklarning ma'lum vakt oralig'ida tartibli takrorlanib turishidir.
Ritorika	Rhetorics	(yun. <i>rhetorike</i> - notqlik) - 1) notqlik san'ati haqidagi fan.
Roman	Novel	(fr. <i>roman</i> - «lotin tilida emas, roman tillaridan birida yozilgan» ma'nosida) - zamonaviy adabiyotda epik turning yirik hajmli janri.
Romantizm	Romantism	(fr. <i>romantique</i> , ingl. <i>romantic</i>) - yevropa adabiyotida XVIII asr oxiri - XIX asrning birinchi yarmida yetakchilik qilgan adabiy yo'nalish
Ruboiy	Rubaiy	(ar - to'rtlik) - Shark mumtoz she'riyatida keng tarqalgan lirik janr.

ADABIYOTLAR

1. O.I. Gasset. "Degumanizatsiya iskussva", M. Raduga. 1991
2. Q. Yo'ldosh, M. Yo'ldosh. "Badiiy tahlil asoslari" (T., "Kamalak", 2016)
3. D. Quronov va boshq. "Adabiyotshunoslik lug'ati", T., Akademnashr, 2010.
4. "Dunyoni yangicha ko'rish ehtiyoji", U. Normatov va U.Hamdam suhbat. U. Hamdam. Yangilanish ehtiyoji. T., 2007.

Reja:

1. “Modern” va “dekadens” so’zining ma’nosi.
2. Modernizmning paydo bo’lishi va tarixi.
3. Modernizmning o’ziga xos xususiyatlari, yo’nalishlari.
4. Modernizm haqida g’arb va o’zbek olimlarining qarashlari.
5. Modernizm namoyandalari. Joys, Kafka, Kamyu.

Modernizm g’oyat rang-barang va murakkab falsafiy-estetik hodisa bo’lib, u inson (ijodkor) ijtimoiy, siyosiy, psixologik, badiiy-estetik tafakkur tarzidagi o’zgarishlar negizida maydonga kelgan. U haqida prof. D. Quronov (va boshq.) tayyorlagan lug’atda (“Adabiyotshunoslik lug’ati”. T. Akademnashr. 2010) shunday deyiladi: “**MODERNIZM** (fr. moderne – eng yangi, zamonaviy) – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan termin, san’at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi. Tabiiyki, adabiyot va san’atda keng tarqalgan mazkur hodisa bo’sh joyda paydo bo’lgan emas, uning kurtaklari avvaldan mavjud edi. Jumladan, ilgariroq vujudga kelgan “san’at vosita emas – maqsad”, “san’at – o’zni ifodalash”, “sof san’at” qabilidagi nazariy qarashlar, barokko doirasida sanaluvchi *manierizm*, *gongorizm*, *pretsiz adabiyot* namoyandalarining ijod amaliyotida M.ga xos jihatlarni kuzatish mumkin. Aslida, adabiy jarayonda hayotni badiiy aks ettirish printsiplari (realistik va norealistik), adabiyotning mohiyati, bilish imkonlari, vazifasi va sh.k. masalalarda ziddiyatli qarashlar azaldan mavjud bo’lgani e’tiborga olinsa, M. kurtaklarini juda qadim zamonlardan ham topish mumkin bo’ladi. YA’ni M.ga realistik va norealistik yo’nalishlar orasidagi ziddiyatning muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitda quyuqlashib, keskin namoyon bo’lishi, yangilangan nazariy asoslarga ega bo’lishi va ommalashishi sifatida qarash mumkin. M. o’tgan asr oxirlaridan boshlab maydonga chiqqan, ijodiy dasturlari va ijod amaliyoti jihatidan turli-tuman adabiy maktab va yo’nalishlar (*ekspressionizm*, *impressionizm*, *simvolizm*, *akmeizm* va b.) o’ziga asos bilgan estetik tizim, ijodiy metod sifatida tushuniladi. M. doirasidagi maktab va oqimlar nechog’li turfa bo’lmasin, ularni umumlashtiruvchi qator nuqtalar mavjud. Avvalo, dunyoqarash jihatidan ular nafaqat XIX asrda ommalashgan pozitivizm, balki asrlar davomida shakllangan an’anaviy xristian dunyoqarashidan ham deyarli uzilib, F.Nitsshe, Z.Freyd, A.Bergson, U.Jeyms kabi mutafakkirlar qarashlaridan oziqlanadi. SHunga mos tarzda M. yo’nalishidagi maktab va oqimlarning aksariyati adabiy-madaniy an’analarni ham turli darajada inkor qiladi va yangi davrga mos yangi adabiyot yaratish da’vosini olg’a suradi. YAngi adabiyot voqelikni realistik tasvirlashdan voz kechib, uni idrok qilish mumkin emas deb biladi, insonning hissiy bilish imkonidan tashqaridagi mohiyatga intuitiv tarzda yaqinlashishni ko’zlaydi (q. *simvolizm*); voqelikda sabab-natija asosidagi tartibot mavjudligini qabul qilmaydi (q. *absurd*), unda voqelik goh birdan paydo bo’lgan oniy taassurotlar yig’indisi (q. *impressionizm*), goh tanib bo’lmas darajada o’zgargan, tasodif va g’aroyibotga to’la makon (q. *syurrealizm*) sifatida akslanadi. M.ga xos umumiy xususiyatlardan biri

shuki, u ob'ektiv voqelikning tasviri o'rniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qiladi. YA'ni bu o'rinda voqelikni aks ettirish emas, ijodkorning o'z-o'zini ifodalashi (q. *ekspressionizm*) ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijodda sub'ektivlikning oldingi o'ringa chiqarilishi, mantiqiy bilishdan intuiativ bilishning yuqori qo'yilishi, inson ichki olamida kechuvchi tizginsiz evrilishlarga ayri-ayrancha e'tibor berilishi (q. *ong oqimi*), ijodkor shaxs ijodiy taxayyuli va u aks ettirgan voqelikning betakror hodisa sifatida tushunilishi, o'z o'y-hislarini hech qanday (ma'naviy, axloqiy, siyosiy va h.) cheklovlarisiz ifodalash huquqining e'tirof etilishi ham M.ga xos xususiyatlardandir. Ijodiy erkinlik nafaqat g'oyaviy-mazmuniy, balki shakliy izlanishlarda ham mutlaqo daxlsiz. M. asrlar davomida shakllangan adabiy kanonlarni inkor qiladi va har qanday normativlikka qarshi (q. *futurizm*) turadi. Bu hol M.dagi badiiy obraz strukturasi, asarning sub'ektiv va ob'ektiv tashkillanishi, bayon tarzi, syujet-kompozitsion qurilishi, til xususiyatlari – xullas, adabiy asarning barcha sathlarida shakliy o'ziga xosliklarni yuzaga keltiradi.

M. o'z ichiga san'atning mohiyati va mavjudligi haqida bir-biridan jiddiy farqlanuvchi qarashlarga asoslangan va, ayni chog'da, qator mushtarak jihatlarga ega turfa oqim va maktablarni birlashtirgan falsafiy-estetik hodisa bo'lib, u XX asr adabiyoti va san'atida chuqur iz qoldirdi. U ko'plab ulug' adiblar (mas., F.Kafka, J.Joys va b.) tayangan ijodiy tamoyillarni belgiladigina emas, yaxlit olganda realizm mavqeida turgan qator adiblar (M.Prust, V.Vulf) ijodiy yo'siniga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. SHu o'rinda M.ga berilgan ta'riflarning farqli ekani, uning yuzaga kelish vaqti, davrlashtirilishi kabi masalalarda bildirilgan fikrlarda jiddiy tafovutlar borligi, nihoyat, unga munosabatning turlicha ekanligini ham ta'kidlab o'tmoq joiz. Jumladan, sho'ro davri adabiyotshunosligida M.ga salbiy hodisa deb qaraldi, burjua mafkurasining xizmatchisi, kapitalistik turmush tarzi, axloqsizlik, individualizm va sh.k. illatlarni targ'ib qiluvchi adabiy hodisa sifatida baholandi. Albatta, bu xil ayblovlarni butkul asossiz deyish ham adolatdan emas. Biroq sho'ro imperiyasidan tashqaridagi juda katta hududga yoyilgan, ko'plab mutaraqqiy xalqlarning eng yorqin iste'dodlarini o'ziga jalb etib, adabiyot va san'atiga kuchli ta'sir o'tkazgan hodisani bunday biryoqlama baholash "mag'zavaga qo'shib chaqaloqni ham to'kib yuborish"ning ayni o'zi edi. Zero, adabiyot tarixi realistik va norealistik ijodiy tamoyillar orasidagi kurash jarayoni, ayni chog'da, ularning bir-birini to'ldirish, boyitish jarayoni ham bo'lganini ko'rsatadi. Hatto, sho'rolarning mafkuraviy ihotasi ham bu tabiiy jarayonning kechishini batamom yo'q qilishga ojiz edi. Xususan, rus adabiyotida inqilobgacha mavjud bo'lgan M. adabiyoti an'alarining ta'siri sho'ro davrida ham qator ijodkorlar asarlarida saqlanib qoldi; xoriydagi rus adabiyoti, sho'ro davri bergan imkon darajasidagi G'arb adabiyotidagi yangiliklardan xabardorlik ham beiz ketmadi. Bundan tashqari, sho'ro davlati tarkibiga 40-yillarda qo'shilgan Boltiqbo'yi xalqlari adabiyoti, ikkinchi jahon urushidan keyin sotsialistik lagerni tashkil qilgan va o'zida demokratik tamoyillarni bir qadar saqlab qololgan mamlakatlar adabiyotlari bilan aloqalar sho'ro adabiyotining M. adabiyotidan butkul uzilib qolishiga imkon bermadi. SHu omillar natijasi o'laroq, 80-yillarga kelib o'zbek adabiyotida M. ga xos ayrim xususiyatlar bivosita ijodiy o'zlashtirila boshlangani (M.M.Do'st, A.A'zam, O.Muxtor,

G'.Hotam va b.), 90-yillardan keyin esa ko'proq modern yo'nalishida ijod qiluvchi qator yoshlar (N.Eshonqul, T.Rustam, B.Ro'zimuhammad, Faxriyor va b.) maydonga chiqqani kuzatiladi. Hozircha o'zbek adabiyotshunosligida mazkur hodisani o'rganish "ma'qullash – inkor qilish" tarzidagi bahslar doirasidan chiqqanicha yo'q, uni fundamental asosda tadqiq etish ertaning vazifasi bo'lib qolmoqda".

Manbalar (masalan, "Madaniyatshunoslik" o'quv qo'llanmasi) aytadiki, modern istilohining paydo bo'lganiga 1000 (ming) yildan ko'proq vaqt bo'lgan. *"...ilk bor milodiy V asrda qo'llangan bulib, rasmiy maqom egallab borayotgan zamonaviy masihiylikni o'tmishdagi majusiy Rimdan ajratish uchun qo'llanu boshlagan. Zotan, masihiylik oqimi Rim uchun tomila yangilik edi, chunki YAhudiya uzoq yillar garchi Rim imperiyasi tarkibida bo'lsa ham, masihiylikka ashaddiy qarshilik qilib keldi. Ammo masihiylik majusiylikka nisbatan ilgor, o'z davridagi progressiv oqim bulgani uchun barcha qarshiliklar behuda bo'lib qoldi"*.

Agar odamlar qo'lidagi bittagina barmog'ini, masalan, jimjilog'ini yashirib yurishganida edi, uni ko'rishga bo'lgan qiziqish ortgandan ortardi, degan gapni ko'pchiligimiz eshitganmiz. Xuddi shunday, modernizm, postmodernizm kabi san'at va adabiyot yo'nalishlarini o'rganishdan o'zimizni qancha ihota qilsak, uni bilishga bo'lgan ichimizdagi ehtiyoj shuncha kuchayib borishi turgan gap. Bu o'rinda ta'kidlab aytadigan fikrimiz shuki, modernizmni bilishga urinishimiz unga mahliyoligimizdan yoki g'arbparastligimizdan kelib chiqmaydi. Aslo! Ko'p va xo'p bilish olim uchun, shu sohaning katta-kichik mutaxassisi uchun, fikrlovchi ijodkor uchun qaysidir ma'noda farzdek gap. Zero, san'atu adabiyotdagi har bir hodisaning tub ildizlarini sog'lom nazar bilan o'qib-o'rganishimiz ilmiy qarashlarimiz butunligini ta'min etibgina qolmay, ma'naviy immunitetimizni ham chiniqtiradi. "Modernizm nima?" degan savolga dunyo va o'zbek olimlari javob bergan, haligacha bu masala ustida bahslar yakunlangani yo'q. Professor Qozoqboy Yo'ldoshev o'z maqolasida manbalarga tayangan holda atroflicha va asosli javob bergan. Maqolaga va, umuman, modernizmga bag'ishlangan boshqa o'nlab tadqiqotlar mohiyatiga xolis nazar solsak, haqiqatan ham bu oqim, ustoz Ozod SHarafiddinov ta'kidlab aytganidek, "jo'n hodisa" emasligini anglaymiz. Modernizm 19 asr so'nggi choragida dastlab kayfiyatu dunyoqarashda, so'ng tasviriy san'atda, keyinchalik adabiyotda Evropada paydo bo'lgan san'at yo'nalishi hisoblanadi. Modernizmning yana bir nomi "dekadens" bo'lib, buhron, inqiroz ma'nolarini anglatadi. Bu narsa burjua tuzumining ich-ichidan buhronga yuz tutishi bilan bog'liq. Modernizmning aniq paydo bo'lish vaqtini har xil ko'rsatishadi. Ayniqsa, uning ijodkor badiiy tafakkuriga ta'siri jahon urushlaridan keyin keskin kuchayib borgan. YAratilishiga munosib kelajak qurish orzusi bilan yashayotgan insoniyat jahon urushlari vaqtida million-million begunoh turdoshining yostig'i quriganini o'z ko'zlari bilan ko'radi. Natijada u *bu dunyoni tadbirlar bilan tuzatib bo'lmaydi deb, butun e'tiborni botinga qaratadi. Inson real hayotda emas, balki xayolidagina baxtli bo'la oladi*, degan qarash modernizmning paydo bo'lishi va rivojlanishiga katta turtki bo'ldi, deyiladi ayrim fundamental manbalarda. *Realizm borliqni aks ettirsa, modernizm yangi reallik yarataman, deydi. CHunki mavjud*

reallikni tuzatib bo'lmaydi, deb hisoblaydi. Modernizm olamni kaos deb bildi va undan qochdi. Tashqi dunyoda go'zallik yo'q, uni botindan qidirish kerak, deb bildi. SHu bilan birga, antropotsentrik gumanizmni, ya'ni insonga muhabbatni yoqlab chiqdi. Demak, modernizm deganimiz to'qlikka sho'xlikdan atayin o'ylab topilgan metod bo'lmay, bashariyatning uzun taraqqiyot yo'lida tarixiy-siyosiy evrilishlar natijasida inson ko'nglida paydo bo'lgan ruhiy-ma'naviy inqiroz bilan bog'liq hol — kayfiyatdir. Bas, hol o'zgaruvchandir. Binobarin, modernizmni sig'inarchasiga ko'klarga ko'tarishning, unga muhtalo bo'lishning ham hech bir ma'nosi yo'q. Zero, bugungi kun insoni ko'nglida ertaga tamomila o'zgacha hollar paydo bo'lishi - naqd gap. Garchand Q. Yo'ldoshev "biroz shoshqaloqlik bilan" aytilgan fikr desa-da, modernizmdan so'ng postmodernizmning dunyoga kelib ketgani haqida rivojlangan mamlakatlarning ayrim olimlari jiddiy bir tarzda mulohaza yuritishmoqda. Hatto san'atu adabiyot allaqachon neorealizm davriga qadam bosdi, degan fikrlar o'rta tashlanmoqda. Endi bu vaqt masalasidir. Kim oldinrog'u kim keyinroq degandek. CHunki tarixiy-ijtimoiy formatsiyalar hamma joyda har xil kechadi. Vaqti ham, sifat darajasi ham farqlanadi. Lekin, o'ylaymanki, jahonda hech qaysi olim modernizmni "bani basharning doimiy kayfiyatidir", degan iddao bilan chiqmasa kerak. Ko'rinadiki, "izm"lar jamiyatlarning o'zgarib-almashib turuvchi kayfiyatlarini san'atu adabiyotga ko'chirar ekan. Bir necha yil burun kamina "Inson va postmodern dunyo" degan mansura qoralagandim. Mavzuga judayam aloqador bo'lgani bois shu o'rinda kichik bir parcha keltirishni lozim topdim: "Dunyoning har turlanishi mening bitta kayfiyatim bo'lgani yanglig' sen ham mening birgina holatimsan! Bugun borsanu ertaga yo'q. Ammo gap shundaki, men seni yashab o'tmagunimcha ertaning huzuriga borolmayman. Sen meni ertangi kunga yo'llovchi zinaning bitta poyasisan. Qadring shu erda. Bas, men seni qadrlayman, ammo sig'inmayman! Zinaga oyog'imni qo'yarkan, butun borlig'imni - og'irligimni unga tashlaganim bilan ko'zlarim oldinda, navbatdagi zinada bo'ladi. Ki, yiqilsam ham jismim faqatgina sening elkalaringga tushmaydi, butun zina bo'ylab uzanadi u, qo'rqma va unutma! Men qadringni bilganim kabi sen ham o'z o'mingni bil! Sen menga - insonga xizmat qilibgina qadriyatga aylanasan!.. Tushunyapsanmi, ey, o'zgargan, ming tusda turlangan va yana jilvalanib, o'ziga bino qo'ygan postmodern, ammo mohiyati o'sha-o'sha, men bilgan dunyo!..

Modernizm ana shu tarzda paydo bo'lgan ekan, xo'sh, u hozir ham ilk davridagidek mazmun-mohiyatdami? Yo'q, albatta. Modernizmni paydo qilgan dunyoqarashu badiiy-estetik tafakkur dastlabki turtkini voqelikdan olishga oldiyu keyin vaqt o'tgan sari san'atkorning individual olamida xuddi qor ustida dumalagan qor to'pi singari kattarib, semirib, o'zgarib boraverdi. Ko'p hollarda esa hozir uni (hatto mutaxassislar orasida ham) tanigan taniydi, tanimagan yo'q. CHunki "izm"lar dunyo kayfiyatiga ko'ra "kelib ketaveradilar-u", ularning olam va odamni aks ettirish yo'llari, ifoda va tasvir vositalari, badiiy priyomlari o'zidan keyingi "izm"larga o'tib, ularga ta'sir etib, bag'riga singib boraveradi. Har doim shunday bo'lib kelgan. Yo'qsa, bugungi adabiyotu san'atning mazmun-mundarijasiyu shaklu shamoyili hu-uv o'sha tosh asridagi ibditoiy ko'rinishidan ko'p-da farq qilmagan bo'lardi. Lekin, baribir, hamma "izm"larning zamirida, ba'zan juda-juda

ichkarida realizm ulkan poydevor yanglig' yashrinib yotadi, deb o'ylayman men SHu ma'noda, 12-15 yil muqaddam aytgan gapimni yana takrorlashga ehtiyoj sezayapman: realizm zamin bo'lsa, qolgan barcha "izm"lar shu zamin bag'rida unib o'sib meva tukkuvchi turli-tuman daraxtlardir. Bu fikrning izoh-isboti, nazarimda, butun boshli tadqiqot - kitobni taqozo qilgani bois so'zimni muxtasar qilaman.

Xullas, modernizm garchi "dunyo madaniyati markazida evropa madaniyati (evropotsentrizm) turadi", desa-da, u bilan bog'liq butun boshli qarashlar tizimi, bu tizim vujudga keltirgan san'atu adabiyot o'rganilishi zarur, o'rganilmoqda ham. Prof. Q. Yo'ldoshev juda katta mehnat qilib, modernizm haqidagi turli adabiyotlar mag'zini lo'nda va qisqa o'laroq o'quvchi e'tiboriga havola qilishdan tashqari o'zbek adabiyotidagi modern intilishlar borasida ham o'zining qiziqarli (qaerdadir bahstlab) mulohazalarini ilgari suradi. Maqolada olim modernizm mundarijasini xolis kuzatadi, uning asosiy kriteriyalarini birma bir sanab, tushuntirib o'tadi. O'ylaymanki, bir tadqiqot-maqola uchun shuning o'zi etaridan ortiq katta ish. Maqola, ayniqsa, yoshlarimiz uchun asqotadi. Hodisaning mohiyati bilan tanishib chiqqach, yoshlar modernizmga ko'r-ko'rona ergashmay, aksincha, uni adabiyotu san'atdagi o'nlab yo'nalishlardan biri sifatida yaqindan tanib, kuchli va kuchsiz qirralaridan voqif bo'ladilar.

«Jahon adabiyoti» jurnalining 2001 yil, noyabr sonida rus olimi Aleksandr Genisning «XX asrning etakchi uslubi» nomli maqolasi va ulkan ruhiyatshunos olim K. G. YUngning «Pikasso» otlig' essesidan modernizm haqidagi savollarning ayrimlariga javob topgandek bœlasiz. Genis yozadi: «tarix vaqt bilan hisoblashmaydi, biroq bizlar solnomaga nazar solmay ish yurita olmaymiz. Ortga nazar tashlar ekanmiz, modernizm tarixning qaysi pallasidan boshlanganini bilib olamiz.

Londondagi mashhur ikki badiiy muzey jamoasi yaqinda ana shunday muammoga duch keldi. Ular œz xazinalaridagi san'at asarlarini œzaro taqsimlab olishlariga toeg'ri keldi: natijada Milliy galereyaga mumtoz tasviriy san'at asarlari, Teyt galereyasiga esa zamonaviy ijodkorlarning asarlari nasib etdi. Bu borada 1900 yil chegara chizig'i vazifasini œtadi. Bu chegara chizig'i har qancha bahsli va shartli bœlmasin, nafaqat taqvimiy, balki mantiqiy haqiqatga yaqinligi bilan ham e'tiborni tortadi. Biz modernizmni œtgan asr bilan tengdosh hisoblay turib, ham tarixan, ham badiiy jihatdan adolatli ish tutgan bœlamiz».

Modernizmning mohiyati haqida fikr yuritarkan, olim modernizmga cha san'atda vositalargina œzgartirib kelingan bœlsa, modernizm «tadqiq qilinayotgan ob'ektning œzini tamomila yangilagani»ni ta'kidlaydi. «Nitsshening «hech qanday faktlar mavjud emas, balki ularning talqini, in'ikosigina bor» degan aqidasi dastak qilib olgan modernizm muallifning tasavvuridagina mavjud voqelikning turli talqinlari, dunyoni turli sub'ektivizmlarning kurash maydoni sifatida aks ettira boshladi», deb yozadi yana olim.

Yung esa modernistik san'at mohiyatida ruhiy xastalikni kœradi. U bunday xastalikka chalingan kishilarni ikki guruhga ajratadi: «bular nevrotiklar va shizofreniklar. Birinchi guruhga mansub (kishilar) sintetik xarakterdagi kuchli va yaxlit tuyg'uga yoeg'rilgan suratlar chizishadi... Ikkinchi guruh, aksincha, shunday suratlar chizadiki, bu suratlar ularning mualliflariga hissiyot begona ekanini

kuersatib turadi. Ular har qanday hollarda yaxlit uyg'un tuyg'uni emas, balki, aksincha, qarama-qarshi kechinmalarni yoki ularning umuman yo'qligini ifodalaydi. Bu suratlarining badiiy shaklida esa siniq chiziqlarda aks etgan tanazzul, inqiroz kayfiyati ustivorlik qiladi va bu o'z navbatida ijodkorning ruhan bo'linganini, ya'ni o'zini boshqa odam deb fahmlashini bildiradi. Suratlar tomashabinga yoqmaydi yoki aqlga to'g'ri kelmaydi, tajovuzkor ruhdaligi va beo'xshov nosamimiyligi bilan unda qo'rqinchli taassurot qoldiradi. Pikasso ana shu ruhiy (psixologik) tipga mansub»(Ahmad Otaboy tarjimas).

Bunday qarash modernizmning kelib chiqishida ijtimoiy-psixologik faktorning dominant mohiyatiga urg'u beradi. CHindanam XX asrga kelib insonning turmushi tsivilizatsiya oqibatida misli ko'rilman darajada murakkablashdi, odamlarning o'zaro ruhiy munosabatda bo'lish imkoni toraydi, bunday ehtiyoj – ruh hayoti insonning ichiga hibs etildi, natijada ruhiy iztirob tug'ildi, ruh kasallikka chalindi... Nazarimda modernizmning ruhiy-psixologik asosi shu nuqtadan boshlanadi.

Darhaqiqat, insoniyat hayotiga modern ruhning kirib kelishi asrlar davomida shakllanib-turg'unlashib qolgan dunyoqarashni o'stin-ustin qilib yubordi. Modernizm shunday mohiyatga ega ediki, u eng an'anaviy, eng mumtoz shakllar, tushunchalar bag'riga ham hech tortinmay, hech ikkilanmay yorib kiraverdi. Modernizm bu – XX asrga kelib, insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'naviy sohadagi yoppa taraqqiyoti tufayli onglarda sodir bo'lgan ulkan o'zgarish – tafakkur tarzimidagi yangi bosqich. U davrning umumiy, universal kayfiyati. U realizmga qarshi emas, balki realizm zaminida (materialida) barpo etilgan zamonaviylikning yangi qasri. Istilohning lug'aviy ma'nosiga («modern» frantsuzcha «yangi», «zamonaviy» degani) e'tibor beradigan bo'lsak, «modernizm tug'ilishga tug'ildi-yu, biroq endi o'lmas kerak!» deging keladi. Mantiqan olganda har qanday davr endi o'z kayfiyatini aks ettirgan yangidan-yangi, zamonaviydan-zamonaviy asarini modern asarlar deb ataydi... Demak, modernizm hech qachon eskirmas ekan-da, degan o'ey ham keladi, ba'zan xayolga. Biroq ertangi kun hamisha o'z bag'rida kutilman sirmi yashirib turishi bilan qudratlidir. U «bugun»ga nisbatan ancha erkin. Kelajakning bizning tasarrufimizdagi foizi unchalik katta emas. Binobarin, biz «modernizm mangu, modernizm hech qachon o'elmaydi!» deganga o'xshash hayqiriqlardan tiyilganimiz ma'qul. Agar modernizm mohiyatida biz faqat dunyoga yangicha qarash, uni o'z davri darajasida badiiy his va idrok etishni tushunsak, ha, u abadiydir. Biroq modernizmni XX asr avvalida yomg'irdan so'ng potrab chiqqan qo'ziqorindek ko'paygan qismlari – kubizm, syurealizm, abstraksionizm, ekspressionizm, futurizm, dadaizm, giperrealizm, ridjionalizm kabi «izm»larning yig'indisi sifatida tushunsak, ha, u ham tug'ildi va umrini o'etab bo'elayozdi (yuqorida nomlari keltirilgan «izm»larning aksari bir necha o'en, hatto bir necha sanoqli yil «yashab», o'ernini navbatdagi oqimga bo'eshatib berganligi adabiyotshunoslik tarixiga oid materiallardan ma'lum!). Nazarimda ushbu masalaga oydinlik kiritishga qodir yolg'iz hakam – Vaqt! CHunki ahli bashar axborot asriga qadam qo'eymoqda. Bu ham turmushni misli ko'rilman darajada o'zgartirib yuborishi, natijada insonning dunyoni estetik-badiiy jihatdan qabul qilishida yana-da keskinroq burilishlar yuz berishi hech gapmas... Mana, «izm»lar

qanday va qaerda o'zgaradi!.. Mana, nega biz modernizm mohiyatini to'la tushunib-tushuntirib berolmasligimiz etmaganidek, uning qancha umr ko'rgani va yana qancha yashashi mumkinligi to'g'risida tayinli gap aytolmasligimizning sababi...

Modernizm haqida so'z borganda uning o'zak masalarini qamrab olgan quyidagi muammo va ismlarga albatta to'xtalish kerak bo'ladi. Modernizm tarixi va taraqqiyot bosqichlari. Modernizmning nazariy va falsafiy asoslari. Modernizm va mifologiya. Modernizm yo'nalishlari: ekspressionizm, dadaizm, kubizm, futurizm, abstraksionizm, syurrealizm va h.k. Elitar san'at. "San'at san'at uchun" tamoyili. Joys, Kafka va Prust ijodi. J.P.Sartr va ekzistentsializm. Kamyu va absurd falsafasi. Modernizm va XX asr SHarq adabiyoti.

Glossary

Modernizm –modernism

Modus– modus

Monolog– monologue

Muallif–author

Nazm– poetry

Nasr– prose

Naturalizm-naturalism

Test topshiriqlari:

1.Modernizm qaysi so'zdan olingan?

A)fransuzcha

B)yunoncha

D)inglizcha

C)lotincha

2.Modernizm qachon paydo bo'lgan?

A)XX B)XIX D)XII C)XV

3.Impressionizm so'zining ma'nosi nima?

A)Taassurot

B)Go'zallik

C)Osmon

D)Ezgulik

4."Begona" asari muallifi kim?

A)Alber Kemyu

B)Kafka

C)Lermontov

D)Lorka

5.Impressionizm qachon paydo bo'lgan?

A) XIX asr

B) XX asr

C) XV asr

D) XXI asr

ADABIYOTLAR

5. Modernizm.M. "Iskusstvo", 1987.

6. O.I. Gasset. "Degumanizatsiya iskussva", M. Raduga. 1991

7. Q. Yo'ldosh, M. Yo'ldosh. "Badiiy tahlil asoslari" (T., "Kamalak", 2016)
8. D. Quronov va boshq. "Adabiyotshunoslik lug'ati", T., Akademnashr, 2010.
9. "Dunyoni yangicha ko'rish ehtiyoji", U. Normatov va U.Hamdam suhbatlari.
10. U. Hamdam. Yangilanish ehtiyoji. T., 2007.

22-mavzu. Postmodernizm

Reja:

1. Postmodernizm hodisasi.
2. Postmodern adabiyotning mazmun mohiyati, namoyandalari.
3. Universal gumanizm, jami tirik mavjudodga teng qarash.

XX va XXI asr adabiy jarayon uchun uslub, oqim va yo'nalishlar xilma xilligi xarakterli jihat hisoblanadi. SHiddatli va o'zgaruvchan davr adabiyotda romantiklikdan ko'ra realistik ruhni ko'proq paydo qilayapti. Jamiyat va inson hayotiga bo'lgan e'tibor, badiiylikdan ko'ra g'oyaviylikka urg'u berish (publitsistik ruhning ortishi), qahramon psixologiyasiga kirish, uning faol hayotiy pozitsiyasini aniqlash ko'pchilik zamonaviy asarlarga xos bo'lib boryapti. SHu bilan birga zamonaviy yo'nalish postmodernizm ham juda jadal rivoj topib bormoqda. Postmodern nasrning asosiy printsiplari italъyan Umberto Eko (1932, 2016), Italo Kalъvino (1923.1985), amerikalik Djon Bart (1930), nemis Patrik Zyuskand (1949), chex Milana Kundera (1925) va serb Milorad Pavich (1929, 2009) asarlarida ko'rinadi. Prof. D. Quronov (va boshq)ning "Adabiyotshunoslik lug'ati" kitobida postmodernizm haqida quyidagicha ta'rif beriladi: **"POSTMODERNIZM** (fr. *postmodernisme* – modernizmdan keyingi) – o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiyot va san'atda, umuman, ijtimoiy-gumanitar sohalarda kuzatila boshlagan oqim, ijodiy metod. Frantsuz poststrukturalizmining dekonstruktsiya (J.Derrida), postfreydizmning "shizoanaliz" va "ongsizlik tili" (Lakan, J.Delyoz, F.Gattari) ta'limotlari hamda semiotikadagi kinoyaviylik kontseptsiyasi (U.Eko) P.ning falsafiy asosini tashkil qiladi. P.ning yuzaga kelish vaqti, o'ziga xosligi masalasida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim mutaxassislar P. 40-yillarda, J.Joysning "Finnegan ma'rakasi" (1939) asari bilan boshlangan desa, boshqalari o'tgan asrning o'rtalarini, yana bir xillari 70 – 80-yillarini ko'rsatadilar. Holbuki, P. termini ancha avval paydo bo'lgan: ilk bor P.Vinnitsning "Evropa madaniyati inqirozi"(1917) asarida ishlatilgan bo'lsa, Toynbining "Tarixni o'rganish"(1947) asarida termin kulъsturologik ma'noda, jahon madaniyatida evropotsentrizmning barham topishi ma'nosida qo'llanadi. Adabiyotshunoslikda ham P. termini XX asrning 20-yillardanoq ishlatilgan bo'lib, u adabiy jarayondagi *modernizm*ga aks ta'sir hodisalarini, 60 – 70-yillar amerika adabiy tanqidchiligida esa ulъstramodernistik ijodiy tajribalarni anglatgan. Terminning keng ommalashishi CH.Jenks nomi bilan bog'liq: u o'zining "Postmodernistik me'morlik tili"(1977) asarida P.ni neoavangardga xos ekstremizm va nigilizmdan chekinish, qisman an'analarga qaytish ma'nosida qo'llaydi. Aslida, P. terminiga turli vaqtlarda berilgan

ta'riflarning har biri o'zida hodisaning bir qirrasini mujassam etadiki, bu ma'no o'zgarishlari, ma'lum darajada, P.ning shakllanish jarayonini aks ettiradi. Avvalo shuni qayd etish lozimki, modernizm bilan P. munosabati masalasida ham fikrlar turlicha: P.ga modernizm taraqqiyotidagi bir bosqich sifatida qarash ham, uni modernizmga aks ta'sir sifatida maydonga chiqqan yangi hodisa deb bilish ham, eskirgan badiiy shakllardan yangilariga o'tish davri hodisasi deb hisoblash ham bor. SHunga qaramay, o'tgan asrning so'nggi choragidan P.ning modernizmdan jiddiy farqlanuvchi hodisa ekanligi tobora oshkor ko'zga tashlanib, tabiiyki, u haqdagi shunga mos qarashlar ham ustuvorlik kasb etib bordi. Hozirgi adabiyotshunoslikda bu ikki hodisaning jiddiy farqlanishi e'tirof etiladiki, farqlardan ayrimlarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq:

Modernizm	Postmodernizm
YAngi adabiyot va san'atni yaratish da'vosi, an'analarni inkor qilish	An'analarni o'ziga singdirish va ularga kinoyaviy munosabatda bo'lish
Olamni xaos deb bilish, undan qochish	Xaos deb bilingan olamni qabul qilish, uni o'yin tariqasida o'zlashtirish
Go'zallikni reallikdan tashqaridan izlash	Go'zallikni reallikdan izlash
Antropotsentrik gumanizm: insonga muhabbat	Universal gumanizm, uning ob'ekti jami tirik mavjudot, tabiat, koinot – butun OLAM
Madaniyatda evropotsentrizm, Evropa xalqlari madaniyatini umumbashariy madaniyat asosi deb bilish	SHarq, Lotin Amerikasi, Afrika, Okeaniya xalqlari madaniyatiga kuchli qiziqish, barcha madaniyatlarni qimmat jihatidan teng bilish
Elitar san'at	Elitar va ommaviy san'at orasida chegaraning yo'qolishi, asarda elita va ommaga mo'ljallangan qatlamlar mavjud bo'lishi – ikkiyoqlama kodlashtirish
Semantika, mazmun muhim	Ritorika, mazmunni etkazish shakli muhim
Janrlar, ular orasida aniq chegaralar mavjud	Janrlar mutatsiyasi
Ijodiy jarayonning natijasi – tug'al asar muhim	Ijodiy jarayonning o'zi muhim
Ijodni individual hodisa deb bilish, ijodkor faolligini va uning	Ijodda individ rolini inkor qilish, "muallif o'limi" kontseptsiyasi

mazmunni shakllantiruvchi markaz ekanini e'tirof etish va boshqalar	
---------------------------------------------------------------------------	--

P. nazariyotchilariga ko'ra, "P. asri" hisoblanmish 70 – 80-yillardan olam manzarasi tamom o'zgargan, avvalgilardan farqli shart-sharoitlar yuzaga kelgan. Jumladan, elektron axborot vositalari, xususan, televidenie va Internet tarmog'ining rivojlanishi madaniyatlarning ajib qorishuviga olib keldiki, turmush tarzi va madaniyatdagi eklektiklik san'at va adabiyotda ham shunga mos eklektiklikni keltirib chiqaradi. Xususan, adabiyot va san'atda evropotsentrizm, etnotsentrizmning emirilishi, turli san'at "til"larining qorishib ketishi ayni shu hol natijasi deb qaraladi. Mazkur holning yana bir omili sifatida ommaviy didsizlashish ko'rsatiladi. YA'ni badiiy did o'tmaslashgan, badiiy asar qimmatini uning qancha foyda keltirgani bilan o'lchanadigan sharoit adabiyot va san'atdagi turli, hatto bir-biriga zid tamoyilu uslublarning qorishuviga izn beradi. Bu esa an'anaviy badiiyat mezonlarini emiradi, haqiqiy san'at bilan ommaviy san'at orasidagi farqni yo'qotib, san'atning dizaynlashuviga olib keladiki, bunday san'atning o'zi badiiy didni o'tmaslashtiradi. P. nazariyotchilari nafaqat realizm, balki umuman an'anaviy san'at olamni tushunish va tushuntirishga intilgan, shu maqsadga qaratilgan "metarivoyatlar"ni yaratgan deb biladilar. Bundan farqli o'laroq, P. olamni tushuntirish, u haqda yaxlit tasavvur hosil qilish, insonning olam va undagi o'z o'rnini anglashga qaratilgan har qanday harakatni bekor hisoblaydi va "metarivoyatlar" o'rniga "kichik hikoyatlar"ni, ya'ni olam haqida umumiy emas, balki fragmentlar tarzidagi uzuq-yuluq "rivoya"ni taqdim etadi. Zero, P.ga ko'ra, olamning mavjud qiyofatida faqat fragmentlargagina ishonish mumkin. Ayrim mutaxassislar ayni shu jihatni P.ni modernizmdan farqlovchi muhim xususiyat sifatida ko'rsatishadi. Ularning fikricha, voqelikni badiiy idrok etish mumkinligini inkor qilgani holda, modernizm uning badiiy modelini yaratadiki, haqiqatda bu model an'anaviy san'at yaratuvchi "metarivoyat"ning muqobilidir. YA'ni modernist san'atkor baribir o'zi anglagan haqiqatni ifoda etishga intiladi, demak, uning asari muayyan ijodiy niyat asosida shakllantirilgan kontseptsiyadir. Aksincha, P. uchun badiiy asar ijodiy niyat ijrosining natijasi, ya'ni oldindan belgilangan niyat asosidagi ijodiy jarayon mahsuli emas, balki uning o'zi jarayondir. Natijada mazmun endi asardan tashqaridagi voqelik bilan bog'liq "ob'ektiv mif" emas, balki parokanda olamda ihotalanib yashayotgan individning shaxsiy taassurotlarigina bo'lib qoladi. SHu tariqa P. an'anaviy madaniyat asosida yotuvchi "logotsentrizm"ni inkor qiladi. Modomiki, asosda ma'ni (logos) turmas ekan, demak, uni shakllantirayotgan sub'ekt – muallifning faol mazmunni shakllantiruvchilik roli ham ahamiyatini yo'qotadi. P.ga ko'ra, mualliflik masalasining aktuallashuvi yangi davr – XVIII asrdan boshlangan bo'lib, bu shaxs maqomining o'zgarishi, ratsionalizmga xos inson dunyoni o'zgartira oladi degan ishonch natijasi edi. Endilikda, bu ishonchga putur etgan bir sharoitda, betartib va parokanda olamda inson o'z o'rnini yo'qotgani kabi, adabiyotda sub'ektning roli ham yo'qolishi muqarrardir. Bunday qarash, birinchidan, "muallif o'limi" kontseptsiyasini keltirib chiqaradi, ikkinchidan, ijodni shaxsning maqsadli

yo'naltirilgan yaratuvchilik faoliyati emas, mohiyatan kollektiv ijod bo'lgan "intertekstual o'yin" sifatida tushunishga olib keladi.

P. o'ta murakkab, serqirra va ziddiyatli, muhimi, faol harakatdagi hodisadirki, u haqdagi mavjud fikrlar to'liqlik va tugallik da'vosini qilolmaydi. YUqoridagilar P. haqida mutaxassislar bildirgan turlicha fikrlarni umumlashtirib, muxtasar ifodalashga bir urinish xolos. Hozirgi o'zbek adabiyotida P.ga xos ayrim belgilar (mas., kinoyaviy modus, intertekstual o'yin) modernizmga xos xususiyatlar bilan qorishiq holda zuhur qilayotgani ham bor gap. Biroq o'zbek adabiyotshunosligida xali bu masalani tadqiq etish deyarli boshlanmadi, uni atroflicha o'rganish hanzertaning vazifasi bo'lib qolmoqda".

Ha, postmodern bugungi davr kayfiyatini o'zida aks ettirmoqda. Lekin ilg'or jamiyatlarda boshqa bir fikr ham aytilmoqda. U ham bo'lsa, postmodern davri o'z o'rnini astro davriga bo'shatib berayapti, degan. Darhaqiqat, keyingi vaqtlarda inson dunyoqarashi va tafakkuri koinotni anglash bilan birga kechayapti. Bu harakat har doim bo'lganu zamonaviy dunyoning imkonlari negizida koinotga teran kirib borish, uni tadqiq etish kuchaygani bor gap. SHuning uchun ham astro davri degan istilohlar paydo bo'lgandir. "YAngi paradigma yo'q. Na sharq va na g'arb buni berolmayapti", qabilida fikr aytadi rus akademigi YU. Borev. Ehtimol, astro davri o'sha paradigmani tug'ib berar.

Glossary

Mavzu	Theme	badiiy mazmun komponenti, asarda qo'llangan ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materiali, tema.
Majoz	Trope	mumtoz adabiyotshunoslikda so'zni o'z ma'nosida emas, boshqa bir ko'chma ma'noda ishlatish, ko'chimning umumiy nomi
Marsiya	Elegy	biror kishining vafoti munosabati bilan, uning fazilatlarini e'tirof etish, vafotidan afsuslanish mazmunida yoziladigan lirik janr.
Melodrama	Melodrama	dramaturgiya janrlaridan biri.
Metafora	Metaphor	ma'no ko'chishining keng tarqalgan turlaridan biri, narsa-hodisa orasidagi o'xshashlikka asoslanuvchi ko'chim turi.
Modernizm	Modernism	XIX asr oxiri- XX asr boshlarida ommalashgan termin, san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi.

Test topshiriqlari:

1. Bu yo'nalish nima asosida shakllandi?

A) Naturalizmdan simvolizmga o'tishda

B) jarayondan naturalizmga

C) Simvolizmga o'tishda

D) Naturalizmdan simvolizga o'tishda

2. Syurrealizm qanday so'zdan olingan?

A) fransuzcha

B) Inglizcha

C) Arabcha

D) Yunoncha

3. Futurizm so'zi qanday so'zdan olingan?

A) Lotincha

B) Fransuzcha

C) Yunoncha

D) Inglizcha

4. Syuralizm nechinchi asrda vujudga keldi

A) XX asrda

B) XIX asrda

S) XV asrda

D) XVII asrda

5. Futurnizm qanday ma'noni bildiradi

A) Yosh

B) Kelajak

S) Borliq

D) O'lka

ADABIYOTLAR

1. Modernizm. M. "Iskusstvo", 1987.

2. O.I. Gasset. "Degumanizatsiya iskussva", M. Raduga. 1991

3. YU. Borev. Estetika. M. 1987

4. Q. Yo'ldosh, M. Yo'ldosh. "Badiiy tahlil asoslari" (T., "Kamalak", 2016)

5. D. Quronov va boshq. "Adabiyotshunoslik lug'ati", T., Akademnashr, 2010.

23-mavzu. Hozirgi zamon Sharq adabiyoti

ReJA:

1. Zamonaviy Xitoy adabiyoti. Mo Yan (1955).

2. Turk adabiyoti. O'rxan Pamuk.

3. Zamonaviy Eron adabiyoti.

4. Bangladesh adabiyoti.

Zamonaviy Xitoy adabiyoti. Mo Yan (1955).

Mo Yan 2012 yil Nobelga sazovor bo'ldi. "Adabiyotga ertak, tarix va hozirgi kunni omuxta etgan realizmi" uchun deya berildi. Asarlari "Qizil gaolyan", "Sarimsoq

balladasi”, “Musallas mamlakati” romanlari. “Musallas mamlakati” o‘zbek tiliga Amir Fayzullo va Sevara Alijonovalar tomonidan tarjima qilindi.

Roman prokuratura xodimi Ding Guorning Loshan shaxtasiga tekshirish uchun borayotganidan boshlanadi. Mashinada bir qiz bo‘ladi. mashina silkinadi. Yaxshiyam “qornimda bola yo‘q. Bo‘lsa tushib qolardi. Tushsayam 2000 yun berishardi” deydi. Xodim belgilangan joyga keladi. Dahshatli voqyalar shu yerda sodir bo‘ladi. oshpaz vafot etadi. Shunda uning go‘shtini maxsus oshpazlik bo‘limiga sotish haqida gap boradi. Kimdir “Maxsus oshxonalarda oppoqqina barragina o‘g‘il bolalarni olishadi, bu chandir kimga kerak?” deydi.

Keyin Musallas pazlik Akademiyasida Jin Ganjuan qanday qilib musallas tayyorlash haqida ma‘ruzalar o‘qiydi. Og‘ziga kelgan gapni to‘xtatmay gapiraveradi, ammo ularning hammasi musallas haqida bo‘ladi. Voqyalar musallas mamlakatida ro‘y beradi

Tushib qolishi mumkin bo‘lgan bola va musallas. Bular partiya rahbarlari ziyofatining asosiy parchalari hisoblanadi. Chunki bolalardan desert tayyorlanadi, musallaslar ichiladi. Romanda boladan desert tayyorlash jarayoni batafsil, shafqatsizlarcha tasvirlanadi.

Nobel bunday asarga nega berildi? “Adabiyotga ertak, tarix va hozirgi kunni omuxta eigan realizmi” uchun deya berildi, deyiladi. Bu yerda siyosiy motiv yo‘qmi? Balki xitoylik yozuvchi xitoy kommunistik jamiyatidagi illatlarni fosh qilgani uchun berilgandir.

Turk adabiyoti. O‘rxan Pamuk. O‘rxon Pamuk 1952 yil 7 iyunda Turkiyaning Istanbul shahrida muhandis oilasida dunyoga keldi. Istanbuldagi Amerika – Robert kollejida tahsil olgach, Istanbul Texnika Universiteti me‘morlik fakultetiga o‘qishga kirdi. Biroq uch yildan so‘ng mazkur oliy o‘quv yurtidagi o‘qishini tashlab, Istanbul Universiteti Jurnalistika fakultetiga hujjat topshiradi.

Yozuvchining ilk asari “Javdat Bey va O‘g‘illari” (1979) romani Turkiyadagi O‘rxon Kamol nomidagi hamda Milliyat gazetasi mukofotlariga loyiq topildi.

Yozishni hayotining asosiy tamoyili deb bilgan adibning shundan so‘ng birin-ketin “Sassiz uy” (1983), “Oq qal‘a” (1985), “Qora kitob” (1990), “Yangi hayot” (1994), “Mening ismim – Qirmizi” (1998), “Boshqa ranglar” (1999), “Qor” (2002) va “Istanbul: xotiralar va shahar” (2003) kabi romanlari dunyo yuzini ko‘rdi.

O‘rxon Pamuqning barcha muxlisu muxoliflari tomonidan yakdillik bilan e‘tirof etilgan eng muhim yutug‘i adib qanday mavzuga qo‘l urmasin, tildan nihoyatda ustalik bilan foydalanib, asarga joziba baxsh etishidir.

Asarlari jahonning qirqdan ortiq tillariga tarjima qilingan adib bir qancha xalqaro mukofotlar sovrindori hisoblanadi.

2006 yilning oktyabr oyida O‘rxon Pamuk “Istanbul: xotiralar va shahar” romani uchun Xalqaro Nobel mukofoti bilan taqdirlandi. Shvetsiya Qirolligi Akademiyasi matbuot anjumanida mazkur mukofot adibga “Ona shahrining g‘amgin ruhiyatini aks ettirishda madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlarning yangi qirralarini topgan” muallif sifatida taqdim etilgani aytib o‘tiladi.

Eron adabiyoti. Fors zamini insoniyat sivilizatsiyasining beshiklaridan biri sanaladi. Fransuz sharqshunosi Rene Grossi “Eronning bashariyatdan buyuk haqqi bor” deganida ham ayni shu tarixiy haqiqatni ko‘zda tutgan bo‘lsa, ajab emas.

XX asr boshlaridagi jadal o'zgarishlar, Ovruponing turli falsafiy va adabiy maktablari bilan tanishuv, kishilar ongu tafakkuridagi evrilishlar ta'sirida Eronda yangi davr adabiyoti shakllandi. Eronda 1906 yil avgust oyida konstitutsiyaviy tuzum (mashrutiyat) o'rnatilgandan boshlab hozirgacha bo'lgan davrni zamonaviy Eron adabiyoti deb atash mumkin. Matbaachilikning vujudga kelishi, jurnalistikaning ravnaq topishi va yangi usuldagi maktablarning ta'asis etilishi esa zamonaviy adabiyot taraqqiyotiga doyalik qildi.

Zamonaviy prozaning mavzu va mazmun doirasi kengaydi. Nasriy asarlarda real voqyelik, xalqning orzu-armonlari, dardu iztiroblari va yangi g'oyalar ko'proq aks etib boshladi. Adabiy til soddalashib, chigal mavhumlik va mubhamlikdan xalos bo'ldi, badiiy asarlarga jonli xalq tili ohanglari kirib keldi. Zayn ul-Obidiyn Marog'aiy, Ali Akbar Dehxudo, Sayyid Muhammad Ali Jamolzoda kabi adiblar zamonaviy nasr "veteran"lari sanaladi.

She'riyatda ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. "She're no'" (yangi she'r), "she're sepid" (oq she'r), "mo'je no'" (yangi mavj) kabi yangi maktablar shakllandi. Qalam ahli mumtoz va zamonaviy janrlarda birdek ijod qila boshladi. Bugun ham ayrim shoirlar Firdavsiy, Farruxiy va Unsuriy ijodidan mahorat maktabi o'laroq foydalansa, boshqalari Sa'diy, Jaloliddin Mavlaviy (Rumiy) va Hofizning etagidan tutgan, yana bir guruh ijodkorlar esa Soyib Tabriziyga xos nuqtadonlik va go'zal tashbehlarni afzal biladi.

Bugun madhiya, qasida, ruboiy, g'azal singari ko'hna janrlar yangi ohang va ranglar ila boyigan. Masalan, yangi davr ruboiylarida "dunyo dun bebaqo, dardni unutmog uchun sharobdan no'sh ayla" qabilidagi pessimistik chaqiriqlar o'rnini "bu yorug' olamga kelmoqning o'zi ulug' ne'mat, shunday ekan, inson Parvardigor in'om etgan har lahzadan unumli foydalanishi lozim" singari umidbaxsh da'vatlar egalladi. Qur'oni karim va diniy hikmatlar she'riyat mazmunini yanada boyitdi.

Shahriyor, Mehrdod Avesto, Mo'saviy Garmorudiy, Hamid Sabzavoriy (bu shoirlar ham inqilobdan oldingi, ham keyingi davrga mansub), shuningdek, Ali Muallim, Nasrulloh Mardoniy, Salmon Hirotiy, Qaysar Aminpur, Hasan Husayniy, Sepide Koshoniylarning ijodi xalqqa maqbul va manzur bo'ldi.

Umuman, adabiyot ahli qalamga olayotgan asosiy mavzular istibdod davri adolatsizliklari, qullik va qaramlikni qoralash, "muqaddas vatan mudofaasi" deb atalgan sakkiz yillik urush davridagi xalq qahramonliklari hamda umumbashariy fazilatlarini ulug'lash, yovuzlikka qarshi kurash va ezgulikka da'vatdan iboratdir.

Islom inqilobidan keyingi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar davrida o'zlikni anglash, bebaho tarixiy merosni o'rganish ishtiyoqi oshdi, ta'bir joiz bo'lsa, ma'naviyatimizning asl buloqlari qayta ko'z ochdi. Adabiyot ahliga munosabat butkul o'zgardi. Har yili mushoira o'tkazilayotgani buning tasdig'idir.

Turkiylar azaldan fors adabiyotiga oshno bo'lib kelgan, ikki xalq o'rtasida til bilan bog'liq to'siqning o'zi yo'q edi. Keyingi davrlarda fors tilidagi asarlarni o'zbekchaga o'girish ehtiyoji kuchaydi. Yangi zamon Eron adabiyoti vakillaridan Murtazo Mushfiq Kozimiy, Said Muhammad Ali Jamolzoda, Sodiq Hidoyat, Xusrav Shohoniy, Faridun Tonkaboniy, Faridun Amuzoda Xaliliy kabi adiblar, Furo'g' Farruxzod, Salmon Hirotiy, Qaysar Aminpur, Nodir Nodirpur kabi shoirlarning asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Qatra yig'ilib daryo bo'lganidek, turfa so'z san'atkorlari qalamiga mansub asarlar jamlanib yaxlit adabiyotni hosil qiladi. Eron adabiyoti- ni chamanzorga qiyoslasak, bu bo'ston ichra har bir qalamkash xush ifor taratayotgan gul kabi o'z o'rniga ega. Binobarin, bu gullar harchand xushbo'y va go'zal bo'lmasin, yakka holda fors adabiyoti ma'naviy gulistonining sarxush etuvchi muattar bo'yi va sohir ranglari jilosini to'la ifoda etishga o'z

O'zbekiston zaminida yashab ijod qilgan mohir mutarjimlar qadim zamonlardan hozirgacha fors adabiyoti bo'stonidan xushbo'y gullarni saralab, o'quvchilarga taqdim etib kelgan. Tarjima uchun esa zamonaviy Eron adabiyotidan quyidagi buyuk adiblarni tavsiya qilgan bo'lardim: shoir va rassom Suhrob Sipehriy, atoqli shoira Parvin E'tisomiy, zullisonayn shoir Shahriyor (Sayyid Muhammad Husayn Bahjat), Jalol Ol-Ahmad taxallusi bilan tanilgan zabardast yozuvchi Jaloliddin Sodat Ol-Ahmad, Faridun Mo'shiri, Sepide Koshoniy, Ali Akbar Dehxudo, Ali Muallim, Ahmad Shomlu, Muhammad Ali Islomiy (Nadushan), Eqbol Eshtiyoyiy, Mushfiq Koshoniy, Ali Rizo Qazve, Mahmud Davlatobodiy, Siymin Behbahoniy va Siymin Donishvar.

XX asrning 30-yillari eronlik shoir Nimo Yushij barmoq vaznidagi she'rlari bilan shuhrat qozondi. "She're no'" (yangi she'r) deb nomlangan yo'nalish asrlar davomida aruz "zulm"idan "aziyat chekkan" fors she'riyatiga yoqimli epkin olib kirdi go'yo. Keyinroq boshqa bir novator Ahmad Shomlu fors nazmida "she're sepid" (oq she'r) yo'nalishiga asos soldi. Darvoqye, XX asr fors she'riyatining yorqin namoyandalaridan biri bo'lgan A.Shomlu o'z chiqishlarida oq she'rni yoqlab, ko'hna she'riy an'analarni rad etadi. Shoir aruzda qalam tebratgan ijodkor "so'zni vazn katakchasi qamash"ga majbur bo'ladi deb hisoblaydi, qasida, g'azal, ruboiy kabi an'anaviy janrlarning "kuni bitdi" deya hukm chiqaradi.

Men mumtoz va zamonaviy adabiyot o'rtasiga "xitoy devori" qo'ymagan bo'lar edim. Fikrimni asoslash uchun ijozatingiz bilan gapni uzoqroqdan boshlasam. G'azal, qasida, qit'a, masnaviy, ruboiy, tarji'band, tarkibband kabi mumtoz janrlar asrlar davomida shakllandi, aruz bag'rida Firdavsiy, Nosir Xusrav, Nizomiy, Attor, Mavlaviy, Sa'diy, Hofiz kabi daho shoirlar kamol topdi. Shu tariqa hijriy-shamsiy 1300 yillar, ya'ni XX asrning yigirmanchi yillarigacha fors adabiyotida an'anaviy klassik uslub va aruz vazni yetakchi bo'lib keldi. Biroq Eronda konstitutsiyaviy tuzum o'rnatishga urinishlar jonlangan kezlari she'riyatda ham keskin o'zgarishlarga ehtiyoj paydo bo'ldi. Ayni shu davrda adib ul-mamolik Farahoniy, malik ush-shuaro Bahor, Orif, Ishqiy, Lohutiy, Farruxiy Yazdiy, Iraj Mirzo kabi shoirlar xos tabaqaning biqiq muhiti hamda saroyning qalin devorlari orasida qolgan fors she'riyatini ozod etib, keng omma mulkiga aylantirdi. Aytish kerakki, qalam ahli garchi poeziyaga yangi ma'no-mazmun olib kirgan, ijtimoiy-siyosiy mazmundagi she'rlari bilan klassik nazmda burilish yasagan bo'lsa-da, baribir an'anaviy qoliplarga sodiq qolgan edi...

O'tgan asrning 30-yillaridan boshlab esa chinakam poetik yangilanish davriga qadam qo'yildi. Shoir Nimo Yushij an'anaviy she'r "anatomiya"sini o'zgartirib yubordi. Ijodkor she'rdan she'rga o'sib borib, shunday nazm fazosini yaratdiki, u ko'hna she'riyatdan butkul farq qilardi.

Sirasini aytganda, Nimo fors she'riyatida inqilob yasadi. Klassik adabiyot va zamonaviy Ovrupo poeziyasini puxta bilgan, ayni choqda, o'z davri ijtimoiy-siyosiy hayoti, ma'naviy muhitini teran anglagan shoir zamonaviy Eron she'riyatida yangi sahifa ochdi. Iqtidorli shoir yangi estetik me'yorlar, obrazlar tizimiga asos solib, poeziyaga benazir ohang va ayricha musiqiylik olib kirdi. Nimo o'z ijodi xususida bunday degan edi: "Mening erkin she'rlarimda vazn va qofiya o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayrim misralar qisqa, ayrimlari esa uzun ekani shunchaki shakl o'yini yoki xayolot mahsuli emas".

Nimo she'riyatini nafis kapalakka o'xshatish mumkin. Fors zamini "pillasini yorib chiqqan" emasmi, u shaklan o'zgacha ko'rinsa-da, yetmish ikki tomiri bilan milliydir. Shoir taxayyul osmonida erkin parvoz qiladi. Garchi asarlari salafllari merosidek mashhur bo'lmasa-da, biroq shubhasiz betakror fusun va jozibaga ega.

Adabiyot millat tafakkuri va ijodiy salohiyatini ko'rsatuvchi muhim mezonlardan ekani ayni haqiqat. Fors adabiyotida yangi she'riy to'lkinning paydo bo'lishi navkiron avlod tafakkuriga ham ta'sir etmay qolmadi. Fors tafakkurining yashirin xazinalari ochilgandek bo'ldi, adabiyot muhoblari forsigo'y shoirlarning aytar so'zlari hali ko'p va xo'b ekaniga ishonch hosil qildi.

Yana bir jihatni aytib o'tmasam bo'lmas. Hozirgi zamon Eron poeziyasi tadqiqi "yangi she'r" bir guruh shoirlar tomonidan iliq kutib olingan bo'lsa-da, adabiyot ahli va nazm muxlislarining asosiy qismi an'anaviy she'riyatni afzal ko'rishidan dalolat beradi. Darhaqiqat, zamonaviy poeziya hali katta yo'l boshida. Nazarimda, ko'p asrlik taraqqiyot yulini bosib o'tgan klassik she'riyatga xos donolik, zakiylik hamon adabiyot muxlislarini ohanrabodek o'ziga tortyapti. Biroq nima bo'lganda ham, mumtoz va zamonaviy she'riyatni musbat va manfiy qutblar sifatida bir-biriga zid qo'yish to'g'ri emas. Gap shundaki, zamonaviy she'riyat mumtoz nazmning ko'p asrlik tajribalari asosida shakllandi. Menga qolsa, bu ikki yo'nalishni adabiyot atalgan azim daraxtning shoxlari degan bo'lar edim. Ya'ni ularning ildizi bir, har ikkisi ayni pokiza buloqdan suv ichadi. Shu bois ham bugun fors she'riyatida oq she'r yoki erkin she'r namunalari bilan bir qatorda an'anaviy janrlar ham "umrguzaronlik qilmoqda". Qay birini tanlash esa o'quvchining o'ziga havola.

Bangladesh adabiyoti. Bangladesh adabiyoti tarixi va taraqqiyoti ham uning uzoq tarixi kabi Hindiston yarimoroli mintaqasidagi adabiy-badiiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq. Garchi Bangladesh sobiq Sharqiy Pokiston sifatida musulmon mamlakati va xalqi 97 foiz ko'rsatkich bilan musulmonlardan iborat bo'lsa-da, tarixiy sharoitlar taqozosi bilan bu yerda musulmon bo'lmagan tarixiy siymolar ham baravar ulug'lanadi, millat farzandi sifatida ardoqlanadi. Shulardan biri Nobel mukofoti sovrindori Rabindranat Tagor hisoblanadi. Asli millati bengal bo'lgan R.Tagor hindu mazhabiga e'tiqod qilar edi, ammo o'zining butun umri – 82 yil davomida Ona Bengaliya va Ona Hindistonni tarannum etdi, uning porloq kelajagiga so'nmas umid bilan ishonib yashadi. Uning ko'plab umidlari ro'yobga chiqdi, ammo tirikligida ulardan birortasidan bahramand bo'lolmadi. Bangladeshning yana bir buyuk farzandi musulmon bengal Qozi Nazrul Islom edi. Bangladesh davlatining madhiyasi ikkita bo'lib, birinchisi rasman R.Tagor she'riga asoslangan bo'lsa, ikkinchisi norasmiy tarzda Qozi Nazrul Islom she'riga bastalangan. Ammo katta-kichik rasmiy-norasmiy izdihomlarda har ikkala madhiya baravar ijro etiladi.

Bundan tashqari Maykl Madhushudon Dotto, Shorot Chandr Chottopadhaya, Bonkim Chondro Chottopadhaya, Mir Mosharraf Xosseyn, Qozi Abdul Vahid Shamsur Rahmon, Sayyid Shamsul Haq, Al-Mahmud, Aminur Rahmon, Jibanananda Das va boshqa adabiy siymolar zamonaviy bengal adabiyotining kashshoflari hisoblanadi. Jahon musulmon olamida she'ru g'azallari madrasalarda qo'llanma qilib o'qitiladagan buyuk so'fiy shoir, asli kelib chiqishi samarqandlik bo'lgan Mirzo Abdul Qodir Bedilning ikkinchi ona yurti aynan Bengaliya edi.

Glossary

Proza – prose

Prozaizm – prosaism

Prolog – prologue

Prototip – prototype

Pyesa – play

Ramz-symbol

Realizm – realism

Test topshiriqlari:

1. Hozirgi zamon sharq adabiyoti zamonzviy xitoy yozuvchisi MO YAN nechinchu yil nobel mukofotiga sazovor bo'lgan

A. 2013 yil

B. 2010 yil

S. 2014 yil

D. 2012 yil

2. Qaysi Fransuz sharqshunosi Eronga nisbatan “ Eronning bashariyatdab buyuk haqi bor” deb fikr bildirib aytib o'tgan

A. Renni Grosse

B. O. Kont

S. F. Stendolning

D. V. Gyote

3. Turk adabiyotchisi , O'rxan Pamuk 2006 yilning oktabr oyida qaysi asari asosida nobel mukofotini olgan

A. “Yangi hayot”

B. ”Mening ismim- Qirmizi”

S. “Oq qalla”

D. “Istanbul xotiralar va shahar”

4. Nechinchi asrning 30- yillari eronlik shoir Nimo Yushij barmoq vaznidagi sherlari bilan shuhrat qozongan

A. XIX asrning 30 yillari

B. XVIII asrning 30 yillari

S. XX asrning 30 yillari

D. XVII asrning 30 yillari

5. XXAsr Fors sheriyaatining yorqin nomoyandalaridan biri bo'lgan qaysi shoir o'z chiqishlarida oq sherni yoqlab ko'hna sheriy an`analarni rad etadi

A. A. SHomlu

B. Ali Rizo

N. Sepide Koshoniy

D. Eqbol Eshtiyoqiy

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "Sharq yulduzi" jurnali, 2015 yil, № 1.
2. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2015 yil № 2.
3. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2015 yil № 3.

24-mavzu. Lotin Amerikasi adabiyoti

Reja:

1. **Borxes ijodi mohiyati.**
2. **Kortasar ijodiga chizgilar.**
3. **Markes ijodi.**
4. **Koelo ijodi.**

BORXES. Argentinada tug'ildi (1899 y.). Yoshligi yevropada kechdi. Keyin Argentina qaytdi. Kutubxonachi bb ishladi. Ko'zi qo'rmay qoladi, lekin lupa bilan o'qib ishlashda davom etadi. (O'zbek olimi Ozod Sharafiddinov). Ispan tilida ijod qildi.

N.Eshonqul yozadi: Jahon badiiy tanqidchiligida Borxes haqidagi bahsu munozaralar 60-yillardayoq boshlangan esa-da, hanuz tingani yo'q. Bu munozaralarda asosan Borxes o'zi kim, yozuvchimi, shoirmi, faylasufmi, mutafakkirmi yoki kitoblardan olgan taassurotlarini shunchaki o'ta shaxsiy tarzda konspekt qilgan kishimi yoki adabiyotlarni bir-biriga sintez qilgan olimmi degan masalalar bir qo'zg'alib, bir o'chib turibdi. Biroq mazkur munozaralar qizg'in tus olgan sayin Borxes ijodini tahlil qilgan, qilayotgan tanqidchilar uning yuqoridagi barcha mavzularga javob bera olishi mumkin bo'lgan yirik iste'dod ekaniga ko'proq amin bo'lmoqdalar.

Iste'dod bor joyda esa jo'g'rofiya o'z mohiyatini yo'qotadi, u milliy bo'lish bilan birga umuminsoniy bo'ladi. Har qalay, Borxesni o'qish adabiyotning bani bashar mulki ekaniga yana bir bor ishontradi. Borxes o'z ijodida va mutoalaga bag'ishlangan maqolalarida G'arbu Sharqni yaxlit ko'rolgan adibdir. U o'z asarlarida va adabiy e'tiqodida ana shu ikki qutbni birlashtirishga uringan va bunga bir qadar erishgan ham.

Iste'dodsizlik o'ziga boshpana izlaydi, o'zini shu boshpanaga yashirib qo'yib, fosh bo'lishidan qo'rqib, turli tang'alar otib, ayyuhannos soladi. Iste'dodga esa o'zini nima deb atashlarining qizig'i yo'q; u xuddi aysberglarni yorib ketayotgan muziyorardek tushuncha, tasavvur, imkoniyat, milliy qamrov chegaralarini yorib, oldinga ketaveradi. Lotin Amerikasi adabiyotida Borxes buni isbotlab bergan. Shu tufayli mazkur adabiyotning shon-shuhrati, shubhasiz, Borxes bilan chambarchas bog'liqdir. Borxessiz Lotin Amerikasi adabiyotini hyech kim to'laqonli va bugungi kundagiday ilg'or adabiyot sifatida tasavvur qilolmaydi, shuningdek, Lotin Amerikasi adabiyotida zamonaviy bironta mashhur yozuvchi yo'qki, o'zini Borxesning u yoki bu ma'noda shogirdi deb hisoblamasin. Kortasar, Markes, Fuentes, Bioy Kasares, Saboto va boshqa XX asr 50-yillarida adabiyotga kirib kelgan yozuvchilarning ijodida Borxes ta'siri ulkandir. Italyan, ingliz va hindu qoni

aralash, umrining oxirida ko'zlari ojiz bo'lib qolganda ham mutolaa va fikrlashdan to'xtamagan Borxes Sharq va G'arb adabiyotini o'zaro sintez qilib, bir-biriga yaqinlashtirgan hamda shu adabiyot an'analari uyg'unligida Lotin Amerikasi adabiyotining ilg'or yo'nalishlarini belgilab bergan, o'z ijodi bilan ulkan adabiy qomus yarata olgan XX asrning, yirik yozuvchisidir. Lotin Amerikasi adabiyoti namoyondalari o'zlarini «butun dunyo adabiyotining merosxo'rlarimiz» deb atarkanlar, bunda, avvalo, Borxes xizmatlarini nazarda tutadilar. Borxes ijodidan xitoy, hind, islom, yevopalik faylasuf va shoirlarning asarlari, shaxslar hamda ularning insoniyat tafakkur va ijtimoiy tarixida tutgan o'rni haqidagi badiiy xulosalar joy olgan, uning asarlari ichida Muqanna, sarbadorlar, Amir Temur, tasavvufga bag'ishlangan katta-kichik hikoyalar, esselar, she'rlar uchraydi. Borxes butun dunyo tafakkur tarixini shunchaki shuhratparastlik yoki shunchaki xabardor bo'lib qo'yish uchun tadqiq qilmagan; u mazkur tafakkur mahsullaridan hamisha lazzatlanib meva yegan, ularga XX asrdagi fikrlovchi inson nuqtai nazaridan baho bergan, ularni yagona, yaxlit holatda adabiyotga olib kira olgan.

Borxesni Lotin Amerikasi adabiyotida ultraistlar otasi sifatida e'tirof etsalar-da, shu oqimni Lotin Amerika adabiyotiga olib kirgan bo'lsa-da, biroq chin ma'noda o'zini ultraist deb atamasdi, bu oqim Ispaniyada yashagan paytlari (1919–1920) Borxes qatnashib yurgan Rafael Kansinos boshchiligidagi adabiy guruh ta'sirida Lotin Amerikasiga kirib keldi. Borxes bu guruh bilan ikki yil birga bo'ldi. U o'ziga ultraist degan nomni ep ko'rmasdi, ultraistlar mutlaqo jahon adabiyotini o'qimagan, lekin o'z oldilariga adabiyotni yangilashni maqsad qilib olishgandi. Borxes ultraistlardan aynan «adabiyotni yangilash zarur» degan qarashni oldi va faqat shu ma'noda vataniga qaytgach unga ultraist degan tamg'a qo'yilgan bo'lishi mumkin. Biroq antic davr, Sharq va yevropa adabiyoti bilimdoni Kansinos unda juda katta taassurot qoldirdi. U Kansinosdan aynan shu jihatni – barcha xalqlar adabiyotining tolmas o'quvchisi bo'lishni o'zlashtirdi.

Taqdimi qarangki, unga ota-bobosidan nafaqat katta kutubxona, yozuvchilik layoqati, balki ko'zi ojizlik ham meros bo'lib o'tdi. Kelib chiqishi harbiy bo'lishiga qaramay, Borxeslarning deyarli barchasi yozuvchi yoki adabiyotga aloqador kishilar edi. Borxesning otasi anarxistik kayfiyatdagi, ko'ngli yumshoq odam bo'lib, xiyla katta kutubxonasi bor edi. U esselar, sonetlar, maqolalar yozardi. Umar Xayyom to'plamini tarjima qilgan, ko'zi xiralashib qolishdan oldinroq «Kaudilo» nomli roman e'lon qilgandi. Otasining xolavachchasi Lafinur Argentinaning birinchi shoiri edi, Lafinur Ikkinchi ham unchalik mashhur bo'lmagan shoir edi. Otasining ona tomonidan bobosi esa Argentinada birinchi gazeta tashkil qilgan kishi bo'lgan. Taqdiriga nafaqat adabiyot shaydosi bo'lish, balki Argentinada Peron diktaturasi davrida qamoqda o'tirish, shunda ham o'z so'zi va e'tiqodida qat'iy turish yozilgan, butun fe'l-atvoriyu o'zini tutishi hamda adabiyotga munosabatidan ham qadim oqsuyaklik ufurib turuvchi onasi esa taniqli tarjimon edi. U keyinchalik Uilyam Saroyanning arman jamoasi mukofotiga sazovor bo'lgan «Insoniyat komediyasi»ni tarjima qilgandi. Gotorn hikoyalari, Ridning san'atga doir ijodini, Melvill, Virjiniya Vulf, Folkner asarlarini ispan tiliga o'girib, chop ettirgandi.

Borxes o'z xonadonining intellektual boyligini meros qilib oldiki, u hatto ko'zlari yozuvlarni o'qiy olmay qolganda ham lupa orqali mutolaa qilishdan, kitob orqali

insoniyatni o'rganishdan to'xtamadi. Butunlay ko'rlik ham uni kitobdan ayirolmadi, unga dunyo kitoblarini o'qib berishardi, u shu eshitgan tassurotlaridan asarlar yaratardi. Jahon adabiyotining xilma-xil oqimlari, xilma-xil turlari, tarixi, buguni, turli xalqqa, mintaqaga mansub namoyandalari, ularning asarlari haqida Borxeschalik ko'p yozgan va ko'p o'qigan boshqa bir yozuvchini topish qiyin. U klassikadan tortib modernizmgacha bo'lgan butun bir adabiyotni o'z esse, badiia, she'r, hikoya, ma'ruzalarida jamlashtir oldi va ularga yangicha, uyg'oq shaxs, uyg'oq yozuvchi – bularning hammasiga haqli merosxo'r bo'lgan XX asrning uyg'oq insoni nuqtai nazaridan baho bera biladi. Uning xoh klassika bo'lsin, xoh avangard adabiyot, birontasini ijirg'anib, nazar-pisand qilmay o'qiganini sezmaytiz. Qaysi oqimga mansubligidan qat'i nazar, har bir asardan ma'no, fikr, ramz, so'z, go'zallik izlab ko'rardi. U favqulodda kitobga muftalo bo'lganlardan, adabiyotning xizmatkori edi. Bugun kitobdan uzoqlashgan paytimizda Borxesdan o'rganishiimz mumkin bo'lgan juda ko'p jihatlar bor. Shulardan birinchisi, shubhasiz, so'zga bo'lgan muhabbatdir. Muhabbat esa mas'uliyatni, iztirobni, yonib turishni talab qiladi. Borxesning hikmatlari, esselari, hikoyalari shunchalik siqiqki, ularning har birini roman qilish mumkin. Lekin u yirik janrlarni jini suymasdi. U hikoyachi bo'lib tug'ildi va hikoyachi bo'lib olamdan o'tdi. U go'zallik shaydosi edi. Go'zallik esa xuddi uning hikoyalari kabi qisqa, bir lahzalik, bir necha soniyalik bo'ladi. Uzoq yashagan go'zallik qariydi, xunuklashadi, siyqalashadi. Borxes hikoyalari ham shunday qisqa va go'zal, siyqalikni, ko'pso'zlikni yoqtirmaydi. Borxes hikoyalari o'rta asr tasavvuf hikoyatlariga o'xshaydi. Borxes asarlarini o'qigan kishi falsafa bilan adabiyotning, nazm bilan nasrning o'zaro qorishiq namunasiga duch keladi; uning asarlarini xitoy, hind, islom, antik davr, Rim, yevropa falsafa maktablaridan ayro holda o'rganib bo'lmaydi. Ba'zida Borxes asarlarida falsafa badiiy vositaga aylanib qoladi; asarni to'liq anglash uchun o'sha falsafadan xabardorlik ham zarur bo'ladiki, Borxes asarlarini hamma ham, voqyeaparastlikka o'rgangan o'quvchi birdan anglab yetolmaydi. Bu hikoyalar ma'lum intellektual tayyorgarlikni talab qiladi. O'n-o'n besh yil oldin bir romannavis o'zbek yozuvchisi o'zaro suhbatlarda: «Borxesni rosa maqtashardi, o'qisam, kitoblardan olingan chuchmal konspetklarga duch keldim» – degan gapni aytgandi. Albatta, Borxes ommabop emas. U o'z vatanida ham toki 1961 yilgacha deyarli e'tibordan chetdagi yozuvchi edi; 1961 yili fransuz tiliga asarlari o'girilgach bir necha oyning o'zida avval yevropada, so'ng o'z vatanida eng mashhur yozuvchiga aylanib qoldi, shu yil adabiyotni va adabiyot uslubini yangilashdagi xizmatlari uchun Absurd teatri otasi Semyuel Bekket bilan birga Formentor mukofotiga sazovor bo'ldi hamda kitoblari barcha mamlakatlarda minglab nusxada chop etila boshladi. O'z vatanlarida eng e'tiborsiz sanalgan intellektual adabiyot vakillarining aksariyati Fransiyada chop etilgach shuhrat topib ketishlarida o'ziga xos hikmat bor, albatta.

Fransuz adabiyoti jahon adabiyotidagi eng qiziqarli, turli xil oqim, eksperimentlarga boy, adabiyotni yangilashdek buyuk maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan avangard yo'nalishni boshlab bergan g'oyat rang-barang adabiyotdir. Bodler, Rembo asarlari modernizmning dunyoga kelishiga juda katta turtki berdi.

Avangard adabiyot fransuz adabiyoti bilan birga dunyo yuzini ko'rgani ayni haqiqat. Shu sababli bu adabiyotga ancha pisanda bilan qaragan Borxesning yozuvchilik qadri ham shu adabiyot tufayli birdaniga jahon nasri ustalari safiga ko'tarildi.

Borxesda uchta o'ziga xos ramz yoki vosita bor: ko'zgu, niqob, tush. Bular mohiyatan ochuvchi kalit vazifasini o'taydi. Odamning ko'zgusi uning o'zidir; agar odam o'zini o'z ichkarisidagi ko'zguga solsa, yuzidagi niqob yo'qoladi, sidirilib tushadi. Odam o'z yuziga, asli niqobiga qarab hamisha faxrlanib yuradi. Bu uch narsa inson ongini chegaradan chiqarishga qodir; agar odam shu uch narsaga o'zini qo'yib bersa, u makon va zamon chegarasini – o'zining aldamchi tasavvurlarini fosh etib qo'yadi. «Ko'zgu va Niqob» nomli hikoyada qirol shoirga saroy haqida doston yozishni topshiradi. Uch yil mobaynida shoir doston yozishga uch marta kirishadi. Biroq hammasi natijasiz tugaydi. Oxir-oqibat qirol oldiga hyech qanday qog'ozlarsiz kelib, doston o'rniga «saroy» so'zining mohiyatini anglatadigan bir satr – so'z aytadi. Shoir bu satrni aytib bo'lishi bilan saroy ko'zdan g'oyib bo'ladi, o'sha bitta so'z saroy niqobini ko'tarib yuboradi. Endi saroyning mavjudligida hyech qanday ma'no qolmaydi, u shu bir so'z bilan fosh bo'lib qolgandi.

Buni kashf etgan shoir o'zini o'zi o'ldiradi, qirol esa sadaqaga kun ko'ruvchiga aylanadi. Bu yerdagi metafora so'z qudratini anglatish bilan birga mohiyati anglangan har qanday narsa o'limga mahkum degan qadim falsafiy hikmatni eslatadi. Nafaqat saroyning, balki poeziyaning ham mohiyatini ochadigan boshqa metafora paydo bo'lsa, u yerda poeziya qolmaydi, shoirlik yolg'onlashadi, ya'ni poeziyaning «jodu»lari ochilib qolsa, u yerda yalang'och siymo, yalang'och voqyelik qoladi. Poeziya, adabiyot o'zining «jodu»si, sirliligi, fusuni bilan ulug'vor – buni Borxes «metafora» deb tushunardi. Yalang'och voqyelik bor joyda adabiyot ham, go'zallik ham bo'lmaydi, u yerda, A.Qahhor ta'biri bilan aytganda, kosibbozlik bo'ladi. Metafora, ramz, timsol adabiyotning yashash imkonidir.

Adabiyotlar taraqqiyoti – ramzlar taraqqiyoti, shu sababli yozuvchining tili lingvistik hodisadan ko'ra estetik hodisadir. Fusunkor realizm ramz va til fusuniga asoslanadi. Ko'zgu insonni o'z tasavvuridan chiqib fikrlashga o'rgatsa, niqob insonning haqiqiy qiyofasini, tush esa uning ichki dunyosini aks ettiradi. Tush ko'zguda akslangan aldamchi qiyofamizning, ziyolinamolikka o'rgangan aqlimizni fosh qilib qo'yadi; tush aql to'sib, bosib qo'ygan sezgi va hissiyotlardir. Aql aldaydi, biroq tush aldamaydi. Biz faqat uni tushunmasligimiz mumkin. Agar shu ong osti kechinmalarini ko'zguga solsak, o'zimizda yashirinib yotgan turli maxluqlarni, yirtqichliklarni, yovuzliklarni va «Astiriy uyi» hikoyasidagi kabi minotavrlarni uchratamiz.

Borxes uslubidagi metafora, ramz, fusun ana shu uchta uslubiy shartlilikka bo'ysunadi, fusunkor realizmda, umuman, badiiy tilda «A» tasvirlanadi, biroq gap «B» yoki «V», «G» haqida ketadi, «A» haqida emas. Metafora «A»ga o'zini ramzlashtirgan «B» yoki «G»lardir. Insoniyat ilk tafakkur jarayonida shu tilda gaplashgan; u o'sha ibtidoiy aql bilan yashinni Xudoning nayzasi deb qabul qilgan va o'sha ibtidoiy metaforasi bilan insoniyat poetic tafakkurining yuksak cho'qqisiga chiqqan. Miflar shu tilda yaratilgan. Sivilizatsiya tilni qashshoqlashtirib qo'ydi. XX asr qoloq va hali ibtidoiylikni, atrofga ibtidoiy poetic mushohadasini yo'qotmagan Lotin Amrikasi yozuvchilari shu til bilan XX asr hayotini tasvirlab berdi.

Shubhasiz, bunga o'zigacha bo'lgan adabiy merosni qayta o'rganish orqali erishildi. Bunda Borxesning xizmati bag'oyat kattadir. Uni mutolaa qilish inson haqidagi bilimimizni oshiradi, dunyoga va insonga keng qarashni o'rgatadi. Ko'nglimizni go'zallik bilan oshno qiladi bizni o'z «menimiz»ga yaqinlashtiradi.

G.G.Markes. (Kolumbiya). "XX asr Lotin Amerikasi adabiyotining jadal rivojlanishi uchun muhim davr bo'ldi. Bu adabiyotning taraqqiyoti Gabriel Garsia Markes Markes nomi bilan bog'liq.

G.Markes 1928 yilda Kolumbiyaning shimoli-g'arbida joylashgan Arakatuka degan shaharchada dunyoga kelgan. Gabo (Gabriel) hayotida o'chmas iz qoldirgan kimsa uning bobosi iste'fodagi polkovnik Nikolos hisoblanadi. Uning hayoti aksar sahifalaridan o'z romanlarida foydalandi. «Bobom va buvim, - deb eslaydi Markes, - jinlar bilan to'lib ketgan eski uyda yashar edilar. Ularning har ikkisi ham irimchi bqlib, g'aroyib tasavvurga yega bo'lganlar...». Gabrielning otasi dorishunos bo'lib, u o'g'lining ham farmatsevt bo'lishini istar edi. Gabriel esa advokatlik kasbini orzu qildi. Markes dastlabki hikoyasini 17 yoshida yozgan va 60-yillarga qadar uning asosiy kasbi jurnalistika bo'lib qoldi. Uning bu faoliyati Bogotada, «El Espektador» («Sharhchi») ro'znomasidan boshlandi. Adib yozuvchi sifatida shakllanar ekan, ko'proq Xeminguey, Kafka va ayniqsa Folkner ijodidan ko'proq bahramand bo'lgan.

Asarlari; «Xosiyatsiz soat» (1961), «Katta onaning dafn etilishi», «Polkovnikka hyech kim yozmaydi», «Tanholikning yuz yili» (1965-1966), «Oqsoqolning kuzi» (1975, unda Lotin Amerikasini dahshatga solgan hokimi mutlaq to'g'risidagi afsona aks ettirilgan va fosh qilingan), «Otkora qotillik qissasi» (1981) va boshq.

«Oshkora qotillik qissasi»ga muallif o'rta asrlarda yashagan portugal yozuvchisi Jil Visentining «Takabburshk bilan ham mehr-muhabbat qozonish mumkin» degan so'zlarini epigraf (peshso'z) qilib olgan. Qissada yottan voqyea haddan ziyod oddiy. Pablo va Pedro Vikario ismli egizak birodarlar Sant'yago Nasarni so'yib tashlashga ahd qiladilar va o'z ahdlarini bajaradilar. Ularning bunday yovuzona qarorga kelishlariningboisi singillari Anxela bilan bog'liq. Fojiadan bir kun oldin Anxela bilan Bayyardo San Romanning to'yi bo'lib o'tgan, egizaklar ham, Sant'yago Nasar ham bu to'yda o'tirib maishat qilishadi. Ammo kuyov Anxelani tongga yaqin o'z uyiga olib kelib tashlab ketgan, Anxela Esa akalarining zug'umlariga chidolmay, Santyago Nasar nomini tilga olgan edi. Sant'yago Nasar yepiskopning ular shahriga tashrif buyurishi munosabati bilan tong saharda turib, o'lim sharpasi kezib yurgan ko'chaga chiqadi. Markes bu voqyeaga go'yo yozuvchi ko'zi bilan emas, balki tergovchi ko'zi bilan qaraydi. «Meni ishontiring - aqidaparast eting, dunyoni o'zgartirib yuboraman». Bu purma'no ibora, afsuski, ushbu qissada yovuz niyatli kishilarning xatti-harakatini o'zida ifodalab keladi.

Asar qahramonlari: Ponsio Vikario (Anxela Vikarioning otasi), qotillar - aka-uka Pablo va Pedro Vikariolar, ularning singlisi Anxela Vikario, xushqad, biroz rangpar, arabiy yigit Santyago Nasar, uning o'limidan keyin bir chegarachi bilan qochib ketgan qaylig'i Flora Migel va boshq."

M.Xolbekov: "Lotin Amerikasi adabiyotining yirik vakili, "sehrli realizm" adabiy oqimining asoschilaridan biri, kolumbiyalik mashhur adib Gabriel Garsia Markes

nomi tilga olinganda, zamonaviy kitobxon tasavvurida, avvalo, uning qiyolasi va ijodi gavdalanadi.

Gabriel Garsia Marques (1927) Karib dengizining so'lim qirg'og'ida joylashgan Arakataka shaharchasida dunyoga kelgan. Ish topish ilinjida katta shaharga yo'l olgan ota-onasi, endigina tug'ilgan Gabrielni bobosi – iste'foga chiqqan polkovnik va mehribon buvisi tarbiyasiga qoldirib ketishadi. Bolaligidan erkin o'sgan atrofdagi olamga "ko'zini katta ochib qaragan" Gabriel, o'tmish va hozirgi haqida tasavvurga yo'g'rilgan sehrli xayollarga cho'mgan bobosi, uyning mulotipli shoirona qilib aytganda, "xuddi donishmand mo'ysafiddek mudrab qolgan" eski uyida eshitgan ertak va cho'pchaklar, afsona va qiziqarli hikoyalar olamiga butunlay sho'ng'ib ketgan edi. Tabiiyki, bu muhit yozuvchining ijodiga ta'sir etmasdan qolmadi. Gabriel, ayniqsa, buvisi bilan juda inoq edi. Nevarasini jonu dilidan yaxshi ko'rgan buvisi kichkina Gabrielga juda ko'p qadim afsona va rivoyatlarni so'zlab berardi. Ular esa, o'z o'rnida, bolaning xotirasida muhrlanib, bo'lajak yozuvchining ko'pgina asarlari negizini tashkil etdi. Telegrafda ishlagan kaltabin otasi, ovora'ro'zg'or tashvishidan boshini ko'tarolmagan mushtipar onasi bir vaqtning o'zida o'n olti farzandni tarbiyalash bilan ovora edi.

1947 yil yosh Gabriel Milliy universitetning huquqshunoslik fakultetiga o'qishga kiradi. Garsia Marques qalamiga mansub ilk "Uchinchi itoatkorlik" (1947) nonli hikoya. Bu hikoyada Frans Kafkaning ta'siri sezilib turadi, chunki o'sha yillari Garsia Marques G'arbiy yevropa modernizm adabiyoti, xususan, uning Lotin Amerikasi adabiyotiga ko'rsatgan ta'siriga bag'ishlangan jiddiy tadqiqot ustida ish olib borgani ma'lum. Markaziy va Janubiy Amerika mustamlakalarida mustaqillik uchun kurash borayotgan yillari Kolumbiyada fuqarolik urushi boshlanadi. 1948 yil qirg'inbarot to'qnashuvlardan o'zini olib qochgan Garsia Marques Kartaxen-de-las-Indias shaharchasida qo'nim topadi va u yerdagi institutda huquqshunoslik ta'limini olishni davom ettiradi. Ayni paytda, "Universal" gazetasida ham ishlaydi. Qudratli davlatlarning ta'siriga tushib qolgan hamda siyosiy, moliyaviy-iqtisodiy manfaatlar to'qnashuv maydoniga aylangan Kolumbiyada Garsiya Marques ijodiy faoliyat bilan birga ijtimoiy-siyosiy faoliyat ham olib boradi. O'qishini muddatdan oldin tugatishga majbur bo'lib, o'zini adabiyot va jurnalistikaga bag'ishlashga qaror qiladi. 1950 yilda Barrankilya shahriga borarkan, "El Heraldo" gazetasining muxbiri sifatida to'qnashuvlar markaziga tushib qoladi. Bir vaqtning o'zida "Cronica" haftaligida siyosiy-ijtimoiy mavzularga bag'ishlangan ruknni (bo'limini) ham boshqaradi. Bir necha marta uning hayoti qil ustida bo'lgan edi. Shunga qaramasdan, u o'zi tanlagan yo'ldan toymadi, zahmat chekayotgan oddiy xalq bilan hamnafas yashadi. Aynan, shu paytlari adib "Uy" deb nomlangan katta asarga qo'l uradi. Ehtimol, ushbu xomaki chizgilar, betartib qaydlar va yozuvlar mashhur (u haqda quyida fikr yuritamiz) romanning poydevorini tashkil etgandir. Kurash olib borgan tomonlar vaqtinchalik sulh tuzib, davlatda omonat tinchlik o'rnatilgan paytida Garsiya Marques bilimini to'ldirish, ta'limini oxiriga yetkazish bilan ovora bo'lib, juda ko'p kitob o'qiydi. Ilmiy ishida belgilangan yo'nalishdan chetga chiqmasdan Ernest Xeminguey va Uilyam Folkner, Jeyms Joys va Virjiniya Vulf, Frans Kafka va Marsel Prust ijodini puxta o'rganadi. Aytish mumkinki, ushbu mashhur

adiblarning ijodi uning dunyoqarashiga, dunyoni his etishiga, qolaversa, badiiy tafakkuriga, uslubining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

1950 yillarda u maxsus muxbir sifatida Italiya va Fransiyaga boradi, ma'lum vaqt u yerda yashaydi, ijod qiladi

Yuqorida aytilganidek, 1955 yildan boshlab, "El Espectador" gazetasi muxbiri sifatida ishlagan Garsiya Markes yevropaning ko'plab davlatlariga boradi. 1957 yilda u Moskvada o'tkazilgan Yoshlar va talabalar xalqaro festivalida qatnashadi. Dunyoda tinchlik o'rnatish, qit'alarda yashayotgan turli elat va millatlarni birlashtirish, madaniy aloqalarni bog'lash yo'lida bosilgan katta qadamdek namoyon bo'lgan ushbu muhim voqyeadan olgan taassurotlarini Markes bir qator ocherklarida tasvirlaydi. Rimda yashagan paytlari esa "Eksperimental kinematografiya markazi"dagi rejissyorlik kurslarida o'qib, ma'lum ko'nikmaga ega bo'ladi va bir nechta hujjatli filmni suratga oladi. Ish yuzasidan Parijda yurganida, Kolumbiyada mavbatdagi to'ntarish sodir bo'lib, "El Espectador" gazetasining yopilgani, o'zi bilan birga ishlagan do'st va hamkasblarining siyosiy ta'qibga olingani yoxud vatanini tark etganlari haqida xabar topadi. Shundan so'ng, u Parijda qolib bir qator gazetalarda faoliyat olib boradi. Bu yillar adib o'z ijodiy izlanish, o'z uslubiga sayqal berish borasida tinimsiz mehnat qiladi. Yozuvchi, mukammal darajadagi badiiy ifodalilikka erishish maqsadida, o'sha paytlari boshlangan "Polkovnikka hyech kim yozmaydi" qissasini sal kam o'n bir marta qaytadan yozadi. Ushbu izlanishlar samarasi o'laroq, 1957 yilda qo'lyozma oqqa ko'chiriladi.

Tan olish kerak, Buenos-Ayresda ilk nashr etilgan "Yolg'izlikning yuz yili" (1966) romani o'z muallifiga olamshumul shuhrat bilan birga, tijorat yo'lida ham mo'maygina daromad keltirdi. "Yolg'izlikning yuz yili" romani jahon adabiy jarayonida muallif kutganidan ham ortiq dovrug' va nom taratdi.

Romanning yaratilishi o'ziga xos tarixga ega. Uning oxirgi rejasi 1965 yilda, uzoq fikr-mulohazalardan so'ng to'liq shakllangan edi. Shundan so'ng, yozuvchi avtomobilini sotadi-da, oila boqishni turmush o'rtog'ining zimmasiga yuklab, o'zi deyarli o'n sakkiz oy kabinetiga "qamalib oladi". Ehtimol, u o'zini Valter Skott, Viktor Gyugo yoki Ernest Xemingueyga mengzagandir. Kim bilsin. Nomi ulug' bu yozuvchilar mashhur asarlarini yaratganlarida, aynan, shunday yo'l tutgan edilar.

"Esquire" (Eskvayr) jurnaliga bergan intervyusida adib shunday deydi: "...Qaramog'imda xotinim va jajji ikki o'g'lim bor edi. O'zim PR-menejer bo'lib ishlardim va onda-sonda kinossenariylarni tahrir qilib turardim. Kitobni yozish uchun esa ishdan voz kechish lozim edi. Men mashinamni garovga qo'ydim va pullarni Mercedesga topshirdim. Har kuni u qanday bo'lmasin menga qog'oz, sigaret, umuman, ishlash uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib turardi. Kitob yozib bo'linganda biz yor-birodarlarimizdan 5000 peso qarz bo'lib qolganligimiz ma'lum bo'ldi. Bu katta pul edi. Ayni paytda, mening juda muhim kitob yozayotganim haqida ovoza tarqalgan bo'lib, atrofdagi do'kondorlar bu ishda baholi qudrat ko'mak berib, o'z hissalarini qo'shmoqchi bo'lganliklarini ma'lum qilishdi. Chuchvarani xom sanashibdi! Qo'lyozmani noshirga jo'natish uchun 160 peso kerak bo'lib turganida ixtiyorimizda bor-yo'g'i 80 peso qoluvdi. O'shanda, men Mercedesning xamir qorishtirgichi va soch quritadigan fenini garovga qo'ydim. Bu haqda xabar topgan xotinim: "Roman yomon chiqmasa mayliga edi", deb meni yupatgan edi.

O'shanda, roman jahon adabiyoti sara asarlari qatoridan o'rin olishini kim ham bilibdi, deysiz". Aureliano Buendia oilasining olti avlodi hayotida sodir bo'lgan g'ayriodatiy, g'ayriaxloqiy, g'ayritabiiy, aql bovar qilmas, qonunga zid voqea va hodisalarni tasvirlarkan, Garsiya Markes yuksak badiiy mahorat bilan Buendia oilasiga u yoki bu darajada mansub kishilar hayotga umid-ishonch bilan qaraydigan shodmon va sabr-bardoshli kashshof (jannat bog'idek so'lim go'sha Makondoni Aureliano Buendia birinchi bo'lib topgan)lardan borgan sari nasli ayniyotgan razillar, yerda besaranjom-besarishta hayot kechirayotgan, arang kun ko'rayotgan devonalarga aylanayotganini ko'rsatadi. Romanda Aureliano Buendia sulolasi tarixida zamonaviy madaniyat zamirida yotgan individualizmning gurkirab yashnashi, taraqqiy etishi va zavol topishi jarayoni kuzatiladi. Bu asoslimi, yo'qmi degan savolga javobni axtarish ayni paytda vaqtni zoe ketkazishdir. Asarni o'qigan har bir o'quvchi o'zicha xulosa chiqaradi. Aytmoqchimizki, Garsiya Markesning aksar asarlarida ko'tarilayotgan yolg'izlik HAYOT deb nomlangan mashaqqatli yo'lda insonni muqarrar kutib turgan oxirgi, xazonrezga o'xshash hayot pallasi, uning xotimasidir. Aureliano Buendia sulolasining so'nggi vakili hayot bilan vidolashgach, birpasda ko'tarilgan to'polon shamol qurt-qumursqa va chumolilar kemirib, kukunga aylantirib tashlagan Makondoni yer yuzidan uchirib ketdi.

1967 yilda bosilib chiqqan romanning birinchi nashri haqida Chili shoiri Pablo Neruda: "Ehtimol, bu roman "Don Kixot" davridan keyingi ispan tilidagi ulkan g'alaba, kutilmagan yangilikdir", deya o'zining ijobiy fikrini bildiradi. Muallif esa mutlaqo boshqa fikrda edi. Intervyuda muxbirning: "Agar siz mehr-muruvvatli, saxovatpesha sehrgar bo'lganingizda nima qilgan bo'lar edingiz?", degan savoliga, u to'g'ridan-to'g'ri, vijdonan: "Yozganlarimning ichidan "Yolg'izlikning yuz yili" romanini chiqarib, yoqib tashlagan bo'lardim. Men bu kitobni yozganimdan uyalaman, chunki menga ma'lum sabablarga ko'ra uni yaxshilab yozishga vaqt yetmadi", deb javob beradi. Adib, o'z fikrini davom ettirarkan, jumladan, shunday deydi: "Aql-idrok nuqtai nazaridan qaraganda, "Buzrukning kuzi" romanining badiiy saviyasi ancha yuqori. Har holda aminmanki, "Buzrukning kuzi" – meni toabad unutilishdan saqlaguvchi asardir. Polkovnik Aureliano Buendia kim bo'lgan – tarixiy shaxs yoxud ko'chaning nomini, degan savolga bosh qotirilmaydigan, umuman, esga olinmaydigan payti "Buzrukning kuzi" meni qutqaradi. Ma'suma Go'zal Remedios oppoq, shahvat dog'i tegmagan choyshabda ko'kka ko'tarilishi yoki bir-biriga yaqin qarindosh ota-onada butun avlod boshiga tushgan la'natning alomati rizo – manhus kaltakesak tug'ilgani haqida hikoya qiluvchi roman "adabiy zilzila" deb atalishi mutlaq noto'g'ridir".

Nima bo'lganda ham, yozuvchi oliftagarchilik bilanmi yoki dilidagini yashirmay, ochiqchasiga gapirayaptimi, yo'qmi, bilmaymiz. Bu muhim emas. Tanqidchilar mif yaratish san'ati, afsonalar ijodiyoti va "sehrli realizm" badiiyati xususida bahs-munozara yuritgan bir paytda, Garsiya Markes o'zi yozgan kitoblarda hamma narsa hayotdan "ko'chirib" olingan deb ta'kidlashdan charchamaydi.

Darhaqiqat, "Yolg'izlikning yuz yili" romanining dastlabki 8000 donasi bir hafta ichida tarqab ketdi. Unga nisbatan "adabiy zilzila" iborasini ishlatgan perulik adib Mario Vargas Losa so'zlariga qaraganda, ushbu romanda badiiy to'qima mahsuli – dastlab qishloq, keyinchalik shaharga aylangan Makondo – Lotin Amerikasi, uning

asoschisi Aureliano Buendia o'z avlodlari bilan esa – dunyo timsoliga aylandi. "Yolg'izlikning yuz yili" – bu haqiqiy adabiy changalzor, sehr-jodu, majoz va ulsonadan iborat fantastik maxluqot", deb yozgandi amerikalik tanqidchi Uilyam Makferson. U Lotin Amerikasi adabiyotining durdona asari, "sehrli realizm badiiy yo'nalishining yorqin davomi", deya e'tirof etildi.

Darhaqiqat, "sehrli realizm" deb atalmish badiiy yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari – bu g'ayrioddiy xarakter va g'ayritabiiy, ta'bir joiz bo'lsa, "mo'jizaviy" voqyea-hodisalarni asliga monand, "realistik", to mayda tafsilotigacha to'g'ri, hych bir xaspo'shlash yoki bo'rttirishga yo'l qo'ymagan tarzda tasvirlashdir. Garsia Markesning ikror bo'lishicha, "real va fantastik bo'lib ko'ringan narsalar o'rtasida o'tkazilgan aniq chegarani buzishga qaror qildim, chunki men gavdalantirib ko'rsatmoqchi bo'lgan dunyoda bunday g'ov-to'siq yo'q edi". Uning qahramonlari uchun "nasroniy odob-axloq", "jumhuriyat an'analari", "chet el valyutasi yetishmovchiligi", "ijtimoiy taraqqiyot" kabi tushunchalar zamonaviy aql, ong va "yaratuvchanlik qobiliyat"ining mahsulidir. Ularga esa insu jins, "yomon va yaxshi" arvohlarga ishonish, afsungar jodulari va yomon odamlarning "ko'z tegish"i kabi tushunchalar ancha yaqin, chunki ular shunday "sehr"lardan iborat dunyoda yashaydilar.

Romanda yuz yil yolg'izlikka mahkum etilgan Buendiya sulolasining tarixi mufassal hikoya qilinadi. Muallif har doim har xil – mashhur dengiz qaroqchisi Frensis Dreyk davridan boshlab, turli tarixiy davrlarga murojaat qiladi. Roman syujeti qiziqarli voqyealar bilan shunchalik to'yintirilganki, amalda fabula (tasvirlangan voqyealar silsilasi)ni qismlarga ajratish imkoni yo'q, romanning har bir sahifasida muhim voqyealar yuz beradi.

"Yolg'izlikning yuz yili" romanini idrok qilish, "mag'zini chaqish" boshqa modernist yozuvchilarning intellektual romanlariga qaraganda, ancha oson va maroqli. Garsia Markes o'z vaqtida teleseriallar uchun ssenariylar yozgani shunchaki ko'ngilxushlik, vaqtichog'lik mashg'uloti bo'lmagan, balki uning ijodi uchun mahorat maktabi vazifasini o'tagan. U to'liq anglagan holda "sara jamiyat" vakillariga emas, balki oddiy o'quvchilarga maqbul qilib matn yaratadi. Shu sabab roman ommabop kitobga aylandi. Aslida, ssenariynavislik nuqtai nazaridan qaraganda, Garsia Markesni haqiqiy postmodernist yozuvchi, desak bo'ladi. 1969 yil amerikalik tanqidchi Lesli Fidler qalamiga mansub postmodernizm manifestidek yangragan "Chegaralarni bosib o'tinglar, jarliklarni ko'mib tashlanglar" maqolasidagi asosiy fikr sifatida "ommaviy" va "elitar" san'at o'rtasida chegaralarni yo'q qilish talabi ko'tarib chiqilgan edi.

Bu jihatdan qaraganda, Garsia Markesning "sehrli realizmi", mifologiya va diniy xurofotlariga asoslangan onggi va tafakkuriga yo'g'rilgan badiiy metodi ommaviy kitobxonga qaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Ijodkorning fikricha, kitobxonga dunyoni, aynan, shu tarzda tasvirlash tushunarli bo'lgan. Masalan, Xose Arkadio tunlarni bedor o'tkazib, allaqachon o'lib ketgan lo'li Melxisedek (Maliksidq) bilan gaplashib chiqishi o'quvchini ajablantiradi. Biroq "sehrli realizm"ning oddiy realizmdan farqi shundaki, unda qandaydir bir g'alati, real hayotda mumkin bo'lmagan voqyea-hodislar ro'y berganligida emas, qolaversa, ular odatiy, har kuni bo'lib turadigan voqyea-hodisalarga aylanganligida, yana – temir

buyumlarni o'ziga tortuvchi magnit kuchi, mayda narsalarni kattalashtirib ko'rsatuvchi lupa, "zamonamizning buyuk kashfiyoti"dek taqdim etilgan muz, suv va ovqat orqali yuquvchi uyqusizlik dardi, xullas, shu va shunga o'xshash boshqa narsalar qandaydir sehrli narsadek anglanganligidadir. Bu asnoda, Garsia Markesning o'z xolasi haqidagi xotiralari diqqatimizni tortadi: "...U alomat ayol edi. Kunlardan bir kun u ochiq ayvonda kashta tikib o'tirganida, bitta ajina-jinniga o'xshash juvon kattakon tuxumni ko'tarib keldi. Tuxumda o'simtasi bor ekan. Bu narsa juvonne, dastlab, hayratga, so'ngra, qo'rquvga soldi: "Muqaddas Bibi Maryam o'z panohiga olsinu, bu o'simtada shaytonning qo'li bo'lsa-chi?!. Bu tuxum insu jinlarning ishi bo'lgani turgan gap", dedi u. Nima sababdan bilmadimu, lekin xolamning uyi qishloqda sehr-jodu ishlari bo'yicha o'ziga xos maslahatxonaga aylangan edi. Har safar favqulodda narsaga duch kelib yoki g'alati voqyeega uchrab, javobini topolmasdan, odamlar biznikiga kelib so'rashar edi. Xolamning bu chigal masalalarni osonlikcha, ortiqcha kuch ishlatmasdan hal etishidan hangu mang bo'lib qolar edim. Ko'z o'ngimda bo'layotgan sehr-jodudan azbaroyi qo'rqib, qaerga yashirinishni bilmasdim. Nimasi bilandir bu sirli va mo'jizakor marosimlar meni o'ziga tortardi. Tuxum ko'tarib kelgan juvonga qaytaylik. Juvon xolamdan so'radi: "Qarang, nima uchun tuxumda bunday katta o'simta bor? Xolam juvonga sirli boqib, ko'zlarini yumib, bo'g'iq ohangda: "Bu qonxo'r ajdahoning tuxumi. Qo'rada olov yoqinglar", deb buyruq berdilar. Xolam, allanimalarni pichirlab, tuxumni olovga tashlab yubordi va tuxum kuyib, palag'da sasib, bir pasda yo'q bo'lib ketdi". Ushbu tabiiylik, sofdillik, soddalik "Yolg'izlikning yuz yili" romaniga kalit bergan bo'lsa, ajab emas. Bu romanda ham dahshatli voqyealar va mudhish manzaralar tasvirlanadi, bir vaqtning o'zida afsonaviy va hayratomuz, g'alati uydirmalar hikoya qilinadi. 1982 yilda Garsia Markes adabiyot sohasida Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Nobel qo'mitasining rasmiy bayonotida: "...fantaziya va reallik qorishib butun boshli qit'aning hayoti va muammolarini o'zida aks ettirgan roman va hikoyalari uchun", deguvchi so'zlar bor. Nufuzli mukofotni topshirish marosimida Shvetsiya Fanlar akademiyasi vakili Lars Yyullensten o'z nutqida: "Ko'p yillar mobaynida, Lotin Amerikasi adabiyoti shunday kuch-qudratni ko'rsatdiki, uni boshqa adabiyotlarda uchratish amrimahol. Garsia Markes asarlarida... ispancha barokko, yevropacha syurrealizm va boshqa modernistik oqimlarning ta'siri aralashib ketgan... nafis uslubni yuzaga chiqargan, eng muhimi, optimistik ruhda yangraydi... Garsia Markes o'z siyosiy qarashlarini yashirmaydi, u ilojsiz, benasib qolganlar tarafida turib, ularga jabr-zulm o'tkazish va ulardan iqtisodiy foydalanishga qarshi chiqadi", deyilgan. Javoban so'zlangan nutqida esa, Markaziy va Janubiy Amerika hayoti, shart-sharoiti xususida to'xtalarkan, Garsia Markes tub va ko'chirib kelingan xalqlarni ekspluatatsiya qilish mavzusiga ham jiddiy e'tibor qaratdi. "O'ylaymanki, - deydi u, - nafaqat Lotin Amerikasi hayotining adabiy ifodasi, balki ob'ektiv voqyeligi ham Shvetsiya Fanlar akademiyasining diqqat-e'tiboriga loyiqdir". Fikrini davom ettirarkan, Garsia Markes: "Hyech kim biron uchun o'lish yoki yashash qarorini qabul qilmaydigan, muhabbati haqiqiy, baxti esa - amalga oshadigan, yuz yil yolg'izlikka mahkum etilganlar esa, oxir-oqibat, baxtli yashash huquqini o'z qo'llariga olgan utopiya yaratgani uchun javobgarlikni yozuvchi o'z zimmasiga oladi", deb, haqiqatga qanchalik yaqin ekanligini yana bir

karra isbotlaydi. Ko'pgina tadqiqotchilar Garsia Markes ijodiga Frans Kafka, Jon Dos Passos, Virjiniya Vulf, Alber Kamyu, Ernest Xeminguey va, ayniqsa, Uilyam Folkner ta'sirini alohida ta'kidlaydilar. Haqiqatdan ham, Garsia Markes o'z ijodida ularning uslub va badiiy tajribalaridan mohirona foydalanadi. Uning ijodida XX asr o'rtalarida maydonga kelgan va inson hayotining falsafiy tushuncha va kategoriyalar tilida ifodalab bo'lmaz mutlaq noyobligini birinchi planga chiqargan falsafiy yo'nalish – ekzistensializm ruhidagi ohanglar – “tashlab ketilgan”dek his etilayotgan yolg'izlik, shaxsiy qadr-qimmatni, insoniylik xislatlarni saqlab yoki kundalik turmushning ikir-chikirlariga butunlay sho'ng'ib, unga bardosh berishda yaqqol ko'rinadi. Ayrim tadqiqotchilar Garsia Markesni buyuk yozuvchi, uning shoh asari – “Yolg'izlikning yuz yili” romanini esa – jahon adabiyoti zarvaraqlarida mangu qolajak asar degan fikrga asosli shubha bildirishadi. Masalan, 1983 yilda amerikalik munaqqid Jozef Epstayn “Izohlar” (“Commentary”) nomli adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik jurnalidagi “Shunday ham zo'rmisiz, Gabriel Garsia Markes?” nomli maqolasida romannavisning kompozitsiyani tuzish mahoratiga tan beradi, ammo “uning tiyiqsiz fantaziyasi, “san'atkorona” uslubi oxir-oqibat me'daga uradi”, deb muxtasar xulosa qiladi. “Ijtimoiy-siyosiy ahamiyatidan xoli olib qaraganda, – davom etadi Jozef Epstayn, – Garsia Markes hikoyalari va romanlari ma'naviy-ma'rifiy sohasida ahamiyatini yo'qotadi, odob-axloq me'yorlaridan chiqib ketadi. “Buyuk kolumbiyalik” o'z bolaligining jumbog'ini yechish maqsadida, butun hayoti davomida izlanadi”. Ha, ahyon-ahyonda shunday betakalluf fikrlar ham uchrab turadi.

Oddiy qilib aytganda, Garsia Markes badiiy to'qimaning unga keragi yo'qligiga ishontirmoqchi bo'ladi. 1979 yilda Gavanada yashagan paytlari, “Bohemia” jurnali muxbiri Manuel Pereyra bilan suhbatda Garsia Markes shunday deydi: “Fantaziya – bu Uolt Disney. Meni esa bu narsa umuman qiziqitmaydi. Agar mening asarlarimda bir gramm fantaziya topolsalar, men xijolat chekkan bo'lardim. Birorta kitobimda fantaziya yo'q. Masalan, “Yolg'izlikning yuz yili” romanidagi Maurisio Babilonyaning sariq kapalaklari bilan bog'liq bo'lgan mashhur sahnani o'laylik. U haqida: “O, naqadar go'zal fantaziya!” deyishadi. Jin ursin, u yerda hych qanday fantaziya yo'q! Bo'lmagan gap! Arakatakadagi uyimizga har zamonda bir usta kelib turganini juda yaxshi eslayman... Buvim qo'liga lattani ushlab, oq kapalakni haydaganini eslayman. Jahllari chiqqan buvim: “Jin ursin! Men bu kapalakni haydab ko'chaga chiqarolmayapman. Bu usta har safar kelganida kapalak uyga uchib kiradi...”

...Makondo – tor ma'noda, ekvator iqlimida yashayotgan, tropik changalzorlar qoplagan, birvarakayiga ikki – Atlantika va Tinch okeanlari po'rtana to'liqlariga, yengil shabadada mavjlanib quyilayotgan sadolariga cho'milgan Kolumbiya, keng ma'noda esa, viqorli tog', sersuv daryo, jazirama sabro, yam-yashil dashtu biyobonlarning sehrli diyori – Lotin Amerikasining timsoliga aylangan shaharchadir. Makondo ko'p jihatdan Garsia Markes tug'ilib o'sgan Arakataka, qolaversa, u taqdir taqozosi bilan bir necha vaqt yashashga majbur bo'lgan, ishlagan va o'z ko'zi bilan ko'rgan ko'plab katta va kichik shaharlarga o'xshaydi. O'sha joylarning iqlimi, muhiti, tabiati, yashash tarzi uning 1950 yillarda yaratilgan hikoya

va qissalarda o'z aksini topgan va Garsia Markesning eng mashhur romaniga o'ziga xos debocha bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qalin changalzorlarning odam qadami yetmas ichkarisiga borib Makondo shahriga asos solarkanlar, "Yolg'izlikning yuz yili" romani personajlari, qaysidir bir ma'noda X.E.Riveraning "Girdob" nomli roman qahramonlari bosib o'tgan yo'lni takrorlaydilar. Biroq o'z qahramonlarini "yam-yashil jahannam" chakalakzorlariga g'arq etarkan, Garsia Markes vaqti-soati kelguncha tabiatning qarshi harakatini his etib ko'rishga imkon bermaydi. Aureliano Buendia sulolasining birinchi vakili va uning sodiq hamrohlari "badaviylik"ning "sivilizatsiya" bilan to'qnashuvidan vujudga kelishi ehtimoli – xavf-xatarni sezmaydilar. Qalblarida individualizm deb atalmish illatning urug'ini olib yurganlarini xayollariga ham keltirmaydilar. Makondoda, dastlab, hamma o'zaro teng, to'kin-sochin dasturxon atrofida farovon hayot kechirishadi... Biroq bunday xotirjam va sokin, rohat-farog'at hayot uzoqqa bormaydi. Makondoni, nafaqat, nafs balosiga yo'liqish, balki shahvatparastlik, tiyib bo'lmas hirs, badaxloqlik, riyo, zolimona hokimiyatchilik, amri farmonlik kabi illatlar zulmatga aylantiradi. "yerdagi Bog'i Eram"dan hyech kimni yoqasidan olib quvmaydilar – u yerdan o'z ixtiyori bilan ketishadi. "Jannatdan tashqarida"gi behad katta dunyoda yashab ko'rish ishtiyoqi shu qadar kuchliki, uni to'xtatib, yo'lini to'sib bo'lmaydi. Roman davomida "narigi dunyo choparlari", "sivilizatsiya nishonalari" Makondoni to'lqinga o'xshab bosib olaveradi. Sivilizatsiyaga yaqinlashib, tutash nuqtalarni, o'xshash jihatlar borligini aniqlash, uning zaharli havosidan nafas olish, halokatga yetaklovchi mevalaridan tatib ko'rib Makondo hamma narsani: qonli urushlarni, siyosiy fitnalarni, qirg'in keltiruvchi epidemiyalarni, "banan shirkati" o'rnatgan adolatsiz, shafqatsiz tuzumning oqibatlarini ham boshidan kechiradi.

Demak, dastlab, Makondo – Bog'i Eram, jannatmakon yurt. Lekin bu so'lim go'sha, to'kin-sochin o'lka, hayotbaxsh zaminda yashovchilardan ayrimlari katta dunyoga qochishni, ozodlikka chiqishni orzu qilishadi. Bunday "gunoh"ning, aniqrog'i Odam Ato va Momo Havo in'om etgan nozu ne'matlardan yuz o'girishdan bosh tortish, itoatsizlikni namoyish etishning oqibati – muqarrar yolg'izlikdir. Bu hayot prozasi. Uni tiyib bo'lmaydi. U "san'atkorona", yuksak mahorat bilan ishlov berilgan, sayqallashtirilgan. Ehtimol, u, amerikalik tanqidchi Jozef Epsteyn ta'biri bilan aytganda, axloqsizligi bilan me'daga tegar, lekin qo'shiqdan so'zlarni olib tashlab bo'lmaydi. Qaysidir bir ma'noda, Kolumbiya realligi allaqachon Garsia Markesni "yozib" bo'ldi. U Kolumbiyaning sehrli, fusunkor kunlarining shirinsuxan, xushovoz quychisi bo'lib qolaveradi. «Sharq yulduzi» jurnalining 2012 yil 6-sonidan olindi.

Paulo Koelo. "Bugungi jahon adabiyotining eng mashhur yozuvchilaridan. U Braziliyada yashaydi, portugol tilida ijod qiladi. XX asrning 90-yillarida yaratilgan «Alximik» va «Beshinchi tog'» romanlari bilan katta shuhrat qozongan. «Alximik» romani qahramoni Santyago o'z orzu-niyati yo'lida vatani Andaluziya (Ispaniya) dan Misrga safarga otlana ekan, bu yo'lda turli-tuman sarguzashtlarni boshidan kechiradi, xilma-xil odamlarga duch keladi, ulardan g'aroyib pand-nasihatlar, rivoyatlar eshitadi. «Baxt kaliti» ana shunday rivoyatlardandir".

KORTASAR. Argentina.

Kortasar obrazlar orqali fikrlarshni yaxshi ko'rgan. O'quvchini ikki toifaga bo'lgan. O'qib zavq oluvchi va asar mohiyatini yuzaga chiqarishda ijodkor bilan baravar ishtirok etuvchi. Kortasar ikkinchi toifa uchun yozgan.

Agar yozuvchi jamiyat taraqqiyoti yo'lida halol xizmat qilishga intilsa, adabiyotda, hayotda hamisha oldingi o'rinni egallashi kerak, deb hisoblagan hozirgi zamon Lotin Amerikasining yirik adiblaridan biri — Xulio Kortasar. Xalqaro adabiyot maydonida Xulio Kortasarni haqli ravishda birinchi raqamli Argentina yozuvchisi deb baholaganlar.

Mana, o'ttiz yildan oshdiki, bu baho o'zgarmasdan turibdi. Ajoyib romannavis, qisqa novella, hikoya ustasi Xulio Kortasarning (1914-1984) "Imtihon", "Yutuq" kabi ajoyib romanlari, "Bestiariy", "O'yin tugadi" kabi qator hikoyalar to'plami hamon adabiyot muxlislarini hayratga solib kelmoqda, ajoyib adabiy mahoratga dalil sifatida katta adabiyotga xizmat qilmoqda.

— **So'nggi yillar, ayniqsa, G'arbiy yevropada Lotin Amerikasi adabiy "bum"i (bu o'rinda shov-shuv) haqida juda ko'p gapirmoqda. Siz bu holni qanday izohlagan bo'lardingiz?**

— Men uzoq yillardan buyon Fransiyada yashab kelmoqdaman. Bu yerda jiddiy ijodiy sustkashlikni kuzatyapman. Fransiyada juda a'lo, ilg'or adabiy tanqid mavjud. Ammo asarning o'zi — haqiqiy, jiddiy, yorqin asarlar juda kam yaratilyapti. Mana necha yillardirki, Lotin Amerikasi yozuvchilarining asarlari frantsuz tiliga ko'plab tarjima qilinmoqda va katta muvaffaqiyat qozonmoqda. Nega shunday bo'lyapti? Bunga uslub yoki shakl sababmi? Yo'q. Uslub bobida frantsuzlar mahoratda tengsizlar.

Gap shundaki, Lotin Amerikasi yozuvchilari yaratgan asarlarda hayot qaynab turadi. Frantsuzlar va ispanlar, belgiyaliklar va italyanlar Migel Anxel Asturias, Alexo Karpenter, Gabriel Garsia Markes romanlaridan hayratga tushadilar... G'arbiy yevropalik kitobxon bu asarlarda yolg'ondakam, soxta emas, balki real hayotning, qahramonlarning haqqoniy nafasini tuyadilar.

Xalq kitoblar qahramoniga aylanganda

— **Aytish mumkinki, Lotin Amerikasi adabiyoti G'arb adabiyotida paydo bo'lgan vakuumni (bu o'rinda ma'naviy qashshoqlik) to'ldirmoqdalar, shundaymi?**

— Sira bunday emas. Umuman olganda, Lotin Amerikasi yozuvchilarining G'arbda nimalar bo'layotganligi bilan ishlari ham yo'q. Aytmoqchi, hozirgi "bum" ("shov-shuv") Lotin Amerikasi hodisasining sof inglizcha ta'rifi mening g'ashimga tegadi. Ana shu harakat juda o'ziga xos. Ba'zi tanqidchilarning ta'kidlashlaricha, bu ish ba'zi kitob noshirlarining bozorni kitoblar bilan to'ldirib yubormoqchi bo'lib, qator yozuvchilarni haddan tashqari targ'ib qilishlari "natijasi" emish.

Men o'z yozuvchilik tajribamdan kelib chiqib, afsuski, ana shu shov-shuvga jalb etilgan adib sifatida aytmoqchimanki, bizning adabiyotimizni mashhur qilgan noshirlar emas, ularning asarlaridir. Chindan ham Lotin Amerikasining milliy, o'ziga xos ruhini to'g'ri bera olgan asarlar dunyoga keldi, xolos. Buni kitobxon darhol sezdi. Tasavvur qiling-a, gvatemalalik qo'lga Asturianning kitobini olsa, perulik Aridasning romanini o'qiy boshlasa va ular birinchi marotaba o'zlarini adabiy asar personajlari qiyofasida ko'rsalar...

Ilgari sira bunday bo'lmagan, ular ilgari g'arblik mualliflarning tarjima asarlarida shunday holni kuzatmaganlar. Bu kitoblarda hattoki ularning mamlakatlari nomlari ham tilga olinmagan. Ana endi nima uchun Argentinada mahalliy yozuvchi asarining birinchi chop etishlari, tarjima asar ikkinchi o'ringa qo'yilishi sababi ayon bo'ladi. Albatta, noshirlarning ham ana shu shov-shuvdan foydalanib qolganliklarini inkor etib bo'lmaydi. Axir ular mahalliy kitobxonlar ommasining zo'r ehtiyojlaridan kelib chiqib ish ko'rganlar, ko'rib turibsizki, Lotin Amerikasi yozuvchilari G'arbda adabiy vakuumni to'ldirish uchun yozmaydilar. Alexo Karpenter Fransiyada muvaffaqiyat tappa tayyorligi uchun roman yaratmaydi-ku axir.

— **Nega siz o'zingiz romanlarga ko'ra hikoyalarni ko'proq yozasiz?**

— Qiziq savol. Haqiqatan men hozirgacha (1977 yilgacha) to'rtta roman va besh ta hikoyalar to'plamini nashrdan chiqardim. Hikoyalarim hammasi bo'lib ellikta. Lekin bu men kichik janrni ma'qul ko'raman, degani emas. Roman bilan hikoya menga ikki, mutlaqo har xil janrlar bo'lib ko'rinadi. Menga yirik asar muallif fikrig'oyalarini ifodalashning eng yaxshi usuli bo'lib tuyuladi. Chunki 100, 200 yoki 300 sahifa davomida kitobxon bilan muloqot qilish imkoniyati tug'iladi. Hikoya esa tuyg'ular va o'y-maqсадlarni ifoda etish, kitobxonning o'zi u yoki bu xulosani chiqarishga imkon berish maqsadida muayyan vaziyatni tasvirlashda qo'l keladi.

— **Biroq siz hikoyaga nisbatan romanlaringizda e'tiboringizni ko'proq shaklga qaratasiz. Nima sababdan?**

— Men yuqorida aytganim bu savolga qisman javob bo'la oladi. Roman — tilda tajriba qilib ko'rish uchun eng yaxshi laboratoriya hisoblanadi. Hikoyada esa kitobxon qalbiga kirish uchun maksimal harakat qilish kerak. Boshqa tomondan qaraganda, roman asl ijod nuqtai nazaridan ijodkorga ko'proq ijodiy erkinlik beradi. Masalan, men hikoya qilish bilan bir vaqtning o'zida tilning bir necha darajasida tajriba qilib ko'rdimki, bu narsa hikoyamda aqlga sig'maydi.

Agar kitobxon besh sahifali novellani o'qishga qiynalsa, unda nima bo'ladi? U shunchaki hikoyani o'qimay tashlab yuboradi. Romanda-chi? Kitobxon kitobni ochadi, o'qishni boshlaydi, beixtiyor voqyealarga qiziqib qoladi. U yarim yo'lda to'xtab qolmaydi, balki: "Muallif mening oldimga muammo qo'yibdimi, demak, buning o'ziga yarasha sababi bor. Ha, u biror muhim gap aytmoqchi", deb o'ylaydi.

— **Umuman, siz shaklga ko'proq e'tiboringizni qaratasiz. Formalistmisiz?**

— Shaklni mazmundan ajratish noto'g'ri va bu o'taketgan bema'nilik. Har qanday g'oya muvofiq shaklda ifodalanishi kerak. O'rtamiyona yozuvchilar ko'pincha o'z fikrlarini bayon etish uchun mos shakl topishga qiynalib, ojiz qoladilar. Shu jihatdan men o'z fikrlarimni aniqroq va to'laqonli ifodalash uchun ham til bilan ko'p va zo'r berib ishlayman.

— **Siz asarni faqat shakliga qarab maqtaydigan tanqidchilarga qanday munosabatda bo'lasiz?**

— Men faqat shuni aytishim mumkinki, mana shu o'ta o'ngchilar, juda elitar tanqidchilar mohiyatga ko'ra reaksiondirlar. Fransiyada "yangi tanqidchilar" deb atalmish guruh ana shu tomonga bosyapti. Ularni faqat u yoki bu yozuvchi o'z asarini qanday "qurajak"ligini qiziqtiradi, xolos. Biroq men bu bizning maqsadimiz bo'lmasligi kerak deb hisoblayman. Bunday tahlil faqat adabiy o'quv jihatdan qiziq.

Lekin mazmun shakldan muhimligini solishtirib bo'lmazligi yaqqol ko'rinib turibdi. Asar mazmuni — mana muhimi.

Yozuvchi mas'uliyati

— **Hayot bilan adabiy mehnat o'rtasidagi aloqa haqida nimalar deya olasiz?**

— Aloqami? Ba'zilar buni “majburiyat” deb ataydilar. Men buni “yozuvchi mas'uliyati” deb atagan bo'lardim. Bundan o'n yil ilgari o'zlarini inqilobchilar deb atagan, lekin bora-bora isyonchi bo'lmay qolgan, Lotin Amerikasida nom chiqargan ko'pgina adiblar paydo bo'ldilar. Ular go'yoki kristallanmagan liberalizmga, axloqsizlikka sirpanib tushganlar. Ya'ni ular nazariy tomondan nimalardir deya valdirab ma'ruza qiladilar, amalda esa zimmalariga hyech qanday mas'uliyatni olmaydilar. Ana shunday “inqilobchilar”dan ba'zilari o'z martabalariga putur yetmasligi uchun hatto Kubaga borishdan ham bosh tortdilar.

Ular gapirishga ham arzimaydilar, ular hyech qanday ahamiyatga ega emaslar. Lekin boshqa toifa yozuvchilar haqida kishilar qarshisida o'z mas'uliyatini anglab yetuvchi san'at ustalari haqida gapirish kerak bo'ladi. Bu kabi yozuvchini kitob yozishga “mahkum etilgan” inson deb atash mumkin. Bunday yozuvchi hamma ishdan ko'ra o'z ishini qotiradi va bu borada hattoki inqilobga ham ko'proq foydasi tegadi. Yozuvchi mas'uliyati ilgarilab yuradi, bu hamma narsada — ijodda va shaxs yurish-turishida ham aks etishi zarur. Kerak bo'lsa, yozuvchi hatto avtomatdan otishni ham bilishi lozim. Hamisha hammadan oldinda yurishi kerak.

— **Ijodkor inqilob uchquni “alangalanib turgan qit'a”ga o'z ta'sirini o'tkaza olarmikin? Kurashga yozuvchilar asarlari ko'proq hissa qo'shadimi yoki uning shaxsan qatnashuvi? Sizning shu haqdagi fikringiz?**

— Qiyin savol. Men faqat o'zim haqimdagina gapirishim mumkin. Agar men Lotin Amerikasi kelajagi uchun bo'lgan kurashda biror hissa qo'shgan bo'lsam, bu ham qalamim mehnati tufaylidir. Mening siyosiy faolga aylanganimga uncha ko'p bo'lgani yo'q. Turli xalqaro tashkilotlardan o'zimga topshirilgan ishni men yozuvchilik faoliyati bilan baravar olib boraman. Fikrimcha, mening kitoblarim siyosiy nutqlardan ko'ra nafi ko'proq.

— **So'nggi savol. Aftidan, bu savol sizga uncha ma'qul kelmasa kerak. Siz kabi siyosiy pozitsiyani egallamagan yozuvchi ahamiyatga molik katta asar yaratishga qodirmikin?**

— Mavhum nazariya jihatidan aytadigan bo'lsam, ha, yaratadi — inqilob pozitsiyasida turmagan, siyosat bilan qiziqmagan iste'dodli kishi bimalol san'at asari yaratishi mumkin. Axir bu asar uning xayoliy tasavvurlari mahsuli bo'ladi-ku! Bu adabiy asar bo'lishi ham mumkin. Asar kitobxonni qiziqtiradimi yo'qmi — mana shunisi muhim. Bugungi kitobxon olamni anglab yetishga, boshqa kishilarni tushunishga intilmoqda va unga qaysi muallif kitobini qo'liga olganligi, yozuvchining o'zi qanday pozitsiyani egallaganligi juda muhim. Masalan, Argentinada aksilinqilobiy yo'l-yo'riq ko'rsatadigan reaksiyon, hatto fashist yozuvchilar bor. Biroq talabalar, ishchilar, savodli dehqonlar bunday mualliflar yozganlarini o'qimaydilar. Ularning xalqqa chindan ham keragi yo'q. (“*Piplz world*” gazetasidan olindi, San-Frantsisko) (Ma'suma Ahmedova tarjimasi).

Glossary

	Sabab – reason
	Satira – Satire
	Sentimentalizm – sentimentalism
	Situatsiya – situation
	Sonet – sonnet
	Stilizatsiya-stylization
	Badiiy tarjima – literary translation

Adabiyotlar:

1. *Xurshid Davron rasmiy veb-sayti www.kh-davron.uz dan olindi.*
2. *XORXe Luis Borxes. Proza raznyx let. M., Raduga. 1989.*

25-MAVZU: AQSH va Kanada adabiyoti .

Reja:

1. *AQSh adabiyoti haqida ma'lumot*
2. *Kanada adabiyotining shakllanishi*

Dreyzer ijodi – XX asrning birinchi yarmi Amerika adabiyot va tanqidiy realizmning cho'qqisidir. Dreyzer AQSh hayotidagi fojiaiviylikni ko'rsata olgan yirik sanoatkordir.

Dreyzer Indiana shtatidagi kichik bir joyda kambag'al ishchi oilasida tug'iladi. Qashshoqlik yoshlikdan bo'lg'usi yozuvchining mehnat qilishga majbur etadi. U ish axtarib Chikagoga boradi, restoranda idish-tovoq yuvadi, tovar stansiyasida nazoratchi bo'lib ishlaydi, kir yuvish masterskoyida mexaniklik qiladi. Dreyzer 1883 yilda Indian Universitetiga kirib bir yil o'qiydi. Lekin iqtisodiy ahvoli o'qishni davom etirishga imkon bermydi. O'qish vaqtida Lev Tolstoy ijodi bilan tanishadi. Uning asrlari yosh Dreyzerga katta taosir ko'rsatadi.

Bilimga tashni Dreyzer o'sha vaqtda keng tarqalgan Gerbert Spaneser falsafasini qiziqib o'rgandi. Uning qarashlari Dreyzerni sotsial voqyelarni biologik qonunlar asosida tasvirlashga, turmushni noto'g'ri talqin etishga olib boradi. Spenser og'ir ahvolga xukuatni ham, jamiyatni ham ayblab bo'lmaydi. Bunga xiyonatning biologik qonunlari aybdor, deydi. U yugurishda, ildam kurashda, kuchli yengadi, degan qarashni tarqib qiladi. Dreyzer muhbir-reportyor bo'lib Chikago Npyu-York kabi shaharlarda igshlay boshlaydi. Xalqning og'ir ahvoli bilan tanishadi. Lekin Spaser qarashlarining asossizligini tushinib yetmaydi. Dastlabki hikoyalariida umidsizlik kayfiyatlari turmushni to'g'ri anglamaslik oqibatida kelib chiqadi.

Dreyzer 90-yillarning o'rtalarida Npyu-Yorkda yashab jurnallarda redaktorlik qiladi, maqola va ocherklar yozadi. Xalq ahvoli bilan yaqindan tanishishi uning kelajagi ijodiga material bo'lib xizmat etadi. Uning ijodi 1900 yildan boshlanadi. Birinchi romani «Baxti qaro Kerri» chiqqach, burjua matbuoti uning keng tarqalishiga yo'l qo'ymaydi. 1911 yildagini uning ikkinchi romani « Jenni Gerxar» yuzaga keladi. Undan so'ng ketm-yet «Moliyachi», «Titan», «Daho» romanlari yuzaga keladi. 1-jahon urishidan so'ng 20-yillar o'rtasida ikki tomli «Amerika fojiasi» chiqqach adib yirik tanqidiy realist sifatida butun dunyoga taniladi.

Dreyzer ijodining birinchi davrida (1900-1917) yirik realist asarlar yozish bilan bir qatorda reaksion Sponser falsafasiga berilishi unda ziddiyatli fikrlar tug'ilishiga va uni yangilash xulosalar chiqarishga olib boradi.

«Baxti qaro Kerri» (1900) romanining qahramoni kambag'al fermer qizi Karolina Miberning oilada erkalatib «jajji Kerri» deb atashadi. Kerri esli-xushli bo'lsa ham, leknn tajribasi yo'q, yoshlik orzulari bilan yashovchi ko'rgan narsalaridan tegishli xulosalar chiqarishga zaif edi. Xudbinlik «egoizm» uning tabiatiga «monand» bo'lib, bilmga emas, balki u neomatlarga intilar edi. Kerrining chekka qishloqdan Chikagldagi opasinikiga borishi ha shular oqibatidadir.

Asarning asosiy g'oyasi Amerikada barcha uchun barobar imkoniyatlar mavjud, degan illyuziyani fosh etishda ko'rinadi. Kerrining orzu-istaklari kapitalistik illatlar avj olgan shaharda amalga oshishi qiyin ed. Haftalab u sarson-sargardonlikda ish axtaradi. Payabzal fabrikasidan oddiy ish topib, og'ir sharoitda ishlay boshlaydi. Lekin ko'p o'tmay kasallanib ishga bormagach, ishdan bo'shatiladi. Opasining uyida yashashga imkoniyat topa olmay, uyiga qaytishni maqul ko'rmay, boshqalarning «beg'araz» yordamiga beriladi. Dastlab Kerri savdo firmasining xizmatchisi olifta yigit Charlpz Druening yaxshi kiyninishi va gplariga uchadi. So'ngra bu oshiqqa nisbatan bir mayxonaning boshqaruvchisi puldor va oilali Gerstvud ustun bo'lib chiqadi. Kerri Drueni tashlab Gerstvud bilan Npyu-Yorkka qochib ketadi. Gersvud asta-sekin boru-yo'g'idan ajralib, ishsiz qoladi. Butun kunni sadaqa beriladigan non ocheredlarida o'tkazadi. Kerri esa faqat o'zini o'ylab, uni ham tashlash ketadi. U teatrga ishga kiradi. Og'ir axvolda qolgan Gersvud gazdan zaxarlanib o'ladi. Kerri esa o'sha muhitga moslashib oladi. Yozuvchi Kerrining muvaffaqiyatga erishishini tasodifiy hol Amerikada dollarning xalokatli taosiri natijasi deb ko'rsatadi.

«Baxti qaro Kerri» romnining qimmatli kapitalistik jamiyatdagi xalq ommasining og'ir turmush axvolga tushib qolgan Kerrining yuztuban ketishi evaziga ko'tarilishi, burjua Gerstvud oilasidagi munofiqlik, boy kvartal Brodveydagi dabdabali hayot tramvay ishchilarining tashlashlari tasviri, ishsizlik natijasida ko'chaga chiqib tashlangan son-sanoqsiz kambag'allarning och-tentirab yurishlarining xaqqoniy aks etirilishida ochiq ko'rinadi.

«Jeni Gerxardt» (1911) romanida ham kambag'al oiladan chiqqan qizning burjua jamiyatidagi fojiasi ko'rsatilgan. Asarning g'oyaviy yo'nalishi oddiy qizning hulqiy pokizaligi, uning buzilgan burjua axloqiga qarshi qo'yilishida namoyon bo'ladi. Romanning asosiy syujet yo'li ishchi qizi Jennining fojiasi, u bilan millianerning o'g'li Lestrkeyn o'rtasidagi sevgi tarixida ochiq ko'rinadi. Kambag'al Jenni boy yigit Keyn o'rtasidagi sevgi tarixida shu manzara namoyon bo'ladiki o'sha jamiyat urf-odatleri, sotsial adolatsizliklar bu yoshlarni tabiiy sevgilariga to'sqinlik qiladi va oxir oqibatda ular turmush qurolmaydi.

Drayzer oddiy qizning odoblighi, vafodorlighi, qalbining musafolighini ko'rsatish orqali xalq kuch-qudratiga ishonchini ifodalaydi. Jenni o'zining eng yaqin kishilari - otasi-onasi, qizi Vesta, nihoyat sevgani Lesterdan ajraladi. Lekin bunday og'ir yo'qotishlar uni umidsizlikka tushirmaydi. U yetim bolalarni asrab oladi va bundan so'ngi hayotini ular tarbiyasiga bag'ishlaydi.

Drayzerning «Amerika fojiasi» (1925) asari birinchi jahon urishidan soʻng yozilgan monumental ikki tomli romandir. Asarning bosh personaji burjua meshchan oilasidan chiqqan-bola Klayd Krifissdir. Klayd burjua jamiyatiga xos yuzsizlik, boyish yoʻlida har qanday vosilatardan foydalanish kabi yaramas illatlarni oʻzlashtira boradi. U tushgan mashina bir qizni bostib ketadi. Qamalish xavli tugagach, Klayd bu yerni tashlab, boy amakisi yashaydigan shaharga boradi. Amakisining fabrikasida ishga joylashadi. Oʻsha yerda qishloqdan kelib xizmat qilayotgan kambagʻal qiz Roberta Olden bilan tanishadi va unga uylanmoqchi boʻladi. Lekin ahvolini tuzatish maqsadida u boy qiz Sondra finchilini olishga intiladi. Lekin boʻyida boʻlgani aniqlangach, Roberta Klaydan oʻzini nikohlab olishni talab qiladi. Bu narsa uning uchun koʻngilsiz voqyea, yaoni maqsadlariga erishish yoʻlida katta toʻsiq edi. Shuning uchun Klayd Robertani koʻlda sayr qildirib yurib, suvga choʻktirib oʻldiradi. Bu fojiali voqyeaning siri ochiladi va Klayd sud qilinib, elektr kursida jazolanadi.

Romanda Klayd Grifissda tugʻilgan egoizm Amerika burjua jamiyati va uning zoʻravonlikka asoslangan vaxshiy qonun-qoidalarining oqibati ekani koʻrsatiladi. Undagi individullistik xirs Roberta Olden shuningdek Sondra Finchliga boʻlgan munosabatda ham koʻzga tashlanib turadi. Sondra yosh va chiroyli qiz, lekin Klayd uning goʻzalligi emas balki boyligi qiziqtiradi. Burjua dunyosining axloqi, boylikka sigʻinish kishining tabiiy xis tuygʻularini barbod etadi. Bu narsa oddiy amerikalik yigit Klayd shaxsiyatida ochiq koʻrinadi.

Klayd obrazi Dreyzer ilgari yaratgan Kerri, Kauervud va Vitli Obrazlariga oʻxshamaydi. Ular kabi favqulotdda kuchga ega boʻlgan qudratli shaxslardan ham emas, balki oddiy amerikalikdir. Voqyealar tasvirida ham oʻzgarish bor. Ilgarigi asarlarida sotsial motivlar bilan birga, biologik omillar maolum darajada oʻrin egallagan edi. Bu romanda esa, sotsial voqyealarning mohiyat toʻgʻri talqin etiladi va real koʻrsatiladi.

«Amerika fojiasi» voqyelikning keng qamrab olishi, koʻtarilgan gʻoya va tanqidiy fikrning chuqurligi, badiiy mahoratning yuksakligi bilan jahon progressiv adabiyotining eng yaxshi realistik asarlari qatoridan joy oladi. Yozuvchining «Istak trilogiyasi Amerika adabiyotida tanqidiy realizmning eng yaxshi namunasi»dir. Kaupervard Balpzak yaratgan pulga uch, yuzsiz, oltin asosiga qurilgan dunyoning bosqinchilikdan iborat xarakterini aks etgan tipik obrazni eslatadi.

B) Kanada adabiyoti

Kanada adabiyotining dastlabki shakllanish davri XVI-XVII asrlar davomida fransuz va ingliz mustamlakachilarining Kanadaga kirib kelishi va koloniyalar tuzishi pallasiga toʻgʻri keladi. XVIII asrgacha Kanada adabiyoti kanadalik hindu, inuit va eskimoslarning ogʻzaki ijodi, dunyo va koinot yaralishi haqidagi afsonalari, anʻanaviy folklor koʻshiqlari, yevropalik sayyohlar va missionerlar kundaliklari, harbiy askarlar, savdogarlarning taassurotlari, gubernatorlarning memuarlaridan iborat boʻlgan. Keyinchalik yozilgan badiiy asarlar fransuz va ingliz klassik adabiyoti anʻanalari taʼsirida yozilganligi, faqat shakli-shamoyili va mazmuni Kanada voqyeligiga koʻchgani sezilib turadi. XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmiga kelib hajm va mavzu jihatidan tor va joʻn boʻlgan Kanada adabiyoti kengayib boradi.

XIX asr fransuz Kanadasi poeziyasi rivojlanishida Kvebek va Monreal she'riyat maktablari atrofida birlashgan romantik shoirlar guruhining faoliyati muhim rol o'ynaydi. Fransua Kasave, Deni Garno, Gyustav Freshett, Sharl Jil, Emil Nelligan, Alber Lazo kabi shoirlarning ijodi avvalgi taqlidchilikdan uzoklashib, o'ziga xos uslublarda vatanparvarlik, ozodlik tuyg'ulariga boy, inson ulug'ligini tarannum etuvchi xususiyat kasb etadi. Ayniqsa, "Millat shoiri" deb tan olingan Oktav Kremazining she'riyati va adabiy merosi fransuz Kanadasi adabiyotida alohida o'ringa ega. Kremazi poeziyasida shaxsiy hissiyotlar emas, ko'proq millat va jamiyatni uyg'otish g'oyalari, inson orzu-ideallari ustuvorlik qiladi. Kremazi adabiy merosi faqatgina she'riyat bilan emas, balki franko-kanada adabiy muhitining rivojlanish tendensiyalariga bo'lgan munosabati, ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan ham e'tiborga loyiqdir. Oktav Kremazi 1862 yil "Kanada oqshomlari" nomli ilk adabiy jurnal nashrini yo'lga qo'yadi va unda o'z davri adiblarining yangi asarlaridan parchalar berib boradi. XIX asr franko-kanada badiiy adabiyotida roman va hikoya janrlarida e'tiborga loyiq asarlar deyarli yaratilmaydi. Katta ijtimoiy kuchga ega cherkov ruhoniylari adabiyot va san'at rivojini cheklab, yozilgan asarlar nashrini man etishgacha boradilar. Shuning uchun ham faqat A.Emmonning oddiy fransuzlar hayoti qalamga olingan "Mariya Shapdelen" romanini e'tiborga olmaganda, tadqiqotchilar ushbu davrni "yo'qotilgan imkoniyatlar va yozilmagan kitoblar davri", deb atashgan.

Kanadaning anglo-kanada adabiyotida ma'rifatparvarlik g'oyalari ustun bo'lib, asosan, inson va tabiat, Ontario kengliklaridagi hayot, mustabidlikka qarshi kurash mavzulari asosiy o'rin egallaydi. "Satira otasi" deb nom olgan Tomas Xambertonning "Soatsoz" i Kanada adabiyotining birinchi eng mashhur va yetuk asari hisoblanadi. Xambertonning "Soatsoz" va "Attashe" asarlari aslida badia yoki sayyohlar kundalik daftari shaklida yozilgan bo'lib, unda ijtimoiy muammolarning o'tkir satira orqali tanqidiy yoritilishi obrazlar ta'sirchanligini yanada oshiradi. Muallif Sem obrazida ba'zi amerikaliklar xarakteriga xos manmanlik, firibgarlik, oddiy va soddadil odamlarga nisbatan bepisandlik, tovlamachilik kabi nuqsonlarni yorqin epizodlarda fosh etadi. "Soatsoz" avval "Novoskoshn" gazetasida bosiladi. Keyinchalik Kanadada bir necha bor nashr etilib, Angliya, AQSh, Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlar tillariga tarjima qilinadi. Opa-singil Katrina Treyll va Syuzanna Mudi hikoyalarida Kanadaning bo'ysunmas tabiati, qahraton sovuq iqlimida yevropaliklarning hayot uchun kurashi, asl kanadalik hindu-inuitlar bilan munosabatlarining yoritilishi jamoatchilik etiborini tortadi.

XIX asr anglo-kanada adabiyotida muhim o'rin egallagan yozuvchilardan biri J. Richardson bo'lib, uning "Tekulis – G'arb kurashchisi" poemasi, "Vakusta", "Kanadada sakkiz yil", "Tugallanmagan 1812 yil urushi" romanlarida Kanada hindularining amerikalik bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashi badiiy talqin etiladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Kanada adabiyotida milliylik uchun intilishlar davri boshlanadi. Kanada xalqining milliy birligi, yagona millat sifatida o'zlikni anglash, vatanparvarlik, betakror tabiat manzaralarini kuylash franko-kanada va anglo-kanada yozuvchi va shoirlari asarlarining asosiy mavzusiga aylanadi. Ushbu davr adabiyotida poeziya alohida o'rin egallaydi. Anglo-kanada shoirlari Aleksandr

Maklachlan, Charlz Mer, Izabella Krounford, Charlz Robertson, D. Skott, Bliss Karmen she'riyati e'tiborga loyiq. Kanada tabiati kuychisi Archibald Lampmen o'sha davrning eng iqtidorli shoiri deb e'tirof qilinadi. Lampmenning ijtimoiy tengsizlik, yovuzlik va bosqinchilik qoralangan "yer lirikasi" poemasi turli tillarga tarjima qilinadi. Pomona Jonson (asl hinducha ismi Texaki Onveyk) poemalari va she'rlarida ona tabiat manzaralari, qadim hindular qo'shiqlaridagi erk va ozodlik haqidagi orzu-xayollar o'zining yorqin badiiy ifodasini topadi.

XX asr Kanada badiiy adabiyotida keskin burilishlar, mavzu va janr doirasining kengayib borishi, yangi zamonaviy yo'nalishlar ko'zga tashlanadi. Qishloq hayoti, fermerlarning murakkab turmush tarzi, ijtimoiy muammolar, tabiatning shafqatsizligi Fridrix Fillip Grov, Timoti Findley, Jak Godbu, Ryujan Dyusharn romanlari va Marli Kallaxon prozasining asosiy mavzusiga aylanadi. Xyu Maklenen esa "Barometr", "Ikki yolg'izlik" romanlarida Kanada ijtimoiy-madaniy hayoti uchun muammoli bo'lgan anglo-kanada va franko-kanadaliklar orasidagi munosabat, qarama-qarshilik masalasiga e'tibor qaratadi. Kanada "yumorining otasi" Mordixay Richler asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning hajviyot orqali yoritilishi Kanada adabi-yotini janr jihatidan kengaytiradi. Mashhur romannavis Robertson Devisning "Deptfor trilogiyasi"ni adabiyotshunoslar XX asr Kanada badiiy adabiyotining eng mukammal asari, deb e'tirof etadi. Kanada zamonaviy adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri Timoti Irvin Frederik (adabiy taxallusi TIFF) nomi Kanada adabiyoti tarixida alohida o'rin egallaydi. Kanada va Fransiyaning Oliy ordenlari kavaleri TIFFning "Urushlar" romani Kanada general-gubernatorining Oliy mukofotiga sazovor bo'lgan. Timoti Irvin Frederik Kanada adabiyot Assotsiatsiyasining uch nominatsiyasi bo'yicha – "roman, drama va hikoya asarlari uchun" mukofotining yagona sovrindori hisoblanadi. Uning "Ziyoratchi", Ann Eberning "Kamuraska" romanlari jahon adabiyotining eng sara asarlari qatoridan o'rin egallagan. Maykl Ondatje asarlari, Margaret Etvudning hikoya va novellalari Buker mukofotiga, Kerol Shildsning "Stoun kundaliklari" asari Pulitser mukofotiga sazovor bo'lishi, Gabriel Ruaning "Tasodifiy baxt", Kinsellaning "Orzular maydoni" asarlari asosida badiiy filmlar yaratilishi, Maykl Ondaatjining "Angliyalik patsient" filmi "Oskar" mukofoti bilan taqdirlanishi Kanada adabiyotining dunyoga chiqishida muhim ahamiyat kasb etdi. XX asrning ikkinchi yarmida Kanada poeziyasi yuksak darajaga ko'tariladi. Zamonaviy Kanada she'riyatining o'ziga xos mavzu va uslublar rang-barangligi mashhur shoirlari Fillis Vebb, Margaret Etvud, Gvedolin Mak Yuin ijodida namoyon bo'ladi. Erl Berni ijodidagi ijtimoiy mavzuning yangicha poetik ifodasi, Leonard Koenning syurrealistik tajribalari, Jo Rozenblatning shakliy eksperimentlari, Barri Nikol qalamiga mansub she'riy romanlar va poemalar, Kristian Byokning "kuylovchi" poeziyasi, Patrik Leynning sodda she'riy hikoyalari, poeziyadagi uslubiy, badiiy-g'oyaviy izlanishlar ko'lamining kengligi Kanada shoirlarini jahonga tanitadi.

Kanada adabiyotining rivojida mamlakatda adabiyot va madaniyat ravnaqiga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilishining o'rni beqiyos. Shu munosabat bilan aholining badiiy-estetik ongini shakllantirishga qaratilgan qator dasturlarni eslash joiz. Shulardan biri "She'riyat tarbiyasi" dasturi bo'lib, birinchi bosqichda 7-12

yoshli bolalarning badiiy ijodga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirish uchun mashhur shoirlarni boshlang'ich va o'rta maktablarga ustoz sifatida biriktirish ishlari amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda esa oliy o'quv yurtlari talabalari, hukumat idoralari xizmatchilari va turli soha xodimlarida she'riyatga qiziqish uyg'otish, ijod qilishlari uchun amaliy yordam sifatida taniqli shoir va adiblarni jalb etib, havaskorlikni rag'batlantirishga e'tibor qaratildi.

XX asrning 90-yillarida "Kanada shoirlari ligasi" tashkil topadi. Liga she'riyatga bag'ishlangan turli festival va tanlovlar o'tkazadi, bolalar she'rlari to'plamlari, havaskor shoir va yozuvchilar ijodidan namunalar nashr etib, keng targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshiradi.

Liganing yana bir muhim vazifalaridan biri, xorijiy mamlakatlarda Kanada yozuvchilarining kitob bozorlari va yarmarkalarini o'tkazish, dunyodagi adabiyot markazlariga Kanada shoirlari va adiblarining yangi asarlari haqida axborot tarqatishdan iboratdir.

"Shoirlar ligasi", Kanada yozuvchilar uyushmasi, Kanada mualliflar assotsiatsiyasi, Kanada she'riyat assotsiatsiyasi, "Yozuvchilar bolalar uchun", Kanada san'ati konfederatsiyasi kabi tashkilotlar hamda adabiyot sohasidagi eng nufuzli milliy mukofotlar ko'pmillatli Kanada adabiyoti va sanatining taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

2013 yilda 82 yoshli yozuvchi Elis Manroning adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lishi Kanada adabiyotining mavqeini yanada yuksaklikka ko'tardi.

ERNEST XEMINGUEY.

(1899-1961)

Yirik Amerika yozuvchisi Ernest Xeminguey Ouk-Park shahrida vrach oilasida tug'iladi. U maktabni bitirgandan so'ng, kichik bir gazetada ishlaydi. yevropaga boradi: avval Fransiyadan keyin Italiyada joylashgan Amerika sanitar qismlarida turib, birinchi jahon urishida qatnashadi. Urishdan so'ng u Amerika gazetalarining muxbiri sifatida o'z mamlakatiga qaytib, Florida sohillarida istiqomat qiladi.

Xeminguey Ispaniya respublikachilarining fashist fitnachilariga qarshi olib borgan kurashlarida faol qatnashgan va bu haqda ko'p asarlar yozgan, ikkinchi jahon urish yillarida aviatsiya qimlarida muxbir bo'lib ishlagan. Ittifoqchilar armiyasining Fransiyaga bostirib kirishlarida ishtirok etgan.

Xeminguey ijodining boshlanishi birinchi jahon urishidan keyingi yillarga to'g'ri keladi. « Bizning zamonda» (1925) kitobiga kirgan hikoyalarida yozuvchi, birinchidan asarning lirik qahramoni Nik Adamsning yoshligi, o'smirlilik yillari, sevgisi va oilasi haqida hikoya qilsa, ikkinchidan tinch hayot haqidagi hayollarga qonli urush voqyealarini qarama-qarshi qo'yadi. Individualistik xarakterda bo'lsa ham, asarda urushga qarshi qahramonning noroziligi bayon etiladi.

Imperializm keltirib chiqargan bosqinchilik urushlarni nafratlashga bag'ishlangan «Alvido qurol!» (1929) romani yozuvchi ijodida muhim bosqinni tashkil etadi. Asarda birinchi jahon urishi yillarida Avstraliya frontida ro'y bergan voqyealar hikoya qilinadi. Sanitar xizmati letenanti amerikalik Genri urushning butun dahshatlari - ochlik, ifloslik, o'zaro qon to'kish va son-sanoqsiz begunoh kishilarning o'lib ketayotganligini ko'rib, urush haqidagi fikrlarining pup hayoldan

iborat ekanini biladi va umidsizlikka beriladi. Italiyan soldat va ofitserlari bilan samimiy suhbat va aloqalar uni milliy xudbinlik va mag'rurlikdan xoli qiladi. Shuning uchun leytenant Genri urishdan yuz o'girib, qurolini tashlab, betaraf mamlakat Shvetsariyaga o'tib ketadi. Yozuvchi urush qabohatlariga shaxsiy hayotni qarshi qo'yadi. Genri Ketrin Berkliga bo'lgan sevgisi bilan urush dahshatlaridan ham tashqi, dunyo mashaqatlaridan ham qutilishga intiladi. Lekin u shaxsiy hayot va muhabbatdan ham vaqt topa olmaydi. Ketrin tug'riqxonada o'lganidan so'ng Genri butunlay umidsizlik ichida qoladi. «Alvido quroll!» romnida birinchi jahon urushi qoralanadi. Biroq unda bayon etilgan norozilik shaxsiy yo'sindadir.

Bu kitoning muallifi, - deb yozadi Xeminguey asar boshida, - ongli suratda shu fikrga keldiki, urushlarda jang qilayotgan damlar dunyodagi eng ajoyib odamlardir, frontning qizg'in qismlariga kirib borganing sari bunday ajoyib kishilarga ko'proq duch kela boshlaysan. Lekin urishni boshlaganlar, uni oloviga yana olv tashlab turganlar, iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishdan boshqa narsani o'ylamaydigan to'ng'izlardir... Men urush olovini yoqqanlar ... otib tashlanmog'i zarur, deb hisoblayman.

Xemingueyning 30-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan asarlarida u tashqi dunyoga munosabatida ziddiyatli va individualist ijodkorligicha qoladi. O'sha yillari ocherk shaklida yozgan « Tushdan keyingi o'lim» (1932) kitobida o'lim mavzusi yana ham ochiq ko'rinadi. Asarda buqalar urishi va unga boliq qoidalar batafsil beriladi. Buqalarni o'ldiruvchi matadorlar yoki matadorlarni halok etuvchi buqalar, otlarning yorilib ketgan qornidan otilib chiqayotgan qonlar fojea ustiga fojea va ayniqsa jarohatlangan odamning o'limi oldidan kechirgan azoblari umidsizlik ruhida tasvirlanadi.

«Afrikaning yashil tepaliklari»da (1935) ham yuqoridagi kitobiga xos bo'lgan o'lim masalasi ko'tariladi. Agar « Tushdan keyingi o'lim» matador bilan buqa o'rtasidagi olishuvdv ikkalasidan birini halok etishi bilan tugasa, bunda ovchi haqida gapiriladi va albatta voqyea ovchining g'alabasi va havonning o'limi bilan yakunlanadi.

Yolg'izlik, umidsizlik yozuvchining boshqa hikoyalarda ham aks etadi. Masalan, «Toza va yorug' joyda» (1936) kitobi qahxramoni kecha va qorong'ulikdan vahimaga tushadi., uning uchun yagona makon toza va yorug' mayxona bo'lib qoladi. 30- yillarning o'rtalarida Xeminguey sotsial voqyealarga murojaat qiladi. Shu davrga xos romani « Hayot yoki mamot» (1937) qahramoni Garri Morgan o'z oilasini boqish yo'lida tinmay ishlaydi Garri yashashga bo'lgan tabiiy extiyojini qondirish maqsadida burjua jamiyatining vahshilika asosalangan qonunlariga tayanib o'zini ham ayamaydi, boshqalarga ham shafqat qilmaydi. Hatto odam o'ldirishgacha borib yetadi. U faqat o'zining shaxsiy kuchiga ishonadi. Kuba anarxistlari bilan to'qnash kelgan va jarohatlangan Garri Morgan o'limi oldidan yolg'iz odam hyech narsa qila olmaydi, degan fikrga keladi. Qahramonning fajiali halokati yozuvchidagi individualistik qarashlarning samarasizligini ko'rsatadi.

«Daryoning narigi tomonidagi daraxtlar soyasida» (1950) asrida ijtimoiy hayotdan chetda turuvchi yakka qahramon paydo bo'ladi. Bu ikki urushda qatnashgan amerikalik polkovnik Richard Kentuelldir. Asar qahramoniga xos narsa shuki, u hamma vaqt o'lim hayoli bilan yashaydi va bu esa, povestning g'amgin ruhini ko'rsatadi.

Xeminguey so'nggi «Chol va dengiz» (1952) qissasi uchun Nobelp mukoqotini olgan. Asar qahramoni chol Santpyago baliq oviga chiqqaniga ancha kunlar bo'lsa ham, lekin ishi yurishmaydi. Uning yelkaniga «ko'p yamoq tushgan» qayiqqa qanday qilib ham baliq ilinsin. Santpyago kekxa bo'lsa ham, lekin o'zi tetik. Shuning uchun yozuvchi bu odam « taslim bo'lmaydi deb uqtiradi».

Chol to'riga katta baliq tushganida cheksiz sevinadi. «Baliq deb chaqirdi u sekingina, - o'lsam o'lamanki, sendan ajralmayman». Chol butun kuch g'ayratini ishga solib, baliq bilan olishadi va yengadi. « Uning: «Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni bo'ysundirish mumkin emas» degan so'zlari inson qudratiga yozuvchining cheksiz ishonchini ko'rsatadi.

Baliqqa bir gala akula xujum qilganida ham Santpyago bo'shshmay kurashni davom ettiradi, shu tariqa olishuv ancha davom etadi. Uning pichog'i sinib, qo'llari qonga belansada to'qmoq bilan akulalarning boshiga urishda davom etadi. Santpyago qirg'oqqa yetib borganida katta baliqning faqat gavda suyagigina qolgan edi. «Kim ham seni yenga qoldi o'zi chol, - so'radi o'z-o'zidan - hych kim, - javob berdi u. – Aybim shuki men dengizdan xaddan tashqari uzoqqa ketib qolibman».

Santpyago uchun umidsizlik gunohdir. Kitobxon ko'zi o'ngida mag'lubiyatni bilmaydigan, irodali inson timsolida namoyon bo'ladi. Santpyago shu jihatdan yozuvchining oldingi asarlari qahramonlaridan farq qiladi. Uni qirg'oqda kutib olgan bola navbatdagi baliq ovida chol bilan birga borishni va undan ko'p narsa o'rganish zarurligini aytadiki, bu – Santpyagoning yolg'iz emasligiga ishoradir.

Glossary

So'z boshi – preface

Taajjub– astonishment

Tavsif– recommendation

Tadrij– evolution

Tanqid –criticism

Taqlid-imitiation

Tekst – literary translation

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. XX asr AQSh adabiyotida ijod qilgan yozuvchilarni sanab o'ting.
 2. Teador Drayzer ijodida asosan qanday muammolar ko'tarilgan?
 3. «Yo'qotilgan avlod» mavzusi deganda nimani tushunisiz?
 4. E.Xemingueyning «Chol va dengiz» asarining asosiy g'oyasi nimadan iborat?
- Adabiyotlar ro'yxati:
5. Kanada adabiyotining umumiy manzarasi haqida gapiring.
 6. Hozirgi Kanada adabiyoti haqida tushuncha bering.

Test topshiriqlari:

- 1.Lotin Amerikasida XX asrning yirik yozuvchisi kim
- A. Markes
B. Borxes

S. Bioy Kosares

D. Fuentes

2. nechinchi asr lotin Amerikasi adabiyotining jadal rivojlanishi uchun muhim davr bo'ldi

A. XIX asr

B. XVIII asr

S. XX asr

D. XVII asr

3. Kartasor obrozarlar orqali fikrlashni yaxshi ko'rgan. O'quvchini nech toifaga bo'lgan

A. 2 B. 3 S. 5 D. 2 va 4

4. Markesning "xosiyatsiz soat" asari nechinchi yilga yozilgan

A. 1966 B. 1960 S. 1959 D. 1962

5. Pulo Koelo XX asrning 90 yillarida yaratilgan qaysi asarlari orqali shuhrat qozongan

A. "Alximik" "Beshinchi tog'"

B. "Alximik" "chol va dengiz"

S. "Beshinchi tog'" "Begona"

D. "Begona" "Alximik"

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2014 yil № 7.

2. www.vikipediya

3. Amerika hikoyalari. T., 2012

26-mavzu. Jahon adabiyotining zamonaviy muammolari

REJA:

1. XX asr fransuz modernizmi va postmodernizmi: aksilroman va aksildrama muammosi.

2. XX asr dramaturgiyasi: dramaturgik nazariyalar qiyosi.

3. Lotin Amerikasi adabiyoti. X. L. Borxes va U. Eko ijodida metaadabiyot hodisasi.

4. Adabiy-falsafiy masallar.

5. Zamonaviy yapon adabiyotida odam va olam muammosi.

Insoniyat globalizm davrida yashayapti. Bir tomondan axborot tezligi madaniyatlarning qo'shiluvi, sintezlashuviga olib kelmoqda. Natijada inson badiiy tafakkurida ham o'zgarishlar sur'ati misli ko'rilmagan darajalarda tezlashmoqda. Adabiyotdagi "izm"lar ham shunga ko'ra tez tez yangilanib bormoqda. Chunki jamiyat kayfiyati yangilanmoqda. Jamiyat kayfiyati adabiyotning yangilanishini taqozo etadi. Yangilanish esa adabiyotning tarzini, yo'nalishlarini, demakki, muammolarini keltirib chiqaradi.

Zamonaviy adabiyotning muammolari o'zgargan, o'zgarishda shiddat bilan davom etayotgan dunyoning muammolari bilan bog'liq. Moskvada o'tkazilgan

dunyo kongressida Ch. Aytmatovga N.Boltyanskaya quyidagicha savol beradi: "Forum yozuvchilarning muhim masalalaridan biri dunyo adabiyoti muammosidir. Zamonaviy jahon adabiyotining bosh muammosi nimada, deb o'ylaysiz?". Ch. Aytmatov javob beradi: "Bu savolga javob berish judayam qiyin. Qo'lida qalami bor har bir yozuvchi inson hayotining eng muhim qismini, yuragini nishonga olyapman, deb o'ylaydi. O'ylaymanki, inson juda katta sinovlar arafasida turibdi. Bu sinovlar dunyoviy konfliktlar, urushlar va shu kabilar bilan bog'liqdir. Shu ma'noda u o'zini qanday ko'rsata oladi? Ehtimol, shu narsa eng muhim masaladir. Ammo judayam og'ir masala..." Yana sizning dokladingiz nima haqida bo'ladi? degan M. Peshkovaning savoliga Aytmatov javob beradi: "Ekologiya va so'z. Bunday so'z birikmasi ajoyib, a! Nahotki, ekologiya so'zga bog'liq bo'lsa?.. Bog'liq. Mening nazarimda yer yuzidagi hamma narsa: ezgulik va yovuzlik birinchi navbatda so'zdan bino bo'ladi. Szo'z bu avvalo, bizning fikrlarmiz, niyatimiz, harakatlarimiz, amallarimiz va h.z. Buni ekologiya rakursida olib qarajak, zamindagi ekologiya ko'p jihatdan insonning o'zini qanday tutishiga bog'liq"³ (Tarjima - U. Hamdamov) Zamonaviy jahon adabiyoti manzarasini quyidagi muammolar tashkil etadi:

1. Postmodernizm g'arbiy yevropa madaniyatining umumestetik fenomeni.
2. U. Eko, (Atirgul ismi), Devid Lodj, Joze Saramogo, G.Markes, Ayris Merdok (Qora shahzoda), M. Pavich "Xazarskiy slovar", P. Zyuskand, X. Borxes, Kortasar.
3. Postmodernizm san'at, sotsiologiya, filosofiya, ekonomika va modada davr ruhini aks ettiruvchi oqim. Postmodernizm turfa adabiy oqimlarni bir biriga yaqinlashtiruvchi universal til sifatida.
4. Postmodernistik ongning buhronli qiyofasi.
5. Intertekst o'rniga kelgan gipertekst. Olam - kaos, olam matn, avtoritetlar buhroni.
6. Romandagi intertekstuallik.
7. Gazeta parchalarini birlashtirish, montaj qilish orqali asar yasash.

Butssatining "yetti qavat" (Dino Korte) hikoyasi bn X. Do'stmuhammadning "Jimjitxonaga yo'l" (Zohid Yaqin) hikoyasi muqoyasasi.

Antiroman (fr. *Antiroman*) — shartli istiloh bo'lib, "yangi roman" istilohi bilan bir qatorda ishlatiladi. XX asr o'rtalaridagi fransuz modernizmi nasriga nisbatan ham qo'llaniladi. Ilk bor termin 1633 y.da Shard Sorelning "Ekstravagant Berger" romanining qo'shimcha nomi sifatida ishlatilgan. 1948 yi.da J. P. Sartr tomonidan qayta iste'molga kiritilgan.

Bunda roman janrining klassik elementlaridan voz kechiladi. Mas., izchil syujetdan, qahramonlar obrazlaridagi butunlikdan. Konformizm va begonalashuv bilan bog'liq alohida situatsiyalarni tahlil qiladi. Vaqt me'yorlariga rioya qilinmaydi, tilda yangilikka e'tibor qaratiladi, chunonchi, punktuatsiya, grammatika va h.z.larda erkin

³ Москвада ўtkazilgan xalqaro kongressdagi suxbat. <http://echo.msk.ru>

harakat qilinadi. Aloqasi bo'lmagan rasmlar kirib qoladi, bo'sh sahifalar tashlab ketiladi.

Antiromanning bir necha namunalari:

1. Nabokov V. V. "Rangsiz olov". 999 misradan iborat doston. Ko'plab adabiy allyuziyalar bilan to'ldirilgan.

2. Xulio Kortasar. "Igra v klassiki" romani alohida strukturasi bilan ajralib turadi. Muallif so'zboshisida kitobda "ko'p kitob" borligi bayon qilinadi. Ya'ni kamida dekkun xil o'qish keraligi uqtiriladi. 1. Oddiy. Bunga romanning ikki dastlabki qismi kiradi "U tomondan", "Bu tomondan". 2. Maxsus o'qishda esa yana qo'shimcha ravishda "Narigi tomonlardan" deyilgan qismlarni o'qish tavsiya etiladi.

Antidrama. Absurd teatri. 1950 yildan, E. Ioneskoning "Taqirbosh qo'shiqchi ayol" pesasi sahnaga qo'yilgan vaqtdan boshlangan. E. Ionesko va S. Bekketlar dramaturgiyasini har xil baholash bor: absurd dramasi, paradoks dramasi va antidrama. Chunki aynan shularga kelib dramaning an'anaviy ko'rinishi buzildi: janr, syujet, voqyeaning psixologik rivojida tamoman boshqa o'zgarishlar sodir bo'ldi. Antidramaga hayot mantiqsiz degan qarash xos. Lekin ekzistensialist Sartre va Kamyudan farq qilib, Bekket va Ionesko falsafa va mafkurani inkor qiladi. Ulular o'z teatrlarini mavzuga qarshi, mafkuraga qarshi, reallikka qarshi deb bilishadi. Inson tushgan holatlarni be'mani deb ataydi: masalan, "Godoni kutish"da asar personajlari Vladimir va Estrogan qandaydir Godoni kutishaveradi. Ioneskoda esa odamlar to'ng'izga aylanib qoladi ("Nosorogi"). Antidrama tushuntirmaydi, tahlil qilmaydi, balki tomashabinni umidsiz va bema'ni kayfiyatga tortqilab ketadigan tarzda faqat ko'rsatadi. Dunyo ko'pdan ko'p versiyalar makoni sifatida taqlin etiladi. Unga san'atni o'yinga anlantirish xos. Pesadagi dialoglar bir biri bilan uzviy bog'lanmagan. Hyech kim hyech kimni eshitmaydi, hamma o'zi haqida gapiradi.

Hayotda ko'p qaytariladaigan, siyqasi chiqqan frazalarni qolip sifatida takrorlash orqali turmushning bir xilligiga urg'u beriladi.

Nima uchun "anti" affiksi bor? Chunki Anri Bergson, Shopengauer, Nitshelar hayotni aql bilan tushunib bo'lmaydi, uni faqat his qilish mumkin, haqiqatga his orqali yetiladi, reellikdan voz kechib, irratsionallikka e'tibor berish kerak. Aql bu yo'lda faqat halaqit beradi, deyishgan. Shu uchun ham aql bilan yaratilgan hamma janriy kanonlarni buzib tashlash kerak deb qarashgan. "Anti" affiksi shu bois paydo bo'lgan. Bu falsafa 2 jahon urushidan keyin tug'ilgani uchun ham pessimistik ruh urfurib turadi.

Glossary

Jahon adabiyoti – world literature

Qadimiy – ancient

Taraqqiyot – progress

Adabiyot tarixi – history of literature

Test topshiriqlari:

1. Dreyzer nechinchi yillarning o`rtalariga NYU- YORKda yashab jurnallarda redaktrlik qilgan
 - A. 50 yillarning o`rtalarida
 - B. 90 yillarning o`rtalarida
 - S. 60 yillarning o`rtalarida
 - D. 8- yillarning o`rtalarida
2. Kanada adabiyotining dastlabki shakillanishi davri nechinchi asrlarga to`g`ri keladi
 - A. XVI-XVII asrlarda
 - B. XVII-XVI asrlarda
 - S. XIX- XVIII asrlarda
 - D. XIV- XIII asrlarda
3. Oktov Kemozi nechinchi yilda “ Kanada oqshomlari” nomli ilk adabiyot jurnal nashrini yo`lga qo`yadi
 - A. 1863 yilda
 - B. 1866 yilda
 - S. 1865 yilda
 - D. 1862 yilda
4. XIX asr Onglo Kanado adabiyotida muhim o`rin egallagan yozuvchilardan birini toping
 - A. J. Richardson
 - B. Oktov kemari
 - S. Dreyzerarmida
 - D. Oktov kemazi, Drezey
5. nechinchi asrning ikkinchi yarmida Kanada adabiyotida milliylik intilishlar davri boshlandi
 - A. XX asrning ikkinchi yarmida
 - B. XIX asrning ikkinchi yarmida
 - S. XV asrning ikkinchi yarmida
 - D. XIV asrning ikkinchi yarmida

Adabiyotlar:

1. *Hodgson R. The Parody of Traditional Narrative Structures in the French Anti-Novel from Charles Sorel to Diderot. // Neophilologus. July 1982; 66(3):340-348.*

27-mavzu: Afrika mamlakatlari adabiyoti.

Reja:

1. Umumiy xarakteristika.
2. Xalq og‘zaki ijodi.
3. Yozma adabiyoti.
4. Zamonaviy adabiyoti.

Afrika qit‘asida ko‘plab mamlakatlar bor bo‘lib, ularning bir biriga o‘xshash noo‘xshash og‘zaki va yozma adabiyotlari mavjud. Ammo Afrika mamlakatlari adabiyoti yevropa adabiyotidan o‘zining asosiy qismi og‘zaki adabiyot bo‘lishi bilan farqlanib turadi. Yana yevropa adabiyotida shakl va mazmun bir biridan keskin ajraladi, Afrika adabiyotida ularni bir biridan ajratish mahol. Ifodaning go‘zalligiga shakl go‘zalligi uchun emas, balki tinglovchini ko‘proq jalb qilish, dialog uchun ahamiyat beriladi.

Xalq og‘zaki adabiyoti. Afrikada istiqomat qilayotgan hamma xalqlarning xalq og‘zaki adabiyoti mavjud. Janrlari har xil: ertak, mif, qo‘shiq, topishmoq, masal va h.k. Ham nasrda, ham nazrda ifoda qilinadi. JAR, Gambi, Zimbaba, Beninda janrlar boy, Nubiy, Jibut va Janubiy Sudanda o‘ziga xoslik nihoyatda kuchli. Professional aytuvchilar, qo‘shiqchilar bor.

Afrika xalq og‘zaki ijodining qadimiy janri bu hayvonlar haqidagi ertaklar bo‘lib, aksariyat hollarda quyon, toshbaqa va o‘rgimchak ayyor qahramon rolini bajaradi. Bu ertaklarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ularda axloqiylashtirish yo‘q. Ammo yaqin asrlarga qadar Afrika og‘zaki adabiyoti namunalari yozib olinmagan. Ilk yozib olish 17-18 asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu paytda Afrika koloniyaga aylantirilayotgan edi, yozib olish ham kolonizatorlar tomonidan amalga oshirilgan. Og‘zaki adabiyotning yirik namunalari qatoriga eposlar kiradi. Maliga oid “Silamaka va Pullori Fulba”, “Sundyata Mandingo”, Markaziy Afrikaga oid “Mvindo Nyanga haqida... predanie”, Sudanga oid epik poetik bitiklar bor.

Yozma adabiyot. Yozma adabiyot ilk bor Afrikaning shimolida paydo bo‘ldi. Qadimiy yozma adabiy yodgorliklar Misrga tegishli bo‘lib, m.a.gi 3000 yillikka borib taqaladi. Bundan tashqari, adabiy matnlar yunon, lotin va finik tillarida yaratilgan. Keyingi yozma adabiyotda arab adabiyoti ta‘siri kuchli bo‘lganini qayd etish kerak. Ko‘plab Afrika mamlakatlarida yozma adabiyot XX asrda, ular o‘z mustaqilligini e‘lon qilgandan so‘ng paydo bo‘ldi, deyish mumkin. Misr adabiyotidan tashqari yozma adabiyot Efiopiyada 4-7 asrlar oralig‘ida paydo bo‘lgan Aksum podshohligi davrida yaratilgan. Yana Mali va Madagaskarda ham qadimiy adabiy matnlar bor. Sudan “Sennar xronikasi” va “Tabakat” deb nomlangan qadimiy lug‘atlarga ega. 12 asrda asos solingan Tombuktudagi universitet adabiyotning yirik markazi bo‘lgan. Shimoliy Afrikada, xususan, Mali, Chad, Sudanda adabiyot arab-islom madaniyatining bir qismi sifatida rivojlangan. Tanzani va Madagaskarda arab yozuvi qo‘llanilgan.

Zamonaviy adabiyot. Zamonaviy Afrika adabiyoti mustamlaka davrida, kontinentga yevropa tillari va lotin alifbosi kirib kelishi bilan shakllana boshladi. Mas., JAR da lotin alifbosi 19 asrdan beri mahalliy tillarda yaratilgan matnlarni yozishda ishlatila boshlandi. Yozuvning keng tarqalishini ta‘minlagan asosiy kuch nasroniylik bo‘ldi. Missionerlar Injil va boshqa muqaddas matnlarni Afrika mahalliy tillariga tarjima qila boshlandi. Lekin ko‘pgina mamlakatlarda o‘z milliy

adabiyotining paydo bo'lishi XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Hatto Reyunon orolida mahalliy tilda ilk asarlar 1990 yillarda yozildi.

Glossary

Tadrij	Evolution	(ar. - saralash) - mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at. she'rning boshlanishida qo'yilgan mavzuning oxiriga qadar izchil davom ettirilishi
Tanqid	Criticism	(ar. - saylash, saralash; muhokama qilmoq) - keng ma'noda hozirgi badiiy jarayon muammolarini o'rganish, yangi paydo bo'lgan san'at asarlarini muhokama qilish. Ularning mazmun-mohiyati.
Taqlid	Imitation	(ar. o'zgarshtirish. o'xshatish) - adabiyotda o'zigacha mavjud bo'lgan asar xususiyatlarini qayta yaratish.
Tekst	Text	(lot. textus - mato, to'qima, matn) - 1) yozuvda qayd etib o'tilgan nutq, termin bu ma'nosida og'zaki nutqqa qarshi qo'yiladi;) nutqiy asar.
Tendentsiya	Tendency	(lot. tendere - yo'naltirish. intilish) - tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga muallifning g'oyaviy-hissiy munosabati.
Tertset	Terzetto	(ital. terzetto - uchinchi) - uch misrali band shakli.
Tertsina	Terzarima	(ital. terza rima - uchinchi qofiya) - italyan she'riyatidagi uch misrali bandlardan tarkiblangan she'r shakli.
Tragediya	Tragedy	(yun. tragidiya - echki qo'shig'i) - dramatik turning uchta asosiy janridan biri, janr sifatida antik davrda shakllangan bo'lib, uning asosiy estetik belgisi tragidiklikdir.
Traditsiya	Tradition	(lot. traditio - berib yo'bormoq, o'tkazmoq) - qarang: adabiy an'analar
Trop	Trope	(yun. tropos - ko'chim) - qarang ko'chim TO'GO'N (ruschadan kalka: «zavyazka») - epik va daramatik asarlardagi voqeaband syujetning muhim unsuri. voqealarning boshlanishiga turtki bo'lgan voqea.

Test topshirilari:

1. Afrika og'zaki adabiyoti namunalari yozib olish nechinchi asrlarga borib taqaladi
A. 17-18 asrlarga

- B. 16-17 asrlarga
 S. 15-16 asrlarga
 D. 17-16 asrlarga
2. Yozma adabiyot ilk bor Afrikaning qayerida paydo bo'lgan
 A. Janubda
 B. G'arbda
 S. SHimolida
 D. SHarqida
3. Mas. Jar da lotin alifbosi nechinchil asrdan beri mahalliy tillarda yaratilgan matnlarni yozishda ishlatila boshlansi
 A. 18 asrdan
 B. 20 asrdan
 S. 19 asrdan
 D. 17 asrdan
4. Ryunon orolida mahalliy tilda ilk asarlari nechanchi yillarda yozildi
 A. 1980 yil
 B. 1990 yil
 S. 1970 yil
 D. 1960 yil
5. Xalq og'zaki adabiyoti professional aytuvchilar, qo'shiqchilar bor bular qaysilar
 A. Gambi, Zimboba
 B. Mali, CHod
 S. Mali, Zimboba
 D. Gombi, Chod

Adabiyotlar

1. "Jahon adabiyoti" jurnali.
2. www.vikipediya

28-mavzu. Avstraliya adabiyoti

Reja:

- 1. Avstraliya adabiyotining shakllanishi**
- 2. Avstraliya adabiyoti vakillari**

Avstraliya adabiyoti haqida gap ketganda, uni asosan ingliz adabiyotiga nisbat berish, shuningdek, sintez adabiyot, deyish mumkin. Negaki, XVIII asrlargacha mahalliy aborigenlarning og'zaki adabiyoti mavjud bo'lgan bo'lsa, qit'aga inglizlar kelishi bilan ingliz adabiyoti rivojlandi. Ma'lum davrlar davomida qit'aga boshqa xalqlar vakillarining kelib o'rinishi tufayli Avstraliya adabiyoti sintez xarakteriga ega bo'ldi. Shunga qaramay, qit'a adabiyoti asosini ingliz adabiyoti tashkil etib qoldi.

Avstraliya adabiyotining 200 yildan ortiq taraqqiyot tarixini quyidagi uch davrga bo'lish mumkin:

- kolonial yoki ingliz-avstraliya davri (1788-1880);

- milliy davr (1880-1920);
- zamonaviy davr (1920 yillardan hozirgi kungacha).

Sidneyda 1788 yili surgun qilinganlar koloniyalarga asos solgan, kema zobitlari bo'lgan Ison Uayt (1756-1832), Uotkin Tench (1758-1833) va Devid Kollinzlarning (1756-1810) memuarlari va yo'l qaydnomalari Avstraliyaning dastlabki adabiy yodgorliklari hisoblanadi. Avstraliya qit'asidagi dastlabki poetik asarlar ballada janrida yozildi. Ular o'sha davrlardagi ingliz va irland balladasi an'analari ruhida edi. Qochoq-surgunlar va bo'sh-reynjerlarning (qaroqchilar) erkin hayot haqidagi orzulari dastlabki balladalarning asosiy mavzusi bo'lib qoldi. Bu asarlardagi keskin hajviyot va istehzo orqali bosqinchilar jamiyatining axloqiy tubanligi ochib tashlanadi. Dastlabki ellik yillik istibdod lirikasi Angliyaning klassitsizm davridagi mavzular va uslublariga ergashdi. Charlz Tompson (1806-1883) va Charlz Ventvortlar (1790-1872) birinchi lirik shoirlar edi.

Charlz Garpur (1813-1868) bu davrning buyuk shoiri sifatida tilga olinadi. Irlandiyadan surgun qilinganlarning avlodi bo'lgan Garpur she'riyati Jon Milton va Vordsvord ijodiga xos bo'lgan mustabidlikka qarshi mavzulardan tashkil topgan.

Taniqli shoir Genri Kandella (1839-1882) she'riyati uchun ruhiy kayfiyatning ramziy aksi sifatidagi tashqi olam tasvirlari xos xususiyat hisoblanadi. Kandella manzaralari falsafiy, ba'zan diniy mavzularga yo'g'rilgan bo'lib, u shu yo'l bilan o'z ichki olamidagi nomutanosiblik, umidsizlik, tushkunlikni ifodalaydi. "Tog'lar", "Peruga", "Leychgardt" kabi she'riy to'plamlar uning mashhur to'plamlari hisoblanadi.

Avstraliya adabiyotining milliylik davrini Jyul Fransua Archibald va Jon Xaynslar asos solgan "Byulleten" haftaligi ochib berdi. Ijtimoiy takliflar, radikal-demokratik yo'nalish, oddiy ishchilar hayotiga e'tibor, Avstraliya adabiyotida inglizlar ta'sirini rad etish bu jurnalning asosiy yo'li bo'lib qoldi. Avstraliya burchaklaridagi hayot, qishloq manzaralari, shuningdek do'stlik, mardlik va insonlar tengligini kuylash jurnaldagi odatiy mavzulardan edi. "Byulleten" tufayli Avstraliya ovloqlari haqidagi balladalari bilan Banjo taxallusli Endryu Barton Patterson (1864-1941), ingliz va fransuz estetizmi va simvolizmi ruhida ko'proq ijod qilgan Charlz Brennan va J.Nilson singari shoirlar mashhurlikka erishdilar.

Genri Lousonning (1867-1922) she'riyati fuqarolik lirikasi namunasi hisoblanadi. Uning she'rlaridagi tantanavorlik inqilobiy kayfiyat va milliy vatanparvarlik mavzulari bilan uyg'unlashib ketgan.

1920 yillar boshlaridan Avstraliya adabiyoti yevropa va Amerika adabiy oqimlariga e'tiborliroq bo'lib qoldi. Ayniqsa, "Meanjin papers" (1940 yildan), "Angri Pepuins" (1940-1946) singari Avstraliya adabiy jurnallari yangi oqimlar va yo'nalishlarni targ'ib qilishda katta rol o'ynadi. Adib Reks Ingamellsdan Avstraliya aborogenlari madaniyatini qayta baholash va Avstraliya adabiyotining mustaqil ovozi izlash harakati boshlandi. Real voqeya-hodisalar haqida lirik she'rlar yozish K. Makkenzi, Jeyms Makoli, Alek Dervent Xoup singari shoirlar ijodida kuzatildi. Judit Rayt, Fransis Uebb va Bryus Deyv kabi shoirlar manzarali ramziy tasvirlar, Romari Deyson va R.D. Fitsjerald esa she'riyatda tarixiy mavzularga murojaat qildilar.

O'tgan asrning 50-yillarida Melburn universiteti poetik maktabi paydo bo'lib Vinset Bakli, Ronald Simpson, Kris Uolles-Kreb, Iven Jons, Noel Makcynob, Andryu Teylor bu maktabning bosh vakillari bo'lib qoldi. Ular san'atda murakkab shakllar va intellektual illyuziyalarni ma'qul topdilar.

XX asr Avstraliya romani yevropa hamda AQSh falsafiy va adabiy oqimlarning ta'sirida yaratildi. Insonning ichki olamini psixologik tasvirlash, Avstraliya jamiyati ibtidosini tadqiq etish romanlarning muhim mavzusi bo'lib qoldi. O'tmishga bo'lgan qiziqish qalban yolg'izlik tuyg'usi bilan uyg'unlashgan G.Richardsonning "Richard Maxouni takdiri" romani 20-yillarning eng mashhur asarlaridan edi. M.Boyd, Brayan Penton, Mardjori Bernard, Flora Eldsherou kabi adiblarning asarlarida ham shunday tendensiyalar seziladi.

Ijtimoiy-tanqidiy mavzular, xususan, qishloqdagi insonlarning hayoti mavzusi Katarina Prichard, Frenk Delbi Devidson, Leonard Mann, Frenk Xardim singari yozuvchilarning e'tiborini tortdi. X.Gerbert, Samner Lok Elliott, K.Makketuzi asarlarida ijtimoiy muammolarni satirik jihatdan tanqidiy yoritish xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Yozuvchi Patrik Uayt 1973 yili adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ladi. R.Shou, Kristofer Kox, Geyl Parter kabi adiblar asarlarida avstraliyacha uslubi va mohiyati bilan o'quvchilar e'tiborini qozondi.

Avstraliya adabiyotida hikoya janri XX asrning 40-yillarida yangicha rivojlanish yo'liga o'tdi. Bu davr Avstraliya hikoyalarida Jeyms Joys, Ernest Xeminguey va Jon Dos Passolar uslubining ta'siri sezilarli bo'ldi. Uens Palmer nashr qilgan From Soast to Soast yillik antologiyasi hikoya janrining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Tiav Estli, Myurreyl, Ueyns Palmer, Geyl Porter, Kristina Stid va boshqa yozuvchilar hikoya janrida ijod qiluvchi yetakchi adiblardan bo'lib koldilar.

Avstraliyaning mustaqil dramaturgiyasi modern davrida rivojlandi. Luis Esson (1879-1943) drama taraqqiyotiga nazariy va amaliy turtki berdi. Katarina Prichard, Ueyn Palmer, Betti Roland, Genrietta Dreyk, Bryukman, Devid Uilyams, Aleksandr Buzo, Jon Romeril, Doroti Xyuit, Alen Seymur, Piter Kenna, Tom Xangerford, Tomas Shepxott kabi dramaturglar ijodi Avstraliya dramasi taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Garchi Avstraliya adabiyoti asosan ingliz, irland adabiyotlari ta'sirida rivojlangan bo'lsa-da, lekin asosan Avstraliya voqyeligini ifodaladi. Negaki Avstraliya qit'asi Angliya jinoyatchilari surgun qilinadigan joy vazifasini o'tadi. Ularning ko'pchiligi shu qit'ada qolib ketdilar va bu yer badiiy adabiyot uchun asosiy tasvir ob'ekti bo'lib qoldi.

Natalya Krofts.

Glossary

To'rtlik	Quatrain	to'rt misralik band turi; katren, murabba' (ar.- rajazda yozilgan) - masnaviy tipida qofiyalanib, «rajazi mo'saddas» vaznida yoziluvchi ilmiy she'r.
Urjuza		(ar.-tartib, usul,tarz, yo'sin)- poetikaning muhim kategoriyalaridan biri; badiiy
Uslub	Method	

Fabula	Plot	asarning u yoki bu tarzda shakily qurilishini belgilovchi umumiy prinsip. (lot. fabula - hikoya, masal) - syujetshunoslik kategoriyasi
Figura	Figure	(lot. figura - shamoyil, tashqi ko'rinish) - nutq qurilishida, fikr ifodasida kuzatiluvchi jonli so'zlashuv uchun odatiy, tabiiy normalardan chekinishlarning umumiy nomi; stilistik figuralar, ritorik figuralar, nutq figurallari kabi ko'rinishlarda ham ishlatiladi.
Formalizm	Formalism	(lot. forma - tashqi ko'rinish) - badiiy shakl va mazmunning uyg'un birligi talabidan chekinib, shaklning nisbiy mustaqilligini mutlaqlashtirgan holda unga badiiyatning bosh mezon sifatida qarashda namoyon bo'luvchi estetik tendentsiya.
Futurizm	Futurism	(lot. futurum - kelajak) - XX asr boshlarida maydonga kelgan avangardistik oqim, san'atning deyarli barcha turlarida kuzatilgan. ayniqsa, tasviriy san'at va xaykaltaroshlikda ta'siri kuchli bo'lgan, badiiy adabiyotda ham sezilarli iz qoldirgan.
Xarakter	Character	(yun. karakter - iz, belgi, farqlovchi xususiyat) - badiiy xarakter; muayyan davr va muxit kishilariga xos eng muxim umumiy xususiyatlar bilan aloxida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan inson obrazi.
Xiazm	Chiasmus	(yun. chiasmus - yo'non alifbosidagi X xarfidan, ya'ni shu xarf shaklida joylashgan) - teskari tartibdagi sintaktik parallelizm, misradagi so'z (bo'lak)larni teskari tartibda takrorlashga asoslangan stilistik figura
Sikl	Cycle	(yun. Kyklos - aylana, gildirak) - muallif tomonidan bir necha mustaqil asarning janr, mavzu, personajlar, hikoyachi va sh.k. jixatlardan umumiylik asosida bitta guruxga birlashtirilishi, turkum.
Sitata	Quotation	(lot. cito - chaqiraraman, keltiraman) - asarda bировga tegishli asar (matn)dan

olingan so'zma-so'z ko'chirma keltirib. Matn ichida TS.lar, odatda, qo'shtirnoqqa olinadi, epigraf sifatida keltirilganida esa grafik jihatdan (sahifaning o'ng tomonida joylashadi, asosiy matnga qaraganda kichik o'lchamli harflar bilan yoziladi) ajratiladi va ostida manbasi ko'rsatib qo'yiladi.

Test topshiriqlari:

1. Avstraliya adabiyotining 200 yildan ortiq taraqqiyot tarixini necha davrga bo'lish mumkin

A. 2 B. 3 S. 4 D. 5

2. Nechinchi yillar boshlaridan Avstraliya adabiyoti Yevropa va Amerika adabiy oqimlariga e'tiborliroq bo'lib qoldi

A. 1940 B. 1950 S. 1930 D. 1920

3. O'tgan asrning nechinchi yillarida Melburn unversiteti poetik maktabi paydo bo'ldi

A. 60 yillarda

B. 70 yillarda

S. 50 yillarda

D. 80 yillarda

4. G. Richardsonning qaysi romani 20- yillarning eng mashxur asarlaridan edi

A. "Richard Maxauins"

B. "Angri pepuins"

S. "Byulleten"

D "Meonjin popers"

5. Genri Loussonning "Meonjin popers" nechinchi yil yozilgan

A. 1945 yil

B. 1942 yil

S. 1941 yil

D. 1940 yil

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2014 yil № 1.

2. "Zvezda Vostoka" jurnali, 2014 yil, №2. Mir bez granits. Avstraliya yozuvchisi Natalya Krofts bilan suhbat. Suhbatdosh U. Hamdam.

29-mavzu. Okeaniya mamlakatlari adabiyoti.

Reja:

1. Malayziya adabiyoti.

2. Indoneziya adabiyoti.

3. Singapur adabiyoti.

Malayziyaning hind dostonlari ta'siridagi xalq og'zaki ijodi. Islom ta'siridagi adabiyot. "Sultonlar sulolasi" ("Sulalatus salatin", XV asr), "Raj it Pasay tarixi" ("Hikaya Raj it Pasay" o'sha asr), "Hang Tuah tarixi" ("Hikaya Hang Tuah" o'sha davr). Qator qissalar va "Abdulloh qissasi" asari (1849)

muallifi Munshiy Abdulloh (1796-1854) malay adabiyoti asoschisi. XX asrda ro'y bergan ijtimoiy o'zgarishlar va malay adabiyotidagi yangi shakllar. Turli janrlarda (she'riyat, nasr, drama, esse) ter to'kkan Usmon Avang zamonaviy adabiyot asoschisi. "Malayziya milliy adabiyoti", "mintaqaviy adabiyot", "yasama adabiyot" tushunchalarining mazmun mohiyati. Ingliz tilining umumiy adabiy til bo'lib qolishi.

Indoneziya adabiyoti. XIX asr oxiri - XX asr boshida vujudga kelgan indonez xalqi adabiyoti. I.adabiyoti ham boshqa Mingorol mamlakatlari kabi xalq og'zaki ijodining vorisi sifatida. Indoneziyada

i. adabiyotining jahonga yuz tutishida muhim rol o'ynagan indonez tilidan tashqaridagi adabiyotlar: xitoy, golland tillaridagi adabiyotlar. Amir Hamzah. Hayril Anvar, Sitor Situmoranga kabi shoirlar, Marah Rush kabi yozuvchilar ijodi. Marah Ruslining (1889-1968) tarixiy "Sitti Nurbaya" romani (1922).

Singapur adabiyoti. Singapur adabiyoti dunyodagi eng yosh adabiyotlardan biri sifatida. Hozirgi zamon Singapur she'riyatida barakali irod qilayotgan shoirlardan Siril Vong, Eng I-Shen, Elvin Pang ijodi. Elvin Pang tayyorlagan "Timasik" antologiyasi.

Bangladesh adabiyoti. Bangladesh adabiyoti tarixi. Nobel mukofoti sovrindori Rabindranat Tagor hayoti va ijodi. Nazrul Islom hayoti va ijodi. Bangladesh davlatining Tagor va Nazrul Islom she'rlariga bastalangan ikki madhiyasi. Maykl Madhushudon Dotto, Shorot CHandr CHottopadhaya, Bonkim CHondro CHottopadhaya, Mir Mosharraf Xosseyn, Qozi Abdul Vadud, Shamsur Rahmon, Sayyid Shamsul Haq, Al-Mahmud, Aminur Rahmon, Jibananda Das kabi zamonaviy bengal adabiyotining kashshoflari. Jahon musulmon olamida she'ru g'azailari madrasalarda qo'llanma sifatida o'qitiladagan buyuk so'fiy shoir, asli kelib chiqishi samarqandlik bo'lgan Mirzo Abdul Qodir Bedil hayoti va ijodi.

Glossary

Ekspozitsiya

Exposition

(lot. expositio - bayon, tushuntirish) - syujet komponenti personajlarning bevosita tugun yuzaga kelishi vaqtida kechgan xayoti.

Ekspressionizm

Expressionism

(fr. expression - ifodalash) - XX asr boshlarida nemis adabiyotida shakllanib, boshqa milliy adabiyotlarga ham yoyilgan adabiy yo'nalish.

Elegiya	Elegy	(frigiya tilida «elegn» - qamishdan yasalgan nay) - hozirgi ma'nosida ko'proq falsafiy mazmundagi, qayg'uli o'ylarni ifodalovchi she'r; mazmun jihatidan tasniflanuvchi lirik janr.
Epilog	Epilogue	(yun. epilogos - so'ngso'z) - asarda tasvirlangan asosiy voqealardan alohida ajralib turuvchi yakun, xotima.
Epitet	Epithet	(yun. epitheton - ilova etilgan, izohlovchi) - badiiy sifatlash; narsa-hodisaning belgisini obrazli ifodalaydigan badiiy aniqlovchi.
Epos	Epos	(yun. epos - rivoya, hikoya) - 1) badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri. E.ning spetsifik xususiyati voqeabandlik, epik asarda makon va zamonda kechuvchi voqea-hodisalar tasvirlanadi.
Ertak	Fairytale/ tale	xalq og'zaki ijodidagi epik janr, cho'pchak. E. barcha Xalqlar og'zaki ijodida qadimdan shakllangan va faol janrlardan sanaladi. E.lar, asosan, nasrda yaratilib, syujeti asosida sehrli-fantastik, sarguzasht yoki maishiy xarakterdagi voqealar yotadi, voqealar bayoni va talqinda ijodiy fantaziya, to'qima salmoqli o'rin tutadi.
Yumor	Humour	(ingl. humour - kayfiyat, moyillik) - 1) komiklik turlaridan biri. Badiiy asarda kishilar, voqea-hodisalar ustidan yengil, do'stona, beg'araz kulish
Yangi roman	A new novel	XX asrning 50-yillarida maydonga chiqqan bir qator fransuz yozuvchilari (N.Sarrot, A.Rob Griye va b.)ning roman bobidagi eksperimental izlanishlariga xos xususiyatlarni anglatuvchi shartli termin
Qasida	Poem/ triumphal poem praising a person or event	(ar. - maqsad, niyat qilish) - mumtoz lirikadagi janr; biror shaxs (shoh, arbob, qahramon). biror muhim voqea, tabiat va sh.k.larni madh etish, ularning yuksak fazilat va xususiyatlarini e'tirof etish maqsadida yoziladigan she'r.
Qissa	Short story	(ar.-hikoyat, sarguzasht)-1) xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan voqeaband xarakterdagi, qahramon hayoti va

		sarguzashtlarini hikoya qiluvchi rivoyaviy asar. Xalk ijodidagi Q.lar og'zaki ijro qilingan, folklarning boshqa janrlari kabi variantlilik xususiyatiga ega bo'lgan. (ar. - misra oxiridagi so'zlarning bir-biriga mos bo'lishi) - she'riy misralar oxiridagi qo'shimcha, so'z,ba'zan so'z birikmalarining ohangdosh bo'lib kelishi,aniqrog'i,ularning tarkibidagi tovushlar guruhining ohangdoshligi.
Qofiya	Rhyme	
Qo'shiq	Song	xalq og'zaki ijodida shakllangan lirik janr. Q-ning muhim belgisi - ijro uchun mo'ljallanganlik. (ar. - ayollarga xushomad qilish, ayollarni madh etish) -sharq mumtoz she'riyatida eng ko'p tarqalgan lirik janr, 3-4 baytdan 19 baytgacha bo'lgan hajmda yozilib, a-a, b-a, v-a, g-a... tarzida qofiyalanuvchi she'r.
G'azal	Ghazal	
G'oya	Idea	badiiy g'oya, badiiy mazmunning muhim komponenti, asardan kelib chiqadigan obrazli, umumlashma fikr. (ar. - tovushning yozuvdagi shakli, belgi, nishona, qirra) - arab aruzshunosligidagi eng kichik ritmik bo'lak, Harf- ikki turli bo'ladi: mutaharrik (cho'zg'ili) va sokin (cho'zgisiz).
Harf	Letter	- epik to'rning kichik shakli. H. odatda, qahramon hayotidan bitta (ba'zan bir-biriga uzviy bog'liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi.
Hikoya	Story/ short story	

Test topshiriqlari:

1. Indoneziya adabiyoti nechinchi asrlarda vujudga kelgan

- A) XIX asr oxiri Xxasr boshlarida
- B) XX asr oxiri XXI asr boshlarida
- S) XV asr oxiri XX asr boshlarida
- D) XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida

2. Xitoy Galland tillardagi adabiyot shoirlari kimlar

- A) Amir Hamzad
- B) Maykl, SHorot
- S) Eleven, Siril
- D) Elevin, Maykl

3. Hozirgi zamon Singapur adabiyotida barakali ijoda qilayotgan shoir qaysi

- A) Siril Vang, Eng I shen
- B) Marob Kusli
- S) Hayril Anvar
- D) Marob Kusli, Hayril Anvar

4. Bangladesh adabiyoti nobel mukofoti sovrindori kim

- A) Eng I shen
- B) Robindirod Togor
- S) E Levin Panj
- D) Amir Hamzoh

5. Mirzo Abdul QODIR Bedil asli qayerlik bo`lgan

- A) Toshkentlik
- B) Xorazimlik
- S) Samarqandlik
- D) Buxorolik

30-mavzu. O'zbek adabiyoti jahon adabiyotining bir uzvi sifatida

Reja:

1. O'zbek adabiyotining shakllanish tamoyillari

2. O'zbek adiblarning jahon adabiyotiga ta'siri

3. Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti manzaralari

Hozirgi globallashuv davrida jahon adabiyotida kechayotgan jarayonlarga nazar tashlasak, dunyo xalqlari adabiyotida umuminsoniy muammolar, g'oyalari mushtarakligini kuzatishimiz mumkin. Xalqlar adabiyotlari o'rtasidagi tafovutlar yo'qolib bormoqda, badiiyat mo'jizalari dunyo kitobxonining umumiy ma'naviy bisotiga aylanmoqda. Kompyuter asrida hozirgi kun kitobxonni jahon badiiy tafakkuri yaratgan ijod namunalari bilan tanishishning beqiyos imkoniyatlariga ega. Shu sababli ham malum millat adabiyotida shakl bobida qilingan kutilmagan tajribalar, kashfiyotlar jahon kitobsevarlari tomonidan birdek qabul qilinmoqda.

Hozirgi adabiy jarayonning muhim xususiyati ushbu mafkuradan xoli ekanligi, ijodkor istaganicha yozish, istagan yo'lni tanlash huquqiga ega ekanligidadir. Unda XX asr adabiyotidagi xilma-xil tamoyillarning belgilarini ko'rishimiz mumkin, ayni paytda eski adabiyotdan tamomila farqlanuvchi jihatlari ham mavjud. Yuqorida aytib o'tganimizdek bugungi kunda barcha xalqlar adabiyoti orasidagi farqlar tobora kamayib bormoqda. Ayni vaqtgacha ham o'zbek adabiyotining o'zini butun jaxonda yuksak bo'lgan. Negaki mumtoz adabiyot namunalarimiz jaxon adabiyotida o'zining yuksak mavqeyiga egadir. Navoiyning "Xamsa", Firdavsiyning "Shohnoma" asarlari kabi juda ko'plab durdona adabiyotlarimiz jaxon kitobxonlari tomonidan yuksak e'tirof etilgan. Yuqorida o'rgangan Amerika, AQSH, Kanada, Avstraliya adabiyotlari kabi o'zbek adabiyoti ham o'zining bosqichma-bosqich rivojlanish va o'rganish davriga ega. Albatta bu davrlar o'zining nodir asarlariga ham ega. Jaxon adabiyotining ilk namunalari ham ayni turkiy xalqlar tomonidan yaratilgan, shu jumladan o'zbek xalqi ham adabiy saviyasi baland hisoblanadi. Nafaqat o'zbek mumtoz adabiyot namunalari balki XIX-XX asrda o'zbek

adabiyotida yaratilgan asarlar ham dunyo kitobxonlari tomonidan sevib mutolaa qilmadi. Jumladan, Oybekning "Bolalik qissalari" "Navoiy" romani, G'afur Gulomning "Shumbola" "Yodgor" qissalari, Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar", Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani. Bu ro'yxatni uzundan-uzoq davom ettirish mumkin. Zeroki o'zbek adabiyoti namunalari ko'plab asarlar yaratilishiga "turtki" bo'lgan desak adashmaymiz. Yevropada "Garri Potter", "Pinokkio" asarlaridan oldinroq o'zbek adabiyotida "Shum bola", "Shirin qovunlar mamlakati" kabi asarlar yaratilgan va dunyo tillariga tarjima qilingandi. O'zbek adabiyotining bazi bir janr xususiyatlari boshqa xalqlar adabiy jarayonlarida kuzatilmaydi. Adabiyotning asosiy vazifasi inson ongiga ta'sir o'tkazish, uning hayotini ijobiy tomonga o'zgartirish va jamiyatdagi salbiy illatlarga qarshi kurashishdir. O'zbek adabiyotidagi modern adabiyot vakillari bo'lgan Rauf Parfi, Nazar Eshonqul kabi bir qancha yozuvchi, shoirlarning ijod namunalari dunyo kitobxonlari orasida ko'plab fikrlarga sabab bo'lib kelmoqda. Nazar Eshonqul hikoyalaridagi yashirin ichki ma'no, ruhiy holat insonni be'ixtiyor o'ziga soladi. Alber Kamyuning "Begona", Ernest Xemingvayning "Chol va dengiz" asarlari bilan Nazar Eshonqul hikoyalarida ruhiy jihatdan o'xshashliklar ko'p. Shu bilan birga she'riyat sohasida Rauf Parfi ijodi Lorika she'riyatiga yaqindir. Shu o'rinda shuni aytish mumkinki o'zbek adabiyoti ham jaxon adabiyotining bir uzvi sifatida o'rganiladi va bunga yetarlicha sabablar bor. O'zbek adabiyoti butun jaxon xalqlari adabiyotlari orasida o'zining qadimiyligi va takrorlanmasligi bilan ajralib turadi.

Glossary

Sabab

Reason

(ar.-chodirning arqoni) - sokin va mo'taxarrich xarflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo'luvchi ritm,- birlik, juzv (k..).

Satira

Satire

(lot. satura - aralash. qurama) - 1) komiklikning asosiy turlaridan biri.

Sentimentalizm

Sentimentalism

(fr. sentiment - his) - XVIII asrning ikkinchi yarmida yevropa milliy adabiyotlarida vujudga kelgan oqim.

Sentimentallik

Sentimentality

(ruschadan kalka: «sentimentalnost») - muallif emotsionalligi ko'rinishlaridan biri

Qo'shiq

Song

xalq og'zaki ijodida shakllangan lirik janr. Q-ning muhim belgisi - ijro uchun mo'ljallanganlik.

G'azal

Ghazal

(ar. - ayollarga xushomad qilish, ayollarni madh etish) -sharq mumtoz she'riyatida eng ko'p tarqalgan lirik janr, 3-4 baytdan 19 baytgacha bo'lgan hajmda yozilib, a-a, b-a, v-a, g-a... tarzida qofiyalanuvchi she'r.

G'oya

Idea

badiiy g'oya, badiiy mazmunning muhim komponenti, asardan kelib chiqadigan obrazli, umumlashma fikr.

Harf

Letter

(ar. - tovushning yozuvdagi shakli, belgi, nishona, qirra) - arab aruzshunosligidagi eng kichik ritmik bo'lak, Harf- ikki turla bo'ladi: mutaharrik (cho'zg'ili) va sokin (cho'zgisiz).

Adabiyotlar

1. "Jahon adabiyoti" jurnali.
2. www.wikipedia.org

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish

1. TALABALAR SEMINAR MASHG'ULOTLARIINI TASHKIL QILISH MAQSAD VA VAZIFALARI

Talabalar Seminar mashg'ulotlariining asosiy maqsadi – talabada o'quv ishlarini mustaqil bajarishda kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni tashkil topishi va rivojlanishi.

Talabalar Seminar mashg'ulotlariining vazifalari:

- Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish uchun yangi ma'lumot axtarish, kerakli chora tadbirlarni aniqlash.

Informatsion manbalardan Seminar mashg'ulotlarini bajarish jarayonida foydalanish.

- Me'yoriy hujjatlar, ilmiy-metodik materiallar, o'quv adabiyotlar bilan ishlash.

- Elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bilan ishlash.

- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish, berilgan savollar yechimini to'g'ri aniqlash.

- Ish rejalarini ekspertizaga tayyorlash, ekspert xulosasiga ko'ra ularni qayta ishlash, ishni tizimli va ijodiy bajarilishiga tayyorlash.

- Ishlab chiqilgan yechimni, g'oya yoki loyihani izohlash va himoya qilish.

Talabalar Seminar mashg'ulotlari uchun belgilangan vaqt byudjetiga binoan kafedralarda barcha predmetlardan tashkiliy formalar, Amaliy mashg'ulot variantlari va mustaqil bajarish topshiriqlari ishlab chiqiladi, ular fakultetning ilmiy – metodik kengashida hamda kafedra yig'ilishlarida tasdiqlanadi.

Talabalar Seminar mashg'ulotlari pedagogik ta'minlanishni mavzulari va shakllari ro'yxatini tuzish uchun har birini maqsad va vazifalarini ifodalab berish, yo'riqnoma yoki metodik yo'llanmalar ishlab chiqish va ilmiy adabiyotlarni tanlash deganidir.

2. TALABALARNING SEMINAR MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Talabaning Seminar mashg'ulotlari uning auditoriyada va undan tashqarida, o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladigan Amaliy mashg'ulot majmuini anglatadi. Amaliy mashg'ulot qanday sharoitlarda amalga oshiriladi:

1. Bevosita auditoriyada - ma'ruza amaliy mashg'ulot, seminar yoki laboratoriya ishlari bo'yicha vazifalar berish jarayonida;

2. O'qituvchi bilan dars jadvalidan tashqari paytlardagi bevosita muloqot chog'ida maslahatlar berishda, ijodiy muloqotlar jarayonida, yakka topshiriq bajarishda va boshqalar.

3. Axborot resurs markazida, uyda, talabalar uylarida, kafedralarda talaba tomonidan o'quv yoki ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida.

Amaliy mashg'ulot bo'yicha test savollari, topshiriqlar va mashqlar ustida ishlash asosan mustaqil bajariladi. Bu ish natijalari esa auditoriyada (amaliy va laboratoriya) mashg'ulotlarida o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va baholanadi.

Jahon adabiyoti fanidan Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish uchun avvalambor quyidagi Amaliy mashg'ulot bajarish turlari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.

Mashqlar bajarish - Seminar mashg'ulotlarining asosiy ko'rinishlaridan biri mashqlar bajarishdir. Mashqlar dastur asosida tuzilishi, juda oson yoki haddan tashqari qiyin bo'lmasligi lozim.

Mashqlar - ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida muayyan xatti-xarakatlarni ko'p marta takrorlashdir. Ishlab chiqarish ta'limidagi mashqlarga asosan quyidagi talablar qo'yiladi: mashqlarni o'quvchilarning ongli va maqsadga muvofiq yo'sinda bajarishlari; ishlab chiqarish metodikasiga asoslanishi, tizimli, izchil, uzluksiz bo'lishi va takrorlanishi; o'quvchilarning Amaliy mashg'ulotlashi muntazam rivojlanib borishi kerak.

O'quv adabiyotlari bilan ishlash - Kitoblar va o'quv adabiyotlari bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish Seminar mashg'ulotlari olishning asosiy ko'rinishi hisoblanadi. O'quv adabiyotlari bilan ishlashni barcha ta'lim oluvchilar yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari lozim. O'quv adabiyotlari deganda, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, texnik adabiyotlar, ma'lumotlar, yo'riqnomalar va x.k. tushunish mumkin.

Nazorat ishlariga tayyorlanish - Nazorat ishlariga tayyorlanish jarayoni ham Seminar mashg'ulotlarining asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim olish davrida imtixonlar va nazorat ishlari topshirish talabalardan katta javobgarlik talab qiladi. Imtixonlarda va nazorat ishlarida talabalar o'quv rejasini qanday darajada o'zlashtirganliklari haqida hisobot beradilar. Talabalarning nazoratlarga o'z hohishi asosida mukammal tayyorlanishi a'lo baho olishining garovidir. Talaba har bir darsga o'z vaqtida va yaxshi tayyorlansa ham u nazorat ishlaridan oldin baribir qayta tayyorlanishi kerak, ya'ni materialni qayta o'qishi, umumlashtirishi va tizimlashtirishi lozim.

Seminar mashg'ulotlarini va talabalar bilimni tekshirish - Talabalarning bilimni tekshirish ya'ni aniqlash, yangi materialni mustahkamlash vaqtida, o'tilgan o'quv materiallarini o'zlashtirish, mehnat usullarini egallash va mustaqil mehnat topshiriqlarini, grafik ishlarini va uy topshiriqlarini bajarishlari jarayonida talabalarning bilimlari tekshiriladi va unga ball qo'yiladi.

Ma'ruza tayyorlash - Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida ta'lim berishning turli shakl va metodlaridan foydalanilmoqda. Ta'limning asosiy shakli esa ma'ruza hisoblanadi. Ma'ruza tayyorlash ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ish. Bo'lajak filolog bakalavr talabalar «Jahon adabiyoti» fanida, malakaviy amaliyot jarayonida ma'ruza tayyorlashlariga to'g'ri keladi.

Masofali ta'lim texnologiyasi - Masofaviy ta'lim tizimi an'anaviy ta'lim tizimini amalga oshirishda muammolarga duch kelingan yoki shart - sharoit ushbu jarayonni taqozo qilganda qo'llaniladi. Bu jarayon ma'lum muhitda ta'lim samaradorligini oshirishga zamonaviy texnologiyalardan etarlicha foydalanishga zamin yaratadi.

Masofaviy ta'limning asosini Seminar mashg'ulotlari tashkil qilganligi uchun ham talabalarda ijodiy tafakkur rivojlanib boradi. Masofaviy ta'limda o'quv jarayonining muddati qat'iy belgilanmaydi. Nazorat ishlarini bajarish va javob

yo'llashni talaba o'zi mustaqil, o'ziga qulay vaqtda bajaradi. Ushbu masofaviy ta'lim samaradorligini oishirishga xizmat qiladi. Masofaviy ta'limni tashkiliy – metodik modellarini quyidagi asosda tashviq qilish mumkin: Korrespondentlik ta'limi, Keys texnologiyasi, Radio – televizion ta'lim, Tarmoqli o'qitish, Mobil texnologiyasi va h.

Stend tayyorlash-stend tayyorlash uchun bir guruh o'quvchilar tomonidan reja bo'yicha mavzu tanlanib, talab qilingan ko'rgazmasi texnologik tasviri yoki uskunaning tasviri chiziladi va har bir tasvir bo'yicha tushuntirish yozuvlari mutaxassislik bo'yicha adabiyotlardan foydalangan xolda yoziladi. Elektrlashtirilgan stend. Buni tayyorlash uchun bir guruh o'quvchilar tomonidan reja bo'yicha mavzu tanlanib, talab qilingan kurgazmasi-texnologik tasvir yoki uskunani tasviri chiziladi, so'ng tasvirdagi uskunalar yoki uskunaning qisimlari elektrolashtiriladi va xar bir tavar bo'yyicha tushuntirish yozuvlari mutaxassislik fanlaridagi adabiyotlaridan qayta foydalanib mavzu yoritiladi.

Uy vazifalarini bajarish daftarlari-ayrim o'quvchilar uy vazifalarini bajarishda fan kitoblaridan maxsus fanlarga taaluqli jurnal va gazitalardan, informatsion texnologiyalardan foydalanib uy vazifasini bayon shaklida ma'ruza matn shaklida sxema shaklida bajarishi mumkin. Vazifalarni bajarishda qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib ma'lumotlar to'playdi, chizmalar chizadi. Bu esa Amaliy mashg'ulot sifatida qabul qilinishi mumkin.

3. Jahon adabiyoti fanidan Seminar mashg'ulotlari olish soatlari va ballar taqsimoti.




«Jahon adabiyoti» fani 1 va 2- kurs I- II- III- IV semestrlarda o'qitiladi.

1-seminar mashg'uloti: "Jahon adabiyoti" fanining predmeti va mazmuni

Seminar o'qish texnologiyasi

O'quv vaqti: 2 soat.	Talabalar soni: 83kishi.
O'quv mashg'uloti shakli	seminar
<i>Ma'ruza rejasi o'quv mashg'uloti shakli.</i>	1. "Jahon adabiyoti" fanining maqsadi. 2. "Jahon adabiyoti" fanining vazifasi. 3. Fanning predmeti va obykti. 4. Jahon adabiyotining davrlashtirish masalasi. 5. Jahon adabiyotiga yondashuv.
Darsning maqsadi:	Fanning maqsad va vazifalarini o'rgatish. Jahon adabiyotining antik davri: Shumer, Misr, Hind, Xitoy, Yunon, Rim va Turkiy tillar adabiyoti,. Ularning o'zaro mushtarak va farqli jihatlarini o'rgatish. Jahon adabiyoti manbalariga tipologik, genetik, tarixiy-madaniy yondashuv.
Pedagogik maqsadlar::	<i>O'quv jarayoni natijalari:</i>

<ul style="list-style-type: none"> • «Jahon adabiyotning dunyo adabiyoti taraqqiyotidagi roli va ahamiyati bilan tanishtirish; • « Jahon adabiyotining Attika davri haqida ma'lumot berish; • « Jahon dramaturgiyasining janr xususiyatlari haqida ma'lumot; • « Jahon adabiyoti namoyandalari haqida ma'lumot berish. 	<ul style="list-style-type: none"> • « Jahon adabiyoti antik davri haqida umumiy ma'lumotlar beradi; • « Bu davr adabiy muhitti haqida batafsil ma'lumot taqdim qiladi; • « Jahon adabiyotining antik davri taraqqiyoti asosiy bosqichlarini sanab o'tadi; • « Antik davr adabiyoti badiiyati haqida umumiy ma'lumotlar beradi; • « Antik davr adabiyotining to'la taqlilini amalga oshiradi.
Ta'lim metodlari	Ma'ruza, klaster
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matnlari, daftar, qog'oz, kompyuter texnologiyasi, markerlar.
Ta'lim shakli	Frontal, jamoa vazifasi, guruhlararo vazifa
Ta'lim sharoitlari	Texnik ta'lim vositalari bilan jihozlangan hamda sxemalar ko'rsatishga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Testlar, nazorat savollari.



- Bilaman Bilishni xohlayman Bildim. Mavzu, mata va uning qismini topish imkoniyatini beradi. Rivojlantiradi va tahlil qilishga yordam beradi...

Jadval qurilishi qoidalari bilan tanishtiradi. Mustaqil yoki qisman

"Mavzu bo'yicha siz nima bilasiz" va "nimani bilishni xohlaysiz" kabi savollarga javob beriladi (keyingi ishlar uchun qo'shimcha jadvallar tuziladi). Jadvalning 1 va 2 qismi

Ma'ruzani mustaqil eshitadilar, o'rganadilar.



Ma'ruzani mustaqil eshitadilar, o'rganadilar.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim

2- mashg'ulot: Mif va badiiy ijod
Seminar o'qish texnologiyasi

O'quv vaqti: 2 soat.	Talabalar soni: 26 kishi.
O'quv mashg'uloti shakli	seminar
Ma'ruza rejasi o'quv mashg'uloti shakli.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mif va uning paydo bo'lishi. 2. Qadimgi xalqlar miflari va ularning o'ziga xosligi. 3. "Bilgamish" dostonining 11 bitigi. 4. Qadimgi yunon miflari.

	5. Mifologik maktab.
Darsning maqsadi:	Mif va jahon adabiyotini tushuntirish. Mifning jahon adabiyoti tadrijidagi o'rnini o'rgatish. Mifologiya va mif poetikasi jahon adabiyotini o'rganishda adabiy- nazariy, falsafiy-estetik asos sifatida. Mifologik maktab: tarixi, vakil lari. Aka-uka Grimmlarning "Nemis mifologiyasi" asari. Myuller asarlarida mifologik talqin.
Pedagogik maqsadlar:	<i>O'quv jarayoni natijalari:</i>
